

Z.XOLMANOVA, T.YUSUPOVA

# O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT**  
**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**AFG‘ONISTON FUQAROLARINI O‘QITISH TA‘LIM MARKAZI**

**Z.XOLMANOVA, T.YUSUPOVA**

## **O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODIKASI**

(Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazi tinglovchilari uchun  
o‘quv qo‘llanma)

**SIROJIDDINOV**  
**SHUHRAT SAMARIDDIN O‘GLI**  
**SHAXSIY KUTUBXONASI**



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**ToshDO‘TAU**  
**AXBOROT-RESURS MARKAZI**

5902

**“NAVOIY UNIVERSITETI” nashriyot-matbaa uyi**

**Toshkent – 2019**

KBK 81.20‘zb-9

X 72

UO‘K: 37.016:811.512.133.(075)

ISBN 978-9943-5635-7-5

**Xolmanova, Z.**

**O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi** [Mant]: Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazi tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanma / Z.Xolmanova, T.Yusupova. – Toshkent: “**Navoiy universiteti**” nasriyot-matbaa uyi, 2019. – 298 b.

O‘quv qo‘llanma o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi sohasida yuz bergan yangiliklar va o‘zgarishlarni, til o‘qitish borasidagi xorij tajribasini inobatga olgan holda tayyorlangan. O‘quv qo‘llanmada o‘zbek tiliga doir ilmiy-nazariy ma‘lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari keltirilgan. O‘zbek tili ta‘limining umummetodologik va nazariy asoslari yoritilgan. Interfaol usullar, ilg‘or xorijiy tajribalar asosidagi metodlar, innovatsion texnologiyalar, integrativ yondashuv namunalari keltirilgan.

Qo‘llanma matni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining “Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek tilidagi o‘quv adabiyotlarini yaratish to‘g‘risida”gi 2004-yil 23-yanvar 20-sonli buyrug‘iga asosan tayyorlandi.

O‘quv qo‘llanma Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazi hamda oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

**Mas‘ul muharrir: Abdushukurov B.** – filologiya fanlari doktori

**Taqrizchilar: Yusupova Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Mengliyev B.** – filologiya fanlari doktori, professor

O‘quv qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kengashining 2018-yil 28-dekabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (5-raqamli bayonnoma).

© Xolmanova Z., Yusupova T.

© “NAVOIY UNIVERSITETI” nasriyot-matbaa uyi, 2019

## Kirish

Dunyoda 7000 ga yaqin til mavjud. Bu tillar genetik, morfologik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Har bir til oilasining boshqa til oilalaridan ajratib turuvchi xususiyatlari mavjud. O'zbek tili mansub bo'lgan turkiy tillar oilasi uchun xos bo'lgan singarmonizm, so'z boshida undoshlarning ketma-ket kela olmasligi, bir bo'g'inda undoshlarning qator kelmasligi, gap bo'laklarining joylashish tartibi kabi xususiyatlar bu tillarni boshqa til oilalaridan farqlab turadi. Muayyan tilga xos xususiyatlar shu til oilasining grammatik qurilishi, tizimini tashkil etadi. Til oilasining o'ziga xos xususiyatlari muayyan davr nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tilga xos fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfem-morfologik xususiyatlar o'zgaruvchan bo'lib, turli tillardagi o'xshash jihatlar genetik asos til belgilari bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda tashqi omillar ham nazarda tutiladi.

Ba'zi adabiyotlarda turkiy xalqlar miqdori 42ta deb ko'rsatiladi: o'zbeklar, turklar, bolqon turklari, gagauz turklari, Karay turklari, Qrim turklari, chulim turklari, Kumandi turklari, Kandak turklari, karagas turklari, Uranxay turklari, Iroq turklari, Suriya turklari, Kipr turklari, Stavropol turklari, Saxa (yoqut) turklari, oltoy turklari, tuva turklari, Dog'iston turklari, mesxeti turklari, Yevropadagi turklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar, sariq uyg'urlar va salarlar, tatarlar, chuvashlar, boshqirdlar, qrimlar, ozarbayjonlar, qumiqlar, qorachoylar, balqarlar, no'g'aylar, xakaslar, Tobol tatarlari, barabalar, shorlar, kashgaylar, Hamza turkmanlari tillari.<sup>1</sup>

Turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar Afg'oniston, Eron, Yugoslaviya, Albaniya, Gretsiya (Yunoniston) va boshqa mamlakatlarda ham yashaydi.

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining (poytaxti – Toshkent) davlat tili bo'lib, bu tilda 21 milliondan ortiq kishi (O'zbekiston, Afg'oniston, Pokiston, Tojikiston) so'zlashadi.

Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida so'zlashuvchi xalqlarning ma'lum qismi Afg'onistonda yashaydi. Afg'oniston hududi, aholisi, tili haqida mumtoz manbalarimizda muhim ma'lumotlar qayd etilgan. Xususan, "Boburnoma" asaridagi asosiy voqelikning muayyan qismi Afg'oniston hududi bilan bog'liq. Bobur Afg'onistonning iqlimi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholisining yashash tarzi, hayvonot olami, o'simlik dunyosi haqida ma'lumot beradi. Kobul viloyati ta'rifida xalqning o'zaro muomala tili haqida so'z yuritadi: *O'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul*

<sup>1</sup> Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi.-T., 2015. -B.3



*viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo'g'uliy, hindiy, afg'oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg'oniy.*<sup>2</sup> Ushbu ma'lumot Afg'oniston aholisining bir necha ko'rinishdagi muloqot tili haqida tasavvur beradi.

Afg'on muhiti, manzaralarini tasvirlar ekan, Bobur "afg'oncha". "afg'onlarga monand" ma'nosidagi *afg'onshol* so'zini qabila, elni sifatlash uchun ishlatgan. Bobur bu so'zning ma'nosini quyidagicha izohlagan: *Afg'onshol eldur. Kobulda bu lafz shoyi'dur. G'olibo afg'on shiordurkim, "afg'onshol" derlar (195).*

Afg'oniston hududidagi o'zbeklar tilida XX asr boshlaridagi o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari saqlanib qolgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-noyabrdagi 911-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida "Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi" tashkil etildi. Markaz 2018- yil 22-yanvardan ish boshladi. Markazning umumiy maydoni 6,69 gektarni tashkil etib, o'quv binosi 750 o'ringa mo'ljallangan. 180 o'rinlik faollar zali, 60 o'rinlik ARM, 130 o'rinlik oshxona, sport zali, futbol, voleybol, basketbol, tennis maydonlari, fizika, ximiya laboratoriyalari, lingafon, videokonferensiya xonalari, 100 o'rinlik talabalar turar joyi mavjud.

Markazda jami 131 nafar talaba bo'lib (2018-yil holatiga ko'ra), shundan 96 nafari o'zbek tili va adabiyoti, 35 nafari temir yo'l bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqda.

Markaz talabalari Respublika ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida, ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etib keladi.

Ushbu qo'llanma afg'onistonlik talabalarga o'zbek tilini o'qitishning muhim jihatlari, o'zbek tili ta'lim tizimi, an'anaviy va zamonaviy metodikasi, innovatsion metodlar hamda texnologiyalar haqida ma'lumot beradi.

O'quv qo'llanma o'zbek tilini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan o'quv adabiyotlari, zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar asosida yaratildi.

<sup>2</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. "Бобурнома". –Т.: "Шарк" ИМАК, 2002.-Б.189

## TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

### *Tayanch tushunchalar:*

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni, "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun, o'zbek tili ta'limi konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4947-sonli farmoni, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'zbek tilini o'qitish sohasi, o'zbek tilini o'qitish metodikasi, o'zbek tili.*

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zbek tilini o'qitishda huquqiy-me'yoriy asos ekanligi.**

"Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan o'zbek tilining huquqiy maqomini tiklash va ta'minlash, o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, qadimiy lug'at boyligini asrash, shu bilan bir qatorda, milliy tilni muttasil boyitib borish, mavqeyini yuksaltirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qator qonun va qarorlar bu boradagi islohotlar yo'rig'i va ravnaqini belgilab berdi. Respublika Prezidenti tomonidan o'zbek tilining millat ruhiyati va qalbi oynasi sifatidagi mohiyati, uning boyligi, o'zbek xalq ijodi va yozma adabiyotida tarannum etilgan hayotbaxsh g'oyalarning ma'naviy-madaniy taraqqiyotimizdagi o'rni haqida bildirilgan fikrlar o'zbek tili va adabiyotini har tomonlama chuqur o'rganish va bu soha bo'yicha yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning ustuvor ilmiy-nazariy konsepsiyasini tashkil etdi"<sup>3</sup>. Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylkning vorislari sifatida o'zbek tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni o'zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e'tiborimizdan chetda qolmasligi zarur. Bu borada 1989-yili mamlakatimizda "Davlat tili to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani va ushbu huquqiy norma Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilganini alohida ta'kidlash lozim.

Konstitutsiyaning 4-moddasida shunday deyiladi:

"O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

<sup>3</sup>[http://navoiy-uni.uz/uz-/content/o'zbek\\_tili\\_va\\_adabiyoti\\_bovicha\\_malakali\\_mutaxassislar\\_tayyorlashning\\_vanigicha\\_tamovillari](http://navoiy-uni.uz/uz-/content/o'zbek_tili_va_adabiyoti_bovicha_malakali_mutaxassislar_tayyorlashning_vanigicha_tamovillari)

O'zbekistonda milliy tillarni rivojlantirish uchun keng sharoit yaratilgani, bugungi kunda respublikada ta'lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari yetti tilda faoliyat olib borayotgani jumiyatimiz hayotida millatlararo ahillik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekistonda mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada chuhur integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitishning kompleks tizimi yaratilib, amalda keng joriy etilmoqda.

Konstitutsiya ham o'zbek tilini o'qitishda huquqiy-me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyada bilim olish huquqi belgilab berilgan:

41-modda. "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir".

Bilim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan hisoblanib, ushbu huquqning aniq va to'liq amalda bajarilishiga 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari huquqiy kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyadagi bilim olish huquqining muhim qoidalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvar 4-sonli "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlar bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, 1998-yil 5-yanvar 5-sonli "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun DTSlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"i Qarori alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab, litsey, kollej o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari uchun yozilgan darslik hamda qo'llanmalarni takomillashtirishga, ularda yozma va og'zaki nutq kompetensiyalarini shakllantirishga zarurat kun sayin ortib bormoqda.

**O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan bo'lib, 1997-yil 29-avgustda mazkur qonunga o'zgartirishlar kiritilgan. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga kadrlar tayyorlash tizimining demokratik

o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga javob bera olishiga erishish, o'quv jarayonining moddiy-texnika, axborot bazasini mustahkamlash, yuqori malakali pedagog-kadrlarni tayyorlash, sifatli o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyot, didaktik materiallarni yaratish, ta'lim tizimi, fan, ishlab chiqarish o'rtasida mustahkam o'zaro hamkorlik va foydali integratsiyani qaror toptirish zaruriyatiga ko'ra o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan bo'lib, unda ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari (DTS) doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimni bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish o'z ifodasini topgan.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim bosqichlarida o'zbek tilining o'qitilishi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan ana shu prinsiplarga tayanadi. Modomiki, ta'lim bosqichlarida o'zbek tili eng asosiy va yetakchi o'quv fanlaridan biri ekan, oliy ta'limning bakalavriat tizimida "O'zbek tili o'qitish metodikasi" ham xuddi shunday mavqega ega.

Respublika miqyosida davlat tilini to'laqonli qo'llash, davlat tilida malakali ish yuritish butun xo'jalik tizimini jonlantirishga, hukm surayotgan siyosiy barqarorlikni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shuning barobarida o'zbek tilini xorijda istiqomat qilayotgan o'zbeklarga,

boshqa millat vakillariga o'rgatish masalalari ham tizimli ravishda yo'lga qo'yildi. Jumladan, afg'onistonlik o'zbeklarga milliy tilini o'rgatish ham qonuniy-me'yoriy asoslariga ega.

### **"Davlat tili to'g'risida"gi qonun.**

Bugungi kunda o'zbek tilida ravon, savodli, mantiqan izchil so'zlay olishgina emas, ish qog'ozlarini savodli yurita bilish ham zamon talabidir. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "o'z fikrini mutlaqo mustaqil, o'zbek tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni ... bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin".

Davlat tilini o'rganish, unga amal qilish tabiiy ehtiyoj va zaruratga, hatto anglangan majburiyatga aylanib bormoqda. O'zbek tilida to'g'ri, ifodali so'zlash va yozish, o'zbek tilining sofligi, boyligiga befarq bo'lmaslik, uning iste'mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz, har bir millat vakilining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh avlod vakili o'zbek tilidagi so'z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o'rinni foydalanishga doimo harakat qilishi lozim. So'z fikr quolidir, kishi qanchalik ko'p so'z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo'ladi. Davr taqozosi bilan "Davlat tili haqida"gi qonunga ham ayrim o'zgartirishlar kiritildi va 1995-yilning 21-dekabrda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni e'loni qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida yozilganidek, "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" deb ta'kidlangan.

### **O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni**

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

**2-modda.** O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika huquqida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**3-modda.** O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.



**4-modda.** O'zbekiston Respublikasida Davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

**5-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya, o'quvchilar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

**6-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

**7-modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tibor qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

**8-modda.** O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

**9-modda.** Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

**10-modda.** Korxonalar, muassasalalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini

bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda, boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

**11-modda.** Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

**12-modda.** O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

**13-modda.** Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

**14-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

**15-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'iy nazar, o'z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

**16-modda.** Televidenie va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

**17-modda.** Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

**18-modda.** Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra – boshqa tilda amalga oshiriladi.

**19-modda.** Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

**20-modda.** Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin.

**21-modda.** Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

**22-modda.** Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

**23-modda.** O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

**24-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

**“Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi qonun.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990-yildagi “Davlat tili to'g'risida”gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi to'g'risida”gi qarori, 1993-yildagi “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi qonun, 1995-yildagi “Davlat tili haqida”gi qonunning yangi tahriri, 1996-yildagi “Davlat tili haqida”gi qonunni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasining qarori va shu kabi boshqa hujjatlar o'zbek tili mavqeyini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-sohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiyasi tizimiga kirishini jadallashtiruvchi quliy sharoit yaratishga xizmat qiladi.

**O'zbek maktablarida o'zbek tili ta'limi konsepsiyasi.**

O'zbek tili ta'limi konsepsiyasi “O'zbekiston O'rta umumiy ta'lim maktabi konsepsiyasi” hamda “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda ko'zda tutilgan asosiy mezon va talablarga tayangan holda o'zbek tili ta'limining mazmunini va metodlarini, shuningdek, yaxlit ta'lim tizimini yangilashni taqozo qiladi.

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishda milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor tuyg'usini rivojlantirishda o'zbek tili darslarining ahamiyati beqiyos bo'lmog'i lozim. Zeroki, yangi ijtimoiy munosabatlar, O'zbekiston Respublikasining siyosiy mustaqilligi, respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, ta'limning umuminsoniy, dunyoviy va milliy mohiyati, bozor iqtisodiy munosabatlarining yangi davr kishilariga qo'yadigan talablari umumiy uzluksiz ta'lim jarayonida o'zbek tilini o'rganish oldiga tamoman yangi talablarni, yangi maqsad va vazifalarni qo'yadi.

Konsepsiyaning bosh maqsadi O'zbekistondagi maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida o'zbek tili ta'limining maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari, asosiy bosqich hamda prinsiplarini belgilab berishdan iborat.

Konsepsiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "PF-4947-sonli farmoni mazmun-mohiyati va uning o'zbek tili ta'limi oldiga qo'ygan vazifalari xususida**

Farmonda "Hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish maqsadi" ko'zda tutilgan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori S.Sirojiddinov ta'kidlaganidek: "Bizning pirovard maqsadimiz zamirida yangicha fikrlaydigan, o'zligini teran his etadigan, o'zbek tili va adabiyotining qadr-qimmatini chuqur anglaydigan, hozirgi zamon jahon filologiyasining eng ilg'or nazariy konsepsiyalarini puxta o'zlashtirgan, keng qamrovdagi bilimga ega bo'lgan, xorijiy tillarni puxta egallagan, dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan zukko ajdodlarimizning munosib davomchilari bo'lgan har taraflama yetuk ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni, yuksak mahoratli tarjimonlarni tarbiyalash g'oyasi turadi. O'zbek tili va adabiyotini mukammal biladigan, ingliz va sharq tillaridan birini egallagan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan erkin foydalana oladigan, har tomonlama keng bilimlarga ega zamonaviy fikrlovchi filolog mutaxassislariga iqtisodiyotimiz va ijtimoiy sohalarining barcha bo'g'inlarida talab katta bo'lishi, shubhasiz. Bitiruvchilarning

mamlakatimizda va xorijda o'zbek tilida ish yuritishni yanada rivojlantirish, ta'lim-tarbiya dargohlari, o'quv muassasalari, tahririyat, nashriyot, radio-televideniye, ma'naviyat-ma'rifat markazlari va boshqa sohalarida ishlashlari ko'zda tutilgan. Universitetimizda tahsil oladigan yoshlar xalqimizning yurak-yuragidan joy olgan, necha asrlardan buyon yushab kelayotgan o'zbek tili va adabiyotining dunyo miqyosidagi obro'-o'tibori va nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qilishiga ishonamiz".

### **2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.**

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda, yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlansin:

**1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda** parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish.

**2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash.**

**3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning**



raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish.

4. **Ijtimoiy sohani rivojlantirishga** yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

5. **Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga** yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnicilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Harakatlar strategiyasini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatining birlamchi vazifasi va bosh ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun mashq va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.**

1-savol: *O'zbek tili o'qitishning me'yoriy-huquqiy asoslari tarkibi qanday?*

2-savol: *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida aytilgan fikrning mohiyatini yoriting.*

3-savol: *Afg'onistonda olib borilayotgan til siyosati haqida ma'lumot bering.*

4-savol: *O'zbek tili ta'limining konsepsiyasi haqida so'zlang.*

5-savol: *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4947-sonli farmoni mohiyati nimalardan iborat?*

1-topshiriq: *"Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun mohiyati haqida fikringizni ayting. Nutq tovushlarining yozuvdagi ifodasi haqida mulohazalaringizni bayon*

eting. Quyidagi she'rdagi ifodalangan tovush takrorining badiiy xususiyatlarini yoriting:

قرا قاشينك قلم قاشينك  
 قيق قيريلمه قاشينك  
 قيلور قئلمه قصد قيرهب  
 قبايج قاقايلب قوشين قيينهب،  
 قنهب قهقماقته قويميسن،  
 قرهب قؤيكيل قيبه،  
 قليبمني قيزديرسين قوياشينك، قيز  
 ايركين واحدوف<sup>1</sup>

2-topshiriq: O'zbek yozuvi tarixi haqida ma'lumot bering. Arab alifbosida yaratilgan madaniy meros borasida mulohazalaringizni bayon eting. Arab yozuvining ahamiyatini, afg'onistonlik o'zbeklar tilini ifodalashdagi o'rnini ko'rsating.

Harfning nomi	Harfning hozirgi ko'rinishi	Harflarning yozilishi			
		So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Yolg'iz holda
Alif	O, a	ا	ا	ا	ا
Be	B	ب	ب	ب	ب
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Te	T	ت	ت	ت	ت
Se	S	ث	ث	ث	ث
Jim	J	ج	ج	ج	ج
Chim	Ch	چ	چ	چ	چ
Ho-ye hutti	H	ح	ح	ح	ح
Xe	X	خ	خ	خ	خ
Dol	D	د	د	د	د
Zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ
Re	R	ر	ر	ر	ر
Ze	Z	ز	ز	ز	ز
Жe	ж	ژ	ژ	ژ	ژ
Sin	S	س	س	س	س
Shin	Sh	ش	ش	ش	ش
Sod	S	ص	ص	ص	ص
Zod	Z	ض	ض	ض	ض
To	T	ط	ط	ط	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ

<sup>1</sup> O'zbekiston shairi A. N. Nizomiy. "O'zbekiston shairi A. N. Nizomiy". Toshkent: "Farg'ona" nashriyoti, 2017-yil, 92-hajmi.

'ayn	-	ع	ء	آ	آ
G'ayn	G'	غ	ذ	ظ	ظ
Fe	F	ف	ف	ف	ف
Qof	Q	ق	ق	ق	ق
Kof	K	ك	ك	ك	ك
Gof	G	گ	گ	گ	گ
Lom	L	ل	ل	ل	ل
Mim	M	م	م	م	م
Nun	N	ن	ن	ن	ن
Vov	V	و	و	و	و
Ho-ye havvaz	H	ه	ه	ه	ه
Yo	Y,IE	ی	ی	ی	ی

**3-topshiriq: Afg'oniston o'zbeklari nutqidagi maqol mazmunini izohlang.**

ات اسره گن يولده قالمس،

ایل اسره گن چولده<sup>5</sup> (Ot asragan yo'lda qolmas, el asragan cho'lda)

**II. Quyidagi hujjatlardan olingan namunalar asosida ilmiy va publisistik maqolalar tayyorlang.**

1-amaliy ish: publisistik uslubda maqola tayyorlang.

2-amaliy ish: ilmiy uslubda maqola loyihasini tayyorlang.

3-amaliy ish: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi moddasini sharhlang.

4-modda: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi".

4-amaliy ish: آت تی کوچی اذینغیده (آذوقه)، اسره ماغی قاذغیده

(Ot kuchi ozig'ida (ozuqa), asramog'i qozig'ida) maqolining badiiy xususiyatlarini yoritng.

**I. Test savollarini yeching.**

**1. 1997-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qaysi Qonun tahrir qilindi?**

A. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun

B. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun

D. "Ta'lim tizimini isloh qilish haqida"gi Qonun

<sup>5</sup> Misollar quyidagi manbadan olindi: اته لار سوزی - عطل دینگ کردی جنوب المثلار

(افغانستان اوزبیک اولوس نینگ تیل اوچی ادبیاتیدان متالار . توپاب چایگه تاپیرگن : صالح محمد (حماس) : چاپ ییلی: 1392. Otalar so'zi - aqlning ko'zi. Zubulmusul. Afg'oniston o'zbek ulusining til uchi adabiyotidan maqollar. To'plab chopga topshirgan: Solih Mahmud (Hassan). Chop yili: 1392- yil (hijriy).

E. "Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi"gi Qonun

2. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qachon qabul qilindi va o'z oldiga qanday maqsad qo'ydi?

A. 1997-yil, Respublikamizda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yashil tizimini yaratishni

B. 1999-yil, Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishni

D. 1993-yil, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirishni

E. 1991-yil, izlanuvchan, ijodkor murabbiylar tayyorlashni

3. 1995-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarori tasdiqlandi?

A. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi

B. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida"gi

D. "O'zbek alifbosiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi

E. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqidagi

4. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunga qachon o'zgartirishlar kiritildi?

A. 1995-yil 21-dekabrda B. 1995-yil 24-avgustda

D. 1995-yil 6-mayda E. 1993-yil 2-sentabrda

5. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi Konstitutsiyaning nechanchi maddasida belgilab qo'yilgan?

A. 4-moddasida B. 24-moddasida D. 1-moddasida E. 41-moddasida

6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?

A. 1997-yil 29-avgustda B. 1992-yil 2-iyulda

D. 1995-yil 24-avgustda E. 1995-yil 6-mayda

7. "O'zbekistondagi maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida o'zbek tili ta'limining maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari, asosiy bosqich hamda prinsiplarini belgilab berish" maqsadini ko'zda tutuvchi me'yoriy hujjat – bu...

A. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun

B. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun

D. O'zbek maktablarida o'zbek tili ta'limi konsepsiyasi

E. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaror


8. Inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri – bu... 5902

A. O'zlashtirish koeffitsiyenti

B. Darslik

D. Ta'lim mazmuni

E. O'quv dasturi



**9. O'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi...**

- A. Pedagogik texnologiya      B. Metodika  
D. O'quv dasturi                      E. DTS

**10. "Hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish maqsadi" ko'zda tutilgan hujjat – bu...**

- A. "Ta'lim tizimini isloh qilish haqida"gi Qonun  
B. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaror  
D. O'zbek maktablarida o'zbek tili ta'limi konsepsiyasi  
E. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4947-sonli farmoni

## **O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI**

### ***Tayanch tushunchalar:***

*O'zbek tili darslari, o'zbek tili o'qitish metodikasi, ta'lim vositalari, dastur, darslik, ta'lim-tarbiya jarayoni, o'zbek tili ta'limi mazmuni, o'qitish vositalari, o'qitish usullari, o'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining maqsadi, o'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining asosiy vazifalari, o'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining tarixiy taraqqiyoti, o'zbek tilini o'qitish sohasi tarixi, davlat ta'lim standarti.*

### **"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining maqsadi, vazifalari.**

Milliy istiqloq, xususan, uning samarasi bo'lmish "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" maktab ta'limi oldiga demokratik jamiyatimizga mos yangi maqsad va vazifalarni qo'ydi. Birinchi Prezidentimizning: "Demokratik jamiyatda o'quvchilar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar o'quvchilar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim past bo'lishi muqarrar", – degan ta'kidlari maktab ta'limi va didaktlar oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtma va jamiyat taraqqiyoti uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu esa o'z navbatida ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash, shu maqsadga muvofiq moddiy zamin, mazmun va vositalar tanlab, ularni o'zaro muvofiqlashtirish asosidagina



amalgaga oshirilishi mumkin. Bunda bosh masala birinchi navbatda ta'lim-tarbiya qanday shaxsni yetishtirib berishi haqidagi ijtimoiy talabdir.

Ta'lim maqsadi silsilasida o'zbek tili ta'limi maqsadi alohida o'rinda turadi. Chunki maktab ta'limi o'zbek tilini ta'lim oluvchiga o'rgatmaydi — ta'lim oluvchi o'zbek tilini ta'lim dargohiga kelgunga qadar biladi va undan o'z kundalik amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun bimalol foydalana oladi.

"O'zbek tili o'qitish metodikasi" o'ziga xos mustaqil fan sanaladi. Chunki bu fan maktabda o'zbek tili "Nima uchun o'qitiladi?", "Nega shunday o'qitiladi?", "Nima o'qitiladi?", "Qanday o'qitiladi?", "O'zbek tili ta'limi qanday tashkiliy shakllar vositasida amalgaga oshiriladi?" degan savollarga javob izlaydi.

Maktab, AL va KHKlarida o'zbek tilining o'qitilishi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan prinsiplarga tayanadi. Ta'lim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Pedagog olimlar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida "Nimani o'qitish kerak?" degan savolga javob izlash bilan shug'ullandilar. Ta'lim mazmuni bo'yicha berilgan va berilayotgan barcha ma'lumotlar jamiyat hamda taraqqiyot uchun nisbiylikicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto'xtov ilgarilab boradi. A.G'ulomov, H.Ne'matovlar "O'zbek tili ta'limi mazmuni" metodik qo'llanmalarida ta'lim mazmuni masalasi xususida to'xtalib, uning to'rt tarkibiy qismini alohida sanab o'tadilar: 1) o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi; 2) ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan ko'nikma va malakalar tizimi; 3) ijodiy faoliyat usullari, 4) o'quvchi ~ o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimi.<sup>1</sup>

Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada, xususan, o'zbek tili o'qitish metodikasida quyidagi 4 ta muhim tarkibiy qism hisobiga amalgaga oshiriladi:

**I. O'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta'riflar tizimi);**

**II. Tanlangan ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi;**

**III. O'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish: bu faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy - ijodiy darajada bo'lishi mumkin.**

**IV. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi.**

<sup>1</sup> Gulomov A., Ne'matov X. Ona tili ta'limi mazmuni. — T.: U'qituvchi, 1995. — 5-8- b.

Ta'lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan hodisalar emas, balki aylanasimon yaxlitlik bo'lib, bu aylananing boshlanish va tugallanish nuqtasi birinchi – to'rtinchi qismlarni, aylana doirasi esa **ijodiy-amaliy ko'nikmalarni** tashkil etadi.

**O'zbek tili o'qitish mazmuni** – fonetika, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish (qiroat), matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.<sup>6</sup> *“Talaba – ta'lim – o'qituvchi”* tizimi yangilangan ta'lim mazmunida yetakchi omildir. Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchisi metodika fanini chuqur o'rganishi, kommunikativ savodxonlik me'yorlari bo'yicha DTS talablarini yaxshi bilishi darkor. Shuningdek, o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishning xilma-xil usullarini bilishi, **til imkoniyatlaridan** unumli foydalanishni o'rganishi, egallangan nutqiy ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, rivojlantirish, takomillashtirish, ularni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan izchil ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

*“O'zbek tili o'qitish metodikasi”* fani pedagogik fan sifatida o'zining **ilmiy tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalariga** ega.

O'zbek (ona) tili ta'limining samaradorligini oshirish, o'quvchini ta'lim jarayonining subyektiga aylantirish, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishning qulay yo'llarini aniqlash, ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish singarilar bu fanning **ilmiy tadqiqot obyekti** sanaladi.

*“O'zbek tili o'qitish metodikasi” fanining predmeti* esa maktab, AL va KHKlarda ona tili o'qitish jarayonidir. Bu jarayon:

1. *Ona tilidan o'quvchilarga beriladigan zaruriy bilimlar silsilasi.*
2. *Shu bilimlarga muvofiq keladigan ko'nikma va malakalar tizimi.*
3. *Ijodiy faoliyat usullari.*
4. *O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi.*

O'zbek tilini o'qitish metodikasining **asosiy maqsadi** til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy – ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; talaba shaxsini ma'naviy (balog'at va fashohat ilmi bilan) boyitishdan iborat.

<sup>6</sup> To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.– T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

**Til o'qitish metodikasining asosiy vazifasi** ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, so'zning ma'no ko'lami va darajalarini farqlaydigan, adabiy nutq me'yorlarini egallagan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.



O'zbek tilini o'qitish metodikasini o'rganish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'quv mashg'ulotlarini til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida olib borib, talabani mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;
- o'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini oshirish, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni shakllantirish;
- o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishning shakl, yo'l, vosita va usullarini o'rganish.

Demak, o'zbek tili mashg'ulotlarida talabani ijodiy va mustaqil fikrlashga yo'naltirish, so'z tanlash, gapda so'zni to'g'ri va o'rinli qo'llash, o'z fikrini aniq, ixcham, ravon ifodalashga o'rgatish til o'qitish metodikasining birlamchi vazifasi bo'lsa, *“talaba – talaba”, “talaba–o'qituvchi”* tizimida o'zaro muloqotni, bahs-u munozarani to'g'ri tashkil qilish, talaba tafakkurini rivojlantirish jarayonlarini oqilona boshqarish, fikr ifodalash malakasini shakllantirishni o'rganish, talabalarni o'qituvchilik mahorati va ilg'or texnologiya bilan tanishtirib borish metodika fanining ikkinchi va muhim vazifasi hisoblanadi.

**O'zbek (ona) tilini o'qitish metodikasi fanining shakllanish tarixi.** XI asrdan XIX asrning 2-yarmigacha bo'lgan davrda yashagan allomalarning til va nutq, ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlari.

Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy to'siqlarga qaramay, O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ilg'or fikr egalarini, dunyoga mashhur buyuk olim, shoir va san'at ahllarini yetkazdi, insoniyatga ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohasida o'lmas yodgorliklar taqdim etdi. Abu Nasr Forobiy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis Xorazmiy kabi olim va shoirlar o'z asarlarida o'sha davr

maktablaridagi ta'lim-tarbiya, ilmiy va badiiy asarlarni o'qish va o'rganish haqida fikrlar bildirib, metodik fikrning rivojiga ta'sir ko'rsatdilar.

O'zbek tilini o'qitish tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Sharqda IX –XV asrlarda ijtimoiy-madaniy hayotda yuksalish, ilm-fanda taraqqiyot kuzatiladi. Bu davrda O'rta Osiyoda yashab, ijod qilgan, qomusiy olimlarimiz turli fanlar bo'yicha erishgan yutuqlari bilan jahon madaniyati, ma'rifati, ilm-u fan rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

Buyuk mutafakkir Al Xorazmiy "Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir", – deydi va bilim egallashda ijodiy faoliyatni asos qilib oladi.

Sharqda "ikkinchi muallim" deb tan olingan (Arastudan keyin) Abu Nasr Forobiyning "Ta'lim-tarbiya berish usullari" asaridagi "Bilim, ma'rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirishi lozim", – degan fikri "O'zbek tilini o'qitish metodikasi"da ham asosiy, bosh mezon vazifasini o'taydi.

Abu Rayhon Beruniy har bir ishning kishi ruhiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga alohida e'tibor beradi: "Bizning maqsadimiz talabani toliqtirib qo'ymaslikdir. Agar talaba bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi. Har bir yangi narsa o'rganuvchiga rohat bag'ishlaydi». Bu xulosa til hodisalarini o'rganishda, lisoniy materiallarni joylashtirish va o'qitishda dasturulamal bo'lishi shubhasizdir.

Abu Ali ibn Sino – buyuk hakim, tib ilmining sultoni, ulug' mutafakkir, fanning ko'plab sohalari qatori tilshunoslik bilan ham maxsus shug'ullandi, "Lison ul-arab" (Arab tili) nomli kitob ham yozdi. Abu Ali ibn Sino yozadi: "...sening fikrlaring bola yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do'sting so'zlaringga va nasihatingga e'tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko'chir".

Mahmud Koshg'ariy XI asrdagi buyuk tilshunos olimdir. Garchi uning asari "Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar devoni") o'z davridagi turkiy so'zlarni izohlashga bag'ishlangan bo'lsa-da, u so'z va uning ma'nolarini aniqlash, so'zdan nutqiy amaliyotda foydalanish, nutq madaniyati borasida ham ko'plab ilmiy mulohazalar bildiradi, ilmiy xulosalar aytadi. Mahmud Koshg'ariy turkiy tildagi fonetik, morfologik qonuniyatlarni, leksik-sintaktik xususiyatlarni, uslubiy o'ziga xosliklarni nozik did bilan qiyoslaydi va tahlil qilib beradi. Muhimi, buyuk alloma XI asrda xalq tilida iste'molda bo'lgan so'zlarning asl manbasi, ma'no

bo'yoqdorligini namoyon qiluvchi badiiy matnlar bilan birgalikda saqlanib qolishiga erishdi. Keyingi avlod vakillarini qadimgi adabiy til va og'zaki nutq namunalari bilan tanishish imkoniyatidan bahramand qildi. Alloma ko'plab xalq qo'shiqlari, ertak va afsonalari, maqol va hikmatli so'zlarini ham yozib olgan. Ular orasida bevosita til va nutq jarayonlariga oidlari ham mavjud:

Ardam bashi til. – Til (barcha) san'at – hunarning boshidir.

So'zga suguncha bulun barir. – Odam so'zning shirinligi bilan lazzatlansa, unga asir bo'lib ketadi.

Muhmud Koshg'ariy maqollarning qo'llanish o'rinlarini ham ko'rsatadi. "Suf ko'rmaguncha etuk tartma" – "Suv ko'rmasdan oldin etik yechma". Bu maqol ishlarda mulohazali bo'lishga undalgan kishilarga nisbatan qo'llanadi.

"Keng to'n o'bramas, kengashlig' bilig artamas" – "Keng to'n to'zimaydi, kengashli ish buzilmaydi". Bu maqol bir ish boshlashdan oldin boshqular bilan kengashish, o'zboshimchalik qilmaslikka undab aytilgan.

Sharqdagi so'z va undan foydalanishga qo'yiladigan talablarga misol tariqasida Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: "Ko'p so'zlik foydasiz mashg'ulotdir. Tuman so'z tugunini bir so'zda yozish mumkin. Zero, kishi so'z tufayli qadr topishi yoki aksincha, boshi egik bo'lishi mumkin". Demak, so'z ma'nolarini ilg'ash so'z ishlatish uchun ham bilimdonlik talab etiladi.

Alisher Navoiy o'zbek tili ravnaqi uchun astoydil kuyundi. Turkiy til rivoji uchun qat'iy kurash olib bordi. Navoiy asarlari til omillaridan, o'zbek tilining leksik-grammatik imkoniyatlaridan unumli va mahorat bilan foydalanishning oliy namunasi. Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiyning adabiy tilga muvofiq ijod etganini maxsus ta'kidlaydi: *"Andijon elining lafzi qalam bila rostdur, oni uchun kim Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, undan nash'u namo topibtur, bu til biladur"*.

Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlaydi, uni "guhari alhurif" deya ta'riflaydi. So'zni "insonni hayvondan ajratgan ulug' ne'mat" deya ulug'laydi:

"Tengriki, insonni qilib ganji roz,  
So'z bila hayvondin anga imtiyoz".

Navoiy har doim shaklning mazmunga uyg'un bo'lishini talab etadi:

Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,

Ahli ma'oni qoshida xo'b emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,

Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga.



Bu fikrlari bilan adabiyotshunoslik nazariyasiga doir ilk qarashlarni o'rtaga tashlaydi.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy yoshlarning asar matnini ifodali o'qish san'atini egallashlariga diqqat qaratdi. Shoir o'zining "Lisonut-tayr"ida asar mazmunini tushunib o'qish usulini egallashga chaqirdi. "Mahbubul-qulub" asarida xushnavis – chiroyli yozishning va yozma nutq malakasini egallashning barchaga "osoyish berish"ini ta'kidladi. "Muhokamatul-lug'atayn" asarida talaffuz va imlo, so'z qudrati va nutq madaniyati, so'z ma'nolaridan to'g'ri foydalanish, nutqni to'g'ri tuzish kabi masalalarning ilmiy sharhini berish bilan turkiy (o'zbek) tilini chuqur o'zlashtirish metodikasiga ulkan hissa qo'shdi.<sup>7</sup>

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarlarini sodda tilda yozdi va boshqalarni ham shunga chaqirdi. O'g'li Humoyunning dabdabali usulda yozilgan bir xatini tanqid qilib, "Boburnoma" asarida "Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qig'uvchig'a", – deb yozadi. Demak, Bobur zamondoshlarini tushunarli tilda yozishga, qiyin so'zlar va balandparvoz so'zlarni ishlatmaslikka da'vat etgan.

Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari nazm bilan yozilgan pedagogik asar bo'lib, chiroyli xat yozish usullarini o'rgatadi. Asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli asboblardan to'g'risida so'z yuritiladi. Ikkinchi qismida esa xat mashqi va uning usullari haqida amaliy yo'l bilan ta'lim beriladi. Asarda kishilik jamiyatida yozuvning katta ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi. Demak, buyuk mutafakkirlarimizning ma'rifiy fikrlari, axloqiy-ta'limiy qarashlari yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

XVI – XIX asr oralig'ida ham metodika fanining o'ziga xos tarzdagi taraqqiyoti kuzatiladi. Munis, Ogahiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Uvaysiy singari adiblar ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor bilan yondashishgan.

XX asr boshlaridagi tarixiy sharoit Turkistonda didaktik g'oyalarning tarqalishi va rivojlanishi, ta'lim prinsiplari hamda ta'lim metodlari haqida ilmiy asarlar, metodik qo'llanma va maqolalarning dunyoga kelishiga, pedagogika, qisman metodika fanining rivojlanishi va taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Bunga misol sifatida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoki axloq" asarini keltirish mumkin. U mazkur kitobida: "Muallim shogirdlariga bergan darslarini amal ila chog'ishtirib o'rgatmaklari

<sup>7</sup> G'ulomov A., Qodirov M., Eimuzarova M. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2012. 380 bet.

lozimdir, ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, ular ilmiy, odobli bo'ladilar", – deb yozadi.

XX asr boshlarida an'anaviy o'qitish usullari yoniga yangi – Yevropacha o'qitish usullari ham kelib qo'shila boshladi.

Dastur va qo'llanmalarni yaratishda mahalliy ziyolilardan Fitrat, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Qori Niyoziy, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Murod Shams, Halil Qayumov, Majid Qodiriy va boshqalar faol ishtirok etdilar.

1940-yillarda O'zbekistonda S.A.Fessalonitskiyning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi nashr qilindi. Bu qo'llanma o'z davri uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Qo'llanmaning ko'p qismi nutq o'stirish va insho masalalariga bag'ishlangan bo'lib, morfologiya va sintaksis o'qitish metodikasiga alohida e'tibor qaratilmagan.

1944-yilda Murod Shams "Orfografiya o'qitish metodikasi", K.Xayrullayev "Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish" mavzusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Keyinroq, 1950-yilda Murod Shamsning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi nashr qilindi. 1952-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi"ga oid darslikning 1-qismi Faxri Kamol tahriri ostida nashrdan chiqdi. Mazkur qo'llanma va kitoblarda o'zbek tili darslarini uyushtirish va o'tkazish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar, o'zbek tili o'qitishni yaxshilash bo'yicha maslahatlar, mashg'ulotlarda nutq o'stirishning usul va vositalari, jadvallar majmuasi, dars ishlanmalari berilgan. Lekin orfografiya va punktuatsiyaga, matn ustida ishlashga oid masalalarga to'xtab o'tilmagan.

1960-yilda H.Rustamovning "Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi", 1969-yilda N. Abdurahmonovning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" kitoblari nashr etildi. Ular o'z davridagi o'zbek tili o'qitish metodikasiga qo'shilgan tegishli hissa sifatida baholanishi mumkin. Lekin bu qo'llanmalarda nutq o'stirish va uslubiy mashqlar, insho yozish mazmunini va metodikasiga yetarli o'rin berilmaganligini aytish joiz.

Sobiq sho'rolar istibdodi davrida bu fandan jami 24 kishi pedagogika fiolari nomzodi ilmiy darajasini olishga erishdi. Chunonchi, K.Xayrullayevning "Buxoro viloyati maktablarining 5-6-sinflarida o'zbek tilidan o'quvchilarning tipik orfografik xatolari hamda uning oldini olish va bartaraf etish yo'llari" (1957), S.Tursunovning "O'zbek maktablarining 4-sinflarida grammatikani o'qitish metodikasi" (1957), Y.Abdullayevning "Eski o'zbek maktablarida savod chiqarish" (1961), Q.Abdurazzoqovning "O'zbek tilidan 5-sinflarda o'quvchilar faolligini oshirish" (1964), B. Mirzaahmedovning "O'zbek maktablarining 6-sinflarida qo'shma so'zlarni

o'qitish metodikasi" (1965), K.Qosimovning "5-sinf o'zbek tili darslarida lug'at ustida ishlash" (1966), N.A.Ahmedovning "O'quvchilar nutqidagi dialektal xatolar va ularning oldini olish" (1966), O.Roziqovning "O'zbek maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning mustaqil ishlari" (1967), M.Omilxonovning "Sakkiz yillik o'zbek maktablarida ergashgan qo'shma gapni o'qitish" (1967), G'.Azizovning "O'zbek maktablarining 5-sinflarida o'quvchilar nutqini sinonim so'zlar bilan boyitish" (1968), R.Abdullahatovning "O'zbek maktablarida olmoshni o'qitish metodikasi" (1968), O.G'afforovning "O'zbek maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilar nutqida uchraydigan xatolar" (1970), H.Zahirovning "O'zbek maktablarining 7-8-sinflarida o'quvchilarning yozma ishlarida uchraydigan punktuatsion xatolar" (1970), A.Po'latovning "Maktabda holni o'qitish metodikasi" (1970), A.Mirzayevning "O'quvchilarning orfografik savodxonligini oshirishda diktantdan foydalanish" (1970), Sh.Koyenovning "O'zbek maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarni bayon yozishga o'rgatish" (1973), R.Inog'omovning "Fe'l zamonlarini o'rganishda o'quvchilarning nutqi ustida ishlash" (1974), A.G'ulomovning "O'zbek maktablarining 4-sinflari o'zbek tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari" (1975), O.Yoqubjonovning "O'zbek maktablarining 4-5-sinflarida so'z yasashni o'rgatish metodikasi" (1975), N.Shukrullayevning "O'zbek maktablarining 8-sinflarida qo'shma gap sintaksisini o'qitishda o'quvchilar nutqini rivojlantirish" (1976), R.Qayumovning "Sifat mavzusini o'rganishda o'quvchilarning nutqini rivojlantirish" (1976), O.Botirovning "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida uchraydigan dialektal xatolar" (1978), S.Nabievaning "O'zbek maktablarining, boshlang'ich sinflarida orfografiyani o'qitish metodikasi" (1981), M.Mamayusupovning "Boshlang'ich maktabning 1-3-sinflarida o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan fonemalarni o'qitish metodikasi" (1981) mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalari 50-80-yillarda himoya qilingan.

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'zbek tili o'qitish metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlar ko'lami ancha kengaydi. O'tgan qisqa davr ichida o'zbek tili o'qitishning o'ta muhim muammolariga oid 20dan ortiq doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

1975-yili Y.G'ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedovlarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" faniga oid nisbatan yangi tipdagi o'quv qo'llanmasi chop etildi. 1960-80-yillar davomida o'zbek tili o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lami yanada kengaydi. Bu sohada tilshunos olimlarimiz qo'lga kiritgan yutuqlarning amaliyotga tatbiqi bir qadar e'tibordan chetda qolgani

kuzatildi. O'zbek tili o'qituvchilarining talab va ehtiyojlari hisobga olinib, "O'qituvchilar gazetasi" (hozir "Ma'rifat")da ilg'or ish tajribalari, metodik tavsiyalar izchil yoritila boshladi. Endilikda "Til va adabiyot ta'limi", "Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Kasb-hunar ta'limi", "Ta'lim texnologiyalari" singari maxsus ilmiy-metodik jurnallar ham serqirra ilmiy-ijodiy faoliyat olib bormoqda. O'zbekistonning o'z istiqlolini qo'lga kiritishi milliy g'oyaning tug'ilishiga va shakllanishiga olib keldi. Ta'lim tizimini umumjahon andazalariga moslash, darsga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zaruriyati tug'ildi.

O'quv dasturi va darsliklar ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga muvofiq takomillashtirildi va yangilandi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va DTS talablarini ta'lim mazmuniga joriy etish, uni tobora takomillashtirib borish shu kunning dolzarb masalasi bo'lib qoldi. Yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilayotgan o'zbek tilshunosligida tilni tizimli o'rganish masalalarini taniqli tilshunos va metodist olimlar H.G'. Ne'matov, A.Nurmonov, N.M. Mahmudov, A.Q.G'ulomov va R.Safarovalar boshlab berishdi.

1989-yilda tilimizga "Davlat tili" maqomi berilgach, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan O'zbek tili doimiy anjumani ta'sis etilishi til va adabiyot ta'limining mazmuninigina emas, balki uni o'qitishni ham yangi yo'nalishlarda davom ettirishga imkon yaratdi. Anjuman ta'sis etilgandan buyon uning har bir yig'ilishida ta'lim oluvchi to'z boyligini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, milliy ma'naviyat, nutq madaniyati me'yorlarini singdirish, matn yaratish malakasini shakllantirish kabi nihoyatda dolzarb masalalar muhokama etilmoqda. Endilikda "O'zbek tili o'qitish konsepsiyasi", "Davlat ta'lim standartlari", til o'qitishning namunaviy dasturlari yaratildi, umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'limning bakalavriat, magistratura bosqichlari uchun darsliklarning yangi avlodi chop qilindi va ular tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Ta'lim mazmunining yangilangani ta'lim jarayoni, shakli va usullaridagi zamonaviy yangilanishlarni, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishini taqozo etadi.

**XX asr o'zbek tilini o'qitish bosqichlari:** 1)1910-1930-yillar; 2)1930-1960-yillar; 3) 1960-1970-yillar; 4) 1970-1990-yillar; 5)1990-yildan hozirgi davrgacha.

"O'zbek tili"ning maktabda o'quv predmeti sifatida shakllanish va rivojlanish jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, uni taxminan quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

**Birinchi davr** – 1910-1930-yillar. Bu davrda madrasalarda o‘qigan o‘quvchilarga savod chiqarganlaridan keyin, qofiya (grammatika) va qofyaning bo‘limlari: sarf (morfologiya) va nahv (sintaksis) o‘rgatilgan. O‘quvchilarning xat-savod chiqarishi, qiroatxonlikka katta e‘tibor berilgan.

XX asrning boshlari shu bilan e‘tiborliki, garchand hali maktablarda “O‘zbek tili”ni fan sifatida o‘qitish muayyan izga tushmagan bo‘lsa-da, ammo o‘quvchilarga til qoidalarini o‘rgatish, ularning savodxonligini chiqarish va uni takomillashtirishga qaratilgan harakatlar kuchaydi. 1913-yilda mashhur o‘zbek ziyolisi M.Faxriddinovning “Turkcha qoida”, 1916-yilda A.Zahiriyning “Imlo” o‘quv qo‘llanmalari nashr etilishi o‘sha davr uchun katta tarixiy voqea edi. Bir qator jadid maktablarida 1913-1914-yillardan boshlab turkcha qoidalarni o‘qitish yo‘lga qo‘yildi; 2-, 3-, 4-o‘quv yillarida o‘quvchilarning savodxonligi ustida ishlash bo‘yicha maxsus dars mashg‘ulotlari o‘tkazila boshladi. 1916-1917-yillarga kelib shu jadid maktablarida A.Zohiriyning “Imlo” kitobini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

**Ikkinchi davr** – 1930-1960-yillar. Bu davrda maktablarda o‘zbek tilini fan sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yildi; til ta‘limidan maxsus o‘quv dasturlari va darsliklar chiqarila boshladi. “O‘zbek tili” maktabda o‘qitiladigan yetakchi o‘quv predmeti sifatida o‘quv rejalaridan mustahkam o‘rin oldi va bu fanning o‘qitilishiga katta miqdorda soat ajratildi. O‘zbek tilining o‘rta umumta‘lim maktablarida o‘quv predmeti sifatida o‘qitila boshlashi uning taraqqiyoti uchun keng yo‘l ochib berdi.

**Uchinchi davr** – 1960-1970-yillar. Bu davrga kelib, o‘zbek tilidan ta‘lim mazmuni ancha takomillashdi va mazkur fandan o‘quv dasturlari va darsliklari chiqarila boshlandi. Ayniqsa, maktablarning yuqori sinflarida o‘zbek tilining o‘qitilishiga e‘tibor kuchaydi.

**To‘rtinchi davr** – 1970-1990-yillar. Bu davrga kelib, o‘zbek tilshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni maktab darsliklariga kiritishga urinish kuchaydi. O‘zbek tilida V sinfda (o‘quv yilining boshida) sintaksis, punktuatsiyadan dastlabki zaruriy ma‘lumotlar berish ko‘zda tutuldi va mazkur bo‘limni o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. So‘z yasalishi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajralib chiqdi va bu bo‘lim 16 soat davomida V sinfda o‘qitiladigan bo‘ldi.

**Beshinchi davr** – 1991-yildan keyingi davr. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘zbek tili ta‘limi oldiga tamomila yangi talablar qo‘yila boshladi. “O‘zbek maktablarida o‘zbek tili

konseptiyasi" (1993) ishlab chiqildi.<sup>8</sup> O'zbek tilidan DTS me'yorlari qabul qilindi va u davlat hujjati sifatida qabul qilindi, DTSga muvofiq badiiy "O'zbek tili" dasturlari yaratildi; maktab darsliklari yangilana boshlandi. O'zbek tilining mazmuni, asosan, 50-yillarning o'rtalarida shakllangan bo'lib, fan dasturlari juz'iy o'zgarishlar bilan 1998-1999- o'quv yiliga qadar amalda bo'lib keldi.

### O'zbek tili ta'limi maqsadining progressiv dinamikasi<sup>9</sup>

Davrlar	Maqsad	Vositalar
1-IX asrlar	Xat-savodli turkona tabiatli shaxsni shakllantirish	Qadimgi turkiy yodgorliklar
IX-XIX asrlar (jadidlargacha)	Xat-savodli, itoatkor shaxsni shakllantirish	IX-XIX asr maktabidagi o'quv manbalar
XX asr boshlari (jadidchilar harakatida)	Zamonaviy ilmiy bilim asoslari bilan tanishgan, milliy tuyg'ularga ega bo'lgan xat-savodli (faol) shaxsni shakllantirish	Jadid namoyandalari tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalari
1925-1970-yillar	Adabiy me'yorlarni singdirish, milliy adabiy tilni ommalashtirish, rasmiy yozma-og'zaki nutqda sheva nutqidan foydalanishga chek qo'yish	1925-1970-yillar mobaynida yaratilgan o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv adabiyotlari
1970-1990-yillar	Milliy adabiy tilda yozma-og'zaki nutqni rivojlantirish, o'quvchilarning ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy o'quv predmetlar bo'yicha savodxonligini oshirish	O'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy va badiiy manbalar
1999-yildan hozirgacha	O'quvchida ijodiy, evristik hamda mustaqil tafakkurni rivojlantirish, ijodiy tafakkur mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon	DTSlar, o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, audio vositalar, kompyuter texnologiyalari, ilmiy

<sup>8</sup> Gulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshqar. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Fan va texnologiya, 2012. 380-bet.

<sup>9</sup> Yuldasheva N. Ona tili ta'limi maqsadining tadiriy taraqqiyoti. -T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2011, 172-bet.

	bayon etish ko'nikmalarini tarkib toptirish	hamda adabiyotlar	badiiy
--	---	-------------------	--------

Jadvalda o'zbek tili ta'limi maqsadi misolida o'quv predmeti umumiy va xususiy maqsadining davr talabi hamda ehtiyojlari asosida uzluksiz progressiv dinamikasi— keyingi davr maqsadi oldingi davr maqsadini o'z ichiga olgan holda undan yuksakroq maqsadni ko'zlashini ko'rsatib turibdi. Milliy istiqloq maktabi o'zbek tili ta'limi oldiga ham yangi ufqlar ochdi. O'zbekiston olamga yuz tutdi; ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy jabhalarda ulkan ijodiy qadamlar tashlandi. Mustaqil Respublikamizning xalq ta'limi sohasidagi islohotlari bugungi kunda naqadar katta ijobiy natijalar berganligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bu islohotlar, avvalo, millatning g'ururi, uning iftixori — tiliga bo'lgan e'tibordan boshlandi.

### **O'TDA yig'inlari materiallari ustida ishlash.**

1989-yil 21-oktabr kuni "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilindi. "O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir", deb rasmiy e'lon qilindi. Tilimizga davlat tili maqomi berilishi Respublikamiz maktablarida o'zbek tilining e'tiborini kuchaytirdi. Tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan bu Qonun 1987-yilda tuzilgan, bir qator maktablarda muvaffaqiyatli ravishda sinovdan o'tkazilgan "O'zbek tili" (V–IX sinflar uchun) dasturining takomillashtirilishiga turtki bo'ldi hamda O'zbekiston Respublikasi XTV tomonidan 1989-yil 25-sentabrda 386-raqamli buyruq bilan ta'sis etilgan "O'zbek tili" doimiy anjumani (O'TDA) 1-yig'inida "Induktiv-2" ramzi bilan muqobil dastur sifatida muhokamaga chiqarildi. O'TDAning 1-yig'ini 1991-yilning aprelida Samarqandda o'tkazildi. Yig'inda 400 ga yaqin o'qituvchi va olimlar qatnashdi. Birinchi yig'inning tarixiy ahamiyati benihoya katta bo'ldi. U o'sha davrda amalda bo'lgan "stabillashgan" o'zbek tili ta'limi usuli, ta'lim mazmunini tubdan yangilash zarurligini, qotib qolgan andazalar bilan ishlash mumkin emasligini ko'rsatdi va mavjud tanazzuldan chiqish yo'larini belgilab berdi. Yig'in "Induktiv", "Ijod", "Ta'lim", "O'qituvchi" ramzli muqobil dasturlarni muhokamaga chiqardi va "Induktiv-2" ramzli dasturda qo'yilgan o'zbek tili ta'limi maqsadi, mazmuni va usulini ma'qul deb topdi.

O'TDAning 2-yig'ini 1993-yilning aprelida Qarshi shahrida bo'lib o'tdi. Anjuman o'zbek tilidan ta'lim mazmuni muammolariga bag'ishlandi va shu anjuman takliflari asosida RTM tomonidan nashr etilgan "O'zbek tili" dan ta'lim mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari" qo'llanmasi amaliyotchi o'qituvchilar va olimlar e'tiboriga havola etildi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta'limni tubdan isloh qilishga kirishildi. "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari o'zbek tilidan ta'lim mazmunini va usulini yangilash sari tashlangan katta qadamlar bo'ldi. Bu muammolar O'TDAning 2-yig'ini muhokamasiga chiqarildi va o'zbek tilidan ta'lim mazmunini belgilab berdi. O'zbek tili ta'limida mustaqillik yillarida tashlangan ulkan qadam "O'zbek maktablarida o'zbek tilini o'qitish Konsepsiyasi" bo'ldi. Mazkur hujjat 1993-yilning 15-oktabrida O'zbekiston Respublikasi XTV tomonidan tasdiqlangan bo'lib, maktabda o'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat deb belgilandi. Bunday maqsadning qo'yilishi bejiz emas, albatta. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: "Demokratik jamiyatda o'quvchilar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyulanadi. Agar o'quvchilar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir", – deb qayd qiladi. O'zbek tili ta'limi oldiga qo'yilgan maqsad Prezident tomonidan aytilgan fikr bilan hamohangdir.

Milliy istiqloq sharofati bilan o'zbek tili ta'limini takomillashtirish davom ettirildi. O'zbek tilining grammatik qurilishidagi "ruslashtirish" samarasi bo'lgan juda ko'p ilmiy-grammatik talqinlar turkona talqinlar bilan almshtirildi. Ana shu yo'nalishda "O'zbek tili" o'quv fanidan darsliklar yaratishga kirishildi.

Modomiki, o'zbek tili ta'limidan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni o'z qiy faoliyatga tayyorlash ekan, so'z boyligini oshirish birinchi galdagi vazifa sanaladi. Jizzax shahrida bo'lib o'tgan O'TDAning 3-yig'ini (1995-yil) xuddi mana shu masalaga bag'ishlandi. Anjumanga barcha sho'balarda bo'yicha 283 ta ma'ruza tinglandi. Bu ma'ruzalarning ko'pgina qismi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirishning samarali yo'llari, vositalari va usullariga oid edi. Yig'in o'zbek tilidan sinov darsliklari nashrini tezlashtirish xususida tavsiya qabul qildi. "O'zbek tili"dan 5-sinflar uchun sinov darsligi 1997-yilda yaratilgan bo'lib, uning tuzilishi ham, mazmuni ham oldingi darsliklardan farq qiladi. 6-sinflar uchun sinov darsligi 1998-yilda yaratildi. Bu darslik o'z ichida, asosan, so'zning lug'aviy shakllari va ma'no guruhlarini qamrab olgan. 5 – 6-sinflar uchun yaratilgan sinov darsliklarida "til – me'yor – nutq" mutanosibligiga qat'iy amal qilindi. Buning ma'nosi shuki, o'zbek tili darslarida o'quvchi til hodisalarini kuzatish, izlanish, alohidaliklarni



sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, guruhlash, hukm chiqarish, xulosalash, fikrni og'zaki bayon etish, ijodiy matn tuzishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni mustaqil bajaradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishlovchilariga, o'qituvchini esa shu jarayonning tashkilotchisiga aylantiradi.

1997-yil o'zbek tili ta'limidagi muhim voqealardan biri Toshkentda O'TDA 4-yig'inining o'tkazilishi bo'ldi. Mazkur anjuman ijodiy matn yaratish muammolariga bag'ishlandi. Respublikamizning 700dan ziyod o'qituvchisi o'quvchilarni ijodiy matn yaratishga o'rgatish yo'llari, vositalari, usullarini muhokama etdilar.

1998-yil 13-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-Qarori barcha o'quv fanlari qatori o'zbek tilidan Davlat ta'lim standarti (DTS)ni yaratish va uni sinovdan o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori bilan 1999-yil 16-avgustda tasdiqlandi. Endigi vazifa o'zbek tilidan DTS va o'quv dasturiga asosan yangi darsliklarni yaratish hamda belgilangan tartib va mudatlarda ularni nashriyotga topshirishdan iborat edi. Bu murakkab vazifa ham muvaffaqiyatli hal etildi. Qo'yilgan vazifani hal etishda O'TDAning 1999-yil Buxoroda o'tkazilgan 5-yig'ini muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Anjumanda qilingan ma'ruzalarning ko'pchiligida yaratilgan sinov darsliklariga munosabat bildirildi.

2000-2001-o'quv yilidan sinov darsliklari ommaviy nashrdan chiqdi. O'zbek tili o'quv dasturi asosida ommaviy amaliyotga tatbiq etilgan (H.Ne'matov va A.G'ulomov boshchiligidagi), keyinchalik yanada boyitilgan (N.Mahmudov bosh-chiligidagi) o'zbek tili darsliklarining shakli va mazmuni verbal-kognitiv ta'lim tamoyillariga mos keladi. Chunki o'zbek tilidan 5-9-sinflar uchun yaratilgan yangi avlod darsliklari ongli, verbal, induktiv-kognitiv-pragmatik ta'lim usuliga asoslanadi.

2001-yilning aprelida O'TDAning 6-yig'ini Farg'onada, 2003-yilning aprelida O'TDAning 7-yig'ini Namanganda, 2005-yilning aprelida O'TDAning 8-yig'ini Xorazmda, 2007-yilning aprelida O'TDAning 9-yig'ini Termizda, 2009-yilning aprelida O'TDAning 10-yig'ini Andijon, 2011-yilning aprelida O'TDA-ning 11-yig'ini Toshkent viloyatida, 2013-yilning aprelida O'TDAning 12-yig'ini Gulistonda, 2015-yilning aprelida O'TDAning 13-yig'ini Navoiyda bo'lib o'tdi.

"O'zbek tili o'qitish metodikasi" fani falsafa, tilshunoslik, siklidagi fanlar, didaktika, ruhshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu fan pedagogika siklidagi fan bo'lganligi ucnun ham, ijtimoiy fanlar guruhiga

kiradi va ijtimoiy fanlarning asosini tashkil etadigan falsafa bilan chambarchas bog'liq. O'quvchiga o'zbek tilini o'rgatish tafakkur bilan chambarchas bog'langan. Chunki til hodisalarining o'quvchi ongida voqelanishi tafakkur orqali yuzaga chiqadi. Til va tafakkurning aboqadorligi o'zbek tili darslarida ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash muammosini hal qilishga ko'maklashadi.

Til materiallari o'quvchi tomonidan ijodiy fikrlash orqali egallangan bo'lsa, u amaliy ahamiyatga molik bilim, ko'nikma va malakalar bo'lib sanaladi. Shuni unutmaslik kerakki, til hodisalarining mohiyatini anglash, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash, til imkoniyatlaridan muvofiq faoliyatda foydalanish singari zaruriy malakalar ijodiy fikrlash orqali amalga oshadi. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" fani pedagogik shakldagi fan sanalsa-da, ammo uning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil qiladi. Til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan har bir ilmiy yutuq, shubhsiz, maktab, AL va KHKlar o'zbek tili ta'limiga o'z ta'sirini ko'rsatadi; zaruriyat tug'ilganda uni yangilash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Biroq shunday bo'lsa-da, tilshunoslikda fan erishgan barcha yutuqlarni ta'lim muassasalari o'quvchilariga o'rgatishning iloji yo'q va bunga ehtiyoj ham sezilmaydi. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" fani til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlardan nimani ajratib olib o'quvchiga o'rgatish lozimligini hal qiladi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **1. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.**

**1-savol:** *"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fan sifatida qachon shakllandi?*

**2-savol:** *O'zbek metodist olimlaridan kimlarni bilasiz?*

**3-savol:** *Mazkur fandan dastlabki qo'llanmalar qachon va kim tomonidan e'lon qilingan?*

**4-savol:** *O'zbek tili ta'limining konsepsiyasi haqida nimalarni bilasiz?*

**5-savol:** *Metodika tarixiga hissa qo'shgan buyuk allomalarimizdan kimlarni bilasiz? Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" kitobidan olingan quyidagi matni asosida ajdodlarimiz qo'llagan ta'limiy metodlar haqida so'z yuriting.*

### يامانلىق جزاسى

بىر كىشىنىڭ قاسم اسملى بىر اوغلى بار ايردى اتا و اناسىنىڭ سوزىغا كىرماسدان هر خىل يامان ايشلارنى قىلور ايردى بالالار بىرلا اوروشىپ ياقالاشىپ كىيملارنى بىر توب كىلور ايردى اويدا اناسى مهمان اوچون اسراب قويگان طعاملارنى يىگان وقتدا اناسى

- قاسم اوغلىم طعامنى سىن بىدىنگىمى دىسا مېن يىگانىم يوق موشوك يىگالدور دىر ايردى بارا بارا اتاسىنىڭ پولنى هم اوغىرلاب الادورغان بولدى  
اتاسى بىلېب اوغلىم پولنى كىم الدى دىسا انام الگاندور دىب اناسىنى اوغرى قىلور ايردى بىر كونى اتاسى اوستال اوستىگا بىر تنگه پول قويىپ اوزى اوخلاگان كىشى بوليبىتدى قاسم كىلېب سېكىن تانگه نى الېب اغزىگا سالدى شول وقت اتاسى اوشلاپ الماقچى بولگاندا تانگانى يوتىپ يوباردى تانگه بارىپ قاسم نىڭ خلقومىغا تىقېلىپ جان بىردى

محترم كىتابخوان كوردىنگىز - مى يامان نىڭ يامانلىقى اوزىنىڭ باشىگا يىتدى

**6-savol: O'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining maqsadi nima?**

**7-savol: Ushbu fanning vazifalari nimalardan iborat?**

**8-savol: XX asr boshlaridagi o'zbek tili ta'limi xususida qanday qarashlarni bilasiz?**

**9-savol: O'zbekiston Respublikasi XTV tomonidan 1989-yili 25-sentabrda 386-raqamli buyruq bilan ta'sis etilgan "O'zbek tili" doimiy anjumanining soha taraqqiyotidagi ahamiyatini yoriting.**

**1-topshiriq: Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida berilgan ushbu misralarni sharhlang:**

"Alhosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir."

**2-topshiriq: Ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitish metodikasi qanday ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida gapiring.**

آنه قدرى اولگندىن كىين ،آنه قدرى تىر يك ليك ده

(Ota qadri o'lgandan keyin, ona qadri tiriklikda) maqolini o'zaki nutq kompetensiyasi talablariga amal qilgan holda izohlang.

**II. Mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya sohasida bildirgan fikrlarini sharhlagan holda unga asoslanib o'zbek tili o'qitish sohasining shakllanishi va taraqqiyotiga oid anjuman ishtirok etish uchun ilmiy maqola tayyorlang.**

**1-amaliy ish:** doimiy o'tkaziladigan talabalar anjumanida Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya va nutq odobiga doir ilmiy merosi asosida nutq so'zlashga tayyorgarlik ko'ring va uni dars jarayonida amalga oshiring.

<sup>10</sup> Eski o'zbek yozuvidagi matnlarni berishda eski o'zbek yozuvi va sharq tillariga oid adabiyotlardan, oquv-ustlubiy majmualardan foydalanildi.

**2-amaliy ish:** doimiy o'tkaziladigan talabalar anjumanida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi asosida nutq so'zlashga tayyorlaning va nutqingizni mashg'ulot jarayonida amalga oshiring.

Eslatma: *Bu amaliy ishlarni bajarishda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridan foydalanish lozim.*

اتینگ اوستین بولگندن، بختینگ اوستین بولسین.  
(Oting ustini bo'lgandan, baxting ustini bo'lsin) maqolini yozma nutq kompetensiyasi talablariga amal qilgan holda izohlang).

**III. Bilimlaringizni sinab ko'rish maqsadida quyidagi testlarni yeching.**

### TESTLAR

**1. Quyidagi misralar qaysi asardan olingan? "Xushnavis kotib so'zga osoyish berur va so'zlaguvchiga osoyish yetkurur".**

- A. Z.M. Bobur "Boburnoma"      B. Xorazmiy "Muhabbatnoma"  
D. A.Navoiy "Hayrat-ul-abror"      E. A.Navoiy "Mahbub-ul-qulub"

**2. "Sezgi orqali bilish ... bo'lsa, mantiqiy bilish ...dir", - deydi buyuk mutafakkir al-Xorazmiy. Fikrni to'ldiring.**

- A. Qisman bilish; haqiqat      B. Sezgi-bilish; mazmuniy bilish  
D. Haqiqiy bilish; tushuncha      E. Ijod; fikrlash

**3. "Ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim", - degan fikr qaysi mutafakkir olimning asaridan olingan?**

- A. Abu Nasr Forobiy, "Ta'lim-tarbiya berish usullari"  
B. Abu Rayhon Beruniy, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"  
D. Abu Ali ibn Sino, "Lison ul-arab"  
E. Al-Xorazmiy, "Surat ul-arz"

**4. 1940-yillarda O'zbekistonda nashr etilgan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasining muallifi kim?**

- A. S.A.Fessalonitskiy      B. Murod Shams  
D. M.A.Ribnikova      E. Faxri Kamol

**5. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" faniga oid nisbatan yangi tipdagi o'quv qo'llanmasi kimlar hammuallifligi ostida chop etilgan?**

- A. Y.G'ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedov  
B. Murod Shams, Faxri Kamol, Y.G'ulomov  
D. M.Shams, Faxri Kamol  
E. Murod Shams, Y.G'ulomov

**6. Yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilayotgan o'zbek tilshunosligida tilni tizimli o'rganish masalalarini boshlab bergan olimlarni ko'rsating.**

A. H.Ne'matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.G'ulomov, R.Safarova  
B. Sh.Rahmatullayev, U.Tursunov, G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev  
D. R.Sayfullayeva, A.Reshetov, A.G'ulomov, I.Rasulov, M.Asqarova  
E. I.Yo'ldoshev, R.Tolipova, Z.Do'simov, F.Bobojonov, A.Ishayev

7. Quyidagi misralar qaysi mutafakkirning asaridan olingan?  
"Mundin nari betakalluf, ravshan va pok alfoz bila biti, ham senga  
tashvish ozroq bo'lur, ham o'qig'uvchiga".

A. Z.M.Bobur "Boburnoma" B. Z.M.Bobur "Xatti Boburiy"  
D. A.Navoiy "Lison-ut-tayr" E. Munis Xorazmiy "Savodi ta'lim"

8. Til ta'limidan maxsus o'quv dasturlari va darsliklar  
qachondan chiqarila boshladi?

A. 1922 -1930-yillardan B. 1930-1960- yillardan  
D. 1918-1924- yillardan D. 1920- yillardan

9. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fan sifatida nechanchi  
yillardan boshlab pedagogika bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlarining  
filologiya fakultetlarida o'qitila boshladi?

A. XX asrning 20-yillaridan boshlab B. XX asrning 40-yillaridan boshlab  
D. XX asrning 30-yillaridan boshlab E. XX asrning 50-yillaridan boshlab

10. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanidan dastlabki ilmiy-  
tadqiqot ishlari qachondan boshlab yaratila boshladi?

A. XX asrning 20-yillaridan boshlab B. XX asrning 40-yillaridan boshlab  
D. XX asrning 30-yillaridan boshlab E. XX asrning 50-yillaridan boshlab

## O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASINING TEKSHIRISH (ILMIY-TADQIQOT) METODLARI

### Tayanch tushunchalar:

*O'zbek tili darslari, metodika, o'zbek tili mashg'ulotlari, pedagogika, psixologiya, falsafa, tilshunoslik, adabiyot, nutq madaniyati.*

*Metodika (yun. "methodike")* biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlari, usullari yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot<sup>11</sup>, ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandir. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, *tillar metodikasi, arifmetika metodikasi* va shu kabilar.

Metodika fani quyidagi masalalarni o'rganadi:

➔ O'qitishning vazifalari va mazmunini aniqlaydi. *Nimani o'qitish kerak?* savoliga javob beradi, ya'ni o'zbek tili kursining dasturlarini, ta'lim mazmunini belgilab beradi, o'quvchilar uchun

<sup>11</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: "ЎМЭ" Давлат илмий нашриёти, 2006. П. 582-б.

darstliklar, qo'llanmalar yaratishni, ularni takomillashtirishni, samaradorligi, muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.

↓ O'qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o'quvchilar amaliy ishlari, mashqlar va yozma ishlarning izchil tizimini ishlab chiqadi, ya'ni "*Qanday o'qitish kerak?*" savoliga javob beradi.

↓ O'quvchilarga o'zbek tilidan bilim berish va ko'nikma hosil qilishda ilmiy nuqtayi nazardan eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarni hal qiladi, ya'ni "*Nega shunday o'qitish kerak?*" savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni o'rganadi, tanlangan metodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi.

**Metodik merosni o'rganish.** "O'zbek tili ta'limi jarayonida takrorlash darstlarini tashkil etish" masalasini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etish uchun shu masalalarning tarixiga, yani buyuk sharq mutafakkirlarining takrorlash xususida bayon qilgan fikrlariga to'xtalishga to'g'ri keladi. Tadqiqotchi bu haqda Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning asarlarini o'qib, ularning shu borada bayon qilgan fikrlariga tayanadi.

Agar o'zbek tilidan ta'lim mazmuni tadqiqot obyekti qilib tanlangan bo'lsa, tadqiqotchi turli davrlarda o'zbek tili ta'limining maqsadi qanday belgilanganligini aniqlaydi va muammoning tarixiga to'xtalishga zaruriyat sezadi.

**"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining falsafa va pedagogika fanlari bilan aloqadorligi.**

"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fani falsafa, tilshunoslik siklidagi fanlar, didaktika, psixologiya bilan uzviy bog'liqdir. Demak, maktabda "O'zbek tili" o'quv fanidan dars beradigan yetuk mutaxassis bo'lish uchun shu fanlarni puxta bilish zarur.

Mazkur fan xususiy pedagogik sikldagi fan bo'lganligi uchun ham, ijtimoiy fanlar guruhiga kiradi va ijtimoiy fanlarning asosini tashkil etadigan falsafa bilan chambarchas bog'langan. Mazkur fanning falsafa bilan aloqadorligi o'zbek tilining maqsad va vazifalarini tushunishingizga, bu fanning ta'lim mazmunini to'g'ri belgilashingizga, o'quvchi faoliyatini to'g'ri uyushtirishingizga, o'qitishning eng samarali metod, vosita va usullarini tanlashingizga, faoliyat mahsulini nazorat qilishingizga yordamlashadi. O'quvchiga o'zbek tilini o'rgatish tafakkur bilan chambarchas bog'langan. Chunki til hodisalarining o'quvchi ongida voqelanishi tafakkur orqali yuzaga chiqadi. Til va tafakkurning aloqadorligi o'zbek tili darstlarida ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, falsafada har bir umumiy tushuncha yakka, juz'iy tushunchalar yig'indisidan tarkib topadi, degan qoida mavjud. O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchi faoliyatini tashkil etishda ham biz xuddi shu qoidaga asoslanamiz. Muayyan bo'laklarga ajratilgan til hodisalarini kuzatish, ularning birini ikkinchisi bilan taqqoslash orqali o'quvchi umumiy ta'rif, qoida va xulosalar chiqaradi.

Falsafa fikrlash va rivojlanishni o'zaro uyg'unlikda qaraydi. Sharqning buyuk ensiklopedist olimlari (Umar Xayyom, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino v.h.) rivojlanishni fikrlashning mahsuli deb biladilar. Masalan, Umar Xayyom o'zining "Matematik traktatlar"ida "Ozgina o'yla, o'zing topasan", "Ozgina fikrla, bilib olasan" singari xitoblari orqali ma'lumdan noma'lumga borish g'oyasini ilgari surgan.

Til materiallari o'quvchi tomonidan ijodiy fikrlash orqali egallangan bo'lsa, u amaliy ahamiyatga molik bilim, ko'nikma va malakalar bo'lib sanaladi.

Shuni unutmaslik lozimki, til hodisalarining mohiyatini anglash, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash, til imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanish singari zaruriy malakalar ijodiy fikrlash orqali ro'yobga chiqadi.

Pedagogika ta'lim-tarbiya prinsiplarini belgilab beruvchi fandır. O'zbek tili darslarida ham ta'lim prinsiplari qo'llanadi. Pedagogika fanining didaktika qismi "O'zbek tilini o'qitish metodikasi"ning nazariy asosi hisoblanadi. Ma'lumki, ta'lim jarayonining umumiy va xususiy tomonlari bor. Ta'limning umumiy tomonini umumiy didaktika, xususiy tomonini xususiy didaktika o'rganadi.

Umumiy didaktika o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro ta'sirini o'rganadi va u barcha o'quv fanlari uchun aloqadordir. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" umumiy didaktika bo'yicha o'rganilganlarni oydinlashtiradi: ya'ni umumiy didaktikadan o'rganilgan ta'lim maqsadi qonuniyatlari, prinsiplari, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarining o'zbek tilini o'qitish jarayonida voqelanishini aniqlaydi.

Modomiki shunday ekan, "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fani didaktikaga tayanib ish ko'radi. Chunonchi, o'zbek tili o'qitish prinsiplari yoki metodlari xususida fikr yuritilar ekan, avvalo umumdidaktik prinsiplar va metodlar, keyin xususiy prinsiplar va metodlarga to'xtalishga to'g'ri keladi.

**"O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining psixologiya fani bilan aloqadorligi.**

Ta'limni tashkil etish, o'qitish bola psixologiyasi bilan chambarchas bog'langan. Bu aloqadorlik, avvalo, o'quvchining yoshi va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq. O'rganilgan til hodisalarini xotirada tiklash, ularni yangi sharoitda qo'llash, til hodisalarini qiyoslash yoki ularni o'xshash va farqli tomonlariga qarab guruhlash, umumlashtirish, hukm va xulosalar chiqarish shaxsning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, xotira, tafakkur, xayol singari individual psixik xususiyatlarga tayanadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy psixik xususiyatlarini bilishi va unga tayanib ish ko'rishi lozim.

Akademik Pavlovning assotsiatsiya (aloqa, bog'lanish) haqidagi ta'limoti o'zbek tili ta'limida muhim o'rin egallaydi. Agar til hodisalari orasidagi aloqadorlikka asoslanilmasa, o'quvchi tilni bir butun sistema sifatida qabul qila olmaydi. Yangi o'quv materialini oldin o'rganilganlar bilan bog'lash bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu esa ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun asosdir. Hozirgi zamon psixologiyasi bilim olishda ehtiyojni zaruriyat deb biladi. Bu ta'limot o'zbek tili mashg'ulotlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi o'z so'z zaxirasini oshirishga, so'zdan foydalanishga, har xil nutqiy vaziyatlarga ehtiyoj sezmasa, tilni o'rganishga qiziqmaydi, unga zaruriyat sezmaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan shaxsning o'zbek tilini bilishi uni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tevarak-atrofdagi kishilar bilan muloqot, dars jarayonida tuziladigan og'zaki va yozma matnlar, o'tkaziladigan savol-javoblar rivojlanishni ta'minlovchi omillardir.

O'zbek tili ta'limining hozirgi bosqichida – test topshiriqlariga talab oshgan bir davrda o'quvchilarda kompyuter bilan ishlash psixologiyasini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu dars mashg'ulotlarida kompyuter xizmatidan uzluksiz foydalanish orqali qo'lga kiritiladi.

Ma'lumki, ehtiyojlar insonni ma'lum yo'nalishda ongli ravishda harakat qilishga undaydi. Bundan asosiy maqsad odamlar bilan hamkorlik qilish, muloqotga kirishishni ta'minlashdir. Muloqot vaziyatida inson til, imo-ishora, yuz ifodasi, qo'l harakatlari va muayyan ramziy belgilar vositasida boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatadi. Bu vositalardan keragini tanlab olish "Psixologiya" fanining ham, "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining ham vazifasidir.

Mazkur fan psixolingvistika bilan ham aloqador bo'lib, "nutqning hosil bo'lishi, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini til tizimi bilan aloqadorlikda o'rganadi. Unda psixologiya va lingvistika fanlari



uyg'un holda sintezlashgan. U tekshirish manbaiga ko'ra lingvistikaga, ularni tekshirish metodiga ko'ra esa psixologiyaga yaqin turadi"<sup>12</sup>.

**“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fanining tilshunoslik fani bilan aloqadorligi.**

“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”ning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil etadi. Til ilmi sohasida qo‘lga kiritilgan har bir ilmiy yutuq, shubhasiz, maktab o‘zbek tili kursining mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi: zaruriyat tug‘ilganda uni yangilash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Maktab o‘zbek tili kursi o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan zaruriy ma’lumotlarni yoshi va taraqqiyot darajasiga mos ravishda o‘quvchilarga yetkazishga xizmat qiladi. Til bir butun tizim bo‘lganligi sababli maktab o‘zbek tili kursining bir bo‘limi ikkinchisi bilan chambarchas bog‘langan. Chunonchi, tilning tovush tizimi o‘rganilar ekan, ayni vaqtda so‘z va uning ma’nolari, gapda so‘zlarning aloqaqa kirishi xususida ham ma’lumot beriladi. Leksika va grammatika bo‘limlari o‘rganilar ekan, fonetikadan berilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanib ish ko‘riladi.

Maktab o‘zbek tili ta’limi nafaqat “Hozirgi zamon o‘zbek tili” kursi, balki “Umumiy tilshunoslik”, “Til tarixi”, “Dialektologiya” singari fanlar bilan ham aloqador. Til tarixidan xabardor oqituvchi mumtoz adabiy asarlarning til xususiyatlari ustida ishlay oladi, dialektologiyani bilgan oqituvchi esa adabiy til bilan shevani qiyoslab, nutqdagi dialektal xatolarning oldini olishi yoki bartaraf etishi mumkin.

“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fani nutq madaniyati bilan ham aloqador. Zero, nutq madaniyati asoslarini puxta bilgan o‘qituvchilar o‘quvchi nutqi ustida samarali ishlay oladi. “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fani adabiyotshunoslik fanlari bilan ham bog‘liqdir.

Kadrlar tayyorlash, soha mutaxassislarini yetishtirish o‘zbek xalqi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hayotida belgilovchi omillardan bo‘lib kelgan va mustaqillik davrida yangi bosqichga ko‘tarilgan dolzarb masaladir.

Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mazmun-mohiyati O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”i hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da batafsil yoritilgan. Bugungi kunda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun ta’lim jarayoni sifatiga alohida e’tibor berilmoqda. Yangi texnik vositalardan foydalanish, zamonaviy pedtexnologiyani qo‘llash keng yoyilmoqda. Respublikamiz

<sup>12</sup> To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 16-b.

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan aytilgan “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz,” – degan so‘zlar biz uchun dasturulamal vazifasini o‘tamoqda<sup>13</sup>.

Har tomonlama bilimli mutaxassis-kadrlar tayyorlash uchun, avvalo, ta’lim tizimini takomillashtirish, sifat darajasini oshirish kerak bo‘ladi.

**Sifat** – narsa-hodisani boshqalaridan farqlovchi mavjud belgilar, xususiyatlarni ifoda etadi. **Ta’lim sifati** – bu tizimli kategoriyadir. Ta’lim sifatining mohiyati quyidagilarda ko‘rinadi:

- abituriyent va talabalarni tayyorlash sifati;
- ta’lim dasturlari va o‘quv vositalari sifati;
- infratuzilma sifati;
- oliy ta’lim muassasasidagi axloqiy-psixologik muhit sifati;
- tashqi muhit bilan munosabat sifati;
- oliy ta’lim muassasasini yaxlit butunlik va alohida yakkalik tarzida boshqarish sifati;
- pedagogik personal sifati.<sup>14</sup>

Dunyo iqtisodiyoti, ishlab chiqarishida sifatga alohida e’tibor beriladi. Sifatli faoliyatni ta’minlaydigan, nazorat qiladigan uyushmalar mavjud. Jumladan, sifatning umumiy boshqaruvi – TQM (Total Quality Management) – Тотальный менеджмент качества (sifatning umumiy menejmenti) tashkilot sifat samaradorligini boshqarishni nazarda tutadi. *Total* (umumiy) – tashkilot, korxon, muassasaning barcha xodimlari sifat samaradorligini oshirish jarayonida ishtirok etishini bildiradi. *Quality* (sifat) – faqat mahsulotning emas, ish jarayoni, ishlab chiqarish, informatsiyalar oqimi, xodim faoliyati sifatini ham bildiradi. *Management* (menejment) – sifatni nazorat qilish, o‘zida boshqarish vazifasini belgilashni taqozo etadi.<sup>15</sup>

Ta’lim sifatini oshirishda qo‘llanadigan asosiy metodlardan quyidagilar qayd etilgan:

**Ekspert metodi** – lotincha expertus “tajribali” degan ma’nodagi so‘z bo‘lib, muammoni komponent hal qiladigan mutaxassisni ifoda etadi. Bu metod belgilari:

<sup>13</sup> Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 14- bet.

<sup>14</sup> Мутинюв Г.М., Томилин А.К., Кукина Ю.Е., Дузкенева Н.А., Абдыхалькова А.М., Нурканова А.Е. Управление качеством в высшем учебном заведении. -Уст-Каменогорск, 2011. -с. 7.

<sup>15</sup> Менеджмент образования. //Создание и совершенствование системы менеджмента качество образования в вузах.-М., 2010.-С.7.

- qaror qabul qilishda ekspert guruhi ishtirok etadi;
- yangi ma'lumotlar olish maqsadi qo'yiladi;
- olingan ma'lumotlar ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi;
- qaror chiqarishda ekspertlarning tajriba va intuitsiyasiga tayaniladi.

Ekspertiza yagona metod emas, balki bir qancha metodlar umumlashmasidan iborat yaxlit metodlar tizimidir.

Ekspertiza metodida olingan xulosaning obyektivligi qaror qabul qilishda bir qancha mutaxassislar guruhining ishtirok etishi bilan belgilanadi. Negaki, ekspertlar guruhida muhokama qilingan va baholangan masala to'g'ri yechimini topadi.

Yangi ma'lumotlar olish maqsadining qo'yilishi bu metodning zamon talablariga mosligini asoslaydi. Ta'lim jarayonida ma'lumotlarning yangilanib turishi, zamonga mosligi, ijimoiy hayotga tatbiq qilinishi bilan ahamiyatlidir.

Olingan ma'lumotlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lishi metodning umum manfaatiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Ta'limda yakka shaxslarga emas, ko'pchilikka tegishli bo'lgan axborotlarning berilishi ahamiyatli.

Qaror chiqarishda ekspertlarning tajriba va intuitsiyasiga tayanishi natijalarning asoslilikini ta'minlaydi. Kuzatish va tajriba xulosalarning ilmiylikini ta'minlasa, intuitsiya ko'p yillik kasbiy amaliyotdan kelib chiqadigan xulosalarni ifoda etadi.

**Monitoring metodi** – ta'lim jarayoni sifatini boshqarish metodlaridan biri. Ta'lim sifati monitoringida tahlilga asoslangan doimiy nazorat turadi.

Monitoring ma'lumotlarni yig'ish etaplarini o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar:

- bitiruvchilarning kasbiy faoliyati darajasini o'rganish;
- bitiruvchilarning kasbiy faoliyati haqida ma'lumotlar bankiga ega bo'lish;
- kasbiy ta'lim mutaxassislarning sifat darajasini yaxlit holda taqdim etish;
- oliy ta'lim muassasasi mutaxassis tayyorlash sifatining o'zgarish dinamikasini ajratish va nazorat qilish;
- sifatni boshqarishning ishonchli va mustahkamliligi prinsiplarini belgilash;
- obyekt bahosining ishonchlilik darajasini oshirish.

Bitiruvchilarning kasbiy faoliyati darajasini o'rganish OTMdagi ta'lim tizimi, sifati, boshqarish tizimi, o'quv jarayoni haqida ma'lumot beradi. Bitiruvchilarning kasbiy faoliyati haqida ma'lumotlar bankiga ega bo'lish ta'lim yo'nalishining faoliyat doirasi, amaliy ahamiyati, ijtimoiy o'rni haqida tasavvur beradi. Kasbiy ta'lim mutaxassislarning sifat darajasini

yaxlit holda taqdim etishi bitiruvchilarning ijtimoiy sohalar va ishlab chiqarishdagi o'rnini belgilashda ahamiyatli. Oliy ta'lim muassasasi mutaxassis tayyorlash sifatining o'zgarish dinamikasini ajratish va nazorat qilishning monitoring orqali amalga oshirilishi yutuqlar omilini belgilash, nuqsonlarni aniqlash, jarayonni tahlil qilish va sifatni oshirish tadbirlarini belgilash imkonini yaratadi. Sifatni boshqarishning ishonchli va mustahkamliligi prinsiplarini belgilash ta'lim jarayonini malakali mutaxassislar tayyorlashga mos ravishda tashkil qilishni nazarda tutadi. Obyekt bahosining ishonchlilik darajasini oshirish jarayonni adolatli boshqarish, me'yorga ko'ra baholash, talabalarda motivatsiya yaratishni ta'minlaydi.

Jahonning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimi sifatga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, Rossiya ta'lim tizimiga **subyekt-obyekt** paradigmasi xarakterli.

Rossiyadagi "Sinov birliklari tizimi" (Система зачётных единиц)-ta'lim tizimining barcha jihatlarini qamrab olgan o'quv jarayonini tashkil qilishning asosiy aspektlarini sistem tarzda aniqlashni nazarda tutadi. O'quv jarayonining individual-maqсадli uyushmalari va pedagogik menejmentning progressiv prinsiplari sinov birliklari tizimining tayanch tushunchalarini tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalarida universal ta'limning **subyekt-subyekt** modeli xosdir. **Subyekt-subyekt** paradigmasida universitet yoki pedagogning emas, talabaning manfaati birinchi planga chiqadi. Har ikki paradigma ham pedagogik menejmentga asoslangan. Paradigmalar pedagogning boshqaruvchilik darajasi bilan farqlanadi.

Pedagogik menejmentning asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar ajratilgan:

- ta'lim ideali va maqsadining aniq qo'yilishi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik loyihalashtirish;
- kompetentli maslahat;
- o'quv ishlarini me'yorlashtirish; operativ, ishonchli, xolis, to'liq, aniq va doimiy ma'lumotlarga asoslanish;
- talabalarga odilona munosabatda bo'lish;
- rag'batlantirish (ball qo'yish yoki ma'naviy vositalar orqali motivatsiya berish);
- o'qituvchi va talabaning o'zaro mas'uliyatli munosabatini yo'lga qo'yish;
- o'qituvchi va talabalarining ta'lim standarti ko'rsatmalariga qat'iy amal qilishlarini nazorat qilish; o'qituvchi va talabaning obyektivligini ta'minlash.

Sinov birliklari tizimi o'quv reja va o'quv dasturi, o'quv fani standartlari, bilimlarni baholashning reyting tizimi, o'quv jarayonini individual-maqсадli tashkil etish, o'qituvchilar yuklamasi, o'quv jarayoni iqtisodiyoti kabilarga aloqador.

### **Nazorat va baholashning reyting tizimi**

Tajriba shuni ko'rsatadiki, nazorat va baholashning reyting tizimini qo'llash talaba o'quv faoliyatida ahamiyatli didaktik qiymatga ega:

- talabanning faolligini oshiradi;
- talabalarning mustaqilligini ta'minlaydi, o'z reytingini oshirish ehtiyojini kuchaytiradi;
- talabalarning o'zlari erishgan yutuqlarni tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Nazorat va baholashning reyting tizimi ijobiy xususiyatlari sifatida quyidagilar keltirilgan: nazorat va baholashning tizimga asoslanishi; obyektivlik, ko'p qirralilik; individuallik, stimuly berish.<sup>16</sup>

**Marketing metodi.** Marketing asosidagi ta'lim jarayoni iste'molchilarni belgilashga qaratilgan bo'lib, quyidagi obyektlar bilan shug'ullanadi:

- ishlab chiqaruvchi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar;
- oliy ta'lim muassasasining, kollej, kasb-hunar ta'limi muassasasining tegishli ma'lumotga ega bo'lgan bitiruvchilari;
- kasbiy ta'limning aniq turi bo'yicha maqsadli ta'lim olishni rejalashtirgan abituriyent.

Ta'lim sifatining oshirishga qaratilgan marketing usuli quyidagi masalalarning yechimini topishga yo'naltirilgan:

- belgilangan soha bo'yicha ta'lim muassasasi bitiruvchilariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- eng ko'p talab qilinadigan ixtisoslik va mutaxassislikni belgilash;
- bitiruvchilarning xalq xo'jaligi tarmoqlari bilan bandlik darajasini aniqlash;
- talab katta bo'lgan ta'lim xizmati ro'yxatini tuzish;
- aniq mutaxassislik bo'yicha talab darajasini aniqlash va uni reklama qilish.

### **Nazorat va baholashning pedagogik shakllari va metodlari**

Nazorat va baholashning pedagogik shakllari, metodlari bilim olish, ko'nikma hosil qilish sifatini ta'minlashga qaratilgani uchun diagnostika hamda baholash usullari hisoblanadi. Nazorat va baholashning pedagogik

<sup>16</sup> В.А.Федоров, Колегова Е.Д. Инновационные технологии в управлении качеством образования. Учебное пособие. –Екатеринбург, 2006. –С.71.

shakllari, metodlari sifatida kollokvium, imtihon, sinov, test nazorati, og'zaki va yozma so'rovlar, nazorat ishlari turlari, sinov topshiriqlari, masalalar, amaliy-malakaviy ishlar (diplom ishi, loyiha, bitiruv ishi) kabilarni keltirish mumkin.

**Jarayonli yondashuv.** Jarayonli yondashuvning (процессный подход) qo'llanishi oliy ta'lim muassasasiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-nazorat va prognoz qilishning yuqori samaraga ega bo'lgan tizimini yaratish;

ISO standarti talablariga muvofiq sifatni boshqarish tizimini muvofiqlashtirish;

-oliy ta'lim muassasasi bo'limlari va boshqarish apparati tomonidan realizatsiya qilingan jarayon sifati va samaradorligiga qo'yilgan talablarni muvofiqlashtirish;

-masalalarning yechimiga qaratilgan resurslar uchun obyektiv asos yaratish;

-barcha jarayonlarni qo'yilgan maqsadga mos ravishda ko'rib chiqish;

-barcha jarayonlarni muvofiqlashtirish;

-jarayonni sifatli boshqarish va nazorat qilishning yangicha ko'rinishlarini joriy qilish.<sup>17</sup>


### III.2. Ta'lim jarayoni sifatini ta'minlash va rivojlantirish metodlari (usullari)

Ta'lim sifati unga qo'yilgan kompetensiyaviy talablarning to'liq bajarilishi bilan belgilanadi. Ta'lim sifatini ta'minlash uchun har bir OTM rahbariyatining harakatlarni boshqarish kompleksi ishlab chiqiladi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning ikki tashkil etuvchilari bo'lgan pedagog va talaba manfaatlarining uyg'unligi bilan belgilanadi.

Ta'lim sifatini ta'minlashda davlat byudjetining to'g'ri taqsimlanishi, talabalarning kompensatsiya asosidagi ta'limini belgilovchi kvotalarni aniqlash; byudjetdan tashqari mablag'larni taqsimlash; ish haqi va moddiy, ilmiy-texnikaviy va sotsial taraqqiyot fondi o'rtasidagi vositalarni taqsimlash; qo'shimcha haq to'lash; tejalgan mablag'larni sarflash erkinligi muhimdir.

<sup>17</sup> Мутапов Г.М., Томилгин А.К., Кукина Ю.Е., Дузкенева Н.А., Абдыхалькова А.М., Нурканова А.Е. Управление качеством в высшем учебном заведении. -Уст-Каменогорск, 2011. -С.44.



Ta'lim sifatini ta'minlash, avvalo, professor-o'qituvchilar tarkibining sifat darajasi bilan belgilanadi. Professor-o'qituvchilar tarkibining sifatini ta'minlovchi bir qator omillar mavjud. Jumladan:

- kadrlar tanlash tizimini ishlab chiqish; ta'lim jarayoniga ilmiy daraja, unvonga ega bo'lgan, sohaning yetuk mutaxassislarini jalb qilish;

- professor-o'qituvchilarga o'z ustlarida ishlari, izlanishlari uchun imkoniyat yaratish;

- qabul jarayonini to'g'ri, adolatli tashkil etish, ta'lim olishga layoqatsiz abituriyentlarni qabul qilishning oldini olish.

- uzluksiz ta'lim tizimi talablarini bajarish, bilim olish sifatiga umumta'lim jarayonidan e'tibor berish kabilar OTMda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Professor-o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish, turli tanlovlar tashkil etish ham ta'lim sifatini oshirish omillaridandir. Oliy ta'lim muassasi miqyosida "Universitetning eng yaxshi pedagogi", "Universitetning eng yaxshi xodimi", "Universitetning o'quv ishlari bo'yicha eng yaxshi bo'limi", "Universitetning ilmiy ishlar bo'yicha eng yaxshi bo'limi" kabi tanlovlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Pedagoglar tanlovida uch yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lgan asosiy shtatdagi pedagoglar ishtirok etishlari mumkin.

Pedagoglar o'rtasidagi tanlovlar o'tkazishda quyidagi natijalarga erishiladi:

- 1) pedagog-o'qituvchiga o'quv, ilmiy, metodik va tarbiyaviy yo'nalishda oliy ta'lim talablariga javob beradigan faoliyatini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi;

2) universitetdagi ta'lim jarayoni sifatini oshiradigan pedagoglarning samarali faoliyati ta'minlanadi.

Xorijiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, "Universitetning eng yaxshi pedagogi" tanlovi professor, dotsent yoki katta o'qituvchi kategoriyasi bo'yicha o'tkazilishi kerak. 2015-yilda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan "Eng yaxshi pedagog" tanlovida professor-o'qituvchilar daraja, unvonga ko'ra toifalanmaydi. Professor-o'qituvchilarning tanlovdagi ishtiroki toifalash asosida o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Eng yaxshi pedagog" tanlovi g'olibi quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlanadi:

- "o'qituvchi – talabalar nigohida" so'rovnomasi asosida;
- o'qituvchining tanlovda ishtirok etishi uchun asos bo'lgan ko'rsatkichlar;
- "o'qituvchining kasbiy mahorat xaritasi" natijalariga ko'ra;
- universitet o'quv-metodik kengashi a'zosi ishtirokidagi ochiq dars;
- pedagogning alohida yutuqlari asosida belgilanadi.

"Universitetning eng yaxshi ilmiy xodimi" tanlovi g'olibi o'qituvchining tanlovda ishtirok etishi uchun asos bo'lgan ko'rsatkichlar; keyingi uch yildagi ilmiy maqolalari; da'vogarning monografiya e'lon qilingan nashriyotlari asosida aniqlanadi.

Tanlov g'oliblari bilan bir yil muddatga 50% ustama haq belgilash haqida qo'shimcha shartnoma tuziladi. Shartnomalar yangi o'quv yilining 1 sentyabridan boshlab kuchga kiradi.

"Universitetning o'quv ishlari bo'yicha eng yaxshi bo'limi" tanlovi o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Tanlovning maqsadi pedagog-xodimlarning metodik, ilmiy, tarbiyaviy aspektlardagi sifatli faoliyatini yo'lga qo'yishdan iborat. Ushbu tanlov quyidagi yutuqlarga asos bo'ladi:

- ilmiy unvon, ilmiy daraja, o'quv, o'quv-metodik ishlarga ma'lum bir tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar jalb qilinadi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy, kasbiy salohiyatlari ilmiy xodimlarning dissertatsiya himoya qilishlari hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida tahsil olishlari hisobiga oshiriladi;

- mahsuldor texnologiyalarni qo'llash, jumladan, distansion ta'lim metodlari va vositalarini qo'llash; o'quv jarayondagi ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash;

- ta'lim jarayoni sifatini ta'minlash uchun o'quv-metodik komplekslar hajmini kengaytirish, takomillashtirish;



-universitet ilmiy maktabining bir qismi sifatida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish va takomillashtirish;

-talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning an'anaviy usullarini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, yangi shakllarini ishlab chiqish;

-o'quv jarayoni sifatini boshqarishning, tashkil etish monitoringining zamonaviy metodlari, vositalarini qo'llash;

-o'qituvchi va talabalarni jamoat ishlari, sport va madaniy tadbirlarda qatnashishga jalb etish;

-qat'iy intizomga amal qilish.<sup>18</sup>


Ta'lim sifatini boshqarish uchun OTM doirasida kompleks dastur ishlab chiqish lozim bo'ladi. Shu bilan bir qatorda sifatni ta'minlash, sifat darajasini takomillashtirishda bir qator metodlardan ham foydalanish talab qilinadi. Quyida ana shu metodlardan ayrimlari borasida to'xtalamiz.

**Kasbiy ta'lim sifatini boshqarish metodlari.** Bugungi kunda har bir ta'lim sohasining mukammal milliy metodikasini ishlab chiqish va tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Har bir ta'lim sohasida metodika quyidagi savollarga javob berishi kerak: Nimani o'qitish kerak? Qanday o'qitish kerak? Nega shunday o'qitish kerak? Mamlakat rivoji uchun ta'limning mohiyatini tez, samarali uqtirish vositasi bo'lmish metodlarning o'rni katta. Kundalik hayotda "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar", "Interfaol metodlar", "Zamonaviy o'qitish metodlari" kabi tushunchalarni tez-tez uchratamiz. Lekin bu tushunchalarning mohiyatini hamma ham to'liq anglay olmaydi. *Metod* hamda *texnologiya* terminlaridan o'rinli foydalanmaslik va bu tushunchalarni aralash holatda qo'llash hollari kuzatilmoqda.

**Texnologiya** – eng yuqori darajadagi natijaga erishish usuli, taraqqiyotni belgilovchi omil. Texnologiya dastlab 1872 yilda ishlab chiqarish sohasida qo'llangan bo'lib, eng sifatli mahsulot ishlab chiqarish usullari majmuyini bildirgan. Keyinchalik, ijtimoiy sohalarda, ta'lim sohasida ishlatilib, yuksak natijalarga erishish usullarini nazarda tutadi.

*Metod* – har bir fan uchun xususiy va barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan, manbalarni to'plash va tasnif qilish, ulardagi eng asosiy xususiyatlarni o'rganish uchun tildagi barcha birliklar, sathlar hamda rivojlanish jarayonlarini, o'zgarishlarni bilish va aniqlash uchun qo'llanadigan uslub va yo'llar majmuidir.

<sup>18</sup>Федоров В.А., Колегова Е. Д. Инновационные технологии в управлении качеством образования. Учебное пособие. –Екатеринбург, 2006. –С.185-187.



Dars jarayonida zamonaviy talab asosida o'qitishni maqsad qilgan har bir pedagog oldida turgan vazifalar:

- innovatsion ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlash;
- ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, ommalashtirish malakalarini egallash;
- o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish;
- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalarni qo'llash;
- amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish; assisment va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash.

Ma'lumotlarga qaraganda hozirgi kunda o'qitish metodlarining 700 dan ortiq turi mavjud bo'lib, ta'lim jarayonida ularning hammasidan ham oqilona foydalanilmayapti. Metodning asosiy vazifasi o'qituvchiga yuklatilgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi hamda kompetensiya maqsadlariga, mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qilishdir.

Ta'limda qo'llanilayotgan interfaol metod va texnologiyalar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi. Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullarni o'quv jarayonida aynan

ko'rsatilgan tartibda o'tkazish shart emas, o'qituvchi treninglarning (texnologiyalarning) umumiy shaklini olgan holda o'zlarining texnologiyalarini yaratishlari, ulardan ba'zi elemetlarini olgan holda foydalanishlari mumkin. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida quyidagi metodlar ancha faol qo'llanilmoqda: "Tarmoqlar (Klaster)", "Aqliy hujum", "Konseptual jadval", "Blits-so'rov", "Keys-stadi", "Savol-javob", "Munozara", "Debatlar", "Modellashtirish" metodlari.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol pedagogik texnologiyalardan uzluksizlik va uzviylik tamoyili asosida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda, chunki ta'limning interfaol turi maktabgacha ta'lim bosqichidan oliy ta'lim jarayonigacha ta'lim oluvchida mustaqil tafakkur hamda tezkor faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Ta'limning interfaol metodlaridan har bir bosqichda talabning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, tafakkur tarzini hisobga olgan holda foydalanish, aniq bir talabalar auditoriyasining o'ziga xos jihatlari hisobga olish o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab qiladi.

Biz quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsif berib, ba'zilarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi mulohazalarimizni bayon etamiz.

**Yozma ish strategiyasi.** Yozma ish strategiyasi o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi va har bir o'quvchi mustaqil ravishda faoliyat yuritadi.

Strategiyani amalga oshirish uchun 9-10 daqiqa vaqt beriladi. Strategiyani kichik guruhlarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilarni guruhlariga ajratish uchun raqamli kartochkalardan foydalanish qulay. Har bir kichik guruh alohida mavzu asosida hikoya, esse yoki maqola tayyorlashi mumkin. Hikoya, esse yoki maqola tayyorlashda guruh a'zolarining birgalikda, o'zaro fikr almashib faoliyat yuritishiga erishish maqsadga muvofiq. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh ishi taqdimot asosida namoyon etiladi. O'qituvchi hikoyaning mazmuni, saviyasi va orfografik xatolariga e'tibor bergan holda guruh ishini baholaydi.

Strategiyani qo'llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Har bir o'quvchi, juftlik, guruhga o'rgangan mavzuga oid bir nechta tayanch tushuncha yoki mavzular yozilgan kartochka tarqatiladi.

2. O'quvchi, juftlik, guruh kartochkada ko'rsatilgan tushuncha yoki mavzulardan birini tanlab, ular asosida kichik hikoya, esse yoki maqola tayyorlaydi.

3. Agar o'quvchi, juftlik, guruhga bir necha tayanch tushuncha (so'zlar) taqdim etilsa, yaratilgan hikoya, esse yoki maqolada ushbu tayanch tushunchalar ishtirok etishi zarur.

4. Har bir o'quvchi, juftlik, guruh avval hikoyaning qoralamasini yozadi.

5. Har bir o'quvchi, juftlik, guruh tomonidan tayyorlangan hikoya, esse yoki maqola tekshirilib, oqqa ko'chiriladi.<sup>19</sup>

6. Hikoya, esse hamda maqola tayyorlash uchun har bir o'quvchi, juftlik, guruhga avval o'zi bilgan, eshitgan, o'qiganlarini yodga olish va ular haqida yozish tavsiya etiladi.

Darhaqiqat, yozma nutq fikrni o'stirish, tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Inson qaysi kasb egasi bo'lmasin, yuksak tafakkur sohibi bo'lsagina, yangilik yaratadi. Yozma nutq malakalarini shakllantirish, og'zaki nutqni takomillashtirish faqat soha doirasidagi muammo emas, balki umumta'lim jarayonidagi zurratdir. Negaki yozma va og'zaki nutqning me'yoriy darajada shakllanishi fikrlash tezligini oshirishga, o'quvchi tafakkur doirasini kengaytirishga yordam beradi. Yozuv bevosita qo'l bilan amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, qo'l harakatining miya yarim sharlariga aloqadorligi psixologik tahlillarda qayd etilgan.

Yozma ishlarga e'tibor faqatgina milliy pedagogik tajribada emas, xorij ta'limi va baholash tizimida ham kuzatiladi. Masalan, keng yoyilgan til o'qitish dasturlari hisoblangan IELTS, TOEFL tizimlarida 60 daqiqalik umumiy mavzuda esse yoki insho yozish, 50 daqiqa mobaynida o'qiganlari hamda eshitganlari bo'yicha savollarga javob tarzida yoki o'zi bilgan mavzuni dalillar, ma'lumotlarga tayangan holda yozma tarzda asoslab berish talablari keltirilgan.

Yozma ishlarni tashkil qilish nafaqat filologlarni, balki bo'lg'usi matematik, fizik, ximik, biologlarni, ixtirochilarni shakllantirishga xizmat qiladi. Negaki yozma nutq tafakkurni rivojlantiruvchi muhim omil bo'lib, barcha sohalaridagi ta'lim jarayoni negizini tashkil etadi. Shuning barobarida, matematik formulalar, fizik qonuniyatlar mohiyati yozma nutq orqali yoritiladi. Geometrik masalalarni yechish uchun ham yozma matnni to'g'ri anglash, qabul qilish lozim bo'ladi.

**Modellashtirish metodi.** Ma'lumki, hozirda informatika oldida turgan dolzarb masalalardan biri sun'iy intellekt tizimini mukammal holda yaratishdir. Sun'iy intellekt doirasidagi tabiiy tilli interfeys, eksport tizimlari, neyron tarmoqlar, lingvoanalizatorlar, gapiruvchi avtomatlar –

<sup>19</sup> Мухамедов Ш.Х., Усмонбоева М.Х., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар.-Т.,2016. –Б.21.

barchasi kompyuter modellashtirish natijasi hisoblanadi. Shuningdek bu usul faqatgina qulayliklar yaratib qolmasdan, balki vaqtni ham tejaydi.

Modellashtirishning tabiiy va fikriy ko‘rinishlari mavjud. Narsa-buyumlarning asl ko‘rinishini saqlab, hajmi kichraytirilgan maketlar tabiiy model hisoblansa, ramziy tarzda qabul qilingan belgilar fikriy modelni tashkil etadi. Narsa-hodisa haqida aniq tasavvur hosil qilishda tabiiy modellar ahamiyatli bo‘lsa, ularning mohiyatini anglash uchun fikriy modellar yordam beradi. Fikriy modellar shartli ravishda belgilanadi. Masalan, S – geometriyada yuzani, fizikada masofani, mantiqda subyektni ifodalaydi; V – fizikada tezlik, tilshunoslikda unli tovushni, adabiyotda qisqa bo‘g‘inni ifoda etadi; t vaqt va temperaturani bildiradi.

Kadrlar tayyorlash – mamlakat taraqqiyotidagi muhim masala. O‘zbekiston buyuk kelajak sari intilayotgan ekan, shu kelajak egalarini – yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash masalasi ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Har tomonlama bilimli, malakali, muayyan tajribaga ega bo‘lgan, nutq madaniyati talablarini to‘liq o‘zlashtirgan, og‘zaki va yozma nutqi ravon mutaxassis-kadrlarni tayyorlashda an‘anaviy milliy pedagogika hamda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasidan, eng so‘nggi zamonaviy yutuqlardan umumlashtirgan holda foydalanish maqsadga muvofiq.<sup>20</sup>

## **Amaliy mashg‘ulot uchun savol va topshiriqlar:**

### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.**

**1-savol:** *“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari haqida so‘zlang.*

**2-savol:** *Ilmiy -tadqiqot metodlarini ishga solishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad haqida to‘xtaling.*

**3-savol:** *“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fanining falsafa bilan bog‘liqligini tushuntiring. Ushbu matnda qanday falsafiy mazmun yashiringanini ayting.*

## **اتفاق**

جواهرلار ایچیدا اینگ کیچیکلاری چومالیدور لیکن اوزلاری کیچیک بولسالار هم نهائیدا غیرتلی اتفاق جانذاتلاردور اوزلاریچا پادشاه لاری کاتتا لاری اسکرلاری بولادور اولوغلاری نیمانی بویورسا شونی باجارورلار اتفاق و غیرتلاری سالیاسیندا اوزلاریدان کاتتا – کاتتا دشمنلاردان قورقماسلار اگر اولار کبی دشمن کیلیب بیللاریگا تیگسا همه – همه لاری بیلریدان یاپوشوب بیر قوینی بیر ایاغینی بیر قناتیمی قاتیغ تیشلاب اوزلاریندان نیچا برابر کاتتا بولسا هم تیزگینا قاچیرورلار

<sup>20</sup> Sobirov A. va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant.-T.: Turon zamin ziyo, 2016.-B.3-5.

کور دینگیزمی یونگ اوزی خوب مایدادور

بیر لاشیب ارقان بولسا فیل بایلانور

اتفاق قا کوچ - قوت کار ایلاماس

اتفاق قا جین هم آزار ایلاماس

4-savol: "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining adabiyotshunoslik bilan bog'liqligini asoslang.

5-savol: "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining pedagogika bilan bog'liqligini tushuntiring.

6-savol: "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining psixologiya bilan bog'liqligini asoslang.

7-savol: "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining tilshunoslik bilan bog'liqligini tushuntiring.

8-savol: "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining lingvokulturologiya bilan bog'liqligini tushuntiring.

(Ota qadrini sag'ir bilar, ona qadrini yetim). *آته قدرینی صغیر بیلر، آنه قدرینی یتیم*

Keltirilgan maqol ta'rifi asosida til va madaniyat masalalarini yoritishda maqollarning o'rnini ko'rsating.

9-savol: "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining ommaviy axborot vositalari fanlari bilan aloqadorligini tushuntiring.

10-savol: "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fani taraqqiyotining axborot-kommunikatsion texnologiyalari bilan bog'liqligini asoslang.

1-topshiriq: Pedagogik eksperiment bosqichlarini sharhlang.

Eslatma: O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, o'quvchilarda kompetentlikni shakllantirish kabi muammolardan birini tanlang va shu asosda pedagogik eksperiment bosqichlarini to'g'ri joylashtiring.

2-topshiriq: "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida fikr yuriting. Misollar keltiring.

Eslatma: Quyidagi ketma-ketlikka rioya qiling!

falsafa pedagogika psixologiya tilshunoslik adabiyot nutq madaniyati


II. O'quvchilarga mo'ljallab kichik guruhlarda ishlash muammosini aniqlashga doir anketa savollarini ishlab chiqing.

1-amaliy ish: 5-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallang.

2-amaliy ish: 10-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallang.

Eslatma: Bu amaliy ishlarni bajarishda anketani test shaklida tuzishni unutmang.

3-amaliy ish. Soʻzlarning oʻzaro aloqadorligini asoslang.



### OʻZBEK TILINI OʻQITISHGA DOIR YONDASHUV VA TAMOYILLAR

#### **Tayanch tushunchalar:**

*Yondashuv, kommunikativ yondashuv, bixevioristik yondashuv, kognitivizm, filologik maqsad, kompetensiyaviy yondashuv, tamoyil, prinsip, tushuncha, taʼrif, asos, negiz, moyil, moyillik, izchillik, onglilik, tushunarlilik, uzluksizlik, uzviylik, nazariya va amaliyot birligi tamoyili.*

**Oʻzbek tilini oʻqitishga doir yondashuv va tamoyillar haqida maʼlumot. Tamoyil tushunchasiga taʼrif.**

Mavjud metodik adabiyotlarda til materiallarini oʻrgatishda amal qilinishi lozim boʻlgan yondashuv va tamoyillar haqida soʻz yuritilgan. Oʻzbek tili darslarida metod va oʻqitish usullaridan foydalanishda amal qilinadigan yondashuv va tamoyillarni belgilashda N.Mahmudov,

H.Nurmonov, A.G'ulomov, H.Ne'matov, R.Safarova, T.G'aniyev, Sh.Yusupova, I.Toshev, Sh.Yo'ldosheva, N.Yo'ldosheva, N.M.Dadajonova, X.Qurbonova, T.Ziyodova, M.Mirmaxsudova, T.Yusupova, F.H.Aminova va boshqa metodist olimlarning, didaktika bo'yicha esa M.Mahmutov<sup>21</sup>, E.G'oziyev<sup>22</sup>larning tadqiqot ishlari, monografiyalari, metodik qo'llanmalari, ilmiy maqolalariga tayanish mumkin. Shuningdek, xorij metodist olimlaridan Y. Babanskiy<sup>23</sup>, T.Shamova<sup>24</sup>, Sh. Gepelin<sup>25</sup>, L.Federenko<sup>26</sup>, I.Lerner<sup>27</sup>, T.Napolnova<sup>28</sup>, O.Xarchenko<sup>29</sup>larning ishlari muhim metodik manba hisoblanadi.

Maktab va akademik litsey til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmog'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim. Shuningdek, ushbu yondashuvning talabiga ko'ra maktab va akademik litseyning o'quvchilari o'zbek tilini muomala-aralashuv taqozo etadigan, axborot olish ehtiyoji talab qiladigan darajada o'rganishi va egallashi zarur, qolaversa, shu tilning chinakam sohibiga aylanishlari darkor. Kommunikativ yondashuvning mazmun-mohiyati rus tili o'qitish metodikasida yetarlicha o'rganilgan. Metodist-olim O.O.Xarchenko o'z maqolasida bugungi rus tili darsliklari kommunikativ yondashuv asosida yaratilayotganligini uqtiradi va shunga ko'ra ham ta'limning nutqiy (kommunikativ) yo'nalganlik tamoyilini ajratilish lozimligini ta'kidlaydi.<sup>30</sup>

Filologik maqsad bilan nutq o'stirish maqsadi birligini ta'minlash tamoyili kommunikativ yondashuvning amal qilish tarzini ifoda etadi. Filologik maqsad – til hodisalarini o'zlashtirish bo'lsa, nutq o'stirish maqsadi – o'rganilgan til hodisalaridan – tilning boy imkoniyatlaridan mumkin qadar to'liqroq foydalanib nutq mahsulini yaratishdir.

<sup>21</sup> Махмутов М.И. Мактабда проблемали таълимни таъкил қилиш. –Т.,1981.

<sup>22</sup> Гозиев Э. Ўқувчиларни умумлаштириш усулларига ўргатиш ва уларнинг ақлий тараққиёти. - Т., 1979.

<sup>23</sup> Бабанский Ю.К. Рациональная организация учебной деятельности. -М., 1981.

<sup>24</sup> Шамова Т.И. Активизация учения школьников. -М., 1979.

<sup>25</sup> Гепелин Ш.И. Дидактический принцип сознательности. -М., 1964.

<sup>26</sup> Федеренко Л. Принципы и методы обучения русскому языку. -М., 1964.

<sup>27</sup> Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. -М., 1976.

<sup>28</sup> Натольнова Т.В. Познавательные задачи в обучении русскому языку. -М., 1968.

<sup>29</sup> Харченко О.О. Через постижение "тайн языка" – к текстовой компетенции // Начальная школа. – 2007. - №5. – С. 36-43.

<sup>30</sup> Харченко О.О. Через постижение "тайн языка" – к текстовой компетенции // Начальная школа. – 2007. - №5. – С. 36-43.



### **“Tamoyil” tushunchasiga ta’rif.**

Ta’lim tamoyillari ta’lim tizimi oldiga qo’yilgan talablardan kelib chiqadi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish o’qitish tamoyillarini amalda to’g’ri qo’llash bilan bog’liq. Tamoyil va prinsip atamalari pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarda sinonim sifatida almashtirib qo’llanadi. “O’zbek tilining izohli lug’ati”<sup>31</sup>da prinsip va tamoyil atamalariga quyidagicha ta’rif berilgan: *Prinsip* – lotincha so’z bo’ib, “asos, negiz, ibtido” degan ma’nolarni anglatadi: 1. *Biror nazariya, ta’limot, dunyoqarash va sh.k. ning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat asos qilib olinadigan bosh g’oya, qonun-qoida.* 2. *Xulq-atvor, xatti-harakat me’yorlarini belgilaydigan, kishi og’ishmay amal qiladigan ichki ishonch, nuqtayi nazar, qarash, moslik.* *Tamoyil* – arabcha so’z bo’lib, *tebranish, chayqalish, o’zgarib turish, o’zgaruvchanlik, moyillik* degan ma’nolarni anglatadi. Ko’p ma’noli so’z bo’lib, quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1. *Mayl, moyillik.* 2. *Biror sohada tartib, qoida tusini olgan narsa, tadrijiy yo’nalish.* Demak, bu ma’nolar mazmunidan kelib chiqadiki, ta’lim sohasida, aynan o’zbek tili o’qitish metodikasida *prinsip* tushunchasining birinchi ma’nosini, *tamoyil* tushunchasining esa ikkinchi ma’nosini tanlashimiz mumkin. Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun yaratilgan “O’zbek tili o’qitish metodikasi” darsligida *prinsip* so’ziga shunday ta’rif beriladi: “*Prinsip* lotincha so’z bo’lib, “asos, qoida, talab” singari ma’nolarni ifodalaydi. “*O’qitish prinsipi*” deganda dars samaradorligini ta’minlash, ta’lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qo’yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. O’qituvchi ta’lim jarayonini tashkil qilishda ana shu talab va qoidalardan kelib chiqadi va ular o’rtasidagi uzviy bog’liqni ta’minlagan holda amalda tatbiq etish orqali ko’zlangan maqsadga erishadi”.

### **O’zbek tili o’qitishga doir umumdidaktik tamoyillar.**

Ta’lim muassasalarida o’qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy bo’lgan didaktik tamoyillar: o’qitishning o’quvchiga ma’lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o’qitishning ilmiyligi va o’quvchi uchun tushunarligi; sistemaviylik va izchillik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi; ongliklik, faollik va mustaqillik; ko’rsatmalilik; o’quvchilarga individual munosabatda bo’lish va ularning o’quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi tamoyillar garchand umumdidaktik

<sup>31</sup> Ўзбек тилининг изохли лугати: 80000 дан ортик сўз ва сўз бирикмаси. Ж. Ш. Н – Тартибли/ Тахрир хайъати. Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.: ЎЗР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 688 б.

tamoyillar sanalsa-da, o'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasida ularning har biri o'ziga xos ma'no kasb etadi.

Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili ta'limini tashkil etishda o'zbek tili o'qitishning o'ziga xos tamoyillarini umumdidaktik tamoyillar bilan uyg'unlashtirgan holda foydalanganda o'zbek tili darslari samaradorligini oshirish imkoniyatlari to'liq yuzaga keladi. Demak, o'zbek tili mahg'ulotlarini tashkil etishda o'qituvchi mashg'ulot jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun umumdidaktik va o'zbek tilining o'ziga xos tamoyillaridan amalda o'rinli foydalana olishi shart.

*O'zbek tili o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi tamoyili.*

Ta'lim bosqichlarida o'quvchi o'zbek tilining fonetika, leksika va grammatika sohalari yuzasidan o'ta zarur bo'lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ularda o'zbek tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri ishlatish yuzasidan zarur ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Ayni vaqtda o'zbek tili mashg'ulotlari o'quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

Ta'lim, tarbiya va rivojlanish – bir butun jarayon. Ularni bir-biridan ajratgan holda alohida-alohida yoki darsning muayyan bir bosqichida ketma-ket amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilar til hodisalarini o'rganar ekan, ayni vaqtda shu jarayonda ularga tarbiya beriladi; shaxsi rivojlantiriladi.

Ma'rifiy matnlar ta'lim, tarbiya va rivojlanishni ta'minlovchi muhim vositadir. O'zbek tili mashg'ulotlarida tanlanadigan matnlar mavzu jihatidan rang-barang bo'lsa, o'quvchilarning til materiallariga qiziqish darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. O'zbek tili darslarini o'quvchilarning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, turmushi bilan bog'lash, foydalanish uchun tanlanadigan rasmlarning mazmun va mavzuiy rang-barangligini kuchaytirish darsning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi yo'nalishini belgilaydi.

Ma'lumki, o'zbek tili darslarida o'quvchilar bajaradigan ishlar: kuzatish, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari: xayol, diqqat, xotira, tafakkur kabi shaxsiy psixik xususiyatlarni rivojlantirish, qiyinchiliklarni yengish mustaqil ijodiy faoliyatga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ayni vaqtda o'quvchi shaxsini rivojlantiradi. O'zbek tili darslarini tashkil etishda ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi tamoyiliga amal qilish lozim, chunki mashg'ulotlarda faoliyat yuritayotgan o'quvchilar nafaqat zaruriy bilim olishlari, balki sinfda yoki guruhda ham o'qituvchi, ham o'quvchilar bilan o'zaro muloqotga kirishish qoidalariga amal qilishlari kerak bo'ladi. Bu ham o'quvchini katta hayotga tayyorlashning o'ziga xos usuli sanaladi.

Shunday qilib, o'zbek tili darslari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zlaydi. Bu tamoyillar qanchalik uyg'un bo'lsa, o'zbek tili darslarining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Bu jarayon o'z o'rnida guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili bilan o'zaro uyg'unlashib ketadi. Guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili mohiyatida shaxsning atrofida bilan munosabatda bo'lish mazmuni yotadi. Guruhli ta'lim munozara, muzokara tashkil qilish uchun qulay sharoitga ega bo'lib, o'quv masalalarini va topshiriqlarini yechishning samarali yo'llarini birgalikda izlashni ta'minlaydi, o'zaro yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, o'quvchilarning mas'uliyat hissini oshiradi. O'zbek tili darslarida guruhli ta'limni tashkil etish jamoani shakllantirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Noan'anaviy ta'limda ham, an'anaviy ta'limda ham guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra guruhli ta'lim hisoblanadi, zero, u 30-40 nafar o'quvchilardan iborat o'quv guruhi (yoki sinf)larda tashkil etiladi. 100-200 nafar talabalardan iborat kurslarda esa ta'limga sarflanadigan harakatlarni kamaytirish maqsadida ma'ruzalar o'qish tashkil qilinadi. Bunday ta'lim shakli o'quvchilarning o'quv masalalarini va topshiriqlarini yechishiga oid samarali yo'llarini birgalikda izlashini ta'minlaydi, bir-birlariga yordam ko'rsatish uchun shart-sharoit yaratadi, o'quvchilarda mas'uliyat va javobgarlik hissini kuchaytiradi.

Har qanday takomillashgan ta'lim tizimida sifatni yaxshilashda eng asosiy nuqta dars jarayoni (ma'ruza, amaliy mashg'ulot va laboratoriya mashg'ulotlari) bo'lib qolaveradi, talaba yangi mavzu bilan birinchi marta dars shakllari orqali tanishadi. Shunday ekan ta'lim sifatini oshirishda, mustaqil ta'lim, darsdan tashqari shug'ullanish, to'garaklar va boshqalarni e'tibordan qoldirmasdan o'qituvchi va o'quvchi to'g'ridan to'g'ri muloqatga kirishadigan dars jarayonini ham takomillashtirib borish lozim.

*O'zbek tilini o'qitishda ilmiylik va tushunarlilik tamoyili.* Ta'limning ilmiyligi va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lish tamoyillari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalardir.

Ta'limning ilmiylik tamoyili o'quv materialini hozirgi zamon o'zbek tilshunosligi fani yutuqlari asosida bayon qilishni taqozo etsa, ta'limning tushunarli bo'lish tamoyili o'quv materiallarini o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga, ularning umumiy taraqqiyoti hamda bilish imkoniyatlariga moslab bayon qilishni talab etadi. Ta'lim jarayoni mantiqi bu tamoyillarni o'zaro aloqadorlikda qarashni zaruriyat qilib qo'yadi. Mazkur tamoyilga ko'ra o'zbek tilidan har bir sinfdan yoki guruhda o'rganiladigan material hajm hamda mazmun jihatlariga ko'ra bir-biridan

firq qiladi. Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'zbek tili fani o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlarga tayanadi. Bu tamoyil o'quvchilarni hozirgi o'zbek tilshunosligida qat'iy hal etilgan, ilmiy asoslangan bilimlar bilan qurollantirishni talab qiladi. Biz bolaga, asosan, o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bemaol foydalanish, to'g'ri yozish, to'g'ri o'qish, to'g'ri fikrlash va to'g'ri so'zlash uchun zarur bo'lgan bilimlarinigina berish imkoniyatiga egamiz, xolos. Demak, ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'zbek tili kursi o'quvchilarni yuqorida tilga olingan malakalar bo'yicha zarur bilimlar tizimi bilan qurollantiradi.

Ilmiylik tamoyilini tushunarliklikdan ajratib bo'lmaydi. Bu ikki tamoyil bir-birini to'ldiradigan va dars samaradorligini ta'minlaydigan tamoyil hisoblanadi. Chunki ilmiy bilimlar bo'lmasa, o'quvchi uni o'zlashtira olmaydi.

Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'zbek tili darsliklarida ilmiylik va tushunarliklikni ta'minlash uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

✓ fanda ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan, ilmiy jihatdan asoslangan ta'lim muassasalariga moslashtirilgan atamalarni ishlatish; har bir tushuncha va atamaning ma'nosini atroflicha ochish; ularni o'quvchilarning puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun yetarli miqdorda asosli materiallar bilan tahlil qilish;

✓ o'rganilayotgan o'quv materiallarining oldin o'rganilgan mavzular bilan bog'lanishiga amal qilish; o'quvchilarni keyingi mavzularni o'zlashtirishga tayyorlash; til asoslari, tushunchalarni o'zaro chog'ishtirib o'rganish;

✓ o'zbek tili ta'limi mazmunida grammatizmga yo'l qo'ymaslik, o'quv materialini mustaqil va ijodiy fikrlashga, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga bo'ysundirish;

✓ o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning ruhiy (psixologik) xususiyatlari va imkoniyatlariga mo'ljallab tanlash.

### ***Ona tilini o'qitishda sistemaviylik va izchillik tamoyili.***

Ma'lumki, ona til ta'limida izchillik va ketma-ketlik, uzviylik va uzluksizlik tamoyili ham muhim o'rin tutadi. Ushbu tamoyilga ko'ra til bilimiga oid jihat o'zaro aloqadorlikda, izchil va uzviy taqsimlanmog'i, o'quv yillari mobaynida tadrijiy takomilda o'rganilmog'i darkor. Shuningdek, bu tamoyil mazmuni, asosan, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlari bilan ham belgilanadi. Bu tamoyil mazmuniga ko'ra alohida parsial (yunoncha *partialis* – qisman)

va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi. Ma'lumki, izchillik va muntazamlilik, uzviylik va uzluksizlik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi. Muntazamlilik va ketma-ketlik, uzluksizlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro moslikni tahlil qilishga imkon beradi. O'zbek tili darslarini tashkil etishda o'quvchiga beriladigan topshiriqlar va mashqlar mohiyati oddiydan murakkabga qarab borishni taqozo etadi. Chunonchi, izchil va uzluksiz o'zbek tili ta'limi mobaynida yoshlar nutq madaniyatini talab darajasida egallashlari kerak. Shunga doir bilim, ko'nikma va malakalar muntazamlilik, uzviylik, ketma-ketlik asosida shakllana boradi. Ular bosqichma-bosqich, aniq, ta'sirchan, lo'nda fikr bayon qilishni o'rganishadi. O'tilganlarni takrorlash va qayta xotiraga tushirish mashqlarini o'tkazish mazmun-mohiyatiga ko'ra uzluksizlik va uzviylik, izchillik va ketma-ketlik tamoyiliga asoslanadi. O'rganilayotgan yangi mavzuning mohiyatini o'quvchilarga anglatish ba'zi o'rinlarda ancha avval o'tilgan mavzularning o'quvchilar xotirasida qanchalik saqlanib qolganiga ham bog'liq. O'tilgan mavzularni yangi o'rganiladigan mavzular bilan bog'lashda tatbiq etiladigan metodlarni va innovatsion texnologiyalarni darsga joriy etishda uzluksizlik va uzviylik tamoyiliga tayaniladi. Shunda mavzulararo bog'liqlik amalga oshiriladi, qolaversa, ta'limning bosqichlariaro uzluksizligi va uzviyligi namoyon bo'ladi.

Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqil faoliyatini nazarda tutadi.

#### ***O'zbek tili o'qitishda nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili.***

O'zbek tilini o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash, deganda o'quvchilarning til sohasidagi ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo'llashni ta'minlash, ularni mustaqil turmush uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish tushuniladi. Nazariyani amaliyotga bog'lash o'zbek tili o'qitishni foydali maqsadlarga burish, o'rganilayotgan til hodisalarini o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga bo'ysundirish, til ta'limini ijtimoiy hayot, kundalik turmush, odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'lash demakdir.

O'quvchi o'zbek tilini yaxshi o'rganib olsagina, uning zehni, ongi va umumiy madaniy darajasi ortadi. O'z tilining keng imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bimalol foydalana oladigan shaxsgina xalq yaratgan madaniy-tarixiy boyliklardan xabardor bo'ladi, u boshqa fanlar

asosini chuqur o'zlashtirishga dadil qadam tashlaydi. Og'zaki hamda yozma nutqdan foydalanish malakasiga ega bo'lgan o'quvchi ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsata oladi. Mustaqil turmushga uning o'zbek tilidan bilganlari, to'g'ri yozish va o'qish malakalari, mazmunli va chiroyli so'zlash san'ati, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash ko'nikmalari, ish qog'ozlari bilan muomala qilish uquvi qo'l keladi. Shuning uchun ham o'zbek tili o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash tamoyili juda muhim qonuniyat sanaladi.

Ayrim o'qituvchilar: "O'quvchi o'zbek tilining qonun-qoidalarini bilsa, u savodli yozadi", - degan fikrni ilgari suradi. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Chunki o'zbek tilining qonun-qoidalarini bilish boshqa, undan amaliy ish jarayonida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish boshqa.

O'zbek tilini o'qitishda nazariyani amaliyot bilan bog'lash maqsadida har bir soatlik dars mashg'ulotida o'qituvchi o'quvchilarga mavzu yuzasidan nimalarni bilishlari, nimalarni amalda qo'llay olishlari lozimligini aytishi maqsadga muvofiqdir. O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchilar tomonidan tuziladigan matnlar, yoziladigan bayon va insholar nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirishga yordam beradi. Shunday qilib, til hodisalarini tahlil etish va tahlil etilgan hodisalarga tayanib xulosalar chiqarish, o'rganilgan qoidalarni dalillar vositasida isbotlash, matn ustida ishlash, ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish nazariyani bevosita amaliy faoliyatga olib o'tadi.

#### ***O'zbek tilini o'qitishda onglik, faollik va mustaqillik tamoyili.***

Didaktik adabiyotlarda *onglik* deganda o'rganilayotgan mavzuga oid axborot mazmunini asosli egallash, xulosa va umumlashmalarni chuqur va atroflicha fahmlash, mavzu yuzasidan tizimli, to'g'ri bayon qilish, o'rganilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana olish tushuniladi. Bu tamoyil til hodisalarining mohiyatini anglab, tushunib, ongli o'zlashtirishni talab qiladi.

Onglik tamoyili o'quvchida o'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadini to'g'ri anglash, mavzularni ongli egallash, o'rganish va o'zlashtirish, mustahkamlash kabi xususiyatlarni tarbiyalaydi.

O'zbek tili materiallarini ongli o'zlashtirishni ta'minlash o'qituvchi oldiga qator talablarni qo'yadi. Bu talablar:

✓ o'quv materialining o'quvchilar yosh xususiyati va bilim saviyasiga mos tushishi, ularning o'quv imkoniyatlariga to'g'ri kelishi;

✓ o'rganiladigan materialni o'rganilgan materiallar bilan uzviy bog'lash;

✓ grammatik tushunchalar yuzasidan o'quvchilarning fikrlash faoliyatini yuzaga keltirish; zarurat tug'ilganda ana shu tushunchalarni qisqa va tushunarli izohlash;

✓ misollarning aniq va hayotiy bo'lishi, o'quvchilar topgan misollardan unumli foydalanish;

✓ mashqlarning qiziqarli va rang-barangligiga erishish;

✓ darslarni ma'lum bir tizimda olib borish;

✓ tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurol va texnika vositalaridan unumli foydalanish kabilar.

Ta'limda faollik va mustaqillik o'zaro uzviy bog'langan didaktik kategoriyalardir. Har qanday faollik asosida aqliy faoliyat yotadi. Ammo bu "faollik" va "mustaqillik" bir xil tushunchadir, degan fikrga olib kelmasligi kerak. *Faollik mustaqillik* tushunchasiga nisbatan ancha keng. *Faollik* deganda biz o'quvchilarning ham o'qish, ham ijtimoiy topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faoliyatini nazarda tutamiz. O'quv faolligi umumiy faollikning ajralmas qismi bo'lib, u bilimlarni egallashda faol ishtirok etish, kuchaytirilgan faoliyat ko'rsatish demakdir.

*O'zbek tilini o'qitishda ko'rgazmalilik tamoyili.*

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Y.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, umuman shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish orqali natijaga erishishga asoslangan ta'limga intilishimiz kerak", – deb ta'kidlaydi<sup>32</sup>.

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 % , ko'rib qabul qilish esa – 25 % ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ularning bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida: yangi materialni o'zlashtirish, mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda foydalanish mumkin. Darslar kichik guruhlar asosida tashkil etilganda ham ko'rgazmali qurollardan yetarli darajada foydalanish zarur. Har bir guruh bajaradigan topshiriqlar va ularning javoblari monitoring qilib borilishi o'qituvchi va o'quvchilarni aniq maqsad sari yo'naltiradi.

---

32. Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб. пед. соч. В 2 том. М. 1982. Т.1. – с. 384.

*O'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning yoshi va xarakter-xususiyatlarini hamda o'quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili.*

Ta'limning o'quvchi yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili o'quvchilarga individual yondashuvni anglatadi. Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi, imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgari ketse, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va boshqa sharoitlarni aniqlashni talab etadi. Kichik guruhlar bilan ishlash asosida tashkil etiladigan darslarda ham o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish o'ta muhim. Chunki o'quvchiga taqdim etilayotgan barcha o'quv materiallari va topshiriqlar ularning o'zlashtirishlari uchun mos kelishi kerak. Masalan, 5-sinf o'quvchilari uchun tayyorlanayotgan savol va topshiriqlar mazmunida oddiylilik, ma'lum darajada o'yinga moyillik ustun bo'lishi hisobga olinishi zarur.

O'zbek tili darslarida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hamda real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyiliga qat'iy amal qilish quyidagi afzalliklarga ega:

✓ o'qituvchi tomonidan tanlanadigan o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga muvofiqlashtirish imkoniyati vujudga keladi. O'qituvchi o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda darslik va qo'shimcha o'quv materiallaridan foydalanadi;

✓ o'quv imkoniyatini aniqlash o'zbek tili o'qitishning shakl, metod va usullarini to'g'ri belgilashga, maqsadga muvofiq keladigan dars turini tanlashga imkon beradi;

✓ o'quv imkoniyatini bilish tabaqalashtirilgan ta'limdan foydalanish imkoniyatini beradi. Chunki har bir o'quvchining o'quv imkoniyatini bilmay turib, o'quv topshiriqlarini tabaqalashtirish mumkin emas. Bolaning o'quv imkoniyatiga mos tushadigan topshiriq esa uni bajarishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi; bilishga bo'lgan ishonchini orttiradi; sinf yoki guruhdagi o'quvchilarning faollik ko'rsatishlarini ta'minlaydi; sinf yoki guruhdagi barcha o'quvchilarning, deyarli, bir vaqtda topshiriqni bajarishlariga shart-sharoit yaratadi;

✓ o'quv imkoniyatlarini hisobga olish o'zbek tili darslarida bolani tarbiyalash va rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi. Imkoniyatga muvofiq keladigan topshiriq shaxsiy-ruhiy xususiyatlar: iroda, qobiliyat, xotira, ijodkorlikni tarbiyalaydi. O'zbek tili darslarini o'quvchilarning



imkoniyatlari doirasida tashkil etish ularning o'z kuchlaridan foydalanishlarini ta'minlaydi.

### **O'zbek (ona) tili o'qitishning o'ziga xos tamoyillari.**

O'zbek tili o'qitishda umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda shu fanning tabiatidan kelib chiqadigan quyidagi o'ziga xos tamoyillar ham mavjud: 1) **"til – me'yor – nutq mutanosibligi"** tamoyili; b) o'zbek tili fanini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish tamoyili; d) o'zbek tilini o'qitishda mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishga qat'iy amal qilish tamoyili; g) o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish tamoyili; e) o'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini oshirish tamoyili; f) o'zbek tilini o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish tamoyili.

O'zbek tili o'qitishning o'ziga xos tamoyillari, bir tomondan, o'zbek tilining o'z xususiyatlaridan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, tilni o'zlashtirish psixologiyasiga ko'ra belgilanadi. Biz quyida o'zbek tilining o'ziga xos tamoyillariga alohida-alohida to'xtalamiz:

#### ***"Til – me'yor – nutq mutanosibligi" tamoyili.***

Tilning asosiy qonun-qoidalari, zarur birliklarini (nutq tovushlari, qo'shimchalar, so'zlarni), ularning birikish qonun-qoidalarini o'quvchi jamiyatdan tayyor holda oladi. Hali o'zbek tilini maxsus o'quv fani sifatida o'rganmagan shaxs ham so'zlarni o'zaro birliktirib, gap tuza oladi. U o'z fikrini boshqalarga bayon qiladi va o'z g'alar fikrini tushunadi. Maktabda o'zbek tilidan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchining o'zida mavjud bo'lgan ana shu imkoniyatlarini kengaytiradi; ya'ni uni o'zbek adabiy tilining boy xazinasiga olib kirish orqali fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatadi.

Til ichki imkoniyat sifatida aniq bir fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqaradi. Bu ichki imkoniyat tilda behad ko'p va xilma-xildir.

Me'yor tilning ichki imkoniyatlarini o'quvchi ongiga singdiruvchi omildir. Boshqacha qilib aytganda, me'yor nutqni ro'yobga chiqarish maqsadida til imkoniyatlaridan foydalanish uchun ko'rsatkichlar majmuasi sanaladi. Me'yorning oliy ko'rinishi milliy, adabiy til uslublari, mezonlaridir. Milliy, adabiy til me'yorlaridan xabardor o'quvchigina o'zbek tili ta'limining so'nggi natijasi hisoblangan matn yaratishga qodirdir. Nutq til imkoniyatlarining yuzaga chiqishi, voqealanishidir. Tilning boy ichki imkoniyatlaridan xabardor shaxs o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bema'lol bayon qila oladi.

O'zbek tili ta'limida "til – me'yor – nutq" tushunchalari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ularni ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Dars mashg'ulotlarida bu tushunchalar o'rtasida mutanosiblik bo'lmasa, o'zbek tili ta'limining asosiy maqsadi – nutq taraqqiyoti ortda qoladi.

*O'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurini o'stirishga erishish tamoyili.*

O'zbek tili darslari o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirishda yuqshli imkoniyatlarga ega. Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayoni, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali fikr vujudga keladi. Fikrlash faoliyati esa nutq holatida namoyon bo'ladi. Demak, o'quvchi o'z tafakkurini rivojlantirmay turib, og'zaki va yozma nutqni egallay olmaydi. Tafakkur kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, guruhlash kabilarda namoyon bo'ladi.

Tafakkur mustaqil aqliy faoliyat mahsulidir. O'quvchi til hodisalari yuzasidan mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatmas ekan, unda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Ijodiy izlanish va ijodiy fikrlash o'quvchida ijodiy tafakkurni yuzaga keltiradi. Ijodiy tafakkur esa noma'lum bo'lgan til hodisalarining mohiyatini bilib olishga yordamlashadi: egallangan bilimlarning puxtaligini ta'minlaydi: o'quv materialiga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ularga beriladigan savol va topshiriqlarning ahamiyati katta. O'qituvchi savol va topshiriqlarni darslikdan olishi yoki uni o'zi tuzishi mumkin. Tafakkurni rivojlantirish aqliy faoliyat usullari (kuzatish, qiyoslash, guruhlash, umumlashtirish kabilar)ni to'g'ri ishga solish bilan chambarchas bog'langan.

*O'zbek tili kursi bo'limlari orasidagi bog'lanish va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ta'minlash tamoyili.*

O'zbek tilini o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri mavzulararo, bo'limlararo, sinflararo, fanlararo bog'lanishdir. O'zbek tili o'qituvchisi mavzular va bo'limlarning bog'lanishi, aloqasini aniq belgilashi va o'qitish jarayonida unga amal qilishi lozim. V sinfda "leksika" bo'limi o'rganilar ekan, u so'z yasalishi va grammatika bilan, fonetika, so'z yasalishi va morfologiya bilan uzviy bog'lanadi. So'z yasalishi esa leksika bilan ham, morfologiya bilan ham chambarchas bog'langan. Chunki, so'z yasash natijasida yangi leksik ma'noli so'zlar hosil bo'ladi, yangi yasalgan har bir so'z ma'lum so'z turkumi sifatida shakllanadi. Maktab o'zbek tili kursining turli bo'limlari orasidagi o'zaro bog'lanishga amal qilish o'qituvchiga o'tilganlarni samarali, mukammal takrorlash va mustahkamlash imkonini beradi. Chunonchi, o'quvchi mustaqil so'zlarni o'rganar ekan, bunday so'zlarning sintaktik vazifalarini,

sintaksisni o'rganishda esa so'z turkumlari haqidagi ma'lumotlarni takrorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbek tili fani ichidagi bog'lanish ikki xil ko'rinishga ega: **1. Regressiv bog'lanish.** Bog'lanishning bu ko'rinishi o'tilayotgan yangi o'quv materialini oldin o'rganilgan material bilan bog'lashni nazarda tutadi. **2. Progressiv bog'lanish.** Bunda o'qituvchi o'rganilayotgan materialni o'rganilishi ko'zda tutilgan material bilan bog'laydi<sup>33</sup>. Didaktikaning bu muhim prinsipini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, birinchidan, o'qitishning barcha bosqichlarida (boshlang'ich maktab, to'liqsiz o'rta maktab) o'zbek tili ta'limi oldiga yagona talablar qo'yilishi lozim. Ayniqsa, o'zbek tili o'qitishning birinchi bosqichi (boshlang'ich maktab) va ikkinchi bosqichi (5-9-sinflar) o'rtasida uzviylikka erishish ta'lim samaradorligining muhim omilidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zbek tilining izchil kursidan nimalarni o'rganishlarini va o'zbek tili o'qituvchilari nimalarga e'tibor berishlarini yaxshi bilish lozim.

O'qituvchi ta'limning har bir bosqichida o'quvchining nutq taraqqiyotida bo'ladigan o'zgarishlarni bilishi va unga tayanishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari keyingi sinflarda o'quvchilar nutqida paydo bo'ladigan yangiliklarni oldindan ko'ra olishlari va aksincha, o'zbek tili o'qituvchilari boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqida paydo bo'ladigan o'zgarishlarni bilishi shart.

O'zbek tilini o'qitishda bu o'quv fanining boshqa o'quv fanlari bilan aloqasini ta'minlash ham muhim metodik talab sanaladi.

Ma'lumki, o'zbek tili maktabda o'rganiladigan barcha fanlarni puxta o'zlashtirish uchun muhim kalit sanaladi. Til vositasida o'quvchi boshqa fanlarni o'rganadi. Barcha o'quv fanlari yuzasidan o'z fikrini yozma va og'zaki ravishda bayon etish orqali o'quvchi o'zbek tilini ham puxtaroq egallab boradi. Deyarli, hamma fanlar o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish, orfografik savodxonligini oshirish, nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, o'quvchilarda yuksak nutq madaniyatini tarbiyalash nafaqat o'zbek tili darslari, balki maktabda o'rganiladigan barcha fanlar orqali amalga oshiriladi. O'zbek tili turli yo'nalishlar orqali boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanadi. So'zning genetik nuqtayi nazaridan kelib chiqishini aniqlash uchun tarix faniga murojaat qilinsa, til hodisalarini taqqoslash uchun o'quvchilar o'rganayotgan boshqa o'quv fanlariga murojaat qilishadi. Nutq uslublarini aniqlash uchun esa adabiyot, tarix, matematika, kimyo, fizika kabi fanlar o'qituvchiga yordam

<sup>33</sup> Metodikaga doir adabiyotlarda bu tasnif yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga qarab bog'lanish tarzida guruhlangan. Biz "oldinga va orqaga bo'lgan harakat-holat yo'nalishi" tushunchasini ifodalaydigan progressiv va regressiv terminlaridan foydalandik.

beradi. Shunday qilib, o'zbek tilining boshqa fanlar bilan aloqasini uch katta guruhga ajratish mumkin:

- a) genetik bog'lanish;
- b) qiyosiy bog'lanish;
- v) funksional bog'lanish.

***O'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish tamoyili.***

Til hodisalarini ajratish maktab "O'zbek tili" o'quv fanida qo'llaniladigan atamalarning ma'nosini tushushishdan tortib, o'rganilayotgan til materiallarini kuzatish yoki o'zaro qiyoslash asosida o'xshash, farqli tomonlarini aniqlash, mustaqil ravishda umumlashmalar hosil qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, har bir o'zbek tili mashg'ulotida o'quvchilar muayyan atamaga duch keladi. Masalan, "Fonetika" bo'limi o'rganilar ekan, tovush, harf, unli, undosh, jarangli tovush, jarangsiz tovush, bo'g'in, urg'u kabi zaruriy atamalar bilan ish ko'radi. Agar o'quvchi bu atamalarning ma'nosini tushunmasa, bo'limni ular tomonidan o'zlashtirilgan deb bo'lmaydi. Til hodisalarini ajrata olmaslik ko'p hollarda ularni aralashtirib qo'llashga sabab bo'ladi. Masalan, o'quvchilar *barmoq*, *sarg'ish*, *turmush* kabi so'zlar tarkibidagi *-moq*, *-ish*, *-sh* qo'shimchalariga qarab, uni harakat nomi deb atashadi. Ayniqsa, kelishik bilan egalik, turlanish bilan tuslanish, morfologik tahlil bilan sintaktik tahlil kabilarda ularni farqlay olmaslik holatlari ko'p uchraydi. Buning uchun oldin o'rganilgan atama bilan keyin o'rganiladigan atama orasida mustahkam zanjir hosil qilinmog'i lozim. Zero, bilimlar halqalardan tashkil topgan bir butun zanjirdir. Til hodisalarini ajratish, ayniqsa, matn ustida ishlash jarayonida ko'proq kerak bo'ladi. Chunki o'quvchi tanlangan matndan u yoki bu til hodisasini ajratishi, uning mohiyatini sharhlashi, shu asosda umumlashmalar hosil qilishi lozim.

***O'zbek tilini o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish tamoyili.***

Ma'lumki, o'zbek tili o'zining sheva qatlami jihatidan xilma-xil va juda murakkabdir. O'zbek milliy tili boshqa qardosh turkiy tillarga nisbatan ko'p shevali hisoblanadi. Professor V.V.Reshetov va boshqa olimlar tasnifiga ko'ra, o'zbek xalqi qatlamida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan (farq qiladigan) uch dialekt birligi bor: 1) qipchoq; 2) o'g'iz; 3) qarluq-chigil-uyg'ur.

Bu yirik dialektlarning har biri, ayniqsa, qarluq, chigil, uyg'ur lahjasi, o'z navbatida, bir necha ayrim mayda bo'laklarga bo'linadi.

Dialektlar fonetik xususiyatlari jihatidan *ota, ona, boradi* kabi soʻzlarni *ata, ana, baradi* kabi aytuvchi *a-* lovchi shevalar va *yer, yel* deguvchi *y-* lovchilar hamda *djer, djil* deb aytuvchi *dj-*lovchi shevalarga boʻlinadi. Ana shu dialekt va shevalar respublikamiz hududida (va undan tashqarida) yashovchi oʻzbeklar uchun aloqa vositasi boʻlib xizmat qiladi, oʻzbek dialektlaridagi mana shu xilma-xillik oʻquvchilar nutqiga taʼsir etadi.

Oʻzbek xalq shevalaridagi fonetik har xilliklar, koʻp hollarda, oʻzbek adabiy tilida soʻzlarni orfoepik qoidalar asosida talaffuz etishga monelik qiladi. Bu orfoepik xatolarning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Masalan, qipchoq dialektiga mansub oʻquvchilarning koʻpchiligi soʻz boshida adabiy tildagi *y* oʻrniga *j* talaffuz qiladi (*yo 'q-jo 'q, yigit-jigit*); *u, i*, unilari bilan boshlangan ayrim soʻzlarning oldiga *j* ni qoʻshib aytadi (*uzum-juzum, iliq- jiliq*); soʻz oʻrtasida yoki oxirida kelgan *g'* tovushini *v* bilan almashtiradi (*to 'g'ri-tuvri, tog '-tov*), *p, k*, tovushlarini *b, g*, bilan almashtirib aytishadi (*qop-qab, ko 'k-ko 'g*) v.h. Bu esa oʻquvchilarda orfoepik va orfografik savodxonlikni taʼminlashni birmuncha qiyinlashtiradi.

Oʻzbek dialektlari morfologik jihatdan ham adabiy til meʼyorlaridan maʼlum darajada farq qiladi. Masalan, qipchoq dialektiga mansub oʻquvchilar tomonidan qaratqich kelishigining qoʻshimchasi *-ningni -ding, -ting* shaklida qoʻllash hollariga tez-tez duch kelamiz. Oʻzbek dialektlarining leksik jihatdan ham adabiy tildan farq qiladigan koʻp tomonlari borki, ular dialektal xatolarning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Masalan, oʻzbek adabiy tilidagi *do 'ppi* soʻzi Toshkentda *to 'ppi*, Samarqanda *qalpoq*, Shahrixonda *qalpoq*, Buxoroda *kallapo 'sh, tovoq* soʻzi esa Toshkentda *lagan*, Andijonda *tovoq*, Buxoroda *tabaq*, Shahrixonda *tavoq* shaklida aytiladi.

Oʻzbek adabiy tilining meʼyorlari bilan xalq shevalari oʻrtasidagi bunday farqlar oʻzbek tili oʻqituvchisidan mahalliy dialekt sharoiti va taʼsirining oldini olish yuzasidan doimiy ish olib borishni talab qiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilar nutqidagi dialektal xatolarning oldini olish va bartaraf etish uchun qator usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, talaffuzi qiyin boʻlgan soʻzlarning dialektal shakli bilan adabiy – orfoepik shaklini qiyoslash, soʻzlarni adabiy til meʼyorlariga muvofiq talaffuz etish, oʻquvchilar nutqini magnitofon lentasiga yozib olib, qayta eshittirish orqali ularning xatolarini aniqlash va tuzatish, mustaqil ravishda dialektal lugʻat tuzish kabi topshiriqlardan foydalansa boʻladi. Taʼlim prinsiplari bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan, boʻlib, ularga qatʼiy amal qilish dars samaradorligini oshirish, oʻquvchilarni puxta bilim, malaka va

ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini tobora kengaytirishga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **O'zbek tili o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.**

O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili deb qonunlashtirilgandan keyin xalq ta'limi oldiga Respublika taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi qo'yildi. O'zbek tili mashg'ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g'oya va ajdodlarimiz an'analarni e'zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda o'zbek tili o'qituvchisining mas'uliyati katta. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning umumiy madaniyatni yuksaltirishga, farzandlarimizning jamiyatda munosib o'rnini topishiga, yigit-qizlarimizni jamiyat, davlat, oila oldida o'z mas'uliyatini chuqur anglab yetuvchi shaxslar sifatida tarbiyalash maqsadlari o'zbek tili va adabiyot darslarida amalga oshiriladi.

O'zbek tili va adabiyot ta'limining bosh maqsadi o'quvchi shaxsini, uning ma'naviyatini shakllantirish ekanligi bois ham "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da barkamol inson tarbiyasi bo'yicha qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu vazifalar boshqa fan o'qituvchisi faoliyatidan keskin farq qiluvchi o'zbek tili va adabiyot muallimidan katta mas'uliyat talab etadi. O'zbek tili va adabiyot o'qituvchisigagina xos bo'lgan bilimdonlik, o'qitadigan fanini puxta bilish, notiqlik san'atiga ega bo'lish, o'qitish vositalaridan foydalanish malakasini egallash, o'quvchi va talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilish, baholash, bilimlarni uzluksiz mustaqil egallab borish, o'qituvchining shaxsiy sifatleri: mehnatsevarlik, yuksak madaniyatlilik, mustaqillik, ijodkorlik, kamtarlik, axloqiy poklik va boshqalar o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'ota olish kabi sifatlar o'quvchi va talaba madaniyatini shakllantirish, o'zbek tili va adabiyot darslarining samaradorlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'zbek tili o'qituvchisi shaxsiga jiddiy talablar qo'yiladi. Ular pedagoglar va psixologlar tomonidan chuqur o'rganilgan. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan eng muhim talab uning yuqori malakali bo'lishidir, chunki busiz pedagogik faoliyat yuritib bo'lmaydi.

*Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'zbek tili o'qituvchilariga quyidagi muhim va doimiy talablar qo'yiladi:*

- jamiyat rivojlanishining siyosiy, sotsial va iqtisodiy yo'nalishlarini to'g'ri baholay olish;
- muayyan taraqqiyot davrida jamiyat uchun zarur bo'lgan bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish standartlarini egallash;
- pedagogik faoliyatni sevish;
- o'z sohasi (til bilimi) bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish;
- zakovatli bo'lish;
- pedagogik tuyg'uga ega bo'lish;
- yuksak yetuklik;
- umumiy madaniyat va axloqning yuksak darajasi;
- ona tili ta'limiga muvofiq keladigan pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan egallash.

O'zbek tili o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar: *kirishuvchanlik, san'atkorlik, mas'uliyat, yaxshi did va boshqalar.*

Yuqorida sanab o'tilganlar o'zbek tili o'qituvchisi shaxsiga xos bo'lgan tug'ma xislatlar emas, balki ular o'zbek tili o'qituvchisining o'z ustida muntazam va betinim mehnati, ulkan xizmatlari natijasida yuzaga keltiriladi.

*O'zbek tili o'qituvchisining kasbiy faoliyati favqulodda umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab qiladi.*

O'zbek tili ta'limida kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko'pincha **xususiy pedagogik qobiliyatlarga** ham bog'liq bo'ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

- obyektga (o'quvchi yoki talabaga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik – insonlar bilan munosabatga kirisha olish, xayrixohlik, xushmuomalalik;
- perseptiv qobiliyatlar – kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuyg'u;
- shaxs dinamikasi – irodaga ta'sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;
- hissiy barqarorlik – o'zini boshqara olish;
- kreativlik – ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir<sup>34</sup>.

O'zbek tili o'qituvchisining o'qitish, o'rganish va o'rgatish bo'yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi yoki talabaning tushunishini ko'rish va sezish, bunday

<sup>34</sup> G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2012, 380 bet.

tushunishning darajasini va xarakterini bilib olish qobiliyati;

- o'quv materialini o'qitishda samarali usul va metodlarini belgilash qobiliyati;

- materialni yetarli bayon qilish, uning barcha o'quvchi yoki talabalarga tushunarli bo'lishini ta'minlash qobiliyati;

- o'quvchi yoki talabalarining individualligini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;

- o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;

- o'quvchilar yoki talabalarining rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;

- pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;

- o'zining tajribasini boshqalar bilan baham ko'rish qobiliyati;

- mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

*O'quv-tarbiya jarayoniga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:*

- boshqa insonning ichki holatini to'g'ri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo'lish qobiliyati (empatiya qobiliyati);

- taqlid qilish uchun namuna bo'lish qobiliyati;

- tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;

- muloqotning lozim topilgan uslubini, o'z o'rmini topish, kelisha olish qobiliyati;

- hurmat qozonish, o'quvchilar, talabalar va pedagogik jamoa o'rtasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqotga bo'lgan qobiliyat alohida ajralib turadi.

O'qituvchining talabalar bilan davomiy va samarali aloqalarini tashkil etishni kommunikativ qobiliyat bilan bog'laydilar.

**Kommunikativ qobiliyat** – bu pedagogik o'zaro aloqalar doirasidagi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan muloqot qobiliyatidir.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir necha guruhlari farqlanadi:

**1. Kishining boshqa kishini bilishi (anglashi).** Bu qobiliyatlar sinfidagi yoki guruhidagi o'quvchi yoki talabaga shaxs sifatida qarash, uning (o'quvchining yoki talabaning) alohida qiyofasi, motivi va xatti-harakatlariga baho berish, kishining tashqi ko'rinishi, xulqi va ichki dunyosiga nisbatan baho berish; imo-ishora, mimikasini uqish kabilarni qamrab oladi.

**2. Kishining o'z-o'zini bilishi (anglashi)** shaxs bilimlarini, qobiliyatini o'z xarakteri va shaxsiyatining boshqa qirralarini atrofida bahosiga mos ravishda bilishni ko'zda tutadi.



**3. Muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish.** Bu vaziyatni kuzatish, uning ko'proq axborot beradigan belgilarini tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning sotsial va psixologik mundarijasini to'g'ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Pedagogika nazariyasiga oid adabiyotlarda o'qituvchini uchta baquvvat ildizga ega bo'lgan ulkan daraxtga qiyoslashadi. Bu o'rinni o'xshatishgina bo'lib qolmay, balki ilmiy jihatdan asoslangan taqqoslash hamdir.

Birinchi ildiz – o'qituvchi ilmiy-nazariy jihatdan dadil, yetilgan bo'lishi.

Ikkinchi ildiz – o'zi dars beradigan fanning sir-asrorlarini puxta egallagan bo'lishi.

Uchinchi ildiz – u pedagogika, metodika, psixologiya asoslarini puxta egallagan bo'lishi kerak.

Mana shu uch ildizning o'qituvchida mujassamlanganligi uning mahoratida, ta'lim-tarbiya sohasidagi kundalik faoliyatida o'z samarasini ko'rsatadi. Ayniqsa, pedagogika va psixologiya fani yutuqlarini o'ziga singdirganligi, o'qitishning yangi, ilg'or metodlarini qo'llay bilishi, qisqasi, pedagogik tayyorgarligi o'qituvchi faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi insoniyat yaratgan ilm durdonalarini o'quvchining (yoinki talabaning) ongiga, qalbiga yetkazishda eng asosiy shaxs hisoblanadi. O'quvchi yoki talabalarining bilimlilik darajasi ularda mujassamlangan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan o'lchanadi. Eng muhimi esa, o'quvchilarning (talabalarining) bilimlarni egallashga tayyorgarlik darajasini yuksaltirishdan iboratdir. O'quvchilarning (talabalarining) bilimdonligi va bilimlarni egallashga shayligini ta'minlash zarur pedagogik malakalardan biridir.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.**

**1-savol:** *“Tamoyil” (prinsip) so'zining lug'aviy ma'nosi nima? Ta'lim prinsipi deganda nimani tushunasiz?*

**2-savol:** *O'zbek tili o'qitish prinsiplariga qaysilar kiradi?*

**3-savol:** *O'zbek tili o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi haqidagi mulohazalaringizni bayon eting.*

**4-savol:** *Ta'limda tizimlilik va izchillik prinsipi deganda nimani tushunasiz?*

**5-savol:** *O'zbek tilini o'qitishda onglilik, faollik va mustaqillik prinsiplarining mohiyatini yoriting.*

6-savol: *O'zbek tilini o'qitishning o'ziga xos prinsiplariga qaysilar kiradi?*

7-savol: *O'zbek tilini o'qitishda "til + me'yor+ nutq mutanosibligi" prinsipi deganda nimani tushunasiz?*

8-savol: *Sizningcha, o'zbek tili o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?*

9-savol: *O'zbek tili o'qituvchisiga qo'yiladigan kommunikativ talablar nimalardan ibirrat?*

10-savol: *O'qituvchining "pedagogik mahorati" deganda nimani tushunasiz?*

11-savol: *Quyidagi matnni o'qing. Unda aks etgan alloma qiyofasini tavsiflang.*

### **Abu Rayhon Beruniy**

(973-1048)

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi.

Beruniy shoh Ma'mun akademiyasida eng taniqli maslahatchi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Beruniy avlodlarga katta meros qoldirdi. Uning turli ilm-fan sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, asarlari bizgacha yetib kelgan. Bulardan tashqari, olim astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakologiya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan shug'ullanib, she'rlar yozdi.

Beruniy qomusiy olim sifatida dunyo madaniyati tarixida muhim o'rin egallaydi.

(Ensiklopediya ma'lumotlaridan)

12-savol: *Talabga javob bera oladigan o'qituvchi, deganda qanday o'qituvchilarni nazarda tutasiz?*

13-savol: *O'qituvchi va o'quvchining do'stona munosabati borasidagi fikrlaringizni bayon qiling.*

14-savol: *O'qituvchining o'quvchi ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi haqida fikringiz?*

15-savol: *Hamkasblarning munosabatiga doir mulohazalaringizni bayon eting.*

1-topshiriq: *O'zbek tilini o'qitishda ilmiylik va tushunarlilik prinsipi haqida fikr yuriting.*

**Eslatma:** Bunda ilmiy tilshunoslik yangiliklari va maktab "O'zbek tili" darsliklarida berilgan mavzular o'zaro qiyoslanishi zarurligini (masalan: Mustaqil so'z turkumlari misolida) yoddan chiqarmang!

**2-topshiriq:** O'zbek tilini o'qitishda nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi prinsipini misollar yordamida tushuntiring. Quyidagi so'zlarning tafakkurda qaysi so'zlar bilan assotsiatsiyalanishini ayting.

صلح حاصل صيد صياد نقصان حصم شخص نصرت  
صحرا صاحب وصيت صحبت صنف صبا حصلت اختصاص  
حلاص احلاص تنقيص مقصد نصيب قاصد اخلاص صفا  
اصراف اصلا اصول قصر تقصير حاصل تصديق وصال  
رقص ضرب ضرر ضرورت ضيا ضر ضرب حضرت  
حاضر راضي رضا ارض تقاضا ضيافت ضميره قضا فضا  
ضديت فضيلت ضربدار ضيافت

**3-topshiriq:** O'zbek tili o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish prinsipi haqida fikr yuriting.

**4-topshiriq:** Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar haqidagi fikrlaringizni klaster usulida ifodalang. Quyidagi matnni didaktik tamoyil asosida tahlil qiling.

#### قناعت

بیر کیشینیگ علی و ولی آتلیغ ایکی اوغلی بار ایردی علی قناعتلیغ ولی قناعتسیز ایردی بیر کون آتاسی بازاردین آلمایب کیلیب ایردی بالالارینی سیناماق اوچون چاقیریب مانا سیزلارغا آلمایب کیلیم دیدی ولی تیزلیک بیرلا کیلیب آتاجان مانگا همه سینی بیرینگ دیدی

علی سیکینگینا کیلیب مانگا بیرگینا آلمایبیرسانگیز بولادیر دیدی آتاسی علی نینگ قناعتیگا آفرین ایتدی و قوچاغینا آلدی پیشاناسیدان اوپوب ایکی آلمایبیردی اما ولی گا آلمایبیرماک قایدا قناعتسیز بولما دیب ادب بیردی

قناعت بیرلا قارین توبنورورسیز

قناعت بولماسا کوپ آچ قالورسیز

قناعتسیز کیشی بغرینی داغلار

قناعتلیک کیشی آغزینی یاغلار

5-topshiriq: *Ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi tamoyilini leksikologiya bo'limini o'qitish jarayoni misolida sharhlang.*

6-topshiriq: *Fonetika bo'limini o'qitish jarayonida foydalanish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan ko'rgazma eskizini tayyorlang.*

7-topshiriq: *"Til – me'yor – nutq mutanosibliği" tamoyili haqidagi fikrlaringizni nutq uslublarini o'qitish jarayoniga tatbiq etgan holda ifodalang.*

8-topshiriq: *O'zbek tili kursi bo'limlari orasidagi bog'lanish va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ta'minlash tamoyiliga oid fikrlaringizni ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan aloqadorlik asosida chizmalar yordamida ifodalang.*

9-topshiriq: *O'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish tamoyilini sharhlang.*

10-topshiriq: *O'zbek tilini o'qitishga doir umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillarni jadval asosida yoriting.*

11-topshiriq: **Matnni o'qing.**

توغریلیغ

بیر کمپیرنینگ اوییدا بیر توپ بلخ توتی بار ایردی نهایتدا توغری اوسغان ایردی بیچاره کمپیرنینگ شو توتدین باشقا هیچ نیمرساسی یوق ایردی پیشگان وقتدا قوروتوب قافغا سالوب بابلارغا تارتوق قیلوب پول آلیب شو ارقالی وقتینی اوتکارور ایردی بیر کون اول شهرنینگ پادشاهی بیر ایوان سالماچی بولوب اوستون اختارگاندا که پیرنینگ توتی آلدیدا توختادی و اوزیچا شول توت یاغچی توغری کیلسا کیراک دیب اویلادی و انی کمپیردین مینگ آلتونغا ساتیب آدی بیچاره کمپیر بای خاتون بولوب قالدی بیر کون کمپیر توتتی کورماق اوچون کیلدی کوردیکه توتی جنت کیی بیر ایوان اورتاسیندا توریدور کمپیر توتیغا قاراب دیدی که

ای توتوم توغریلیغنینگ قیلدی بیزی دولتغا یار

ایگری بولسانگ سان اوتون بولغای ایردینگ مان خار—زار

توغریلار جنتنینگ ابوانیدادور

اوغریلار رنج و علم کونیدادور

*Maktab davringizni eslang va o'rtoqlaringizdagi ijobiy va salbiy xususiyatlarni jadvalga joylashtiring.*

**II. Bilimlaringizni sinab ko'rish maqsadida quyidagi testlarni yeching.**

## TESTLAR

**1. Ta'lim-tarbiya tizimidagi bixevioristik yondashuvning mohiyati qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladigan yondashuv

B. Inson xatti-harakatlarida onglilik – ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadigan yondashuv

D. Insonning o'zi yashab turgan jamiyat qoidalaridan chekingan holdagi xatti-harakatlari

E. Nazariy, amaliy, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy prinsiplar

**2. Tarbiya tizimidagi kognitiv yondashuvning mohiyati ...**

A. Inson xatti-harakatlarida onglilik – ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadigan yondashuv

B. Inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladigan yondashuv

D. Insonning o'zi yashab turgan jamiyat qoidalaridan chekingan holdagi xatti-harakatlari

E. Nazariy, amaliy, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy prinsiplar

**3. Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda talaba va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ... dir.**

A. Ta'lim prinsiplari

B. Ta'lim standartlari

D. Ta'lim turlari

E. Ta'lim usullari

**4. Ta'lim qanday prinsiplarga asoslanadi?**

A. Amaliy nazariy, ijtimoiy, tarbiyaviy ilmiy prinsiplar

B. Nazariy, metodik, amaliy, pedagogik, mantiqiy, psixologik prinsiplar

D. Nazariy, amaliy, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy prinsiplar

E. Tarbiyaviylik, ilmiylik va tushunarlilik, tizimlilik, izchillik, mustaqillik va faollik, ko'rsatmalilik, onglilik prinsiplari

**5. Metodikada ilmiylik prinsipi nimani talab etadi?**

A. Til sathlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish

B. O'quv predmetlarini o'quvchining xususiyatlariga moslashtirish

D. O'quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilish

E. Mustaqil fikrlash va tahlil qilishni o'rganish

6. “Agar o‘quvchilar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim umumiy past bo‘lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik”, - deya ta’kidlaydi O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov. Bu fikr ta’limning qaysi prinsipi mohiyatini o‘zida aks ettiradi?

- A. Mustaqillik va faollik                      B. Tizimlilik va faollik  
D. Ilmiylik va faollik                      E. Tushunarlilik va faollik

7. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingofon, magnitofon, diktofon, radio va teleko‘rsatuvlar, OAV, o‘quv-o‘rgatuv texnikasining so‘nggi yutuqlari: kompyuter, multimediya, kodoskop, videoko kabilar ta’limning qaysi prinsipida qo‘l keladi?

- A. Ilmiylik                      B. Ko‘rsatmalilik  
D. Tarbiyaviylik                      E. Mustaqillik

8. Bilimlarni ongli o‘zlashtirish, ma’no va mazmuni anglash, tushunib o‘rganishga yo‘naltirilgan prinsipni belgilang.

- A. Onglilik                      B. Tarbiyaviylik  
D. Faollik                      E. Izchillik

9. Fanda nimani, qanday, qancha o‘rganish; o‘zlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan qaysi fan shug‘ullanadi?

- A. Pedagogika                      B. Uslubshunoslik  
D. Metodika                      E. Falsafa

10. “O‘qitish prinsipi” deganda nimani tushunasiz?

- A. O‘zbek tili ta’limida kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati  
B. Dars samaradorligini ta’minlash, ta’lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qo‘yilgan asosiy talablar, qoidalar  
D. O‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish  
E. O‘quv imkoniyatini aniqlash

## O‘QUVCHILARDA KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

### *Tayanch tushunchalar:*

*kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, musobaqalashmoq, layoqatlilik, musobaqaga layoqatlilik, bellashmoq, kompetentlilik, moslashuvchanlik, bilim, ko‘nikma, malaka, lingvistik, sotsiyolingvistik, pragmatik, nutqiy, umumiy kompetensiyalar, fanga oid kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiya.*

“Kompetensiya” va “kompetensiyaviy yondashuv” atamalarining talqini.

Kompetensiyaviy yondashuv deganda nimani tushunamiz? “Competence” “to compete” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan maʼnoni bildiradi. Soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, “musobaqalashishga layoqatlilik” maʼnosida keladi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlik oʻta murakkab, koʻp qismli, koʻpgina fanlar uchun mushtarak boʻlgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga koʻra, ham maʼno, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tumandir. Atamaning mohiyati shuningdek, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xocca”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

“Kompetentlik”, “kompetensiya” tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida eʼtibor qaratiladi:

- ✓ bilimlar majmuyining amalda qoʻllanishi;
- ✓ shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlarini;
- ✓ amaliy faoliyatga tayyorgarlik oʻlchovi;
- ✓ muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qoʻlga kiritish layoqati;
- ✓ shaxsning professional faoliyatini taʼminlovchi bilim, koʻnikma, malakalar yaxlitligi;
- ✓ faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) oʻquv, bilim, tajribalar majmuyi;
- ✓ shaxsning maqsadli yoʻnaltirilgan emotsional iroda kuchi.

Kompetensiyalar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

**Lingvistik kompetensiya** – til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, oʻqish va yozish) boʻyicha koʻnikmalarni egallashni nazarda tutadi.

**Sotsiolingvistik kompetensiya** – soʻzlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani oʻz ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: oʻzi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlarini va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili oʻrganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini koʻzda tutadi.

**Pragmatik kompetensiya** – oʻrganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo boʻlganda takroran soʻrash, uzr soʻrash va hokazolar orqali murakkab vaziyatdan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi

pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritildi. Mazkur kompetensiya ogʻzaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi.

**Taʼlimda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelish tarixiga oid maʼlumotlar.**

**a) xorijiy mamlakatlarda kompetensiya masalasining tadqiqi**

Taʼlimda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishiga oid materiallar analiz qilinib, uning rivojlanish tarixini shartli ravishda toʻrtta davrga boʻlish mumkin.

**Birinchi bosqich (1960–1970 yillar).** Bu davrda ilk bor "kompetensiya" va "kompetentlik" soʻzlari ilmiy adabiyotlarga kirib kela boshladi. Shu davrdan boshlab til oʻrganish nazariyasi yoʻnalishida til kompetensiyasi turlariga tegishli tadqiqotlar boshlanib D.Xayms tomonidan, "kommunikativ kompetentlik" tushunchasi kiritildi.

**Ikkinchi bosqich (1970 –1990 yillar).** Bu davrda til oʻrganish (ikkinchi yoki xorijiy til) nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda kasbiy mahoratda, rahbarlik qilishda, menejmentda, muloqotda *kompetensiya – kompetentlik* kategoriyalari ishlatila boshladi; "ijtimoiy kompetensiya–kompetentlik" tushunchalarining mazmuni yoritildi. Bu davr shunisi bilan xarakterliki, kompetentlikning turli koʻrinishlarida "tayyor boʻlmoq", "layoqat" kategoriyalarining taqdim etilishi, shuningdek, "javobgarlik", "ishonch bilan" kabi psixologik sifatlarning qayd qilinishi eʼtiborni jalb qiladi.

XXI asr uchun taʼlim boʻyicha xalqaro komissiyada Jak Delorf "Taʼlim: yashirin xazina" nomli maʼruzasida "taʼlim tayanadigan toʻrtta ustunni taʼriflab beradi: – bu bilishni oʻrganish, bajarishni oʻrganish, birgalikda yashashni oʻrganish, yashashni oʻrganish". Bu bilan global kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi. Jak Delorf fikriga koʻra, *bajarishni oʻrganish* deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega boʻlish, balki keng maʼnoda kompetentli boʻlish, oʻquvchining guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan koʻp murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib ketishi nazarda tutiladi. 1996 yilning 27-30 mart kunlari Bern shahrida Yevropa Kengashi dasturi boʻyicha oʻtkazilgan simpoziumda taʼlimni isloh qilish uchun eng muhim narsa tayanch kompetensiyalarni belgilab olish kerak ekanligi, bu esa oʻz navbatida taʼlim oluvchilarning muvaffaqiyatli ravishda ishlay olishlari va soʻngra oliy taʼlim olishlari uchun zarurligi taʼkidlandi. V.Xutmaxer fikricha, "kompetensiya" "bilamanki, nima...", dan koʻra "bilamanki, qanday...." tushunchasiga yaqinroqdir.



Kompetensiyalarni ishlab chiquvchi asosiy mutaxassislardan biri G.Xalaj ularni ta'riflashni, Yevropa oldiga qo'yilgan chaqiriqlar (demokratik ochiq jamiyatni saqlash, multimadaniyat, mehnat bozoriga qo'yilgan yangi talablar, tashkilotlarni kompleks rivojlantirish, iqtisodiy o'zgarishlar va h.k.)ga javob sifatida qaraydi. V.Xutmaxer Yevropa kengashi tomonidan qabul qilingan Yevropa yoshlari egallashi kerak bo'lgan beshta tayanch kompetensiya ta'rifini keltiradi. Bu kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- ... ijtimoiy va siyosiy kompetensiyalar: jamoada qaror qabul qilishda qatnashish va u haqda javobgarlikni his etish. Zo'rvonlik ishlatmasdan mojarolarni hal etish; demokratik institutlar ishini yaxshilash va qo'llab-quvvatlash;

- ko'p madaniyatli jamiyat hayoti bilan bog'langan kompetensiyalar. Notolerantlik muhitining rivojlanmasligi uchun ta'lim orqali yoshlarga madaniyatlarni kompetensiyalarni, ya'ni boshqalarni hurmat qilish, boshqa madaniyatga, tilga va dinga ega bo'lgan insonlar bilan birgalikda yashay olish kabi zaruriy xislatlarni singdirish kerak;

- og'zaki va yozma muloqotga kirishish bilan bog'liq kompetensiyalar. Bunday kompetensiyalarga ega bo'lmagan insonlar ijtimoiy jihatdan izolyatsiyalanib qolish xavfiga duchor bo'ladilar. Bu kontekstda kommunikatsiyaga kirishish uchun o'zbek tilidan tashqari yana boshqa tilni bilish muhim ahamiyatga egadir;

- jamiyatni axborotlashtirish bilan bog'liq kompetensiyalar. Ommaviy axborot vositalari va reklamalar orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ajrata bilish texnologiyalarini bilish;

- kasbiy va ijtimoiy hayot kontekstiga ko'ra butun hayoti davomida uzluksiz ravishda o'qib-o'rganib borish.

Shuni aytish joizki, "kompetentlik" tushunchasi bilan birgalikda, uning sinonimi sifatida "malakalar bazasi" ishlatilgan hollar ham mavjud. T.Oskarson tomonidan mana shunday malakalar bazasining ro'yxati tuzilgan bo'lib uni kompetensiya sifatida tushuntirish mumkin. B.Oskarson fikriga ko'ra, ular keng qamrovli, maxsus kasbiy xislatlariga qo'shimcha ravishda rivojlanadi. Bunday tayanch kompetensiyalar, shuningdek, jamoada samarali ishlash, rejalashtirish, muammolarni yechish, ijod qilish, peshqadam bo'lish, tadbirkorlik, tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. B.Oskarsonga asoslanib, 1998- yilda S.Sho quyidagilarni kiritadi: "asosiy malakalar", masalan, savodxonlik, hisob-kitob olib bora olish; "hayotiy ko'nikmalar", masalan, o'z-o'zini boshqarish, boshqa insonlar bilan munosabat; "tayanch

malakalar”, masalan, kommunikativlik, muammolarni yechish; “ijtimoiy va fuqarolik malakalari”, masalan, ijtimoiy faollik, qadriyatlar; “band bo‘lish malakalari”, masalan, axborotni ishlovdan o‘tkazish; “tadbirkorlik malakalari”, masalan, ishbilarmonlik imkoniyatlari; “boshqarish malakalari”, masalan, maslahat berish, analitik mushohada qilish; “keng malakalar”, masalan, analiz qilish, rejalashtirish, nazorat. Bundan tashqari, kompetentlik malakalar bazasi bilan munosabatda bo‘lib qolmasdan, tayanch kvalifikatsiyalar bilan bog‘langandir. Bunda muhimi, malakalar bazasini kompetent ravishda aniqlashdan iborat.

**Uchinchi bosqich 90-yillardan boshlanadi.** Bu davrda kompetentlikni ilmiy kategoriya sifatida ta’limga nisbatan qo‘llash bo‘yicha tadqiqot ishlari amalga oshirildi. A.K.Markova (1993-1996) ishlarida mehnat psixologiyasi kontekstida kasbiy kompetentlik har tomonlama maxsus predmet sifatida qaraladi. Bu davrda shuningdek, o‘qituvchi kompetentligiga tegishli bo‘lgan ishlar L.M.Mitina, L.A.Petrovskoy, N.V. Kuzmina, L.P.Alekseeva, N.S.Shabligina va boshqalar tomonidan bajarildi. Mazkur bosqichining yana bir jihati shundaki, YNESKO materiallari va hujjatlarida ta’limdan kutiladigan natija sifatida bir qancha kompetensiyalar ajratib olinib boshladi.

**To‘rtinchi bosqich kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta’lim, umumta’lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish bilan bog‘langan.**

2006-yil 18-dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta’lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

1. O‘z tilida muloqot qila olish;
2. Chet tilida muloqot qila olish;
3. Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
4. Raqamli kompetentlik;
5. O‘qishni o‘rganish;
6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi;
7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg‘usi;
8. Madaniyatdan xabardor bo‘lish va uni ifodalash.

Hozirda “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” deb nomlangan Yevropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetensiyalar quyidagicha:

***O‘rganish kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:***

- ✚ tajribadan foydali biror narsani chiqarish;
- ✚ o‘z bilimlari orasidagi o‘zaro aloqani tashkil qilish va ularni tartiblash;

- ✦ shaxsiy o'rganish usullarini tashkil qilish (o'rnatish);
- ✦ muammolarni yecha olish.

***Izlash kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:***

- ✦ mustaqil bilim olish bilan shug'ullanish;
- ✦ turli ma'lumotlar bazasini izlash;
- ✦ tevarak-atrofdan surishtirish;
- ✦ ekspertdan maslahat olish;
- ✦ axborot olish;
- ✦ hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash).

***O'ylash kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:***

- ✦ o'tgan va hozirgi voqealar orasidagi o'zaro bog'liqlikni topish;
- ✦ jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondashish;
- ✦ murakkablik va o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishiga qarshi turish;
- ✦ bahslashuvlarda o'z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtayi nazariga ega bo'lish;
- ✦ o'qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;
- ✦ salomatlik, iste'mol qilish hamda tasviriy san'at va adabiy asarlarni baholay bilish.

***Hamkorlik qilish kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:***

- ✦ guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;
- ✦ qarorlar qabul qilish – anglashilmovchilik va kelishmovchiliklarni bartaraf etish;
- ✦ kelisha olish;
- ✦ shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

***Ishga kirishish kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:***

- ✦ loyihada qatnashish;
- ✦ javobgarlikni olish;
- ✦ guruhga yoki jamoaga kirish hamda o'z hissasini qo'shish;
- ✦ hamkorlikni isbotlash;
- ✦ o'z ishini tashkil qila bilish;
- ✦ hisoblash va modellashtirish asboblardan foydalana bilish.

***Ko'nikish kompetensiyasi quyidagilarni talab qiladi:***

- ✦ yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- ✦ tez o'zgarishlar oldida moslashuvchanlikni isbotlash;
- ✦ yangi yechimlarni topa bilish.

***Niderlandiyada*** o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi yaratilgan:

❖ kelajakka intilish ko'nikmalarini rivojlantirishni mo'ljalladigan strategik kompetensiya;

❖ o'rganilayotgan o'quv fani xususiyatiga doir bo'lgan bilim va malakalar bilan bog'liq predmet kompetensiyalari; mazmuni jihatidan boshqarish malakalaridan iborat bo'lgan metodik kompetensiya;

❖ asosiy tarkibi hamkorlik malakalari, tanqidni qabul qilish, qayta aloqa o'rnatish; axloqiy-madaniy kompetensiya bo'lgan ijtimoiy kompetensiya. Kasbiy munosabatlar, motivatsiya, natijaga erishish uchun tayyor bo'lish va o'quv malakalari, refleksiyaning rivojlantirishni belgilaydigan o'quv kompetensiyalari shu guruhga mansubdir.

*Avstriya ta'lim tizimida* quyidagi tayanch kompetensiyalar ajralgan:

❖ shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyalar;

❖ ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalar.

Ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga quyidagilar kiritilgan:

▪ "Til va kommunikativlik";

▪ "Ijod va dizayn";

▪ "Inson va jamiyat";

▪ "Salomatlik va harakat";

▪ "Tabiat va texnika".

Ijtimoiy kompetensiyalarga kommunikativlik, jamoada ishlay olish, kelishmovchiliklarni bartaraf qila olish, boshqalarni tushunish, kirishimlilik, ijtimoiy javobgarlik kiradi.

*Britaniya maktablarida* oltita tayanch kompetensiya asos sifatida olingan. Ularni shartli ravishda bir nechta guruhga birlashtirish mumkin.

Asosiy kompetensiyalar:

▪ muloqotga kirishish;

▪ hisob-kitob yuritish;

▪ axborot savodxonligi.

Keng ko'lami tayanch kompetensiyalar: boshqalar bilan ishlay olish; o'qish va takomillashish malakasi; turli masala va muammolarni yechish ko'nikmasi.

*AQSHda* 1980- yillardan boshlab ta'lim standartlari ishlatila boshlagan. AQSH maktablarida yil yakunini baholashda shuningdek, bitiruvchi sinflarda o'quvchilarning bitirish imtihonlarida standartlashtirilgan imtihon (test)lardan foydalaniladi. Amerikada ta'lim tizimi markazlashtirilmagan. Shunga ko'ra, ta'limga doir ko'pgina masalalar mahalliy hokimiyat tomonidan qabul qilinadi. Har bir shtat tomonidan ta'lim standartlari va dasturlari odatda mustaqil ravishda qabul

qilinadi. Har bir shtatdagi qonun chiqaruvchi majlis tomonidan maktablar uchun bilimlarning umumiy minimal darajasi belgilab qo'yilgan.

Germaniyada 1970-yilda PISA tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning butun mamlakat bo'yicha past natija ko'rsatganidan so'ng ta'lim standartlari va dasturlari ishlab chiqila boshladi. Nemislarning standarti o'quvchilarda tayanch malakalar va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv dasturi ortiqcha bilimlar bilan to'ldirib tashlanmagan. 2004- yildan boshlab maktab ta'limi standartlari majburiy hisoblanadi.

**Rossiyada** ta'lim standartlari haqidagi tushuncha 1992- yilda Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganidan so'ng kirib keldi. Qonunning 7-bandi ta'lim standartlariga bag'ishlangan. Qonunning dastlabki tahririda umumta'lim standartlari haqidagi qonun Rossiya Federatsiyasining Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan. Lekin 1993- yilda Konstitutsiya qabul qilinishi munosabati bilan bu nizom bekor qilinib, ta'lim standartlarini qabul qilish funksiyasi ijro qiluvchi hokimiyat organlariga beriladi. 1992- yilda Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ishlab chiquvchilar tomonidan tayyorlangan ta'lim standarti tahririda, aniqrog'i uning federal komponentasi beshta elementdan iborat bo'lgan:

- ❖ Ta'limning har bir bosqichi maqsadi.
- ❖ Asosiy ta'lim dasturlarining tayanch mazmuniga qo'yilgan talablar.
- ❖ Auditoriya o'quv yuklamasining yo'l qo'yilgan chegara hajmi.
- ❖ Maktabning turli bosqichlarini bitiruvchi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar.
- ❖ Ta'lim jarayoni sharoitlariga qo'yiladigan talablar.

Predmetga metodik yondashuv tarafdorlari bosimi ostida bu tahrir uch tarkibli holatgacha qisqartiriladi: "asosiy ta'lim dasturlarining majburiy minimumi", "o'quvchilarning o'quv yuklamalari minimal hajmi", "bitiruvchilar tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar (unga boshlang'ich sinfni bitiruvchilar ham kiritilgan)".

Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan 2009 yildan standartning yangi avlodi – federal davlat ta'lim standartlari ishlab chiqila boshladi.

#### **Umumta'lim standartlari:**

- ❖ Standartlarning birinchi avlodi 2004-yilda qabul qilingan bo'lib, davlat ta'lim standartlari deb atalgan;
- ❖ Standartlarning ikkinchi avlodi umumta'limning boshlang'ich sinflari (1-4 sinflar) uchun 2009- yil 6- oktyabrda, asosiy umumiy ta'lim

(5-9 sinflar) uchun 2010- yil 17-dekabrda, o'rta (to'liq) umumiy ta'lim (10-11 sinflar) uchun 2012- yil 17-mayda qabul qilingan. Bu standartlar natijaga va universal o'quv faoliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

#### **Oliy kasbiy ta'lim standartlari:**

❖ Birinchi avlod standartlari (2000- yilda tasdiqlangan bo'lib, *davlat ta'lim standartlari* deb atalgan);

❖ Ikkinchi avlod standartlari (2005- yilda tasdiqlangan bo'lib, davlat ta'lim standartlari deb atalgan) studentlarning bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishiga yo'naltirilgan;

❖ Uchinchi avlod standartlari (2009- yilda tasdiqlangan) studentlarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Umumta'lim maktablarining standartlari asosida tizimli faoliyat yondashuvi yotadi. Unda o'quvchilarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlash ko'zda tutilgan.

Rossiyaning ko'pgina olimlari ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga doir tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Bu tadqiqotlarga binoan umumiy o'rta ta'limda ham kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish yuqori samara berishini ko'rsatib o'tadilar. Kompetensiyalarni uch turga bo'ladilar:

1. Metapredmet kompetensiyalari (tayanch kompetensiyalar).
2. Predmetlararo kompetensiyalar.
3. Predmetga oid kompetensiyalar.

*Metapredmet kompetensiyalar* – bu “premetdan oldin”, “predmet ustida” degan ma'noni bildiradi. Buning sababi shundaki, inson jamiyatda muvaffaqiyatli yashashi uchun ma'lum bir turdagi layoqat, qobiliyat, malakalarga ega bo'lishi kerak. Jumladan, o'z fikrini ravon, tushunarli holda og'zaki va yozma bayon qila olish, zaruriy axborotlarni izlab topa olish va undan foydalanish, jamiyatda faol bo'lish, o'z-o'zini doimiy rivojlantirish va h.k. xususiyatlarga ega bo'lish. Tayanch kompetensiyalarning eng maqbul varianti Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining akademigi, pedagogika fanlari doktori A.V. Xutorskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra:

- Qadr-qimmat, e'tiqod kompetensiyasi.
- Umummadaniy kompetensiyalar.
- O'quv-o'rganish kompetensiyasi.
- Axborot kompetensiyasi.
- Kommunikativ kompetensiya.
- Ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi.
- Shaxsni takomillashtirish kompetensiyasi.

*Qozog'iston Respublikasi Hukumati* 2012 -yil 23- avgustda "Tegishli ta'lim bosqichlarining davlat umummajburiy ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorini qabul qiladi. Mazkur qaror bilan 6 ta yo'nalish bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat umummajburiy standartlari tasdiqlanadi:

- 1) maktabgacha tarbiya va ta'limning davlat umummajburiy standarti;
- 2) o'rta (boshlang'ich, tayanch o'rta, umumiy o'rta ta'lim) ta'limning davlat umummajburiy standarti;
- 3) texnik va kasbiy ta'limning davlat umummajburiy standarti;
- 4) o'rta ta'limdan keyingi ta'limning davlat umummajburiy standarti;
- 5) oliy ta'limning davlat umummajburiy standarti;
- 6) oliy ta'limdan keyingi ta'limning davlat umummajburiy standarti.

Maktabgacha tarbiya va ta'lim maskanlarida tarbiyalanayotgan va o'qiyotganlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kompetentlikka ega bo'lishlari belgilab qo'yilgan:

- ✓ salomatlikni saqlash kompetentligi;
- ✓ kommunikativ til kompetentligi;
- ✓ bilish kompetentligi;
- ✓ ijodkorlik kompetentligi;
- ✓ ijtimoiy kompetentlik.

O'rta ta'limda tahsil oladigan o'quvchilar kompetentligi uchta yo'nalishda erishgan natijalariga ko'ra baholanadi:

- 1) shaxsiy natijalar;
- 2) tizimli-faoliyatga ko'ra natijalar;
- 3) o'quv predmetlari bo'yicha natijalar.

**O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilgan ishlar.**

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishilganidan so'ng barcha yo'nalishlar kabi ta'lim sohasida ham islohotlar amalga oshirila boshladi. Mustaqil Respublikaning jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishi, mamlakatga chet el investitsiyalarini jalb qilish, bozor iqtisodiyotiga o'tishi, ilmiy-texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andazalariga mos keladigan salohiyatli kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shunga ko'ra, Respublikada "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Ularda barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgan. Mazkur jarayonda 1998-yilda ilk bor umumta'lim fanlarining Davlat ta'lim standartlari (DTS) ishlab chiqildi. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi 390-sonli qarori bilan tasdiqlandi va amaliyotga joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2004- yil 21-maydagi Farmoniga muvofiq qabul qilingan "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"da belgilangan besh ustuvor yo'nalishning uchinchisida umumta'lim maktablari uchun Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish vazifasi qo'yildi.

Davlat umummilliy dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini qayta ko'rib chiqish hamda yangilarini yaratish bo'yicha Hukumat komissiyasi majlisining 2004-yil 7-iyuldagi 07-1-102-sonli bayoniga muvofiq Respublika ta'lim markazida metodistlar, amaliyotchi-o'qituvchilar va olimlardan iborat ishchi guruhlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyat xalq ta'limi boshqarmalari huzurida ham tashkil etilib, amaliyotda qo'llanilayotgan DTSlari, o'quv dasturlari ekspertizadan o'tkazildi. Joylardan olingan takliflar va ekspertiza jarayonida berilgan umumiy xulosalar asosida ishchi guruhlar tomonidan mavjud DTS lar qaytadan tahrir etilib, o'quv dasturlari modernizatsiya qilindi. Qirg'iz, qozoq, tojik, turkman, qoraqalpoq tili va adabiyoti, 8-sinflarda rus adabiyoti, 4- va 8-sinflarda mehnat ta'limining 5 ta yo'nalishi, 5-7-sinflarda informatika fanlaridan DTS yangidan yaratildi. Boshlang'ich (1 – 4-sinflar)da o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ishlab chiqildi.

DTSlarning yangi tahririda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Davlat ta'lim standartlari bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar har bir sinf uchun fanlar kesimida alohida belgilab berildi.

2. DTS bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar bir-biridan ajratildi.

3. O'quv dasturlari modernizatsiya qilindi.

Yangi tahrirdagi DTS va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich (2004-2009 yillar) tajriba-sinovdan o'tkazish belgilandi va bu ish amalga oshirildi. Modernizatsiyalash va bosqichma-bosqich o'tkazilgan tajriba-sinovlar natijasida barcha fanlar DTS va o'quv dasturlariga tegishli o'zgartirishlar kiritib borildi. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi xizmati va Vazirlar Mahkamasi Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar kompleksining 2010-yil 17-martdagi qo'shma yig'ilishi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, Oliy va o'rta maxsus, Xalq ta'limi vazirliklarining 2010- yil 31-martdagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida"gi 134-va



62-sonli qo'shma buyrug'i qabul qilindi. Mazkur buyruq asosida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'rganilishi davom etadigan 17 ta umumta'lim fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga berilgan sharhlar, o'quv dasturlari uzviylik va uzluksizlik jihatidan tahlil qilinib, umumiy o'rta ta'limdagi jami 1260 soat hajmdagi mavzular optimallashtirildi hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010- yil 1- iyuldagi 6-2 -4-1 qo'shma hay'at majlisi qarori bilan tasdiqlandi.

Uzviylashtirilgan dasturlarda, jumladan:

- mavzular optimallashtirildi;
- fanlararo integratsion yondashuvga e'tibor qaratildi;
- dasturlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixo-fiziologik rivojlanishlarini e'tiborga olgan holda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish tamoyili asosida qayta ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 10- dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PTS-1875 raqamli qaroriga ko'ra, mavjud o'quv rejasini va dasturlarni "Chet tillarini egallashning Umumevropa kompetensiyasi" ga mos ravishda qayta ishlash belgilab berildi. Mazkur qaror asosida barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2013-2014- o'quv yilidan boshlab 1-sinfdan chet tilini o'rganish boshlandi. Uning o'quv rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi va ta'lim standarti, o'quv dasturi kompetensiyaviy yondashuv asosida yaratildi.

Chet tilini o'qitishdagi ijobiy natijalarni hisobga olib, uzluksiz majburiy ta'lim tizimi uchun boshqa umumta'lim fanlaridan ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlarini ishlashga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2013-yil 4-iyundagi "Umumta'lim fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish to'g'risida"gi qo'shma qaroriga asosan, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'qitiladigan 16 ta umumta'lim fanlari bo'yicha amaliyotchi o'qituvchilar, metodistlar va yetakchi olimlardan iborat ijodiy guruhlar tuzildi. Ijodiy guruhlar rivojlangan davlatlarning ta'lim standartlarini o'rganish natijalaridan hamda mamlakatimizda xorijiy tillardan uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasidan kelib chiqib, *kompetensiyaviy yondashuvga* asoslangan umumta'lim fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari (DTS) va o'quv dasturlari loyihalarini tayyorladi.

Muzkur DTS va o'quv dasturlari loyihalari 2013–2014 o'quv yilida tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Tajriba-sinov va nazorat sinflarida o'quvchilarning fanlar bo'yicha kompetentligini aniqlash, kundalik-mavzu rejada belgilangan nazorat ishlari o'tkazish fan o'qituvchisi va fan metodbirlashmasi tomonidan amalga oshirildi. Maktab, kollej, litsey fan metodbirlashmasi kompetentlikni aniqlash bo'yicha namunaviy ishlari asosida nazorat materiallarini tayyorladi. Bunda amaldagi DTS va o'quv dasturi asosida o'quvchilarning *bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash bilan birgalikda kompetentligini* belgilaydigan materiallar ham kiritildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quvchilarda faqat predmetga oid kompetensiyalarni shakllantirish ko'zda tutilgan edi. Lekin bunday kompetensiyalarni shakllantirish bevosita o'quvchilardagi kommunikativlik, o'z-o'zini rivojlantirish, faol bo'lish, matematik savodxon bo'lish kabi xislatlar bilan bog'liq ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Shundan so'ng ijodiy guruh o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ularning ro'yxatini tuzib olish, sharhlash ishlari bilan shug'ullandi. Qizg'in bahslardan so'ng ularni oltita guruhga ajratishga kelishib olindi. 2013-2014 o'quv yilining ikkinchi yarmida ular tajriba-sinov o'qituvchilariga yetkazildi. Lekin, ular o'quvchilarda qanday usullar bilan shakllantiriladi, tayanch kompetensiyalar predmet kompetensiyalari bilan o'zaro qanday bog'liqlikda, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi qanday aniqlanadi kabi qator savollarga javob bo'luvchi haqida ma'lumotlar keltirilmaydi. Bundan tashqari sinfda o'qitiladigan faqat bittagina fan vositasida o'quvchini kompetent shaxs sifatida tarbiyalab bo'lmasligi ham ma'lum bo'lib qoldi. Shunga ko'ra, tajriba-sinovlarni 2014-2015- o'quv yilida ham davom ettirish va bunda bitta maktabda va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasida bir vaqtda 5-6 fandan tajriba sinovlar olib borish rejalashtirildi. Umumta'lim fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari (DTS) va o'quv dasturlari loyihalarining tajriba-tadqiqot ishlari yakunlari bo'yicha Respublika Ta'lim markazida 2015-yilning 10-20 iyun kunlari qizg'in bahs-munozaralarga boy, jonli tarzda o'tkazilgan fanlar bo'yicha Ilmiy-metodik kengashlarda (IMK) xulosalar qilindi. Ilmiy-metodik kengashlarda tajriba-tadqiqot ishlarini o'tkazgan pedagoglar, ularning ilmiy rahbarlari va o'quvchilarda kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan DTS va dasturlarni ishlashda qatnashgan ishchi guruh a'zolari tadqiqot natijalariga batafsil to'xtaldilar.

O'zbek tili bo'yicha kompetentli shaxs deganda: mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxs

tushuniladi. Shuning uchun jamiyat o'zbek tili ta'limi oldiga o'quvchi shaxsida fikrlash, o'zgalari fikrini anglash va fikr mahsulini og'zaki, yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya'ni mustaqil, ijodiy tafakkurni hamda kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Eksperimentator o'qituvchilar ham bu jihatlariga tajriba-sinov jarayonida e'tibor qaratganlar. Ularni shakllantirish borasidagi kichik epizodlarni keltiramiz. **6-sinfda** "Son", "Sonlarning ma'no guruhlari", "Sanoq son", "Dona son, uning yasalishi", "Chama son, uning yasalishi", "Jamlovchi son, uning yasalishi", "Taqsim son, uning yasalishi", "Kasr son, uning yasalishi", "Hisob so'zlar", "Tartib sonlar" kabi mavzular uchun berilgan amaliy mashq, topshiriqlarni bajarish orqali matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi shakllantirilgan. 145-darsda "Hisob so'zlari" mavzusiga doir 421-mashqda terma gaplar berilgan: 1. *Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar edi.* 2. *Ko'rsatkich barmog'i bilan tirnoq yuzasi burchagidagi nuqtani 3,4 daqiqa mobaynida bosib turing, shunda tish og'rig'i taqqa to'xtaydi.* 3. *Hayotda o'ylagan rejamning uchdan ikki qismi amalga oshdi.* 4. *Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o'zbekim, senga tengdosh Pomir-u, oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.* 5. *Birni kessang, o'nni ek.* 6. *Uchburchakning gipotemuzasi uning katetlar yig'indisiga teng.* 7. *Ikki o'n besh - bir o'ttiz.*

Berilgan gaplar tarkibidagi sonlarning bir-biridan farqi, uning tasnifi, har bir sonning ta'rifini topish orqali o'quvchida shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, hisob-kitob bilan ish yuritish, kundalik faoliyatda fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kabi layoqatlar shakllantirilgan.

**7-sinfdagi 2-topshiriqni** bajarish orqali o'quvchi o'qib o'rganganini namoyish etadi. Ya'ni topshiriq talabidan kelib chiqib, berilgan gaplarda takrorlangan so'zlar nimaga olib kelishini tahlil qiladilar va bu muammoni matn tarkibidagi takror so'zlarni boshqa so'zlar bilan almashtirib, nutqning ravon, to'g'ri va izchilligini izohlaydilar. *Matn: Lirik shoir qalbining yilnomasidir. Shoir o'z qalbida kechgan jarayonlarni aks ettirish orqali o'z qalbining tarixini yaratadi. Shoir lirikasidagi qirralar hali ham porloqdir.*

**9-sinfda "So'z birikmasi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash"** mavzusiga oid 8-mashqda "Hikmatnoma" dan olingan kichik matn berilgan. Eksperimentator o'qituvchi tomonidan matndagi gaplarning o'rnini almashtirilib, slayd orqali ko'rsatilgan. O'quvchilarga darslikni yopgan holda matndagi gaplarni mazmunan o'zaro bog'langan,

bog'lanishli matn holiga keltirish topshirig'i berilgan. O'quvchilarning uksariyati topshiriqni tez va to'g'ri bajara olganlar.

8-sinfda "Sodda gap haqida umumiy ma'lumot" mavzusini o'tishda dars quyidagicha tashkil qilingan. Bu darsda har doimgidek reproduktiv, ya'ni o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv subyekt sifatida emas, balki kognitiv, ya'ni o'quvchi faol, o'qituvchi kuzatuvchi, yo'naltiruvchi sifatida ish olib borilgan. Bu mavzu quyi sinflarda ham o'tilganligini e'tiborga olib, sinf o'quvchilari ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruh "Sodda gaplar", ikkinchi guruh "Qo'shma gaplar" haqida bilganlarini eslab, darslikdan foydalanib, 33-mashqni bajarganlar. Har bir guruh o'z mavzusiga oid ma'lumotlarini izohlaganlar. Guruh a'zolari muloqotga kirishar ekan, o'z suhbatdoshining fikrini hurmat qilib, shuningdek, tanqidiy fikrlarni to'g'ri qabul qilganlar, muloqot madaniyatiga rioya qila olganlar. Boshqa bir darsda "Bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot" mavzu (56-mashq)da kuz manzaralari aks etgan rasmlar, videoroliklar topib yoki tayyorlab shu asosda "Kuz manzaralari" mavzusida matn tuzish topshirilgan. O'quvchilarning amalga oshirgan ishlarini kichik guruhlarining taqdimoti tarzida namoyish etish so'ralgan. O'quvchilarning tuzgan matnlaridan namuna: *Kech kuz fasli. Erinchoq qish hali o'zini sezdirgan emas. O'qtin-o'qtin yomg'ir quyib sharillagan suvlar tarnovlarni qo'porib tushiradi. Biroq osmon yana tezda musaffolashib, quyosh hatto bahordagidek qizdira boshlaydi. Oltin kuzni viqorli tug'yon bag'ridan bog'aro qanday jilva qilishiga e'tibor qilganmisiz? Daraxtlar oltin rang bilan tovlanar, o'riklarning yaprog'i qizil, qontalash. Xuddi birov ular shoxiga bir satil qizil bo'yoqni sepib tashlaganday. Pastga egilgan yaproqlari sariq ipakday mayin. Ko'zga shunday jozibali ko'rinadiki, uzib-uzib g'arch-g'urch tishlaging keladi. Barglar birin-sirin jimgina, yalqovgina to'kilib, nam yerni o'pa boshlaydi. Bu mo'jizaviy holatni faqat mohir musavvirgina rangli bo'yoqlari yordamida aniq aks ettirishga qodir. Bunday manzarani ko'rib mohir musavvir tabiatning o'zi deging keladi. Natijada shu asosda o'quvchilarda axborot manbalaridan foydalanish, ularni tanlay olish, og'zaki va yozma nutq kompetensiyalari shakllantirilgan.*

8-sinfda 53-dars uchun berilgan 147-mashqni bajarish vaqtida o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi quyidagicha shakllantirilgan. Bunda eganing gapdagi o'rni va vazifasi haqida umumlashma matn tuzish talabi qo'yilgan. O'quvchi berilgan terma gaplarni o'qib, o'rganib eganing gapdagi o'rni va vazifasi haqida xulosa aytadi. Jumladan: *Bilgan bilganini ishlar, bilmagan barmog'in tishlar. Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar. Bugungi ishni ertaga qo'yma.*

*O'qish jafoli, keti vafoli. O'qigan o'qdan o'zar, o'qimagan turtkidan shoshar... va h.k.*

**8-sinfda** “Mustaqil so‘z turkumlari” mavzusiga doir 9-mashqning 1-topshirig‘ini bajarish jarayonida o‘quvchining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi quyidagicha shakllantirilgan. Topshiriqni bajarish uchun “*Sharafli burch*” matni berilgan. Matn mazmuni: *Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog‘ sayridan qaytib kelayotgan ekan. Yo‘l qabrison oralab o‘tar ekan, qabristonga yuz qadam qolganda mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yo‘lida davom etibdi. Mulozimlari ham bu harakatni davom ettiribdilar. Navoiy o‘z mulozimlari bilan qabrison dan uzoqlashgandan keyin otlariga minib yo‘lida davom etibdilar. Biroz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘rabdilar. Alisher Navoiy ancha sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlardan norozi ohangda shunday deb javob beribdi. – Bu yerda xalqimizning jigargo‘shalari, tabarruk insonlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib o‘tish insonlik sha‘niga isnoddir, nahotki shuni bilmasalaring? Buni bilmaslik tiriklikdagi o‘liklikdir. Ota-bobolarimiz xokini, xotirasini e‘zozlamoq har bir kishining sharaflı burchidir. Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo‘ygan boladek to Hirotning qorasi ko‘ringuncha tillarni tishlab, aqlini peshlab boribdilar.*

O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda parallel ravishda predmetga oid kompetensiyalar ham shakllantirilib borilgan. Xususan, **mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasi** – o‘zbek tili ta‘limining asosiy usuli talablariga ko‘ra, o‘quvchi mavzu bo‘yicha belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi uchun darslikdagi mashq va topshiriqlarni o‘n bosqichli mustaqil, ijodiy fikrlash mashqlari asosida bajarishi kerak. Ular quyidagilar: *kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, umumiylikni topish, farqlarni aniqlash, qiyoslash, tasniflash, xulosa chiqarish, aloqadorliklarni ochish, amalda qo‘llash*. Masalan: 5-sinf 3-chorak 167-dars “Ma‘nodosh so‘zlar va ularning umumiy hamda xususiy ma‘nolari” mavzusiga doir 2-topshiriqda *yuz, bet* so‘zlari ma‘nosiga teng keladigan so‘zlarning bir-biridan nimasi bilan farq qilishini aytish uchun quyidagi ijodiy fikrlash mashqi bajariladi.

**Kuzatish:** *yuz, bet...*

**Izlanish:** *yuz, bet, aft, turq, bashara, jamol, chehra*

**Alohidaliklarni sharhlash:** *yuz – uslubiy betaraf, aft – salbiy, jamol – ijobiy...*

**Umumiylikni topish:** *kishi boshining old tomoni...*

**Farqlarni aniqlash:** *afi-basharaga nisbatan kuchsiz salbiy...*

**Qiyoslash:** *yuz–uslubiy betaraf – bet so‘zlashuv uslubiga xos; jamol ijobiy – turq –salbiy.... ijobiy- salbiyligiga ko‘ra: ijobiy ma‘nodagi so‘zlar: yuz, jamol, oraz, chehra; salbiy ma‘nodagi so‘zlar: turq, bashara, bet...*

**Xulosa chiqarish:** *ma‘nodosh so‘zlar ekanligiga ta‘rif beriladi.*

**Aloqadorliklarni ochish:** *ma‘nodosh so‘zlar zid ma‘noli so‘zlar kabi ma‘no asosida bog‘lanadi. Masalan: yuz, ko‘z, burun, quloq so‘zlari bir uyaga mansub.*

**Amalda qo‘llash:** *Gaplar tuzish. Masalan: Keksalarning nuroniy chehrasidan xonadonlar yorishganday bo‘ladi.*

**Izoh:** *O‘quvchi izchil ketma-ketlikdagi bu mustaqil va fikrlash amaliyotini bajarish uchun darslikning yordamchi vositalari bo‘lgan axborot banki (lug‘atlar, qomuslar, ma‘lumotnomalar, matnlar to‘plami va b.)ga ega bo‘lishi lozim. Muxtasar qilib aytganda, tajriba-tadqiqot jarayonida mazkur yo‘nalishda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar borligi ma‘lum bo‘ldi:*

✓ *tayanch kompetensiyalar mazmuni qaysi fandan dars o‘tilishidan qat‘i nazar bir xilda berilgan. Fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirishga qaratilgan izohlar va tavsiyalar keltirilmagan. Masalan, filologiya yo‘nalishidagi fanlarda, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlari keng bo‘lsa, matematik savodxonlik kompetensiyasini matematika fanida shakllantirish oson kechadi;*

✓ *tayanch kompetensiyalar mazmuni sinflar kesimida ham bir xilda berilgan. Ushbu kompetensiya elementlarini 1 – 4 sinflar uchun alohida, 5 – 9-sinflar uchun alohida taqsimlab berish kerak;*

✓ *tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun qaysi usul, metod va texnologiyalardan foydalanish haqida tavsiyalar berilmagan. Tadqiqotchiga ularni izlash, tanlash, qo‘llashga doir axborot manbalari berilmagan;*

✓ *o‘quvchida kompetensiyalar shakllanganligini aniqlash usullari va mezonlari ishlab chiqilmagan. Bunda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni mushtarak holda shakllantirish bo‘yicha har bir o‘quv fani bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilmagan;*

✓ *fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha tajribalar olib borilmagan.*

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda 2015 – 2016- o‘quv yilida Respublika bo‘yicha belgilangan tayanch maktablar va akademik litsey, kasb-hunar kollejarida tajriba-sinov ishlarini davom ettirish haqida takliflar berildi.

**O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun ishlab chiqilgan tayanch va fanga oid kompetensiyalar (O‘zbek tili DTSi).**

### **Tayanch va fanga oid kompetensiyalar**

O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

**Kommunikativ kompetensiya** – ijtimoiy vaziyatlarda o‘zbek tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** – media manbalardan zarur ma‘lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta‘minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi** – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil oq‘ib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini hamda hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash, mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** – jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish, ularda faol ishtirok etish, fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat, fuqarolik munosabatlarida muomala, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya** – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga, sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi** – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma, modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan- texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar

o'quvchilarda umumta'lim fanlari orqali shakllan- tiriladi. Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid nutqiy va lingvistik kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida (barcha ta'lim olish tillari bo'yicha) o'zbek tili fanini o'qitish bosqichlari:

Ta'lim bosqichlari	Bitiruvchilar	Stan- -dart dara- -jasi	Daraja nomlanishi
Umumiy o'rta ta'lim	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	A1	O'zbek tili fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sing bitiruvchilari	A1+	O'zbek tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	O'zbek tili fanini o'rganishning tayanch darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sing bitiruvchilari	A2+	O'zbek tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi	O'zbek tili fani chuqurlashtirilmagan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari	B1	O'zbek tili fanini o'rganishning umumiy darajasi
	O'zbek tili fani chuqurlashtirilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari	B1+	O'zbek tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

### O'zbek tili fanini oqitishning maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'zbek tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alar fikrini



anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida oʻzbek tili fanini oʻqitishning asosiy vazifasi:**

oʻquvchi shaxsini fikrlashga, oʻzgaralar fikrini anglashga, oʻz fikrini ogʻzaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

oʻquvchilarda grammatikaga oid oʻzlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

oʻzbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda toʻgʻri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

**Oʻzbek tili fani boʻyicha umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari (barcha taʼlim olish tillari boʻyicha) bitiruvchilariga qoʻyilgan malaka talablari**

**1. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish):**

**A1**

Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi; matnni tushunib oʻqiy oladi; ogʻzaki nutqda soʻz va gaplar talaffuziga rioya qiladi; 65 – 70 soʻzdan iborat diktant yoza oladi; xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi, husnixatga amal qiladi; imlo, tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qiladi; doʻsti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xat yoza oladi.

**A1+**

Sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi; matn mazmunini tushunib, ifodali oʻqiy oladi; 70 – 75 soʻzdan iborat diktant yoza oladi; 8 – 10 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza oladi.

**A2**

Tinglangan matn, koʻrilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi; soʻz, ibora va atama (termin)larning maʼnosini tushunib, toʻgʻri oʻqiy oladi; soʻz va gaplarni bogʻlagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi; 140 – 160 soʻzdan iborat diktant yoza oladi, 20 – 25 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi, bayonga reja tuza oladi, epigraf tanlay oladi; matnda badiiy tasvir vositalaridan oʻrinli foydalana oladi; husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qiladi; ish qogʻozlarini (ariza, maʼlumotnoma, xat, tarjimaiy hol, eʼlonlarni) yoza oladi.

## A2+

Ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma'lumotlarni tushuna oladi; turli janrga oid matnlardagi soʻz, ibora va atama (termin)larning ma'nosini tushunib, to'g'ri va ravon o'qiy oladi; tinish mavzuda taqdimot qila oladi; 160 – 180 soʻzdan iborat diktant yoza oladi; o'qib eshittirilgan matn yoki mavzu asosida 26 – 30 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yarata oladi; ish qog'ozlarini (ariza, ma'lumotnoma, xat, tarjimayi hol, e'lonlarni) yoza oladi.

## B1

**Tinglab tushunish:** sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to'g'riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta'sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so'zlarining ma'no xususiyatlarini farqlaydi.

**Gapirish:** nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta'sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va stilistik me'yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg'uni o'rinli va to'g'ri tuyadi.

**O'qish:** turli janrdagi matnlarni ifodali va ta'sirchan o'qiy oladi, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo'shma gaplar ohangiga rioya qilib o'qiydi.

**Yozish:** fikr ifodasi matnidan izchil, tinish belgilari, nutqda kirish va kiritmalar, ko'chirma gaplar, tilning ifoda vositalari, fikr ifodasida qo'shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi. Ijodiy matnlar yarata oladi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi. 30 – 35 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi.

## B1+

**Tinglab tushunish:** ilmiy manbalardagi o'rtacha murakkablikdagi ma'lumotlarni tinglab tushunadi. Nutq uslubiga xos xususiyatlarni anglaydi.

**Gapirish:** nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta'sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va stilistik me'yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg'uni o'rinli va to'g'ri qo'yadi.

**O'qish:** turli janrdagi matnlarni ifodali hamda ta'sirchan o'qiy oladi, ulardagi uslubiy vositalarning ahamiyatini his qiladi

**Yozish:** fikr ifodasida qo'shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi, bir fikrni turli shaklda ifodalay oladi. Ijodiy va badiiy matnlar yarata oladi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Ixtisoslikka oid matn tuza oladi, bunda til birliklaridan o'rinli foydalanadi. 35 – 40 gapdan iborat

ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi.

**2. Lingvistik kompetensiya** (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid):

**A1**

o'zbek tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qiladi; mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

**A1+**

so'zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to'g'ri shakllantira oladi; gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi.

**A2**

Talaffuz va imloda tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi hodisalardan o'rinli foydalana oladi; o'zlashtirilgan leksik birliklarni gap tarkibida qo'llay oladi; fonetik, leksik va grammatik tahlil qila oladi; fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay oladi; matnda tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi.

**A2+**

Tovushlar talaffuzida orfoepik me'yorlarga amal qila oladi; leksik birliklarning ma'nosini farqlashda lug'atlardan unumli foydalana oladi.

**Lingvistik kompetensiya** (fonetika, leksika, grammatika):

**B1, B1+**

**Fonetika:** fonemalar tasnifi va uslubiyatini tushuna oladi, fonetik o'zgarishlarni orfoepik qoidalar nuqtayi nazaridan tahlil qila oladi, ohang va urg'uni nutqda qo'llay oladi.

**Leksika:** so'zlarning ko'chma ma'nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarini farqlay oladi, ulardan nutqda to'g'ri foydalana oladi. O'zbek tili leksikasining rivojlanish, boyish manbalarini izohlay oladi.

**Grammatika:** so'z turkumlari, undov, modal va taqlid so'zlar, ularning otlashishi hamda uslubiy xususiyatlarini tushuna oladi va izohlay oladi. So'z birikmasi, gap va uning grammatik belgilari, dialogik nutq belgilari, gap bo'lagining tiplari, soda va qo'shma gaplar ma'nodoshligini, sintaktik qurilmalarni, ko'chirma gap, matnning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi va muloqotda grammatik hamda sintaktik birliklardan o'rinli foydalana oladi.

**B1+**

**Fonetika:** fonetik o'zgarishlarni orfoepik qoidalar nuqtayi nazaridan tushuntira oladi, ohang va urg'uning nutqdagi ahamiyatini, yozuv tamoyillarini izohlay oladi.

**Leksika:** o'zbek tili leksikasining rivojlanish, boyish manbalarini

tushuntira oladi.

**Grammatika:** soʻz turkumlari, gap boʻlaklarining uslubiy xususiyatlarini tushunib, izohlay oladi. Nutqda grammatik hamda sintaktik birliklardan oʻrinli foydalanadi.

### **Amaliy mashgʻulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.**

**1-savol:** *“Kompetensiya” soʻzining maʼnosini izohlab, tushuntiring.*

**2-savol:** *Taʼlimda kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishidan maqsad nima? Ushbu sheʼrning nutqiy kompetensiyani shakllantirishdagi oʻrnini yoriting. Sheʼrni yod oling.*

#### **Sheʼriyat muxlislariga**

Erta tong shamoli sochlarin yoyib  
Yonimdan oʻtganda soʻrab koʻramen,  
Aytadir: «Bir koʻrib, yoʻlimdan ozib,  
Togʻu toshlar ichra istab yuramen»  
Bir koʻrdim men uni, shunchalar goʻzal-  
Oydan-da goʻzaldir, kundan-da goʻzal!  
Ul ketgach, kun chiqar yorugʻlik sochib  
Undan-da soʻrayman sening toʻgʻringda:  
Ul-da uyatidan bekinib qochib,  
Aytadir: «Bir koʻrdim tushdamas, oʻngda»  
Men oʻngda koʻrganda shunchalar goʻzal-  
Oydan-da goʻzaldir, kundan-da goʻzal!  
Men yoʻqsil na boʻlib uni suyibman.  
Uning-chun yonibman, yonib kuyibman  
Boshimni zoʻr ishga berib qoʻyibman  
Men suyib, men suyib kimni suyibman  
Men suygan suyukli shunchalar goʻzal –  
Oydan-da goʻzaldir, kundan-da goʻzal!

(Choʻlpon)

**3-savol:** *Oʻzbekiston taʼlim tizimi uchun ishlab chiqilgan tayanch kompetensiyalar haqida nima bilasiz? Quyidagi matnning lingvistik kompetensiya asosida tahlil qiling.*

#### **حكايت**

كونلارنىڭ بىرىدا سلطان حسين بايقارا شكارغا چىقىشنى اختيار ايتدى اونگا ايشير نوانى حضرتلارى همراه بولدى شكاردان قاينار ايكانلار بىر قىشلاقدان اوتدىلار كوچه چىتىدا تورگان آلتى يىتتى ياشلارداكى بالا سلام بىردى سلطان حسين قولىنى كوكسىگا قويب عليک آلدى

و اوتیب کیتا بیردی علشیر نوانی ایسا باله نی کوریب آتینی توختاندی پاستگا توشوب بالا بیلان قوش قوللاب کوریشدی اوندان سونگ آتگا مینیب یولگا توشدی نوانی نینگ بو ایشی سلطان حسین باقارانی حیران فالیدردی او نوانی گا یوزلانیب سیز سولطان نینگ وزیر ی بولسانگیز بونینگ اوستیگا جهانگا تاتیقلی شاعر بولسانگیز نیمه اوچون گو دک بیر بالاگا شونچه لار مروت کورساتادورسیر عالم پناه دیدی نوانی کپ بالادا ایماس کپ شوندا که بیر وقتلار شو بالانینگ آتاسی مینینگ سوادیمنی چیقارگان ایردی مین استاذیمینگ بیئت ی پوشتی آلدیدا همیشه قرصدار دورمان

**4-savol: O'zbek tili o'quv predmetiga oid kompetensiyalar haqida nimalarni bilasiz?**

**1-topshiriq: Kompetensiyaviy yondashuv va uning tarixi haqida gapiring.**

**2-topshiriq: O'zbek tilini o'qitishning kompetensiyalarini quyidagi jadvalga joylashtiring.**

**II. O'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqing.**

**1-amaliy ish:** 5-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallang.

**2-amaliy ish:** 10-sing o'quvchilari uchun mo'ljallang.

**III. Bilimlaringizni sinab ko'rish maqsadida quyidagi testlarni yeching.**

## TESTLAR

### 1. Ko'nikma nima?

- A. O'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish
- B. O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish
- D. O'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish
- E. Mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati

### 2. Malaka nima?

- A. O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish
- B. O'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish
- D. Mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati
- E. O'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish

### 3. Bilim nima?

- A. O'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish
- B. O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish
- D. O'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish

E. Mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati

#### 4. Kompetensiya nima?

- A. O'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish
- B. O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish
- D. Mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati
- E. O'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish

5. Tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar qachondan boshlab kiritila boshladi?

- A. 1970–1990- yillardan boshlab
- B. 1950–1970- yillardan boshlab
- D. 1990– va keyingi yillardan boshlab
- E. 1960–1970- yillardan boshlab

6. O'zbekistonda nechanchi yildan ilk bor kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib, bosqichma- bosqich amaliyotga joriy etish boshlandi?

- A. 2013–2014- o'quv yilidan
- B. 2014–2015- o'quv yilidan
- D. 2017–2018- o'quv yilidan
- E. 2010–2011- o'quv yilidan

7. Kompetensiya–kompetentlik kategoriyalarini tilni, ayniqsa ikkinchi (o'zbek tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalanish qaysi yillardan boshlandi?

- A. 1990- va keyingi yillardan boshlab
- B. 1950-1970- yillardan boshlab
- D. 1970-1990- yillardan boshlab
- E. 1960-1970- yillardan boshlab

8. Media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi kompetensiya...

- A. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
- B. Kommunikativ kompetensiya
- D. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi
- E. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

9. Ijtimoiy vaziyatlarda o'zbek tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga

amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi kompetensiya...

A. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

B. Kommunikativ kompetensiya

D. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

E. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

**10. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) va lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid)...**

A. Milliy va umummadaniy kompetensiya

B. Kommunikativ kompetensiya

D. Predmetga oid kompetensiya

E. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

## O'ZBEK TILINI O'QITISH METODLARI

### *Tayanch tushunchalar:*

*metod, metodika, ilmiy-tadqiqot metodlari, ta'lim metodlari, pedagogik jarayon, ta'lim va tarbiya, o'zbek tilini o'qitish metodikasi, nazariya, ta'limot, kuzatish, suhbat, metodik eksperiment, tajriba-sinov maydoni, matematik-statistik metod, xulosa chiqarish, anketa, so'rovnoma, qiyosiy tahlil, usul, uslub, yo'l, vosita, texnologiya, shakl, o'qitish, o'rgatish, ko'rgazmalilik, o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar, o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar, tushuntirish-namoyish qilish metodlari, xotirlashga qaratilgan usullar.*

Metod aslida yunoncha *"metodos"* so'zidan olingan bo'lib, *"bilish va tadqiqot yo'li"*, *"nazariya"*, *"ta'limot"* kabi ma'nolarni bildiradi<sup>35</sup>.

**Ta'lim metodi** – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Har bir ta'lim metodi tarkibiga muayyan ta'lim-tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgan ish-harakat usullari, yo'llari kiradi.<sup>36</sup> **Usul** – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi. **Uslub** –

<sup>35</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. -Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2003. V. 613-бет.

<sup>36</sup> <http://shuhratbek.uz/ta'lim-metodlari-haqida-umumiy-ma'lumot>.

biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi. **Yo'l** – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

O'zbek tili darslarining samaradorligi o'qituvchining o'qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni tanlay olishi va har birini o'z o'rnida qo'llay olishiga bog'liq. Bu tushuncha falsafiy va didaktik ma'nolarga ega. Falsafiy ma'noda "metod" tushunchasi tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatish hamda voqelikka ilmiy nuqtayi nazardan yondashish demakdir. Didaktik ma'noda o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish yo'llarini ifodalaydi. Ayrim fanlarni o'qitish bilan aloqador masalalarni xususiy metodika o'rganadi. Shuning uchun ta'lim metodlari didakt – olimlarni ham, metodistlarni ham bab-baravar qiziqtiradi.

"O'zbek tili o'qitish metodikasi" mustaqil fan sifatida o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Ilmiy-tadqiqot metodlaridan ko'zlanadigan asosiy maqsad DTS tafablariga javob beradigan ta'lim mazmunini belgilash, o'qitishning eng samarali metod, vosita va usullarini aniqlash, o'zbek tili darslarini tashkil etishning qulay shakllarini belgilash, o'quvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish singari muhim muammolarning ilmiy yechimini topishdan iborat. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" fanida pedagogik eksperiment, diagnostik tahlil, kuzatish, o'quvchilarning og'zaki javoblari va yozma ishlarni tahlil qilish, ilmiy pedagogik adabiyotlar tahlili, maktab hujjatlarini ko'zdan kechirish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. Bu metodlar mavjud holatni aniqlash, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklarni topish, shu asosda metodik tavsiyalar ishlab chiqish, erishilgan natijalarni ilmiy tahlil etish va umumlashtirish imkonini beradi.

Metodlar mazmun-mohiyatiga ko'ra nazariy va amaliy metodlarga bo'linadi.

#### **Nazariy metodlar**

Analiz

Ilmiy farazlar

Modellashtirish

#### **Amaliy metodlar**

kuzatish, tajriba o'tkazish

guruhlash, qiyoslash, tahlil qilish, farqlash, tanlash

tajriba o'rganish, natijalarni tahlil etish  
va umumlashtirish

**Metodlarning tasniflanishi.** Jahon didaktlari keyingi yillarda ta'lim metodlari va ularning tasnifiga oid anchagina salmoqli ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ular o'qitish metodlarini turlicha tasnif qilishadi. Bir guruh olimlar (S.I.Petrovskiy, E.Y.Golant) ta'lim metodlarini bilim olish manbayiga qarab, og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlarga bo'lsalar, boshqa guruh olimlari (M.A.Danilov, B.P.Esipov) ma'lum tipdagi



darslarda bajaraladigan o'quv vazifasidan kelib chiqib, bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, egallangan bilimlarni mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni tekshirish, baholash kabi metodlarga ajratadilar.

Y. Babanskiy esa ta'lim metodlarini uch katta guruhga ajratadi:

1. *O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish metodlari.*
2. *O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rag'batlantirish metodlari.*
3. *O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini nazorat qilish metodlari.*

Bir guruh olimlar (M.N.Skatkin, I.Y.Lerner) bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim metodlarini quyidagi turlarga ajratadi:

- ❖ tushuntirish-namoyish etish metodi;
- ❖ qayta xotirlash metodi;
- ❖ muammoli bayon metodi;
- ❖ qisman izlanuvchanlik metodi;
- ❖ tadqiqot (izlanuvchanlik, ijodiylik) metodi.

Ta'lim meodlarining M.N.Skatkin, I.Y.Lerner tomonidan taklif etilgan ushbu tasnifi o'quvchilarning fikrlash faoliyatida tadqiqotchilik va muammoli vaziyat borligini aniqlashi bilan ajralib turadi. Mazkur tasnif o'qitish tabiatiga ham ancha mos tushadi. Shu sababli o'zbek tilini o'qitishda tatbiq etish mumkin bo'lgan M.N.Skatkin, I.Y.Lerner tasnifiga kengroq to'xtalamiz.

1. *Tushuntirish-namoyish etish metodi.* O'qituvchi tomonidan bilimlar tayyor holda beriladi. O'zbek tilining qonun-qoidalari o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi va uni mustahkamlash maqsadida misollar keltiriladi. O'quvchilar bayon qilinayotgan bilimlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga harakat qiladilar.

2. *Muammoli bayon qilish metodi.* O'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash orqali bu muammoni hal qilishga kirishadi. Ta'limning bu metodi o'quvchilar tomonidan o'quv materialining o'qituvchi rahbarligida mustaqil tahlil etilishi, kuzatilishi, guruhlanishi, umumlashtirilishi bilan ajralib turadi.

3. *Qayta xotirlash metodi.* Bu metodning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi o'quv topshirig'ini egallagan bilimlariga asoslangan holda yoki be-rilgan namunaga qarab bajaradi. O'quvchi muayyan andaza asosida harakat qiladi.

4. *Qisman izlanuvchanlik metodi.* Ta'limning bu metodi shu bilan ajralib turadiki, o'quvchi dars jarayonida ma'lum o'quv muammosini qo'yadi, ammo uni mustaqil hal qilish yo'llarini ko'rsatmaydi. Har bir o'quvchi muammoni mustaqil hal qilish uchun o'zicha izlanadi. Ammo qiyinchilik tug'ilganda unga yordam ko'rsatiladi. O'quvchi bu yordamni o'qituvchining tushuntirishidan, o'quvchilarning o'zaro suhbatidan yoki darslikdan olishi mumkin. Topshiriqni bajarish jarayonida olinadigan yordam metodni qisman ijodiy qilib qo'yadi.


5. *Tadqiqot (ijodiylik metodi.)* Bu metod o'quvchidan to'la ijodiylikni talab qiladi. Yangi bilimlar olish maqsadida o'qituvchi o'zi masala tuzish va uni to'la ravishda hal qilish yo'llarini izlaydi. O'qituvchi tomonidan beriladigan ijodiy-amaliy topshiriqlar ham hech qanday yordamsiz yoki namunaga asoslanmagan holda bajariladi. Mazkur tasnifning ustunligi shundaki, o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich faollashtirish nazarda tutilgan hamda unda o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'quv faoliyati tarkibida tadqiqotchilik unsurlari bo'lishi zarurligiga e'tibor berilgan. Yuqorida berilgan tasniflar ta'limning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan bo'lib, qayd etilgan metodlar barcha fanlarni o'qitishga bevosita aloqador sanaladi. Xususiy metodlar, shu jumladan, o'zbek tilini o'qitish metodikasi ham o'qitishning barcha masalalari qatori ta'lim metodlarini tanlashda umumdidaktik sistemaga asoslansa-da, uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan metodlari ham mavjud. O'zbek tilini o'qitish metodikasida ta'lim metodlari kam o'rganilgan masalalardan biridir. Metodist H.Rustamov bilim olish manbaidan kelib chiqib, o'zbek tili o'qitish metodlarini quyidagicha tasniflaydi:

- *o'qituvchining bayoni;*
- *suhbat;*
- *til hodisalarini kuzatish va tahlil qilish;*
- *grammatik tahlil;*
- *darslik ustida ishlash;*
- *ko'rgazmali qurollardan foydalanish;*
- *sayohat.*

Bu metodlar, birinchidan, qayta xotirlashga asoslangan metodlar bo'lib, ular o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga to'la muvofiq kelmaydi. Bu metodlarda, asosan, o'qituvchi faoliyati nazarda tutilgan; ta'lim jarayonining subyektini sanalgan o'quvchi e'tibordan chetda qolgan. Bu tasnifda o'quvchilarda izlanuvchanlikni shakllantirishga xizmat qiladigan muammoli bayon, qisman izlanuvchanlik, tadqiqot

(izlanuvchanlik) metodlari o'z yechimini topmay qolgan. Ma'lumki, dars ikki tomonlama jarayon bo'lib, unda o'qituvchi ham o'quvchi ham faol ishtirok etadi. Shuning uchun o'qitish metodlarini tasnif qilishda nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchi faoliyati ham asos bo'lib xizmat qilmog'i lozim. O'zbek tili darslarida qo'llanadigan o'qitish metodlari nafaqat bilimlarni bayon qilish yoki mustahkamlashga xizmat qilishi, balki o'quvchilarning mustaqil bilim egallashini ham hisobga olishi, ta'lim jarayoniga izlanuvchanlik va tadqiqotchilik unsurlarini qo'shish orqali ularni ijodiy faoliyatga tayyorlashi lozim. Ana shu nuqtayi nazardan pedagogika fanlari doktori, metodist-olim A.Q.G'ulomov ta'lim metodlarini quyidagi guruhga ajratadi:

1. *O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.*
2. *O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.*



**3. O'zbek tili darslarida bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi.** Ma'lumki, izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sermahsul faoliyatdir. O'quvchi til hodisalarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlasa, aktiv ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu metod shaxs va uning ijtimoiy faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

“Muammoli ta'lim” tushunchasi pedagogik adabiyotlarda, garchi keyingi yillarda yuzaga kelgan bo'lsa-da, bu izlanuvchanlikka asoslangan g'oya ming yildan ortiqroq tarixga ega. Sharq mutafakkirlari bilish izlanish mahsuli ekanligini alohida qayd etishgan. O'rta asming buyuk donishmandi Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining “Donishnoma” asarida

qiyinchiliklarni yengish orqali bilimlarni egallashning afzalligini ko'rsatgan edi.

Umar Xayyom (1042-1112) "Matematik traktatlar"ida bilish fikrlash zarurligiga, qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'ylash kerakligiga da'vat etadi. Al-Tusiy (1201-1274) esa bilimlarni puxta egallash uchun mustaqil izlanishning zarurligini alohida qayd qiladi. Bu g'oya keyinchalik evristik ta'lim nazariyasining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. XIX asrning 70-yillarida Rossiyada yashagan bir guruh tilshunos olimlar (S.P.Baltalon, M.A.Ribnikova) evrestik ta'lim nazariyasini ko'tarib chiqib, o'quvchilarni mustaqil ishlatish yo'li bilan ularni faollashtirishga erishish mumkinligini asoslab berdilar. O'quvchilarni izlanishga undash suhbat asosida amalga oshiriladi. Har qanday izlanishga asoslangan suhbat jarayonida muammoli vaziyat yaratish ehtiyoji bor.

Bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga, noma'lumni izlab topish jarayonida o'zligini namoyon etishga imkon beradi. Muammoli ta'limda o'quvchilarning faoliyati shunday tashkil etiladiki, ularda o'rganilayongan bilimlarga ehtiyoj tug'iladi. Bu metod o'rganilishi ko'zda tutilgan til hodisasini o'quvchidan pinhon saqlaydi; unda bilishga ehtiyoj zaruriyati tug'iladi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashini o'stirishga qaratilgan. Bunday ta'lim esa rivojlantiruvchi ta'limdir. Muammoli o'qitish muammo yaratish (muammoni vujudga keltirish) bilan boshlanadi.

O'zbek tili ta'limi jarayonida muammoli vaziyat quyidagi hollarda yuzaga keladi:

➤ noma'lumni izlab topish, qiyinchilikni bartaraf etish zaruriyati tug'ilganda;

➤ o'zbek tilidan egallangan bilimlarni yangi sharoitda qo'llash ehtiyoji yuzaga kelganda;

➤ muammoli topshiriq bilan uni bajarish usuli o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelganda.

O'zbek tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

**1. Tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish.** Til hodisalarini kuzatish tahlilning samarali shakli sanaladi. Bu usul yordamida muammoli vaziyat yaratish uchun o'quvchilardagi mavjud bilimlarga asoslanib, noma'lum muammoni aniqlashni ularning o'zlariga topshirish mumkin. Masalan, "Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi" mavzusini o'tishda tahlil uchun quyidagi topshiriqlar o'quvchilar hukmiga havola etiladi va muammoli vaziyat yaratiladi:

1. Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko'ring.

2. Nutq tovushlarini hosil qilishda faol ishtirok etgan nutq uzvlarini sanang. Nega ular faol nutq tovushlari ekanligini isbotlang.

**2. Til hodisalarini qarama-qarshi qo'yish va taqqoslash asosida muammoli vaziyat yaratish.** Taqqoslash, ayniqsa, til ta'limida muhim o'rin egallaydi. Bu usul orqali til hodisalaridagi o'xshash va farqli tomonlar aniqlanadi.

Mazkur usul bilan muammoli vaziyat yaratishni "Ko'chirma gap" mavzusini o'rganish misolida ko'rib o'taylik. O'quvchilarga berilgan quyidagi gaplarni o'qib, ularni qiyoslash va farqlash sarosimaga solib qo'ydi:

1. "Jurjon podshosi bo'laman", - dedi yigit. Yigit Jurjon podshosi ekanligini aytdi. (Ertakdan)

2. Arslon podsho buyurdi: "Chaqimchini tutib o'ldiring". Arslon podsho chaqimchini tutib o'ldirishni buyurdi (Ertakdan).

3. "Toshkentga, - dedi Mertemir, -11 yoshimda kelganman". Mirtemir Toshkentga 11 yoshida kelganligini aytdi.

Gaplar qiyoslangach, ko'chirma va o'zlashtirma gap semantikasidagi farqni aniqlash muammosi savol sifatida o'rtaga tashlanadi.

**3. Til hodisalarini umumlashtirish orqali muammoli vaziyat yaratish.** Umumlashtirish aqliy faoliyatning eng murakkab usuli bo'lib, u o'zbek tilini induktiv yo'l bilan o'qitishga asoslanadi. Induktiv yo'l esa til hodisalarini kuzatish, tahlil qilish, guruhlash kabilar asosida umumlashmalar hosil qilish demakdir. O'quvchi berilgan so'z, so'z birikmasi, gap va matnlarni kuzatib tahlil qilgach, muammoni yechishga tayyor bo'ladi. Masalan, 5-sinfda "Undalma" mavzusi o'rganilar ekan, o'quvchilar zimmasiga ega bilan undalmaning o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash va undalmaga mustaqil ravishda ta'rif berish vazifasi yuklatiladi. Odatda, birinchi muammo hal qilingach, ikkinchi va uchunchi muammoni hal qilishga o'tiladi.

**4. Berilgan matnning mazmunidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratish.** O'qituvchi darslikda berilgan yoki o'zi tanlagan matnni o'qitib, shu asosda ham muammo qo'yishi mumkin. Masalan, 5-sinf o'quvchilari e'tiboriga quyidagi matn havola etiladi:

*Amir Abdullaxon xos navkarni hamisha o'zi bilan olib yurar ekan. Amir huzuridagi suhbatlarda bir shoir Amir Xisrav Dehlaviyga nisbat berib shu baytni o'qiydi:*

*"Kerak odamga so'zni ko'p bilmoq  
Vale oni juda ham oz aytmog".*

*Amirga bu bayt juda ma'qul bo'ladi. Kunlardan bir kun Amir o'zining so'zamol, sergap vaziriga Dehlaviyning ta'birini eslatib, tanbeh beradi. Vazir Amirga: "Avf eting, shohim. Bu so'zlar Dehlaviyniki emas, shayx Nizomiy qalamiga mansub", - deb e'tiroz bildiradi. Amir hayrat bilan navkariga qaraydi. Navkar bosh egib:*

*-Ulug' amirim, vazir haq. Bu ta'bir - Nizomiy Ganjaviyning "Xisrav va Shirin" dostonidan. Shoir sizga noto'g'ri aytgan edi,- deb javob beradi.*

*Amir jalldni chaqirib, navkarning tilini kestiradi.*

Muammoli savol: nega navkarning tili kesildi?

O'zbek tilidan masala tipidagi o'quv topshiriqlari til hodisalarini kuzatish, qiyoslash, guruhlash kabilarga asoslanadi. O'quvchi tildan egallangan bilimlarga asoslanib noma'lumni qidiradi.

Masalaning muhim belgisi uning isbottalabligidir. O'quvchi berilgan topshiriqlarni bajargach, muayyan bir xulosaga keladi va o'z shaxsiy fikr-muloxazalarini isbotlash zaruriyati tug'iladi.

#### **4. O'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.**

O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar:

a) bilimlarni tayyor holda bayon etish;

b) bilimlarni muammoli bayon qilishga ajratiladi.

T.Almamatov, Q.Yadgarov va Sh.Almamatovalar o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni quyidagi guruhlarga ajratadilar:

- bilimlarni tayyor holda bayon qilish;

- bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish;

- bilimlarni muammoli bayon qilish<sup>37</sup>.

**Bilimlarni tayyor holda bayon qilish usuli.** Bu metod o'zbek tili darslarida juda ko'p qo'llanadi. Bayon qilish davomida murakkabroq, o'quvchilarga oldindan noma'lum mavzular izohlanadi. Bu usulning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlaridan biri vaqtni tejaydi. Salbiy tomoni o'quvchilarning fikrlash faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. O'quvchi passiv tinglovchiga aylanib qolishi mumkin. Bu negativ holatning oldini olish uchun o'qituvchi quyidagilarga amal qilgani ma'qul:

1. O'qituvchi nutq madaniyatiga e'tiborini kuchaytirishi.

2. Ishontirish va asoslash usulini keng qo'llashi.

3. Qat'iy rejaga amal qilishi lozim.

**Bilimlarni suhbat yo'li bilan bayon qilish usuli.** Bu usuldan darsning hamma bosqichlarida: yangi bilim berishda, bilimlarni takrorlash va mustahkamlashda, bilimlarni tekshirish va baholashda foydalansa bo'ladi. O'rganilayotgan material o'quvchilarga oldingi sinfdan qisman

<sup>37</sup> T.Almamatov, Q.Yadgarov va Sh.Almamatova. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. -Toshkent, 2013.

ma'lum bo'lsa yoki o'quv materiali oldingi mavzu bilan bevosita bog'lansa, darsda suhbat metodini qo'llash mumkin bo'ladi. Suhbatda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida berilgan faktlarni kuzatadilar, o'zaro qiyoslaydilar va muhokama qiladilar. Bu usul o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim omillardan sanaladi.

Suhbat uch xil bo'ladi: a) axborot xarakteridagi suhbat; b) evristik suhbat; c) o'tilgan mavzuni mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

1. Axborot xarakteridagi suhbat. Yangi material o'tilayotganda o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan faktlarni nazarda tutib, ular suhbatga jalb qilinadi. Bunday suhbat qiyosiy usulda o'tiladigan mavzularda qo'l keladi: sifat o'tilayotganda o'quvchilardan sifatdoshning grammatik belgisini so'rash mumkin: *o'qigan bola – yaxshi bola* misoli vositasida ular o'rtasidagi umumiylik aniqlanadi.

2. Evristik (grek. heurisko–topmoq) suhbatda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari ancha kengayadi. Bunda o'qituvchi oldindan ma'lum bo'lmagan yangi o'quv materiallari yuzasidan savollar beradi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash xarakteridagi suhbat. Suhbatning bu turidan o'tilganlarni takrorlash, 5-6 kun oldin o'tilgan qoidalarni eslatish maqsadida foydalaniladi. Bunda savollar qo'shaloq bo'lmasligi kerak. Ba'zi savollar alternativ xarakterda bo'lishi mumkin.

**Bilimlarni muammoli bayon qilish**. Bu usulda o'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumiyLashtirish kabi logik-lingvistik vositalardan foydalanib, o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi. "Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi" (V. O. Distervng). O'quvchilar o'zlarida mavjud bilim va ko'nikmalar asosida muammoni yechadilar.

**4.O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni** T.Almamatov, Q.Yadgarov va Sh.Almamatovalar quyidagicha izohlaydilar:

- reproduktiv metodlar;
- qisman izlanuvchanlik metodlari;
- izlanuvchanlikka asoslangan metodlar.

A. Reproduktiv metodlar. Bu usulda o'quvchilar tayyor material bilan ishlaydilar. Topshiriqni bajarishda namunaga qarab ish ko'radi: ko'chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant ... . O'quvchilarning orfografik va punktuatsion savodxonligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini o'stirishda reproduktiv topshiriqlarning roli katta. Bu o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatadi va ayni paytda keyingi metodlar qisman izlanuvchanlik va izlanuvchanlikka zamin yaratadi.

B. Oisman izlanuvchanlik metodlari. Bu usul o'quvchilarning interpretatsion (sharhlash, tushuntirib berish) faolligini oshirishga qaratilgan. Qisman izlanuvchanlik metodi tarkibida qayta xotirlash (reproduktiv metod) asosiy o'rinni egallaydi. Chunki o'quvchi har qanday fikrini asoslashi kerak.

Bu metodda quyidagi ish usullari qo'llaniladi:

- nuqtalar o'rniga zarur harf, qo'shimcha, so'zlar qo'yish;
- ma'lum bir so'zni boshqasi bilan almashtirish;
- gapga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish orqali ma'no farqlanishini tushuntirish;

- ma'lum uslubga muvofiq matn tanlash;

- tayanch so'zlar ishtirokida matn tuzish kabilar.

D. Izlanishga asoslangan metodlar. Bu metod asosida bajariladigan ishlar o'quvchi faoliyatining kulminatsiyasi sanaladi. Bu usul izlash, yangilik topish uchun harakat qilish, qidirish, axtarishni ifoda etadi. Bu metod o'quvchidan o'zbek tili qonun-qoidalarini tamoman yangi vaziyatda qo'llashni talab etadi. O'quvchilarning grammatik qoida talabiga muvofiq so'z, so'z birikmasi, gap va matn tanlashi; erkin diktant, insho; o'qilgan badiiy asarga taqriz yozish; badiiy asar tilini mustaqil o'rganish; gazeta va jurnallarga maqola yozish, referat tayyorlash kabi ish usullarida tadqiqotchilik faoliyati namoyon bo'ladi<sup>38</sup>.

**5. Kognitiv tamoyilga amal qiluvchi ongli-verbal-kognitiv ta'lim metodi.**

Uzluksiz raqobatchilikka tayangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirkor, sharoitga ko'ra ish tuta biladigan, maqsadga erishish vositalarini jadallik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga muhtoj bo'ladi. Shuning uchun g'arb davlatlarida tarbiya tizimida **bixevioristik** yondashuvdan **kognitiv** yondashuvga qarab siljish sezilarli bo'ldi. Inson faoliyatini baholashda **kognitivizm** (ing.cognitive – "ta'limiy, o'rganilgan, o'zlashtirilgan") XX asrning 60-yillarigacha pedagogika va psixologiyada hukmron bo'lgan bixevioristik yondashuvdan quyidagicha farqlanadi:

bixevioristik yondashuvda inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda **ongsiz** reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi;

kognitiv yondashuvda bu xatti-harakatlarda **onglilik** – ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadi.

Ko'rinib turibdiki, bixevioristik yondashuvda inson va tarbiya to'la namoyon bo'lmaydi, kognitiv yondashuvda esa ular faol gavdalanadi.

<sup>38</sup> T.Almamatov, Q.Yadgarov va Sh.Almamatova. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent, 2013.



Ma'lumki, bozor iqtisodiyotida yashash sharti insoniy faollikdir. Shuning uchun AQSH va g'arbda XX asrning 60-yillaridayoq kognitivizm pedagogika, didaktika tizimlariga kirib kela boshladi. Bu oqim o'sha davrda ancha ommalashgan ta'limning verbal (ya'ni kommunikativ muloqotda ta'lim oluvchining faolligi va o'zligini namoyon qilishga intilishi) usullari bilan birlashib, **ongli verbal-kognitiv ta'lim** yo'nalishini shakllantiradi. Mashhur pedagog-metodist D.Ozbel bu yo'nalishga asos solib, ta'lim jarayonida yetakchi usul – kashfiyot (ing.discovery) ekanligini alohida ta'kidladi.

**Kashfiyot ta'lim usulining** mohiyati shundaki, ta'lim oluvchi har bir topshi-riqni bajarish jarayonida yangi-yangi materiallarni kashf etish, nimadir yaratish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ta'lim jarayonida onglik yetakchilik qiladi.

#### **6. Ko'rgazmalilik va tushuntirish, namoyish metodi.**

Ko'rgazmalilik o'zbek tili o'qitishning muhim qonuniyati sanaladi. Chunki bu fanning tabiati ko'rgazmalilikni ko'proq talab etadi. Tildagi mavhum tushun-chalarning mohiyatini anglash bu prinsipdan keng foydalanishni taqozo etadi. O'quvchi ko'rish orqali narsa-hodisa, ularning tildagi ifodasi xususida aniq tushunchaga ega bo'ladi.

Ko'rgazmalilik prinsipiga ko'ra til hodisalarini o'rganish kuzatish, sezishdan boshlanadi. Bola turli nutq tovushlari, so'zlar, gaplarni talaffuz etish, eshitish, yozish, ko'rish orqali sezadi. Kuzatish vositasida o'quvchilar ongida til hodisalari to'g'risida hissiy, aniq tasavvur hosil bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni til hodisalarini sezishdan ularning mohiyatini anglashga, til hodisalarini tasavvur etishdan grammatik tushunchalarni atroflicha o'zlashtirishga qarab olib boradi.

Ko'rgazmali material muhim axborot manbai hamdir. Chunki o'quvchi darslik, o'qutuvchining bayoni, gazeta va jurnallardan qanday axborot olsa, ko'rgazmali materialdan ham shunday ma'lumot olishi mumkin.

O'zbek tili darslarida tabiiy yoki aniq buyumlardan (predmetlarning asl namunasi: mas., anor, olma, bino maketi v.h.), grafik materiallar (chizma, jadval kabi)dan; tasviriy san'at, musiqa, kino, televidenie kabi vositalardan foydalaniladi. O'zbek tili mashg'ulotlarida televizor, epidiaskop, filmskop, magnitofon kabi texnik vositalardan foydalanish dars samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu vositalar til hodisalarini tushunishga, o'zbek tilidan egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlashga, uni amaliy ko'nikmaga aylantirishga yordam beradi. Ayniqsa, tasviriy san'at namunalari, o'quv filmlari, diafilmlar va diapozitivlar o'quvchilarning o'g'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda

muhim vosita sanaladi. Shuni nazarda tutib, o'zbek tili o'qituvchisi til kabinetini shu vositalar bilan ta'minlash chorasini ko'rishi, ayniqsa, rasmlar albomlar tashkil etishi, rasmlar tarqatma materiallarini ko'paytirishi lozim.

#### **Televideniye – ta'lim vositasi sifatida.**

Ta'lim sifatini ta'minlash shu tizimning faoliyat yuritish darajasini, unga bo'lgan talab va ehtiyoj hamda e'tirofni belgilovchi asosiy mezondir. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagoglar jamoasi oldiga muhim talablarni qo'yimoqda. Ta'lim mazmunini takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv, ta'limning innovatsion texnologiyalari va AKTlaridan unumli foydalanish, hamkorlik pedagogikasi asosida faoliyat yuritish, ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda innovatsion metodlarni ishlab chiqish davr talabiga aylandi.

Ta'lim jarayonida "sifat" tushunchasini qo'llash mazmunan o'ziga xos ma'no kasb etadi. Ta'lim sifati DTS, malaka talablari va uning bajarilish, amal qilish darajasi bilan belgilanadi. Har bir mamlakatda ta'lim jarayoni sifatini ta'minlashda ichki va tashqi omilga tayaniladi. Ichki omil mamlakatdagi ta'lim tizimining shu millat tadrijiga mos rivojlanish darajasini ifoda etsa, tashqi omil xalqaro sifat menejmenti talablari bilan aloqadordir.

Ta'lim sifatini ta'minlovchi ichki omillardan biri samarali dars jarayonini tashkil etishdir. Dars jarayonidan, uning shaklidan kelib chiqqan holda pedagogik, innovatsion texnologiyalarni to'g'ri tanlash muhim vazifadir. Dars mashg'ulotining sifatini, birinchi navbatda, o'qituvchining talab darajadagi kompetentligi, o'quvchining keng dunyoqarash, yuksak tafakkur, aqliy salohiyatga egaligi belgilaydi.

Bugungi kunda internet orqali o'qitish, elektron ta'lim ommalashib bormoqda. Televideniye orqali ta'lim berish yanada qulay va samaralidir. Xorij ta'lim tizimida televideniye bilan o'qitish vositasi sifatida keng foydalanilayotganligini kuzatish mumkin.<sup>39</sup>

Chet tili o'qituvchilari uchun vizual media vositalari allaqachon mashg'ulot jarayonining qo'shimcha komponentiga aylanib ulgurdi. Mavjud tadqiqotlardan olingan misollar televideniye bilan ta'lim sohasida foydalanishning afzalliklarini namoyon etadi.<sup>40</sup>

<sup>39</sup> Durbin, C. (2000). Moving images in geography, moving images in the classroom: A secondary teachers' guide to using film and television. London: British Film Institute; Dhingra, K. (2003). Thinking about television science: How students understand the nature of science from different program genres. Journal of Research in Science Teaching, Vol. 40, No. 2, pp 234-256.

<sup>40</sup> Fisch, S.M. (2004). Children's learning from educational television: Sesame Street and beyond. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates

Televideniye informatsiyani turli shakllarda taqdim etadi: nafaqat tasvir shaklida, balki harakat, ovoz hamda o'z vaqtida matnini ham ko'rsata oladi. Audio va vizual informatsiyaning ko'pligi o'rganishning yanada samaradorligiga sabab bo'ladi, ya'ni har bir imkoniyat bir-birini to'ldirib boradi.

Ko'rish faol jarayon bo'lib, ko'rsatish maqsadli bo'lsa, yanada chuqurroq va mukammal ta'sirga erishiladi.

Ko'rish – bu ishonish, shu bilan birga eslab qolish ham demakdir. Inson xotirasi ko'rganda ko'proq ma'lumotni eslab qoladi. Ham ko'rib, ham eshitishda ikki barobar ko'p hajmdagi ma'lumot xotiraga muhrlanadi. Insonning eslab qolish qobiliyati tadqiqotchilar fikriga ko'ra quyidagicha xulosalangan<sup>41</sup>:

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda televideniyaning o'rni beqiyos. Ijtimoiy sohalar ham televideniye orqali o'qitilishi mumkin bo'lgan eng ommabop fanlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan televideniye, shu jumladan, mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni translyatsiya qilish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani, texnikasi yutuqlariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop, xorijiy badiiy hamda multiplikatsiya filmlarini o'zbek tilidagi subtitr yordamida, muntazam ko'rsatib borishni amalga oshirish ishlari yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, "O'zbekiston", "Yoshlar", "Madaniyat va ma'rifat", "Dunyo bo'ylab", "Bolajon", "Diyor", "Mahalla" kanallarida televizion mashg'ulotlar olib boriladi. Televideniye orqali chet tilini o'rgatishda tili o'rganilayotgan davlatlarning teledasturlaridan foydalanish materiallarning autentikligini oshiradi. Autentik materiallar o'quvchida chet tillarni eshitib tushunish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Televideniye orqali o'zbek tili va adabiyotini o'qitish, til va adabiyot masalalarini tahlil qilish yuksak darajadagi ma'naviyatni shakllantirish omilidir. Teleko'rsatuvlar yordamida o'zbek tilini o'qitish davlat tilining mavqeyini yuksaltirishda ham muhim vosita hisoblanadi. O'zbek tilini o'qitishda televideniyaning quyidagi afzalliklari ko'zga tashlanadi:

-televideniye informatsiyani tarqatishda eng ommaviy (siyosiy, madaniy, ilmiy va ta'limiy) vositalardan biridir. Televideniya davlat tiliga munosabat o'z ifodasini topadi. Tilga oid ko'rsatuvlar nutqiy

<sup>41</sup> Marshall, J.M. (2002). Learning with technology: Evidence that technology can, and does, support learning. White paper prepared for Cable in the Classroom.

ko'nikmalarni shakllantirish va kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi;

-teledasturlardan o'rinni foydalanish o'zbek tili ta'limi va uning tarkibini boshqarishni optimallashtirishga imkon yaratadi. Shu sababdan televideniye tomoshabinlar uchun nafaqat sotsial informatsiya manbai, balki umuminsoniy madaniy qadriyatlarni tarqatuvchi vosita hamdir;

-televideniye milliy qadriyatlar targ'ibotchisi hisoblanadi. Milliy-madaniy xususiyatlar, avvalo, tilda o'z ifodasini topadi. Tilga doir ko'rsatuvlar, savodxonlik darslari yosh avlodni axloqan barkamol, ma'naviy jihatdan yuksak darajada tarbiyalashda o'z o'rniga ega.

Fan va ta'lim uchun alohida telekanal tashkil qilinishi va yuqorida aytib o'tilgan telekanallarda olib borilayotgan mashg'ulotlarni jamlash, qat'iy jadval asosida tartibga solish kerak.

Televideniye orqali ta'lim dasturlarini tashkil etishda kadrlar bilan ta'minlash muammosini hal etish zarur. Buning uchun televideniye ga maktab, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalaridan tajribali, bilimli va kompetentli o'qituvchilarni jalb etish, ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish lozim. Har bir fan uchun alohida o'quv kabinetlarini tashkil etish, bu kabinetlarni kompyuter texnologiyalari, internet va boshqa multimedia vositalari bilan ta'minlash talab qilinadi.

Televizion mashg'ulotlarni tashkil etishda Respublika maktab, o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari va akademik litseylaridagi mashg'ulotlar hisobga olinishi zarur. Respublikamizdagi ayrim maktablarda ta'lim jarayoni ikki smenada tashkil etishganini hisobga oladigan bo'lsak, o'rta ta'lim uchun mashg'ulotlarni shunga muvofiq lashtirish lozim bo'ladi. Bunda o'quvchilar darsdan bo'sh vaqtlarida televizor qarshisida o'tirib, televizion mashg'ulotlarni tinglab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun kunning ikkinchi yarmida televizion mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Televizion ta'limni tashkil qilish bo'yicha berilgan barcha takliflar o'rganilishi, ayniqsa, uni moliyalashtirishga katta e'tibor talab qilinadi. Moliyalashtirish mahalliy byudjetlar, mahalliy va xalqaro fondlar, reklamadan tushadigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Televideniye orqali ta'lim berishda har bir soha bo'yicha "Akademik soat"lar seriyasini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim materiallarining sifatli bo'lishini ta'minlash lozim. Ta'lim materiallari sifati bu – o'rganuvchi tomonidan qo'yilgan xarakteristikadir. Ta'lim materiallarining sifati o'quv materialini o'rganish mobaynida

foydalanuvchi tomonidan yangi faktlar, yangi qirralar, innovatsion yondashuvlarni o'rganish jarayonida aniqlanadi.

Ta'limning har bir bosqichi – o'rta maktab, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim uchun ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalariga javob bera oladigan o'quv adabiyotlari yaratish lozim.

Televizion ta'lim jarayonida og'zaki va yozma nutq kometensiyasini shakllantirishga ahamiyat berish kerak. Yozma nutq tafakkurni o'stirishga xizmat qiladi. Imlo qoidalarini o'zlashtirish yuzasidan ko'rsatuvlar tashkil qilish, husnixat darslarini joriy etish, nutq o'stirish mutolaa soatlarini ommalashtirish yosh avlod savodxonligini oshirishda, tafakkur salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Televizion ta'limni joriy etish televideniyaning nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi. Saviyasi past ayrim ko'rsatuvlarning ma'naviyatga salbiy ta'siriga ham barham beriladi.

Ko'rgazmali qurollardan barcha turdagi darslarda va darsning barcha bosqichlarida unumli foydalansa bo'ladi. O'quv materialini mustahkamlash va takrorlash jarayonida ko'proq reproduktiv xarakterdagi ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi, yangi bilim berishda izlanuvchanlikni talab qiladigan ko'rgazmali qurollar ishga solinadi. Demak, ko'rgazmalilik prinsipini amalga oshirish orqali o'quvchilarning qayta xotirlashga asoslangan faoliyatini ham, qisman izlanuv-chanlik faoliyatini ham, ijodiy faoliyatni ham uyushtirish mumkin. Ko'rgazmali qurol me'yorida qo'llanishi lozim. Haddan tashqari ortiqcha ko'rgazmali vosita o'quvchilarni toliqtiradi; fikrni asosiy masaladan chetlatadi; o'quv materiali uchun ajratilgan vaqtning yetishmasligiga sabab bo'ladi.

### **O'quv jarayonini faollashtirish usullari.**

“O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili” deb qonunlashtirilgandan keyin xalq ta'limi oldiga Respublika taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi qo'yildi. O'zbek tili mashg'ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g'oya va ajdodlarimiz an'analarini e'zozlaydigan, vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalashda o'zbek tili o'qituvchisining mas'uliyati katta.

Darsga tayyorlanish jarayoni o'qituvchi pedagogik mahoratining shaklla-nishida muhim o'rin tutadi. Darsga tayyorlanish tartibi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq: a) darsni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish, maqsad va vazifani to'g'ri belgilash; b) talabalarga milliy mafkura va istiqloq g'oyalarini singdirish; d) dars mavzusini mukammal yoritishga xizmat qiladigan zamonaviy o'quv - texnika vositalaridan unumli foydalanish; f) talabani til hodisalarini kuzatish, farqlash va sharhlashga yo'naltiradigan kompyuter dasturlari,

mul-timedia, kodoskop xizmatidan foydalanishga o'rgatish. Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishga barcha sezgi a'zolarining faoliyatini to'g'ri uyushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok qilsa, bilish shuncha osonlashadi.

**Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

**I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

1-savol: *"Metod" so'zining ma'nosini qanday izohlaysiz?*

2-savol: *Tamoyil va metodlar orasida o'zaro qanday bog'liqlik mavjud?*

3-savol: *O'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liqligiga ko'ra metodlar qanday turlarga bo'linadi?*

4-savol: *Kognitiv tamoyilga amal qiluvchi ongli-verbal-kognitiv ta'lim metodi haqida nimalarni bilasiz?*

1-topshiriq: *Metodlarni tasniflang.*

2-topshiriq: *Metodlarning maqsad va vazifalariga ko'ra turlarini ayting.*

3-topshiriq: *O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq "Bilimlarni tayyor holda bayon etish" metodini T-sxema asosida tushuntiring.*

4-topshiriq: *O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq "Bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon etish" metodini T-sxema asosida sharhlang.*

5-topshiriq: *O'quvchi faoliyati bilan bog'liq "Qayta xotiralash" metodini T-sxema asosida izohlang.*

6-topshiriq: *O'quvchi faoliyati bilan bog'liq "Qisman izlanuvchanlik" metodini T-sxema asosida sharhlang.*

7-topshiriq: *O'quvchi faoliyati bilan bog'liq "Izlanish" metodini T-sxema asosida sharhlang.*

**II. O'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlardan birini tanlab, dars ishlanmasini tayyorlang.**

1-amaliy ish: 6-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallang.

2-amaliy ish: 8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallang.

3-amaliy ish: Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkinligi haqidagi fikrlaringizni ushbu jadval ko'rinishida ifodalang.

<b>Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin</b>	
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashing	

**4-amaliy ish:** Ko'rgazmaga qo'yiladigan materiallar bilan tanishning hamda o'zingizning ijodiy yondashuvingiz asosida qo'shimchalar kiriting.

**Ko'rgazmaga qo'yiladigan materiallar:**

- ✚ O'zbek tili to'garagi a'zolarining ishini yorituvchi materiallar;
- ✚ ta'lim muassasasi devoriy gazetasi, o'quvchilarning qo'lda yoki kompyuterda yozilgan adabiy jurnali;
- ✚ ta'lim muassasasi o'quvchilarining amaliy ishlari, sayohat esdaliklarini tasvirlovchi albomlar;
- ✚ donishmandlarning tilga doir fikrlari, xalq maqollari yozilgan bannerlar;
- ✚ "Daftarni qanday tutish kerak?", "Bu kitoblarni o'qi", "To'g'ri va chirioyli yozishga odatlan", "Kitobni qanday o'qish kerak?" kabi mavzularda yangilanib turadigan plakatlilar.

**5-amaliy ish:** Til ta'limida ko'rgazmalilik tamoyilining ahamiyati haqidagi fikrlaringizni ilmiy maqola shaklida bayon eting.

**6-amaliy ish:** Biror til bo'limiga oid grammatik jadval loyihasini tayyorlang. Ushbu matndagi grammatik vositalarni ajrating.

علم قيديرينگيز توغولگاندين اولگونچا ديگان سوز همه آدملازغا برابر بويروق بولسا هم اوقوماقنى بير ياخشى وقتى باركه اول ياشليک و بالالیک وقتيدور ياشليکدا اورگانگان علم تاشقا اويولغان بيتيکديک اصلا خيالدين کيتمایدور ای شاگردلار امکانی باريچه ياش وقتلارينگيزدا اوقوماقغا سعی قيلينگلارکه آلتين عمر بيکارگا صرف بولماسون

**7-amaliy ish:** Ta'limning turli bosqichlaridagi o'zbek tili darslari uchun ko'rgazmali qurollar tayyorlang.

**8-amaliy ish:** Quyidagi namuna asosida siz ham ijodiy diktantlar o'tkazish uchun rasmlar top'lang va ulardan qay tarzda foydalanish mumkinligini tushuntirib bering. Namuna: (Ijodiy diktant. "Ona bilan bola – gul-u lola"). Rasm asosida ijodiy diktant o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'ring –

**III. O'z bilimlaringizni sinab ko'rish maqsadida quyidagi test savollarini yeching.**

**TESTLAR**

**1. Tarbiya tizimidagi kognitiv yondashuvning mohiyati ...**

- A. Inson xatti-harakatlarida onglilik – ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadigan yondashuv
- B. Inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladigan yondashuv
- D. Inson xatti-harakatlari o'zi yashab turgan jamiyat qonun-qoidalaridan chekinishiga asoslangan yondashuv

E. Nazariy, amaliy, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy prinsiplar

**2. Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada qanday tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshirilishi to'g'ri emas?**

A. Amaliy, ta'limiy, ekologik, global maqsadlar

B. Talabalar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta'riflar tizimi)

D. Tanlangan ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi

E. Talabalarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi

**3. Faoliyat turlarini belgilang.**

A. Qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy

B. Ko'nikma, malaka, tajriba

D. Qayta o'qish, takrorlash va tahlil qilish

E. Nazariy, ijodiy, amaliy, ko'nikma

**4. O'zbek tili materiallarini rejalashtirishda nimalarga e'tibor berish lozimligi qaysi javobda noto'g'ri izohlangan?**

A. Nazariy, amaliy, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy prinsiplarga

B. Materialning hajmiga

D. O'quvchilarning bilim darajasiga

E. O'quvchilarning materialni aniq tasavvur etishi, uning qismlari orasidagi munosabatni aniqlashiga

**5. Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda talaba va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ... dir.**

**6.**

A. Ta'lim prinsiplari. B. Ta'lim standartlari. D. Ta'lim turlari. E. Ta'lim usullari

**7. Ta'lim qanday prinsiplarga asoslanadi?**

A. Tarbiyaviylik, ilmiylik va tushunarliklik, tizimlilik, izchillik, mustaqillik va faollik, ko'rsatmalilik, ongillik prinsiplari

B. Nazariy, metodik, amaliy, pedagogik, mantiqiy, psixologik prinsiplar

D. Nazariy, amaliy, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy prinsiplar

E. Amaliy nazariy, ijtimoiy, tarbiyaviy, ilmiy, prinsiplar

**8. Fanda nimani, qanday, qancha o'rganish; o'zlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan qaysi fan shug'ullanadi?**

A. Metodika

B. Uslubshunoslik

D. Pedagogika



E. Falsafa

**9. “Metod” so‘zining mohiyatini belgilang?**

A. Metod – muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni ilmiy yoki nazariy o‘zlashtirish (bilish) usullari majmui

B. Metod – aqliy faoliyatni rivojlantirish, diqqat, xotira, tafakkur kabi intellektual qobiliyatlarni o‘stirish, mustaqil va ijodiy izlanishga o‘rgatish usullari majmui

D. Metod – mavzuga oid muammoni tanlash, tushuntirish va tahlil qilish usullari majmui

E. Metod – mavzuga oid bo‘lmagan muammoni tanlash va tahlil qilish

**10. Metodist olim A.G‘ulomov ta‘lim metodlarini qanday turlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi?**

A. O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar; o‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar

B. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi; yo‘naltiruvchi ta‘lim metodi

D. Muammoli ta‘lim metodi; ongli-verbal kognitiv ta‘lim metodi

E. Ongli-verbal kognitiv ta‘lim metodi

**11. O‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligida dastur va darsliklar asosida izchil tartib va oldindan belgilangan yo‘sinda doimiy o‘quvchilar jamoasi bilan o‘tkaziladigan ta‘limning yetakchi shakli ... sanaladi?**

A. Dars

B. Bahs

D. Mashg‘ulot

E. Munozara

## **TIL TA‘LIMI TURLARI**

### ***Tayanch tushunchalar:***

*ta‘lim turlari, til ta‘limi turlari, modulli ta‘lim, eksternat ta‘lim, masofaviy ta‘lim, texnologiya, til ta‘limi vazifalari, modulli ta‘limning maqsadi, masofaviy ta‘limning yutuqlari, masofaviy ta‘limning afzalliklari, eksternat ta‘lim tushunchasi, o‘quvchi faoliyati, Gerbartning ta‘lim nazariyasi, sust va faol vaziyat, izohli-ko‘rgazmali ta‘lim, ichki va tashqi differentsiatsiya.*

### **Ta‘lim turlarini belgilashdagi ilmiy qarashlar.**

Ta‘lim o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, uni o‘qitish – o‘qituvchi faoliyati, o‘qish – o‘quvchi faoliyati, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta‘siri (o‘qitish – o‘qish) kabilarni o‘z ichiga oladi. Ta‘limni ishtirokchilari jihatidan tasavvur etish yo‘li bilan unda o‘quvchi vaziyatlari ajratiladi.

O'qitish faoliyatiga ko'ra, tasavvur etishda o'qituvchi ta'lim jarayonining subyekti, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi shu jarayonning predmeti sifatida qaraladi. Ta'limni shu yo'sinda tasavvur qilish va shu tasavvurga ko'ra uni tashkil etish, boshqarish hamda nazorat qilishda o'quvchi maqomi (u ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi ekanligi) ma'lum darajada inkor etiladi.

I.Gerbartning ta'lim nazariyasi va unga asoslangan an'anaviy ta'lim amaliyoti shu qarash asosida yaratilgan. G'arb mamlakatlarida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya zamirida ham I.Gerbart didaktikasi yotadi.

Ta'limni o'qish faoliyatiga ko'ra tasavvur etishda o'quvchi ta'lim jarayonining subyekti, o'rganilayotgan obyekt (o'quv materiali) bola faoliyatining predmeti ekanligi tan olinadi. Ammo bunday talqinda o'qituvchi maqomi ma'lum darajada chegaralanadi: u ta'lim jarayoni maslahatchisi rolini bajaradi. Ta'lim jarayoni xususiyatlarini shu taxlitda tushuntirishga D.Dyui asos solgan edi. Hozirgi muammoli ta'lim asoslari D.Dyui ta'limotiga borib taqaladi.

**Ta'limni o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri asosida tasavvur etish.** Bunday qarashda o'qituvchi va o'quvchi ta'lim jarayoni subyektlari, o'rganilayotgan obyekt (o'quv materiali) ularning har ikkalasi uchun ham faoliyat predmeti ekanligi tan olinadi, shuningdek, o'qitish va o'qish faoliyatlarining har biri uchun vositalar (o'qitish vositalari, o'qish vositalari) e'tirof etiladi. Ta'limni shu yo'sinda tasavvur etish g'oyasini O.Roziqov asoslagan edi. Ta'limni topshiriqlar tizimi shaklida tashkil etish metodikasi o'zaro ta'sir xususiyatlaridan kelib chiqib bayon qilingan<sup>42</sup>. Ko'rinadiki, o'quvchi ta'lim jarayonida uch holatda ishtirok etadi: **sust (passiv) vaziyat** – o'qituvchi izohlarini, tushuntirishlarini tinglovchi, ko'rsatmalarini ijro etuvchi, talab va topshiriqlarini bajaruvchi. Ta'lim jarayoni shu ko'rinishda tashkil etilganda, o'quv ishlari o'quvchilar xotirasiga mo'ljallanadi; **faol vaziyat** – bolaning mustaqilligi, faolligi ta'minlangan holat. Bu vaziyatda ta'lim o'quvchi(lar)ning tafakkuriga mo'ljallab tashkil etiladi; **o'quvchi o'qituvchi bilan teng huquqqa ega vaziyat**. Bunday qarashda o'qituvchi va o'quvchi ta'lim subyektlari sanaladi, o'qituvchi o'z o'quvchisi bilan birga ta'limni quradi, boshqaradi. O'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashuvi (koordinatsiya) ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat etishning yetakchi prinsipiga aylanadi. Ta'lim ham xotiraga, ham tafakkurga mo'ljallab olib boriladi.

<sup>42</sup> Roziqov O. Ta'lim jarayoni va uni tadqiq qilishning ba'zi masalalari. -T.: O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1971. №11.

Ta'lim turlari o'quv materiallariga didaktik ishlov berish, ta'limni xotira yoki tafakkurga mo'ljallab tashkil etish, ta'lim subyektlarining ta'lim jarayonida sust yoki faol ishtiroki natijalariga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Til ta'limida ham ta'limning ushbu ko'rinishlaridan unumli foydalaniladi. Sunga ko'ra, til ta'limining quyidagi turlarini ajratish mumkin: **izohli-ko'rgazmali ta'lim, muammoli ta'lim, topshiriqli va differensial ta'lim, modulli ta'lim, eksternat ta'lim, masofaviy ta'lim.**

**Izohli-ko'rgazmali ta'lim.** Izohli-ko'rgazmali ta'lim o'quvchilar xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzuga oid bilimlarni o'z so'zlari bilan aytib beradi, zarur o'rinlarda o'quvchilar diqqatini ko'rgazma qurollarga tortadi; o'quvchilar ko'rgazmali qurollarni kuzatishib, o'qituvchi tushuntirgan bilimlarni xotirada saqlab qolishadi. Izohli-ko'rgazmali ta'lim **"o'qitish >o'qish"** qolipi asosida yaratilgan bo'lib, uning bosh prinsipi subordinatsiyadir.

Izohli-ko'rgazmali ta'lim o'quv jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Y.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz, umuman, hamma narsani shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan bilish asosidagi ta'limga intilishimiz kerak, – deb ta'kidlaydi u. – Agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, ularni baravariga bir necha sezgi vositasidan o'rganish kerak"<sup>43</sup>.

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda foydalanish mumkin.

Keyingi yillarda ta'limning bu an'anaviy turini samarali tashkil etish maqsadida, uning tashkiliy tuzilishiga qator o'zgarishlar kiritildi. Bular quyidagilar:

-mashg'ulotning boshlanishida o'quvchilar oldiga muammo, muammoli savollar qo'yish. Qo'yilgan muammo, savolga javob tariqasida mavzuni bayon etish. Bu ko'rinishda izohli-ko'rgazmali ta'lim muammoli ta'lim bilan o'zaro uyg'unlashadi;

43 . Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб. пед. соч. В 2 том. М. 1982. -Т.1. – с. 384.

-o'rganilayotgan mavzu xususiyatlarini hisobga olib, o'quv topshiriqlarini bajaritirish. O'quv topshiriqlarining bajarilishini tahlil qilishga bog'lab mavzuni bayon etish. Bu yerda izohli-ko'rgazmali ta'lim topshiriqli ta'lim bilan o'zaro uyg'unlashadi;

- o'quv materialining bir qismini – murakkab ulushini o'qituvchi tushuntiradi, nisbatan osonroq qismini o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganishadi. Bu variantda izohli-ko'rgazmali ta'lim mustaqil ishlar bilan qo'shib o'tkaziladi.

O'quv topshiriqlari, mashqlarni bajarish, masala va misollarni yechish yo'llari bilan o'rganilgan bilimlar mustahkamlanadi. Test sinovi mustahkamlashdan keyin o'tkaziladi.

**Muammoli ta'lim.** Bunda o'qitish va o'qish faoliyatlari quyidagicha amal qiladi: o'qituvchi o'quvchilar oldiga muammo qo'yadi, o'quvchilar muammoni qabul qilib, unda berilgan dalillarni idrok etishadi; o'quvchilarga muammoni tahlil etish, uni yechishga oid farazlarni aytishni taklif etadi; o'quvchilar turli farazlarni aytishadi; o'qituvchi aytilgan farazlardan ma'qulini tanlab, muammoni yechishni so'raydi; o'quvchilar farazlardan birini muammoni hal etishga tatbiq qilishadi; o'qituvchi muammoning yechimidan xulosa chiqarishni aytadi; o'quvchilar o'z imkoniyatlari doirasida xulosa chiqarishadi; o'qituvchi o'quvchilar chiqargan xulosalarni to'ldiradi, aniqlik kiritadi; o'quvchilar o'qituvchi izohlarini tinglab, o'z xulosalarini boyitishadi; o'qituvchi chiqarilgan xulosani turli o'quv holatlariga tatbiq qilishni taklif etadi; o'quvchilar turli topshiriqlarni bajarish yo'li bilan chiqarilgan xulosalarni mustahkamlashadi. Ta'limning bu turida ham mustahkamlashdan keyin joriy nazorat o'tkaziladi. Ushbu ta'lim jarayonida "Aqliy hujum" texnologiyasi samarali hisoblanadi. Darsning uyga vazifani so'rash va o'tilganlarni mustahkamlash bosqichlarida bu texnologiyadan unumli foydalanish mumkin. O'quvchilarga tayyorlanib kelishi uchun taxminiy savollar oldindan taqdim etiladi. Savollar o'qituvchi tomonidan beriladi. Guruhdagi o'quvchilarning tez va aniq javobi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qaysi guruhdan o'quvchi birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, shu javob rag'bat olish imkonini qo'lga kiritadi. Natijalar jamlanib, g'olib guruh aniqlanadi. "Aqliy hujum" texnologiyasidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- har bir o'quvchini bergan to'g'ri javobi uchun rag'batlantirish lozim;
- guruhning barcha a'zolari ishtirok etishini ta'minlash zarur;
- har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyatni his qilishga yo'naltirish kerak.

"Aqliy hujum" texnologiyasi ham umumta'lim o'zbek tili darslarida, ham akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida unumli qo'llash va ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'lgan samarali texnologiyalardan hisoblanadi. Shu bois uni tatbiq etishda quyidagilarga e'tibor qaratish muhim:

- ta'limning qaysi bosqichiga tatbiq etilayotganiga;
- o'quvchilarning yoshiga;
- taqdim etilayotgan savollarning sodda yoki murakkabligiga;
- egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga.

Muammoli ta'lim qator afzalliklarga ega. Ta'limning o'quvchilar tafakkuriga mo'ljallanganligi, ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatining ko'pligi muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridir. Ta'limning bu turida qator kamchiliklar ham mavjud: ta'limni muammolarni qo'yish va bajartirish yo'li bilan amalga oshirish ko'p vaqtni oladi; muammoni tushungan o'quvchigina ta'limda faol ishtirok etadi; muammoli ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining faqat bir bosqichi - yangi bilimlarni, yangicha faoliyat usullarini egallash bosqichidagina tashkil etiladi.

#### **Topshiriqli va differensial (tabaqalashgan) ta'lim.**

Topshiriqli ta'lim muammoli ta'limning zaif tomonlarini bartaraf etishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. U ham o'quvchilar tafakkuri, ham xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi. Topshiriqli ta'limning asosida o'quv topshiriqlari yotadi. O'quv topshirig'i o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir. Masalan, 5-sinfda qarama-qarshi ma'noli so'zlarga oid mavzu o'rganilgach, quyidagicha topshiriq berish mumkin:

#### **Quyidagi so'zlarga antonim so'zlar toping.**

1. Do'st- ....., 2. Ozg'in- ....., 3. Uzun- .....,
4. Oq- ....., 5. Sarishta- ....., 6. Odobli- .....,
7. Tayyor- ....., 8. Qimmat-..... 9. Bekorchi- .....,
10. Xavf- ....., 11. Katta- ....., 12. Badbaxt- .....,
13. Noto'g'ri- ....., 14. Kasal- ....., 15. Shirin- .....,
16. Xursand- ....., 17. Kecha- ....., 18. Sergo'sht- .....,
19. Mazmunli - ....., 20. Noqobil- .....

Chiqarilgan xulosalardan keyin mustahkamlash bosqichi tashkil etiladi, so'ngra test nazorati o'tkaziladi.

**Differensial (tabaqalashgan) ta'lim** o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslab tashkil etiladigan ta'lim turidir. Undan boshlang'ich sinflardan tortib, oliy o'quv yurtlarida ham foydalaniladi. Tajribali o'qituvchilar boshlang'ich sinflardayoq ilg'or o'quvchilar uchun murakkab o'quv topshiriqlari, nisbatan bo'shroq o'quvchilar uchun

moddalashtirilgan o'quv topshiriqlarini tanlab, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishadi. Bu differensial ta'limning eng oddiy ko'rinishidir. Differensial ta'lim ikki turli bo'ladi: *ichki differensiatsiya*; *tashqi differensiatsiya*.

**Ichki differensiatsiya** bir sinf ichida o'quvchilarni guruhlariga ajratib o'qitishdir. Ichki differensiatsiyada o'quvchilarning bilimi ("a'lo", "yuxshi", "qoniqarli" baholarga o'qiydigan o'quvchilar) va ishlash sur'ati (tezkor, o'rtacha, sust) hisobga olinib, ular guruhlariga ajratiladi. Ichki differensial ta'lim sinf jamoasining bir xil dastur, darslik asosida o'qishiga mo'ljallangan bo'lib, guruhlar bajaradigan vazifalar qiyinligi, murakkabligi, oz yoki ko'pligi jihatidan farq qiladi.

*Kichik guruh* bu – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslar orasida munosabatda bo'luvchi kishilar guruhidir.<sup>44</sup> Insonning o'zgalar ko'zi o'ngidagi guruh ichki munosabatlarida tutgan o'rni *shaxs statusi* deyiladi. Insonlarning guruhda bor bo'lishi ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Guruhda shaxslarning bir-biri bilan hamkorlik qilishi va o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashiga *psixologik moslashuvchanlik* deyiladi. Shuhingdek, guruhli faoliyatda psixologik iqlimning ahamiyati katta. Til ta'limida kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etish o'quvchilarning real bilimlarini hisobga olish tamoyiliga asoslanib qurilgan taqdiridagina nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun behuda urinishning oldi olinadi. Real bilimlarni hisobga olish tamoyiliga ko'ra dars kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilinganda imkoniyat o'quvchi egallagan ko'nikma va malakalar hisobiga yuzaga keladi. Buni ko'pincha darsning mustahkamlash bosqichida va takrorlash darslarida amalga oshirish mumkin. Shunda o'qituvchi asosiy maqsadni egallangan ko'nikma va malakalarga qaratadi. O'quvchilardagi real bilimlar ularni muloqotga kirishishga undaydi, bu esa ularda o'z fikrini erkin, to'g'ri va ravon ifodalashga, og'zaki va yozma nutqining o'sishiga yaqindan yordam beradi.

Maktab o'zbek tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini kichik guruhlar asosida tashkil etishda til sathlarini integratsiyalash tariqasida amalga oshirish ham o'quvchilarni faollashtirish va dars samaradorligini ta'minlashda yaxshi natijalarga erishish imkonini yuzaga keltiradi. Lekin ba'zi mavzularda alohida jihatlarni ajratish zaruriyati ham ko'rinadi. Bunday alohidaliklar mavzuning qaysi jihatlari e'tiborni ko'proq qaratish, nimalarni mustahkamlash va takrorlashga

<sup>44</sup>. Karimova B. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: O'qituvchi. 1994, 75-bet.

ko'proq vaqt ajratish kerakligi bilan bog'liq. Ushbu masala ta'lim mazmuniga differentsiatsiya asosida yondashish kerakligini anglatadi. Test sinovi mustahkamlashdan keyin o'tkaziladi.


*Tashqi differentsiatsiya* o'quvchilarning individual xususiyatlari asosida ularni alohida sinflarga va hatto maktablarga to'plab o'qitishdir. Shu yo'l bilan ixtisoslashgan sinflar, maktablar paydo bo'ladi.

Ma'lumki, ta'limning o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili o'quvchilarning yoshiga ko'ra va individual yondashuvni anglatadi. Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgari ketse, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Differensial o'qitish ta'lim texnologiyasini amalga oshirishda eng maqbul tur sanaladi. Unga ko'ra, ta'limga o'zgartirish, tuzatishlar kiritilib, o'qitish takroriy tashkil etiladi.

**Modulli ta'lim.** Modul lotincha "modulus" so'zidan olingan bo'lib me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi. Ta'limda modul o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

Modulli ta'lim texnologiyasi – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidir. U ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun o'quv jarayonini optimallashtirish, o'quvchilarning bilish va tarbiyaviy sohalarini rivojlantirish, o'rganish faoliyatini boshqarish bilan birga o'z-o'zini boshqarish kabilarga keng imkoniyatlar yaratish bilan ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan. Bu texnologiyaning yana bir afzalligi shundaki, unda ta'lim mazmuni bilan uni o'qitish texnologiyasi chambarchas bog'langan integratsion jarayon bo'lib, u quyidagi texnologiyalar majmuyi orqali amalga oshadi:



Modulli ta'lim dunyo tajribasi (Buyuk Britaniya, Gollandiya, AQSH, Rossiya)da qo'llanilib kelayotgan ta'limning samarali shaklidir. Lekin

uning didaktik ta'minoti to'liq ishlab chiqilmaganligi sababli keng tarqalmagan. Modulli texnologiya umumlashgan universal tizim bo'lib, ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan barcha optimal va mos texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Bu texnologiya quyidagi g'oya, prinsip va qoidalarni amalga oshiradi:

1. O'quv materialini, uni o'zlashtirish uchun taklif va topshiriqlar bilan birgalikda yirik blok qilib tashkil etish.

2. O'quvchilar tomonidan o'quv materialini mustaqil ishlab chiqilishini mo'ljallash.

3. O'quv faoliyati algoritmi (modul deb nom olgan o'quv-metodik jumlanma) va dastur (o'quv ishining ketma-ket topshiriq va bosqichlari) yordamida o'quvchilar faoliyatini boshqarish.

4. O'qituvchi metodik tizimining ochiqqligi (o'quvchilarga darsda bajariladigan ishlar rejasi va materialni o'rganish dasturi oldindan aytib o'tiladi).

5. Materialni o'zlashtirish darajasi, uni o'rganish shakli, joyi va tempini o'quvchilar o'zlari tanlab olishlari mumkin.

6. Uyga vazifa: ixtiyoriy.

7. Har bir o'quvchining samarali bilim olish faoliyati uchun sharoit yaratish.

8. Nazorat mezoni va mazmuniga o'quvchilarni perspektiv yo'naltirish.

9. O'quvchiga va uning qobiliyatiga ishonch ko'rsatish.

10. Darsda, ish jarayonida erkin o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro yordam.

11. Bahosiz operativ nazorat.

12. Yakuniy nazoratga qarab natijani baholash joriy natijalarning o'rta arifmetik hisobi emas.

13. Har bir o'quvchiga yakuniy natijani yaxshilash imkoniyatini berish.

14. Ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini amalga oshirish.

15. O'quv jarayoni samaradorligini baholashda o'quvchilar ishtirok etadi.

O'quvchilarning o'qishini tashkil etish vositasi sifatida modullar tayyorlashning har xil usullari mavjud.

Modul dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv qo'llanma sifatida o'quvchiga o'quv moduliga kiritilgan o'quv materiali blokini o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta'lim samaradorligi oshadi.



1. Bo‘limni o‘rganishdan oldin o‘quvchilar bilan materialni o‘rganish istiqbol rejasini muhokama qilindi, mavzular ketma-ketligi, har bir mavzu bo‘yicha darslar soni, dars shakllari aniqlanadi.

Har bir o‘quvchi individual ish uchun modul qo‘llanmasi yoki modulga kirgan didaktik materiallar paketini oladi, unga quyidagilar kiradi:

❖ blok mazmuni konspekti;

❖ o‘quv elementlarini (ta‘lim standartining mazmun birliklari) o‘qish dasturi;

❖ joriy va o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun daraja mezonlarini o‘z ichiga olgan “sinov varag‘i” bilan “nazorat ishi”;

❖ o‘z-o‘zini nazorat qilish va mustahkamlash kartochkasi;

❖ yakuniy nazorat ishi, namuna yoki sinov uchun savol va topshiriqlar;

❖ masala yechimi va javoblari bo‘lgan o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun “yechimlar”;

❖ erkin tanlov uchun, ijodiy xarakterga ega bo‘lgan topshiriqlar.

Modul qo‘llanmasidan o‘quvchi uyida yoki sinfda o‘zi mustaqil foydalanadi. Uyg‘a vazifa majburiy emas. O‘quvchiga modul bilan ishlash metodikasini tushuntirib, eslatib turish lozim.

2. Blok mazmunini o‘rganishni asosiy konspektidan foydalanib, ma‘ruzadan boshlash lozim. Boshidan berilgan bo‘lim materialini o‘rganishga undovchi muammoli vaziyat hosil qilinadi. So‘ng materialning umumiy tarkibi, asosiy tushuncha, mantiqiy bog‘lanishlar tushuntiriladi. Bunda o‘qituvchilar o‘zlaridagi asosiy konspekt bo‘yicha o‘tilayotgan darsni kuzatadilar.

3. Modul dasturi asosida o‘quvchilar materialni mustaqil ravishda darsliklardan foydalanilgan holda batafsil o‘rganadilar. Qiyinchiliklar tug‘ilganda ular o‘qituvchiga murojaat qilishadi. Odatdagi qiyinchiliklar aydinatoriyada muhokama qilinadi.

4. Materialni mustahkamlash “nazorat ishi” kartochkalaridan foydalanilgan holda bajariladi. Bu ish qiziqarli o‘tishi uchun juftlar va guruhlar usulidan foydalanish mumkin. Bunda mashg‘ulot o‘zaro nazorat va o‘qitish bilan boyitiladi. Baho qo‘yilmaydi (to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilgan ish hisobga olinadi).

5. Baho faqat modul to‘liq o‘rganilganidan so‘ng yakuniy qilib chiqariladi. Mikromodul uchun baho joriy sinov va topshiriqlar natijasiga ko‘ra qo‘yiladi. “Tekshiruv ishi” topshirig‘i darajasini o‘quvchi tayyorgarligiga ko‘ra o‘zi tanlaydi: majburiy topshiriqlarni tanlansa, faqat 3 ball, undan qiyinrog‘iga 4 ball, mustaqil fikrlashni talab qiladiganlarini

tanlansa, 5 ball olishi mumkin. Nazorat metodikasini an'anaviy (og'zaki javob, masala yechish, yozma testlar) yoki noan'anaviy (hammadan oldin modulni a'lo topshirgan o'quvchilar boshqalardan nazorat olishga haqqi bor) bo'lishi mumkin.

6. Yakuniy nazorat ishidan oldin umumlashtiruvchi dars o'tiladi. U har xil shaklda bo'lishi mumkin: sinf guruhlariga bo'linib, har bir guruh blokning bir qismi bo'yicha olgan bilimlarini tizimga solib, uning vakili boshqalarga taqdimot qiladi. Bu ish anjuman shaklida o'tib, o'quvchilar ma'ruza va referatlar tayyorlaydilar.

7. Yakuniy baho yakuniy nazorat ishi bo'yicha sinov mezonlari asosida chiqariladi. Bahoga rozi bo'lmagan o'quvchi 1 marta qayta topshirishi mumkin. Bunda bahoning tushishiga sabab bo'lgan qism kengaytirilgan holda topshiriladi. Bu texnologiyani qo'llash natijasida o'quvchilarning o'qishga qiziqishi va faolligi oshadi.

**Eksternat ta'lim.** «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga asosan xalq ta'limi vazirligining «Eksternat to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» buyrug'i qabul qilindi.

*Eksternat* – bu umumiy o'rta ta'lim hajmidagi o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari doirasida mustaqil o'zlashtirish jarayoni bo'lsa, *ekstern* bu dasturlarni o'zlashtirgan hamda attestatsiyadan o'tkaziladigan shaxs hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim dasturlarini davlat ta'lim standarti doirasida mustaqil o'zlashtirgan eksternlar mazkur Nizom asosida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqiga ega. Eksternlarni attestatsiyadan o'tkazish bepul amalga oshiriladi.

Attestatsiya tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida tashkil etiladi. U umumiy o'rta ta'lim dasturlarini davlat ta'lim standarti doirasida mustaqil o'zlashtirgan va tegishli yilda 16 yoshga to'ladigan hamda undan katta yoshdagi fuqarolar qatnashishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi buyrug'i bilan har yili 1-martga qadar attestatsiya o'tkazish uchun tegishli hudud markazida joylashgan bitta umumiy o'rta ta'lim muassasasi belgilanadi.

Eksternlar tegishli yilning 1-mayiga qadar maktab direktori nomiga ariza bilan murojaat etadi. Ularning arizalari maktab pedagogik kengashi tomonidan tegishli yilning 10- mayiga qadar ko'rib chiqiladi va eksternni attestatsiyaga qo'yish haqida qaror qabul qilinadi.

Ekstern 9-sinfidagi baholar tabeliga asosan, attestatsiya o'tkazilmaydigan fanlardan ijobiy baholangan bo'lsa, ushbu fanlardan attestatsiyadan ozod etiladi.

Eksternning 9-sinfidagi baholar tabeli bo'lmasa, 9-sinfda o'qitiladigan fanlardan imtihon topshiradi, «Chizmachilik», «Tasviriy san'at», «Musiqqa», «Mehnat ta'limi», «Jismoniy tarbiya» fanlari bundan mustasno.

**Masofali o'qitish va uni tashkil qilish asoslari.** Masofali o'qitish (MO') – axborot-kommunikatsion texnologiya (kompyuterlar, telekommunikatsiya, multimedia) vositalari va ilmiy asoslangan o'qitish usullarini qo'llab (kunduzgi, sirtqi, eksternat) ta'lim olish shaklidir. O'qitishning bu shakli o'quvchilarga mos ta'lim predmetini erkin tanlash, o'qituvchi bilan muloqot qilish sharoitlarini ta'minlaydigan an'anaviy, yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanib, o'qitish jarayoni o'quvchining qayerdaligi va vaqtga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi. O'quvchi o'quv muassasasiga qatnamay, o'qituvchi yoki o'quv muassasasi tomonidan sertifikatlangan shaxs (tyutor)lardan doimiy maslahat olib o'qish imkoniyatiga ega.

Masofali ta'lim (distant education) – axborot texnologiyasidan foydalangan holda masofadan turib ta'lim muhiti yordamida o'quv axborotlari almashinishini ta'minlaydigan va o'quv jarayonini olib borish hamda boshqarish tizimini amalga oshiradigan bilim, ko'nikmalarni egallash jarayoni. *Masofali ta'lim* – masofali o'qitish orqali amalga oshiriladigan ta'lim. Masofali o'qitish – o'rganayotgan materialning asosiy hajmini o'quvchilarga yetkazish, o'quv jarayonida talaba va o'qituvchining interfaol muloqoti, talabalarga o'rganilayotgan materiallarni o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlash, shuningdek, ularning o'qish mobaynida olgan bilim va ko'nikmalarini baholashga imkoniyat beradigan axborot texnologiyalari yig'indisi.

Masofali o'qitish – o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o'qitish vositalari va hokazo), internet-texnologiyasining maxsus vositalari va boshqalar bilan amalga oshiriladigan va interfaollikni ko'zda tutgan o'qituvchi va o'quvchilarning masofadan turib o'zaro munosabatga kirishuvidir. Masofali o'qitishning asosiy maqsadi: tinglovchilar qayerda yashashlaridan qat'i nazar, jahondagi ixtiyoriy ta'lim muassasasida o'qish imkoniyatini yaratish, ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilarning salo-hiyatlardan foydalangan holda ta'lim sifatini oshirish, uzluksiz ta'lim olishni ta'minlash va ta'limning turli shakllarini bir-biriga yaqinlashtirishdan iborat. Masofali ta'lim tizimining an'anaviy ta'lim

shaklidan farqi uning egiluvchanligiga bog'liq ravishda yuqori harakatchanligi, mustaqil ishlash imkoniyatining kattaligi, o'quv-uslubiy ta'minotning rang-barang shakldaligida bo'lib, ular tinglovchilarning quyerdaligidan qat'i nazar ta'lim jarayoni samaradorligini ko'tarishga imkon beradi.

***Masofali o'qitish tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:***

• dastlabki tashkiliy ishlar (an'anaviy tartibda o'tkazish ham mumkin). Bu bosqich guruhni shakllantirish, tinglovchilar bilan tanishish, ularning boshlang'ich bilimlarini aniqlash uchun mo'ljallangan (kirish) testidan o'tkazish, kirish darslari tashkil etish, o'qish uchun zarur bo'lgan o'quv manbalarni tavsiya qilish va boshqa tashkiliy masalalarini o'z ichiga oladi;

• tinglovchilarga elektron ma'ruza va qo'llanmalarni uzatish;

• tinglovchilarning tyutor - maslahatchi bilan yozishmasi;

• professor-o'qituvchilarning tinglovchilar bilan yozishmasi. Bu qism elektron pochta orqali maslahatlar, teleanjumanlar ko'rinishidagi seminarlar, elektron testdan o'tkazish, tinglovchilarning internet tarmog'i orqali mustaqil ishlashlari, audio-vidio qo'llanmalar bilan mustaqil ishlashi, ekspert tizimlaridagi bilimlar omborini esda saqlab qolishlarini o'z ichiga oladi;

• tinglovchilarning mustaqil ishlashi;

• joriy nazorat (imtihon), bitiruv ishi (referat)ni tayyorlash va himoya qilish, tinglovchilarga diplom yoki sertifikat taqdim etish;

• turli ko'rinishdagi teleanjuman (masalan, kurs buyicha, o'quv muassasasi bo'yicha yoki global tarmoq)lar.

Masofali o'qitish tizimining harakatchanlik xususiyati o'quv auditoriyalarini tashkil etish, nazorat qilish, o'quv-metodik qo'llanma, elektron kutubxonalarining jamg'armalarini, kompyuter tarmoqlarining global va mahalliy hisoblash vositalaridan foydalanish, tyutor - konsultant va o'qituvchilarni tayyorlash kabi masalalar bilan belgilanadi.

***Tinglovchilarni masofali o'qitish uchun:***

• materialning turli taqsimotida mintaqaviy va hududiy markazlarning tarmoqlarini o'tkazish imkoniyati; hujjat almashinish muddatlari; masofali o'qitish tizimida tinglovchilarni o'qitish uchun sarflanadigan mablag'; ta'limning alohida shakllari; turli kurslar va masofali o'qitish xususiyatlarini tahlil qilish;

• tinglovchilarning yakuniy attestatsiyasi uchun zarur bo'lgan bilimlari sifatini nazorat qilish uslublarini ajratish;

• o'qituvchi va tinglovchilar uchun fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma va materiallar ishlab chiqish;

• zamonaviy o'qitish vositalari: elektron darslik, audio va video kurslar, kompyuterli o'qitish dasturlari, telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishning metodologik asoslarini aniqlash;

• malaka oshirishda ishtirok etadigan o'qituvchi va tyutor-maslahatchilarni tayyorlash;

• o'quv jarayonida interfaol uslublar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan o'z joyida fodalaniшни tahlil qilish va aniqlash;

• malaka oshirish, qayta tayyorlash o'quv rejalariga kiritiladigan o'quv kurslarni asoslash va me'yorga keltirish;

• ta'lim yo'nalishi va fanlari bo'yicha masofali o'qitishni amalga oshiruvchilarni aniqlash kabi muammolarni hal qilish lozim bo'ladi.

#### *Masofali o'qitishning bir qator tashkiliy-uslubiy modellari mavjud.*

• Eksternat turida o'qitish. Ushbu o'qitish uslubi umumiy ta'lim maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasasi talabalariga yo'naltirilgan bo'lib, qandaydir sabablarga ko'ra statsionar o'quv yurtiga borolmagan o'quvchi va talaba uchun mo'ljallangan. Masalan, 1836- yili London universitetida qandaydir sabablarga ko'ra an'anaviy o'quv yurtiga bora olmagan o'quvchi va talabaga yordam sifatida u yoki bu darajadagi hujjat (attestat, diplom)ga ega bo'lish uchun imtihon olish tashkil etilgan. Ushbu ta'lim usuli hozirgi kungacha talabalarni statsionar o'qishi bilan birga saqlanib kelmoqda.

• Bir universitet negizida o'qitish. Bu statsionar o'qimaydigan (on-campus), ya'ni masofadan turib, sirtidan yoki masofali va kompyuterli telekommunikatsiyani o'z ichiga olgan yangi axborot texnologiyalari asosida (off-campus) o'qigan talabalar uchun butun bir ta'lim tizimidir. Dunyodagi ko'pgina nufuzli oliy o'quv yurtlaridagi ta'limning turli attestatlarini olish uchun mo'ljallangan dasturlari turli-tumandir. Masalan, Avstraliya Janubiy Uelsning yangi universitetida 3000 talaba statsionar holda o'qisa, 5000 ta talaba sirtqi va masofali ta'lim tizimi orqali o'qitiladi.

• Bir necha o'quv yurtining hamkorligi. Sirtqi va masofali o'qitish dasturini amalga oshirishda qilinadigan hamkorlik ularning sifatliroq va kam xarajatli bo'lishini ta'minlaydi. Bunday tajriba Keprikon universitetlararo tele - o'qitish dasturida amalda qo'llangan bo'lib, unda Boliviya, Braziliya, Chili va Paragvay universitetlari ishtirok etadi. Ana shunday hamkorlik sifatida "Ta'limda hamkorlik" dasturi xizmat qilishi mumkin. Britaniya hamdo'stlik mamlakatlarining yurtboshilari 1987-yilda

bircha hamkor davlatlar uchun masofali o'qitish tarmog'ini tashkil etish uchun yig'ilgan. Dasturning istiqboldagi maqsadi – hamdo'st mamlakatlarda mavjud kollej va universitetlar negizida ixtiyoriy ta'lim olish imkoniyatini yaratib berishdan iboratdir.

- Maxsus masofali o'qitish maqsadida tashkil etilgan avtonom ta'lim muassasalari. Ana shunday muassasalardan eng yirigi Londondagi ochiq univerversitet (Thy Open University) hisoblanadi. Hozirgi kunda unda nafaqat Buyuk Britaniya, balki ko'pgina hamdo'st davlatlarining talabalari masofadan turib o'qimoqda.

- Avtonom o'qitish tizimlari. Bunday tizimlar doirasida o'qitish to'la TV va radiodastur, shuningdek, qo'shimcha nashr etilgan qo'llanmalar asosida o'qitmoqda. Masofadan turib o'qitishning bunday misoli sifatida Amerika - samoan televizion loyihasini keltirish mumkin.

- Multimedia dasturi asosida norasmiy integrallashgan (birlashtirilgan) masofali o'qitish. Bunday dasturlar qandaydir sabablarga ko'ra maktabni tamomlay olmagan yoshi katta tinglovchilar auditoriyasiga mo'ljallangan.

### Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:

#### I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.

1-savol: "Modulli ta'lim" deganda nimani tushunasiz?

2-savol: "Eksternat ta'lim"ni qanday izohlaysiz?

3-savol: "Masofaviy ta'lim" deganda nimani tushunasiz?

4-savol: Masofali o'qitish tizimiga nimalarni kiritish mumkin?

Quyidagi matn yuzasidan masofaviy ta'limda foydalanish mumkin bo'lgan grammatikaga oid topshiriqlar tayyorlang.

#### طلب علم

علم قيديرينگيز توغولگاندين اولگونچا ديگان سوز همه آملارغا برابر بو يروق بولسا هم اوقوماقنى بير ياخشى وقتى باركه اول باشليک و بالاليک و قتيديور باشليکدا اورگانگان علم تاشقا اويولغان بينتيکديک اصلا خيالدين کينمايدور ای شاگردلار امکانی بارچه ياش وقتلارينگيزدا اوقوماقنا سعی قیلينگلار که آلتين عمر بيکارگا صرف بولماسون

1-topshiriq: Tinglovchilarni masofali o'qitish uchun zarur shartlarni sanab va izohlab bering.

2-topshiriq: Masofali o'qitishning tashkiliy-uslubiy modellari haqida aytib bering.

3-topshiriq: Izohli-ko'rgazmali ta'lim jarayonini tashkil etish haqida nimalarni bilasiz? Fikringizni "klaster" usulida ifodalang.

4-topshiriq: Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etish haqidagi fikrlaringizni T-sxema orqali ifodalang.

5-topshiriq: *“Aqliy hujum” texnologiyasining muammoli ta’lim jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligini “Venn diagrammasi” orqali asoslang.*

6-topshiriq: *Topshiriqli ta’lim jarayonini tashkil etishga oid o‘zbek tili darslari uchun kichik loyiha tayyorlang.*

7-topshiriq: *Differensial (tabaqalashgan) ta’lim nima? “Qanday?” usuli asosida fikringizni ifodalang.*

8-topshiriq: *Ichki va tashqi differenziatsiya nima? Kichik guruhlarda ishlashga oid tavsiya tayyorlang.*

**III. O‘z bilimlaringizni sinab ko‘rish maqsadida test savollarini yeching.**

### TESTLAR

1. **Mustaqil fikrlashga, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi...**

A. Masofali o‘qitish. B. Modulli ta’lim. D. Eksternat ta’lim. E. Non’anaviy ta’lim

2. **Lingvistik kompetensiyani ta’minlashga qaratilgan maqsad til o‘qitish metodikasining qanday maqsadi hisoblanadi?**

E. Amaliy. B. Ta’limiy. D. Tarbiyaviy. Rivojlantiruvchi

3. **Kommunikativ muloqotda ta’lim oluvchining passivligi, tabiiy ehtiyojlardan xoli bo‘la olmasligi qanday usulda namoyon bo‘ladi?**

A. Verbal usul. B. Bixevioristik usul. D. Onglilik usuli. E. Kashfiyot usuli

4. **O‘quvchilarning lingvistik kompetentligini shakllantirish o‘zbek tili o‘qitishning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?**

A. Hamma bosqichlarda, har bir darsda. B. Nutq o‘stirish darslarida, yozma ishlarda. D. Grammatika darslarida. E. Sintaksisga oid darslarda.

5. **O‘qituvchi baholashda nimalarga asoslanishi mumkin?**

A. O‘quvchilarning o‘zlashtirishiga;

B. Mustaqil ish va qiziqishlarini tekshirishga;

D. Jamoat ishlarida ishtirokiga;

E. O‘tilgan darslarni takrorlashga;

6. **Metodika tarixida eng maqsadga muvofiq metodlar nimalarni o‘z ichiga oldi?**

A. O‘qituvchi, o‘quvchi faoliyati va fan xususiyatidan kelib chiqqan metodlar

B. O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga olgan metodlar

C. O‘quvchi faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan metodlar

D. Fan xususiyatidan kelib chiqqan metodlar

7. **Ta’lim jarayonida faoliyatni belgilovchi usullar necha xil bo‘ladi?**

- A. Uch xil: reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va izlashga asoslangan
- B. Ikki xil: reproduktiv, qisman izlanuvchanlik
- D. Ikki xil: qisman izlanuvchanlik, izlashga asoslangan
- E. Uch xil: reproduktiv, muammoli, izlashga asoslangan

**8. O'zbek tilidan dars turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.**

- A. Ta'limiy va nazorat darslari
- B. Yangi bilim darslari
- D. Takrorlash darslari
- E. Xatolar ustida ishlash darslari

**9. Axborot texnologiyasidan foydalangan holda masofadan turib ta'lim muhiti yordamida o'quv axborotlarining almashinuvini ta'minlaydigan va o'quv jarayonini olib borish hamda boshqarish tizimini amalga oshiradigan bilim va ko'nikmalarni egallash jarayoni...**

- A. Masofali o'qitish. B. Modulli ta'lim. D. Eksternat ta'lim. E. Non'anaviy ta'lim

**10. Umumiy o'rta ta'lim hajmidagi o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari doirasida mustaqil o'zlashtirish jarayoni...**

- A. Masofali o'qitish. B. Modulli ta'lim. D. Eksternat ta'lim. E. Non'anaviy ta'lim

## **AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY DARS SHAKLLARI**

### *Tayanch tushunchalar:*

*til ta'limi, o'zbek tili darslari, dars tushunchasi, darsga qo'yiladigan talablar, dars turlari, an'anaviy va noan'anaviy, zamonaviy, zamonaviylashtirish, yangilanish, yangilangan, innovatsion, pedagogik, umumiy va farqli jihatlari, yutuq va kamchiliklari.*


### **I. An'anaviy darslar va ularning tuzilishi**

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

Ma'lumki, ta'lim olish jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchi tomonidan mustaqil yoki ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Mutaxassislar ko'rsatishicha, an'anaviy o'qitish shakli ta'lim olishning samarali



shakllaridan (modellaridan) biri bo‘lib qolmoqda. O‘quv materialini yangi va ancha murakkab bo‘lganda, an’anaviy dars ko‘p hollarda ta’lim jarayonining birdan bir modeli sifatida baholanmoqda. Ma’lumki, an’anaviy darsda ta’lim jarayoni markazida o‘qituvchi turadi. Shu bois, ba’zida an’anaviy darsni **“markazda o‘qituvchi bo‘lgan ta’lim modeli”**, deb ham atashadi. An’anaviy darsning asosiy maqsadi dars mavzusining asosiy mazmuni, tushuncha va faktlarni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yetkazish va tushuntirishdan iborat.



Yangi mavzuni yoritish, turli mashqlar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, xulosalash, baholash va uyga vazifa topshirish bilan yakunlanadi.

An’anaviy dars o‘tish modelida ko‘proq ma’ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an’anaviy dars samaradorligi ancha past bo‘lib, o‘quvchilar ta’lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni o‘quvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib kelar ekan.


*Odatda, an’anaviy dars berishga passiv (sust) dars berish usuli sifatida qaraladi. Lekin darsda o‘quvchilarning faol yoki nafaolligi darsni qanday o‘tishga va uni rejalashtirishga bog‘liq.*

An’anaviy darsning samaradorligini oshirish va darsda o‘quvchilarning faolligiga erishish uchun yangi materialni kichik-kichik bo‘limlarga bo‘lib o‘tish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning bu materialni qanday o‘zlashtirib borayotganliklarini nazorat qilib borish va bu maqsadda turli xil mashq va topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilish, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligini muttasil rag‘batlantirib turish, o‘quv materialining mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o‘yinlar metodlaridan foydalanish, rang-barang qiziqitiruvchi

misollarni keltirish, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, turlicha baholash usullari va ta'lim vositalarini o'z o'rnida qo'llash talab etiladi.

Noan'anaviy darslar an'anaviy darslardan metodik yondashuv va metodlar bilan ham farqlanadi.

## ZAMONAVIY METODIKA



## AN'ANAVIY METODIKA

An'anaviy darsning asosiy bosqichlari. An'anaviy dars o'tishning turli xil tuzilmalari mavjud bo'lib, uning keng tarqalgan tuzilmasiga qisqacha to'xtalamiz. An'anaviy darsning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Tashkiliy qism – salomlashish, davomatni tekshirish, zarur ko'rgazmali qurol va jihozlarni darsga hozirlash.

2. Yangi mavzuni boshlashga hozirlik, motivatsiya – yangi mavzu bilan bog'liq o'tgan dars mavzularini takrorlash, yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning bu mavzuga oid bilim darajalarini aniqlash, baholash, yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash, yangi dars maqsadini tushuntirish, darsga qiziqtirish.

3. Yangi mavzuni yoritish – dars materiallarini kichik-kichik bo'limlarga bo'lib, ketma-ket ma'lum uzviylikda, mantiqiy bog'liqlikda, ko'rgazmali tarzda, turli xil o'qitish uslublaridan foydalangan holda berish.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash – olingan nazariy bilimlarni yorqin misollar orqali yoritish, turli xil topshiriqlarni bajarish asosida o'quvchilarda yangi mavzuga oid amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, baholashdan iborat. Bunda baholash uchun beriladigan savol-topshiriqlar aynan dars maqsadidan kelib chiqqan bo'lishi, unga erishilgan yoki erishilmaganligini aniqlashga qaratilishi lozim. Yangi mavzuni mustahkamlash butun sinf ishtirokida, turli xil tarqatma materiallar bilan

ishlash, kichik guruhlarda yoki juft-juft bo'lib ishlash asosida amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilar amaliy mashg'ulot bajarayotgan vaqtida o'qituvchi ularning faoliyatini kuzatishi, ba'zi o'quvchilarning tushunmagan savollariga javob berishi mumkin. Shuningdek, bu bosqichda o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga ham sharoit yaratib berish lozim bo'ladi.

5. Darsga yakun yasash va baholash – darsning maqsadini yana bir bor eslatish va unga qanchalik erishilganligini o'quvchilar bilan birgalikda aniqlash lozim. Shuningdek, o'quvchilarning mavzu bo'yicha savollariga javob berish, darsning asosiy lahzalarini qayd qilish, o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni tilga olish va baholash ham ushbu bo'lim tarkibiga kiradi. O'quvchilar bilimni baholashni butun dars davomida turli xil usullar yordamida bajarish mumkin. Baholashdan maqsad o'quvchilarga faqat qandaydir ballarni qo'yib borish emas, balki o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilib borishdan iboratdir. Kerak bo'lganda, darsning borishiga o'zgartishlar kiritish, tushunish qiyin bo'lgan joylarga qayta to'xtalish lozim bo'ladi.

6. Uyga vazifa – o'tilgan mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada mustahkamlashga yoki kelgusi dars uchun hozirlik ko'rishga qaratilgan, mustaqil bajarishga mo'ljallangan savol, mashq va topshiriqlar majmuasidan iborat bo'lmog'i lozim.

## **II. Noan'anaviy dars shakllari: uning afzallik tomonlari va kamchiliklari.**

### **a) afzallik tomonlari:**

- ✓ o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- ✓ o'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi;
- ✓ tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- ✓ o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;
- ✓ motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- ✓ o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- ✓ muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- ✓ o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- ✓ o'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;
- ✓ mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi;
- ✓ faqat mazmuni o'zlashtirishga yordam bermay, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirish;
- ✓ muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi;

✓ o'quvchining yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

**b) kamchiliklari:**

✓ ko'p vaqt talab etilishi;

✓ o'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi;

✓ juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi;

✓ "kuchsiz" o'quvchilar bo'lganligi sababli "kuchli" o'quvchilarning past baho olishi.

**Darsning noan'anaviy shakllari.** Ta'lim olishning noan'anaviy turlari shartli ravishda uchga ajratiladi. Bu modellar, asosan, o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, uni o'quvchi markazda turgan ta'lim modellari deb ham atashadi.

**Modellashtirilgan darslar.** Modellashtirilgan dars real hayotda, jamiyatda yuz berayotgan hodisa, jarayonlarning ixchamlashtirilgan, soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfxonada yaratish, ularda o'quvchilarning shaxsan qatnashishi, faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metodlar majmuyidir.

Modellashtirilgan dars. Modellashtirilgan dars real hayotdagi voqea hodisalarni o'yin shaklida loyihalashtirib, undagi asosiy muammoni hal etishga qaratilgan yo'l-yo'riq va usullardan iborat modeldir. Modellashtirilgan dars – ta'lim oluvchining real hayotdagi hodisalarni tasavvur qilishi asosida, unda ishtirok etishi hisobiga malaka, ko'nikma hosil qilish va tajribalarni o'zlashtirish jarayoni hisoblanadi.

**Modellashtirilgan dars bosqichlari:**

❖ O'quv maqsadlarini aniqlashtirish:

modellashtirilgan dars uchun zarur bo'lgan tushuncha va atamalarni, dars davomida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni aniqlash; modellashtirilgan darsning maqsadini tushuntirish.

❖ Tayyorgarlik:

rollarni taqsimlash;

qoidalarni tushuntirish;

o'yinni o'tkazish tartibi bilan tanishtirish;

qisqa sinov mashq raundi (zarur bo'lganda).

❖ O'yinni o'tkazish:

mashqlarni bajarish;

o'quvchilar bilan o'yin vaqtida bog'lanishni ta'minlash;

noto'g'ri xatti- harakatlarni, xatolarni tuzatish;

mashqlarni davom ettirish.

❖ **Tahlil:**

sodir bo'lgan hodisalar bo'yicha umumiy xulosaga kelish;  
qiyinchiliklarni muhokama qilish va ularni bartaraf etish usullarini topish;

o'yin jarayonini tahlil qilish;

o'yinni real hayot bilan solishtirib, ular o'rtasida bog'lanish o'rnatish.

O'yin ijtimoiy tajribani to'plash va uzatishdan iborat bo'lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor normalari va qoidalari orqali amaliy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o'zlashtirishda bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O'yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

**Hamkorlikda o'rganish.** Hamkorlikda o'rganish o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metodlar majmuyidir.

**Ta'lim olishning hamkorlikda o'rganish shakli.** Bu model o'quvchilarning guruhlarda mustaqil ishlashi hisobiga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metodlar majmuyidan iborat. Hamkorlikda o'rganish "ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi" muloqotidan voz kechishni va "ta'lim beruvchi - guruh - ta'lim oluvchi" ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi.

Hamkorlikda guruhlarda ishlash orqali o'rganish guruh a'zolari va guruhlar o'rtasida ta'lim oluvchilarning faoliyatini, ularning mustaqilligini, bir-birlari bilan muloqatda bo'lish, hamkorlikda ishlash, o'zaro bog'liq munosabatlarda mas'uliyatni sezish kabi ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi.

**Tadqiqot-izlanish modeli.** O'rganishning tadqiqot-izlanish modeli - o'quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo'naltiradigan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metodlar majmuyi hisoblanadi.

O'quvchiga markazlashgan o'quv jarayonining maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

1. O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish.
2. Ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish.
3. O'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish.
4. O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash.
5. Amaliyot orqali o'rganish.
6. Ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash.
7. O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish.

8. O'qituvchi – o'quvchilar uchun o'quv jarayonini yengillashtiruvchi ahaxs.

9. O'quv jarayonini baholash.

Ta'lim olishning tadqiqot-izlanish shakli. Tadqiqot o'quvchilarga inson xatti-harakatiga nisbatan savollar qo'yishni o'rganish va ularga javoblarni esa faktlarni jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko'maklashadi. Tadqiqot o'quvchilarda savol qo'yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg'otishni nazarda tutadi. Muammolarni aniqlashda va berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish davomida o'quvchilar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga va obyektiv yondashuvga o'rganadilar. Ular har qanday bilim nisbiy ekanligini yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan o'zgarishini mohiyatan tushunib yetadilar. O'quvchilar o'zlarining taxminlarini tekshirish va boshqalarni tasdiqlash, turli xil axborot va mantiqni qo'llashni o'rganadilar. Ta'lim olishning tadqiqot-izlanish turi oliy darajada fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot modeli bo'yicha tashkil etilgan dars bosqichlari:

- Darsda o'quvchiga qiziqish uyg'otadigan muammo yoki savol qo'yiladi.

- O'quvchilarga shu masalani yechish haqida gipoteza (faraz) taklif qilinishi mumkin yoki o'quvchilarning o'zlari gipotezalarni ilgari surishadi.

- O'quvchilar o'zlari shu muammo haqida kerakli ma'lumotlarni topshiradi. Turli adabiyotlarni o'qib, jadval, grafik, xaritalarni o'rganib, o'z tadqiqotlarini amalga oshirishadi.

- Olingan ma'lumotlarga asoslanib, o'quvchilar qo'yilgan muammoni yechish haqida xulosa qilishadi.

- O'quvchilar ilgari surilgan gipotezalarni tekshirishadilar yoki yangi gipotezani shakllantiradilar.

Odatda *seminar mashg'ulotlarining uch turi* farqlanadi:

- seminaroldi mashg'ulot;
- seminar;
- maxsus seminar.

Seminaroldi mashg'ulotlar, asosan, talabalarni mustaqil ishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma'lumotnoma-adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishlash usullari o'rgatiladi, talabalarni boshlang'ich shaklda ilmiy-tadqiqot ishlariga o'tishga hozirlaydi. Seminaroldi mashg'ulotlar seminar mashg'ulotlarning tayyorgarlik shakli hisoblanadi va, odatda, birinchi kurslarda o'tkaziladi. Seminaroldi mashg'ulotlarda o'qituvchi yetakchilik qiladi, chunki talabalar muayyan ixtisoslik bo'yicha o'quv ishlariga ham

o'tibor beradilar, shuning uchun ham yetarli darajada tashabbus ko'rsata olmaydilar.

Seminar mashg'ulotlarda seminaroldi mashg'ulotlarga nisbatan o'ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog'langan muayyan muntazam kursni chuqur o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Boshqalari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va nihoyatda muhim hamda umumiy bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga boshlangan bo'ladi.

Maxsus seminarlar ma'ruza mavzulariga aloqador bo'lmaydi va o'zbek tili fanining dasturi mazmuniga kirmaydi. Odatda, o'zbek tili fanining xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini ko'zlaydi.

Seminar mashg'ulotlar davomida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yaqin aloqa, ya'ni ular o'rtasida ikki tomonlama do'stona munosabat o'rnatiladi. Bu esa tarbiyaviy – ma'rifiy ahamiyatga molik bo'ladi: o'qituvchi o'quvchilar bilan uzoq vaqt yaqin aloqada bo'ladi, ma'ruza guruhlariga nisbatan talabalar bilan kichik guruhlarda jonli suhbat olib boriladi. O'zaro fikr almashiladi, turlicha qarashlar ifoda etiladi.

#### Noan'anaviy dars shakllari:

- ❖ konferensiya darsi;
- ❖ seminar darsi;
- ❖ musobaqa darsi;
- ❖ debat-munozara darsi;
- ❖ o'yin darsi;
- ❖ muhokama, bahs darsi;
- ❖ ijod darsi;
- ❖ ekskursiya-sayohat darsi;
- ❖ suhbat darsi;
- ❖ ssenariy darsi;
- ❖ ma'ruza darsi;
- ❖ sinov darsi

kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

An'anaviy va innovatsion pedagogikani solishtirishning asosiy ko'rsatkichlari:

Solishtirish ko'rsatkichlari	An'anaviy dars	Zamonaviy dars
Maqsad	Bilim, malaka va ko'nikmani shakllantirish	Kompetensiyalarni rivojlantirish, o'quvchi shaxsining ijodiy salohiyati va mustaqil ishlash qobiliyatini

		rivojlantirish
Integral tavsif	Xotirada mustahkamlash	Doimo rivojlanish
Pedagog shiori	Men kabi bajar	Men sen bilan birga
Tashkil etish shakli	Frontal, individual	Frontal, individual, ko'proq guruh bilan
Egallash usullari	Yodlash, algoritim bo'yicha o'rganish	Qidirish, fikrlash, refleksiya
O'qituvchi funksiyasi	Ma'lumot ombori va tashuvchisi	Talaba bilan hamkorlik qiluvchi va uni izlanish ishlarida boshqaruvchi

Talabalar o'tilgan materiallarni o'zlashtirish darajasiga qarab, ularda hosil bo'ladigan kompetentlikni baholash muhim vazifadir.<sup>45</sup>

Yangi pedagogik texnologiya talablari asosida turli usulda o'tkaziladigan dars shakllari xilma-xil bo'lib, ular o'z ichiga ham an'anaviy, ham noan'anaviy dars tiplarini qamrab oladi. O'zbek tili darslarida induktiv (o'rni bilan deduktiv) tavsifiy, savol-javob, munozara, ochiq havoda dars o'tish, bumerang, o'yin usullari yetakchi bo'lishi maqsadga muvofiq. O'zbek tili darslarida tarqatma-didaktik materiallardan, munozarali javvallardan, turli rasmlardan, boshqotirmalardan, maqol, hikmatli so'zlardan, Hadisi sharifdan unumli foydalanish, shuningdek, tadrijiy ravishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, dastxati bilan ishlab borish – shu kunning talabi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.**

1. 1-savol: *O'zbek tilidan an'anaviy va noan'anaviy darslar haqida nimalarni bilasiz?*

2-savol: *"An'anaviy dars" deganda nimani tushunasiz?*

3-savol: *An'anaviy darslar nechta bosqichdan iborat?*

4-savol: *An'anaviy darslarning ustun tomonlari bormi? Ular qaysilar?"*

5-savol: *Noan'anaviy darsning afzallik tomonlari va kamchiliklari nimalardan iborat?*

6-savol: *Sizningcha, faqat noan'anaviy dars turlaridan foydalanish samara beradimi?*

7-savol: *Dars shakli deganda nimani tushunasiz?*

<sup>45</sup> Ta'lim sifatini boshqarish tizimini shakllantirishga bulgan bndashuvlarni takomillastirish. Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini kайта tayёрlash va ularning mалаkasini oshirishni tashkil etish boли илмий-методик маркази. Лойиҳа иши. -Т., 2017.



8-savol: *"O'quvchi – o'quv materiali – o'quvchi"* munosabati asosida tashkil qilinadigan o'quv jarayonini qanday izohlaysiz?

9-savol: 45 minutlik darsning bosqichlari qanday taqsimlanadi?

10-savol: O'zbek tili darslari qanday tarkibiy qismlardan iborat?

11-savol: Tashkiliy yoki tayyorlanuvchi qismda qanday ishlar amalga oshiriladi?

12-savol: O'tilganlarni xotirlash yoki uya berilgan vazifalarni tekshirish jarayonini qanday tashkil etasiz? Keltirilgan matn asosida leksikologiyaga doir topshiriqlar bering.

ياخشى صفت

آدمز ادنينگ عيبي كوپمى آدمذاتنينگ عيب و نقصانى شونداى كوپكه ساناب تمام قيايب بولمايدور اول عيبلاردين نيمه قىلسا خلاص بولور اندين قوتولماق اوچون بير صفت باركه انينگ اوزيغا لازم كورسا اول عيبلاردين قوتولسا بولور اول صفت قيسىدور اول ملاليك و تيلنى ساقلاماقلېككور كه ملاليك شريف صفت اولوب تيلنى ساقلاماق سلامتليكا سببдор

13-savol: *Yangi bilim berish jarayonini tashkil etish muhim jarayon ekanligini qanday izohlaysiz? Biron-bir mavzu asosida tushuntirishga harakat qiling.*

14-savol: *Yangi o'tilgan mavzuni takrorlashga doir jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun nimalar qilish kerak?*

15-savol: *Baholash va uya vazifa berish jarayonini tashkil etishning ahamiyati nimada?*

1-topshiriq: *An'anaviy dars haqidagi fikringizni klaster usulida ifodalang.*

2-topshiriq: *"Konferensiya" darsi va "seminar" kabi noan'anaviy dars shakllaridan birini tanlang va dars ishlanmasini tayyorlang.*

3-topshiriq: *Musobaqa va debat-munozara kabi noan'anaviy dars shakllaridan birida dars ishlanmasini tayyorlang.*

4-topshiriq: *O'yin va muhokama-bahs darslaridan birida dars ishlanmasini tayyorlang.*

5-topshiriq: *Ijod darsi va ekskursiya-sayohat darslaridan birida dars ishlanmasini tayyorlang.*

6-topshiriq: *Ma'ruza va sinov darslaridan birini tanlang, dars ishlanmasini tayyorlang.*

7- topshiriq. *"Mashqlar bilan ishlash" pragmatikasi metodini sharhlang.*

8-topshiriq. *Leksikologiya bo'limi mavzularidan birini tanlang va uni bajartirishda "mashqlar bilan ishlash pragmatikasi" metodidan foydalaning.*

**9-topshiriq.** *Morfologiya bo'limi mavzularidan birini tanlang va uni bajartirishda "mashqlar bilan ishlash" pragmatikasi metodidan foydalaning. Berilgan matnni oqing. Sifat turkumiga xos so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlarini yoriting.*

### **Bilib qo'ygan yaxshi**

*Qaysi rangni sevasiz?*

*Yashil rang.* Bu rangni sevuvchilar juda hissiyotli, nozik didli, tabiatni yaxshi ko'ruvchi, erkin va ozod bo'lishni sevuvchi, ishq bobida vafodor va ohanchga loyiq kishilardir.

*Qizil rang.* Bu rangni sevuvchi kishilar qiziqqon, harakatchan, tezda bir qarorga keluvchi, jahli tez, har bir ishga aralashib, mojaro chiqarishni yaxshi ko'ruvchi kishilardir.

*Binafsha rang.* Bu rangni yoqtiruvchilar izzatlab, hammadan kuchli bo'lishni istovchi, mijoz doim o'zgarib turuvchi, hayoti doimo muallayondan iborat bo'lgan odamlardir.

*Oq rangni sevuvchilar pokiza, ma'sum kishilardir.* Bunday odamlar boshqalarga nisbatan muloyim, sovuqqon, hissiyoti esa kamroq bo'ladi.

*Qora rangni sevuvchilar badbin va nizotalab bo'ladilar.* Bunday kishilar kam kuladi, tund bo'lib yuradi, ishq bobida o'zbiarmon, bir ko'z qarashda sevib qolaveradigan bo'ladi.

*Ko'k rang aqli, ishqda vafodor, bir ishni o'ylab qiladigan kishilarning sevgan rangidir.*

**10-topshiriq.** *Sintaksis bo'limi mavzularidan birini tanlang va uni bajartirishda "mashqlar bilan ishlash pragmatikasi" metodidan foydalaning.*

**11-topshiriq.** *Nutq uslublari bo'limi mavzularidan birini tanlang va uni bajartirishda "mashqlar bilan ishlash" pragmatikasi metodidan foydalaning.*

**12-topshiriq.** *Punktatsiya bo'limi mavzularidan birini tanlang va uni bajartirishda "mashqlar bilan ishlash pragmatikasi" metodidan foydalaning.*

**13-topshiriq.** *Fonetika bo'limiga oid mavzularni mustahkamlash uchun qo'shimcha mashqlar tizimini ishlab chiqing.*

**14-topshiriq.** *Sintaksisni o'qitish jarayoni uchun mashqlar tayyorlang. Namuna: 1. Quyidagi ikki sodda gapni va, shuning uchun, shu sababli, chunki bog'lovchilari yordamida birlashtirib, qo'shma gap tuzing. Tong otdi. Atrof yorishdi. — Tong otdi va atrof yorishdi. Bahor keldi. Dalada ish qizg'in. — Bahor keldi, shuning uchun dalada ish qizg'in.*

Havo issiq. Biz yengil kiyindik. — Havo issiq , shu sababli yengil kiyindik.

**15-topshiriq.** *Quyidagi shakldagi mashqlar ishlab chiqing (berilgan gaplardagi kesimlarning tuzilishiga ko'ra turini ayting).*

**Namuna:** 1.Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi. 2. Agar shu ko'rganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar. 3.Aravalar bugun yetib borishsa, ular ertaga qaytib kelishlari mumkin. 4. Havo bulut bo'lsa ham, yomg'ir yog'madi. 5.Mehnat qilsang, baxting ochiladi. 6. Sen yig'lasang, men ham qo'shilib yig'lab yuboraman.

**16-topshiriq.** *Deylik, siz 5-sinfda "So'zning o'z va ko'chma ma'nosi" mavzusini yangi mavzu sifatida o'tmoqchisiz. Uning uchun nimalarga e'tiboringizni qaratasiz?*

**III. O'z bilimlaringizni sinab ko'rish maqsadida test savollarini yeching.**

### TESTLAR

**1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi...**

A. Masofali o'qitish. B. Modulli ta'lim. D. Eksternat ta'lim. E. Non'anaviy ta'lim

**2. Til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish til o'qitish metodikasining qanday maqsadi hisoblanadi?**

A. Amaliy. B.Ta'limiy. D.Tarbiyaviy. Rivojlantiruvchi

**3. Kommunikativ muloqotda ta'lim oluvchining faolligi va o'zligini namoyon qilishga intilishi ta'limning qanday usuli hisoblanadi?**

A. Verbal usul. B. Bixevioristik usul. D. Onglilik usuli. E. Kashfiyot usuli

**4.O'quvchilar fikrlash qobiliyatini o'stirish o'zbek tili o'qitishning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?**

A. Hamma bosqichlarda, har bir darsda. B. Nutq o'stirish darslarida, yozma ishlarda. D. Grammatika darslarida. E. Sintaksisga oid darslarda.

**5. Bilimlarni tekshirish darslarida o'qituvchi o'z ish usulini qanday aniqlaydi?**

A. O'quvchilarning o'zlashtirishi orqali

B. Mustaqil ish va qiziqishlarini tekshirish orqali

D. Jamoat ishlarida ishtiroki orqali

E. O'tilgan darslarni takrorlash

## **O'ZBEK TILI TA'LIMIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION VA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI**

### **Tayanch tushunchalar:**

*o'zbek tili ta'limi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, darslik, ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'qitish usullari, o'zbek tili ta'limi vositalari, ta'lim usuli, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, kompyuter, internet, xorij tajribalari, loyihalashtirish, texnika, multimedia, multimedia vositalari, elektron vositalar, audio va video vositalar, interaktiv doska, lingafon xonasi, eshitish, ko'rish.*

### **O'zbek tili ta'limiga zamonaviy yondashuv.**

Bugungi kunda barcha fanlar qatori o'zbek tilini o'qitishda ham Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-aprelda qabul qilingan qaroriga asosan ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasi o'z ifodasini topgan. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi kundagi o'zbek tili ta'limi jarayonining oldingi holatidan farqini ko'rsatish maqsadida quyidagi chizmani havola qilamiz:

### **Pedagogik texnologiya nima? U nima uchun bugungi ta'lim jarayonida zaruratga aylandi?**

“Pedagogik texnologiya” tushunchasiga bergan ta'riflarini hamda ular tuzib chiqqan pedagogik texnologiya loyihalarini tahlil qilib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P.Bespalkoning fikricha, “PT – bu o'qituvchiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir”.

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: “PT – avvaldan rejalashtirilgan amaliyotlarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir”, – degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

“PT o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi”, deydi. M.V.Klarin fikricha, PT o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, PT dan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichidan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashtirishdir.

I.Y.Larnerning fikriga ko'ra, PT o'quvchilar harakat qilgan o'qitish amaliyotlari orqali ishonchli anglab aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

V.P.Bespalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Saydahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, PT bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "PT ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, praktikada ijtimoiy - muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir". Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz. Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YUNESKO ta'rifi bo'yicha, "PT bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda kompleks yondashuv usulidan foydalanishdir". Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto va YUNESKO ta'riflarida kompleks yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'zsiz, o'quv jarayoniga kompleks yondashishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon majmuyini tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuyining muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi *pedagogik texnologiya* deyiladi. Pedagogik texnologiyaning an'anaviy usullardan asosiy farqi, uning to'la-to'kis majmua nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidadir.

Pedagogik texnologiyaning avvalgi usullardan afzalligi, u ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchilarni yaxlit qamragan holda ta'lim bosqichlarini loyihalab, ta'lim jarayonini nazorat qilish, ta'lim natijalarini baholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab, uning kompleks loyihasini tuzishidadir.

#### **Xotira xaritasi (Intellekt xarita).**

Xotira xaritasi metodi Tony Buzan tomonidan 60-yillar so'ngiga kelib qo'llanildi. Ushbu metod talabalarda tasvirlar va kalit so'zlarni eslab qolishga qaratilgan. Biroq xotira xaritasi metodidan pedagoglar konseptni

innovatsion yo'l bilan tushuntirishda foydalandilar. Bu talabalarda biror hodisa–narsani tezroq va osonroq ko'z oldilariga keltirishlariga va boshqa hodisa–narsa bilan bog'liqligini ongda "tasvir asosida mulrlashga" yordam beradi. Bu metoddan foydalanish natijasida xotirada boshqa-boshqa hodisa–narsa bo'lib ko'rinadigan tasvirlar o'zaro bog'lanadi va turli xarita elementlari sifatida xotira xaritasida namoyon bo'ladi.

Xotira xaritasi qayta ko'rib chiqish juda tezlikda amalga oshadigan metod bo'lib, "ong xaritasida" biror narsa – hodisaga begona tasvir qo'shilib qolganda, birinchi ko'rishdayoq chiqarib tashlaydi. Qolaversa, xotira xaritasi metodi fikrlashda juda samarador bo'lib, shakllarni eslab qolishda hamda tasvirsiz ham u haqida ma'lumot berilganda kerakli narsani eslab qolishda qo'llaniladi. Bu metodda odatiy qaydlardan ko'ra, miyada bir qancha faoliyat assimilyatsiyalari kuzatiladi va ma'lumotlar, faktlar o'zaro bog'lanadi. Bunda yadro tushuncha xarita markaziga joylashadi va uni ko'rish, sezish orqali tasavvur qilingan elementlari miyada o'zaro bog'langan dastur ko'rinishiga keladi, yadro tushuncha, uning elementlari miyada qolishi oson, samarasi yuqori bo'ladi. Rasmlar, musiqa, hidlash va his qilish xotira xaritasidagi ma'lumotlarni qayta to'plashga va xotirada uzoq muddat saqlashga yordam beradi. Ba'zan pedagoglar tomonidan yadro tushunchaning o'zigina beriladi va talabalar o'zlarining ijodkorliklaridan, narsa-hodisalarni bog'lay olishi va fikrlashlari orqali xaritani o'zlari hosil qilishlari talab etiladi. Xotira xaritasining o'zbek tilini o'qitishdagi imkoniyatlarini tahlil qilgan holda O.Saidaxmedova "Til ta'limida universal model – intellekt xaritadan foydalanish" nomli maqolasida intellekt xarita yaratish texnologiyasi mohiyatini ochib bergan: "... universal modellardan biri bu – intellekt xaritadir". Intellekt xarita – namoyishlarni o'tkazish, qaror qabul qilish, o'z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma'lumotlarni esda saqlash, aqliy hujum o'tkazish, o'z-o'zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta'lim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Intellekt-xaritalarni darslarda qo'llashga oid dastlabki tajribalar Toni Byuzen tomonidan amalga oshirilgan. T.Byuzen "Superthinking" (Oliy darajada fikrlash) asarida intellekt xaritaning detallarini belgilagan: 1) asosiy fikr, muammo yoki so'z markazga joylashtiriladi ( rasm ko'rinishida, belgi yoki so'z ko'rinishida); 2) rasmlar markaziy fikrni ifodalashi kerak; 3) har bir tarmoq turli rang bilan belgilanishi kerak; 4) xaritani tayyorlashda faqat markerlardan foydalaniladi; 5) asosiy tarmoqlar markazdagi asosiy tushuncha bilan bog'lanadi, kichik tarmoqlar esa asosiy tarmoqlarga bog'lanadi; 6) har bir

tarmoqqa faqat birgina kalit soʻz yoziladi; 7) intellekt xaritani hosil qilishda assotsiativ tushunchadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Intellekt-xaritalarning qoʻllanishi sohalari:

- ✓ maʼruzalarning aniq va tushunarli konspektlarini yaratishda;
- ✓ kitob–darsliklarni oʻqishda maksimal samaraga erishishda;
- ✓ referat, kurs loyihalari, diplom ishlarini yozishda foydalanish mumkin.

Taʼlim doirasida intellekt xaritani quyidagi vazifalarni bajarishda qoʻllash mumkin:

- darslik, kitob, maqolalarni; maʼruzalarni konspektlashtirishda;
- maqola–referat–kurs ishlarini yozishda;
- tahlil–tushunishda;
- esda saqlashda.

Xaritani qoʻllash quyidagilarga imkon yaratadi: a) muallif fikrlarini yaxshi ilgʻashga; b) muallif yoʻl qoʻyayotgan mantiqiy xatolar va qarama-qarshiliklarni koʻra bilishga; d) matnni yaxshiroq tahlil qilishga; e) oʻz fikrlari bilan toʻldirishga va h.k. Baʼzan qandaydir maʼlumotni eslash talab etiladi. Bunga ham intellekt xaritalar yordam beradi, yaʼni matnning 100 sahifasi emas, balki 100 ta kalit soʻz esga olinadi. Karta uzoq muddatli xotirada saqlanishi uchun bir necha marta takrorlanishi zarur. Toni Byuzenning fikricha: oʻqishdan bir soatdan soʻng oʻtilgan materialni takrorlash uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- 10 daqiqadan soʻng – 10 daqiqa davomida takrorlash.
- 1 sutkadan soʻng – 2-4 daqiqa davomida takrorlash.
- 1 haftadan soʻng – 2 daqiqa davomida takrorlash.
- 1 oydan soʻng - 2 daqiqa davomida takrorlash.
- 3 oydan soʻng - 2 daqiqa davomida takrorlash.
- 6 oydan soʻng - 2 daqiqa davomida takrorlash.
- 1 yildan soʻng - 2 daqiqa davomida takrorlash.

Natijada oʻzlashtirilgan material xotirada uzoq vaqtga mustahkamlanadi.

Quyida intellekt xaritani tayyorlashga doir namuna keltirilgan: intellekt xaritalar munozara holatida asosli qarorlarni chiqarishga yordam beradi: “sotib olmoq – sotib olmaslik”, “borish - bormaslik”, “ishini oʻzgartirish - oʻzgartirmaslik” va hokazo. Intellekt xaritalar bir varaqdagi barcha maʼlumotlarni bir koʻz tashlashda toʻplash imkonini beradi. U yoki bu qarorning yaxshi va salbiy tomonlarini nazardan qochirmaydi. Assotsiativ tafakkurni faollashtirish anʼanaviy tahlilda nazardan chetda qolgan muhim omillarni eʼtiborga olish imkonini beradi”.

Ona tilidan mustahkamli darslari uchun intellekt xarita



So'nggi tadqiqotlarda ushbu xaritani grafiklar orqali tushuntirishlar kuzatilmogda va bu talabalar yodida uzoq muddatga qolishi, ularga ta'siri juda yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

Bunday metodlar talabalar ongida ma'lum tushuncha – hodisani unga bog'liq boshqa tushuncha – hodisalar bilan bog'laydi va quyidagicha natija beradi:

- umumiy tushuncha hosil qilinadi;
- tasavvur va tafakkur qilish kengayadi;
- talabaning o'zi xaritani boyitishga harakat qiladi.

#### “Yumor – o'qitishning samarali vositasi”

Har bir talaba yumorga boy o'qituvchidan ta'lim olishni xohlaydi. Pedagogning yumorga ustaligi, nafaqat o'qituvchi va talabalar munosabatlari samimiy bo'lishida, qolaversa, qiyin mavzuni tushuntirib berishda yengillik tug'diradi. Yumor esa garchi mavjud qiyinchilikning yechimi bo'lmasa-da, muammoga yechim topishga undaydi. Ta'lim berish – murakkab, ilm izlash – murakkab. Har ikkisi birgalashib yanada murakkablashadi. Bu holatda yumor ham qiyin kechadi. Biroq baribir yumor vaziyatni yengillashtiradi.

Tajriba va kuzatishlarimizdan so'ng shunga ishonamizki, ta'lim jarayonida yumor ham o'qituvchiga, ham talabalarga samarali ta'sir ko'rsatadi. Yumor o'qituvchi va talabalar orasidagi munosabatga ta'sir qilib, darsning qiziqarli bo'lishiga sabab bo'ladi, qolaversa, bu o'quv ma'lumotlarining o'quvchilar xotirasida ko'proq qolishiga yordam beradi. Yumor stresslarning kamayishiga hamda darsda qulay o'qish va kommunikatsiyadagi muhitning yaralishiga sabab bo'ladi. Yumor bilimlarni egallashda eng yaxshi vosita ekanligi bir qancha ta'lim standartlari tomonidan e'tirof etilgan. Kitobdan turli hazillarni o'qish yoki professional komik ustalarining hazillarini eshittirish orqali sinfxonada



yumorga boy muhitni osongina yaratish mumkin. Bunda pedagog professional komik ustalarining mahoratini: qayerida bo'rttirish, qisqa to'xtash vaqtini egallagan bo'lishi va o'quvchilarda darsga ishtiyoq uyg'ota olishi kerak. Shu orqali real va aniq ma'lumotlar jonli tarzda o'quvchilarga yetkaziladi. Xulosa qilib aytganda, hazil-mutoyiba nafaqat sinfdagi mavjud vaziyatni yaxshilashga, qolaversa, ta'lim olishda, uning sifati oshishida ham muhim rol o'ynaydi.

### **Z dan A gacha yo'l**

Bu metodda, dastlab, pedagog ma'lum masalani talabalarga tushuntirib beradi. Keyin esa uning natijalari haqida ham tushuntirish beradi. Masalan, boshqaruv sohasi nima ekanligini va uning qanchalik foyda keltirishini ham ma'lum qiladi. Keyin o'quvchilarga foyda va yutuqqa qanday erishish mumkinligini ham tushuntirib beradi. Keyin talabalar bilan birgalikda boshqaruv sohasi nazariyasini yaratadilar va buni daftarga qayd etadilar.

Metodning yutuqlari:

- biror ma'lum tushuncha hosil qilinadi;
- talabalar o'zlarining qiziqishlariga ko'ra bu haqida bilimlarini yanada boyitadilar;
- bu tushuncha uzoq muddat xotirada saqlanadi.

Kamchiliklari:

- tushuntirishga juda ko'p vaqt talab etiladi;
- talabalar uchun bu tushuncha yangi tushuncha ekanligi, o'qituvchiga uning elementlari va foydasini tushuntirish qiyinchiliklar tug'diradi.<sup>46</sup>

**Musobaqa darslari.** O'zbek tili ta'limida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara – muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqqa olish malakasini baholashdan iboratdir. Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Musobaqa darslari uchun mavzular: "Nutq tovushlarining siri", "So'z harfidan so'z yasang", "Tinish belgilari musobaqasi", "So'zshunoslar anjumani", "Zakovat" darslari... v.h.

<sup>46</sup> Dr. Damdharah. V.S. ASSA, AICWA and Mr. Rengarajan V. AICWA

**Bahs – munozara darslari** musobaqa darslarida yechib ulgurilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarishi bilan farqlanadi. Bahs – munozara o'quvchilardan hushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida o'ylashga, o'z fikrini mantiqli, izchil isbotlashga o'rgatadi. O'zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to'g'ri, ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs-munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o'z «men»ini anglab yetadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy tafakkuri ko'lamini, haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. O'z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Bahs – munozara darsini samarali o'tkazish uchun talabalar muhokama qilinadigan matn yoki mavzu bo'yicha keng tushunchaga ega bo'lishlari, uni yaxshi o'qib, o'rganib chiqqan bo'lishlari darkor. Mazkur darslarda, talaba – *ishlovchi, fikrlovchi, izlamuvchi*dan tashqari, *nazorat qiluvchi* vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun o'qituvchi talabalardan bahs-munozara darsining quyidagi talablarini benuqson bajarishni talab qilishi lozim.

- bahs-suhbatda faol ishtirok etish;
- so'zlovchi fikrini diqqat bilan tinglash;
- o'z fikrini shoshmasdan, batafsil ifodalash;
- munozara davomida suhbatdoshiga nisbatan hurmat saqlash;
- nutq odobi va madaniyatiga rioya qilish;
- mavzudan chetga chiqmaslik;
- o'z fikrini isbotlashda aniq, ishonarli dalillar topish;
- bahslashayotganlar haq bo'lsa, uni tan ola bilish... v.h.

Bahs – munozara darslari tavsiya qilinayotgan talabalar asosida tashkil qilinsa, dars samarasi oshadi, talabada nutqiy madaniyat shakllanadi.

O'zbek tili metodikasida ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari til ta'limi samaradorligini oshiribgina qolmay, uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Dars mashg'ulotlarini rang-barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, do'stlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'quvchi darsda o'zini erkin his qiladi, mashg'ulotlarga qiziqishi, so'z san'ati bilan shug'ullanishga, ijodga rag'batini ortadi.

### “Soʻz narvonlari” oʻyini.

1. TOSH soʻzini besh qadamda GUL soʻziga oʻzgartiring. Har qadamda faqat bittadan harf almashtiring.

Masalan, *tosh–bosh–qosh–qol–gul–gul* kabi.

2. SOʻZ soʻzini besh qadamda GAP soʻziga aylantiring. Har qadamda soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing: SOʻZ – koʻz – koʻp – choʻp – chap – gap

1. Qalb koʻzi aslo koʻr boʻlmasin.
2. Koʻpdan quyon qochib qutulmas.
3. Anvar turli rangdagi choʻplardan uylar yasaydi.
4. Oʻng qoʻling berganini chap qoʻling bilmasin.
5. Bir necha soʻzlarning oʻzaro birikuvidan gaplar hosil boʻladi.

### “Kim dono?” oʻyini.

Bu oʻyinda oʻquvchilarga biror matn eshittiriladi. Matn tugagach, oʻquvchilar eshitgan matnlaridagi eslab qolgan soʻzlarini yozishlari kerak. Kim koʻp soʻz yozsa, u gʻ olib sanaladi.

### “Muharrir minbari” oʻyini.

Bu oʻyinda oʻquvchilarga kichik matnlar tarqatiladi. Oʻquvchilar matnlardagi imlovii xatosi bor soʻzlarni aniqlaydilar.

### “Kim chaqqon?” oʻyini.

Bu oʻyinda oʻquvchilarga raqamlar beriladi. Oʻquvchilar alifboda bu raqamlar ostida qaysi harflar turishini tezlik bilan aniqlab, soʻz hosil qiladilar. Soʻz ishtirokida gap tuzadilar.

Masalan, 10, 8, 19, 14, 2 – kitob. Kitob – bilim manbai.

Dars jarayonida toʻgʻri tanlangan oʻyinlar oʻqituvchining oʻqitishdagi, oʻquvchilarning esa oʻrganishdagi eng samarali yoʻli boʻladi.

**Taʼlim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.**

Bugungi texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bir paytda har qaysi kasb ustasining masʼuliyati oshib bormoqda.

Demak, oʻtayotgan har bir kunimizda shiddat bilan kirib kelayotgan yangiliklar koʻpgina yoʻnalishlarda, xususan, madaniyat, maʼrifat sohalarda ham oʻzining ijobiy taʼsirini oʻtkazmoqda. ... Anʼanaviy darslar, xayoldagi texnika... Oʻquvchi oʻsha darslardan zerikmagan, chunki, ustozlar tomonidan oʻsha paytda ham oʻz ustida ishlash, yangi usullardan foydalanish mavjud boʻlgan. Bugungi davr, bugungi oʻquvchi talabi uchun esa, oʻsha burungi tamoyillarning qaysidir jihatlari toʻgʻri kelmay qoldi. Zamonaviy oʻquvchi yangilikka oʻch, kezi kelganda oʻqituvchidan koʻra kompyuterni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi tushunadi. Bu esa zamonaviy oʻqituvchidan shogirdi oldidagi oʻz ustida ishlash

mas'uliyatini yanada oshirishi tabiiy. Zamonaviy o'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, dars o'tish uslubini egallaganligi, internet tarmoqlaridan kerakli ma'lumotlarni qidirib topish va saqlash usullarini bilishi kerak. Xuddi shunday jarayonlarni darsda va to'garak mashg'ulotlarida qo'llay olish ko'nikmasini o'quvchida mustaqil shakllantirishi, amalda qo'llay olishni o'rgatishi mumkin. Izlanuvchan o'qituvchi zamonaviy darsni axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitadi. O'qituvchi darsga oid multimediali darsni rejalashtirishdan oldin, mavzu va maqsad hamohangligiga e'tibor berishi kerak. Slaydlarda, asosan, eng kerakli ma'lumotlar o'quvchiga sodda va tushunarli qilib joylashtiriladi. Katta hajmdagi matnlar tabiiyki, o'quvchini zeriktiradi. Mutaxassislarining fikricha, o'qituvchi ekrandagi matnни o'qib bermasligi, aksincha sharhlashi kerak. Taqdimot etilayotgan slaydning rangi ham did bilan tanlanadi.

9-sinf "O'zbek tili" darsligidagi 144-mashqda quyidagi topshiriq berilgan: "Matnни ko'chiring, qo'shma gaplarni izohlang". Ushbu qo'shma gaplar tahlilini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda quyidagi usul yordamida amalga oshirish mumkin.

Monitorida ushbu matn namoyish etiladi:

*Qiblagohim o'rmon kesib yurib, qish chillasida o'rmon ichida yolg'iz o'zi qolib ketibdi. Qor degani odamning tizzasidan kelar, sovuq esa yuz-qo'lni chaqib olar ekan. Qorni och, yegani hech vaqo yo'q ekan. Bechora o'rmon chetini izlab, o'zini har yoqqa uribdi va holdan toyib yiqilib qolibdi. Shu payt ko'ksiga bezor botib turgan narsa – tuproqli tumori yodiga tushibdi. Uvishib qolgan qo'lni bir amallab qo'yniga ilqib, tumorini olibdi. Tana taftidan issiq holga kelgan tuproqdan bir chimdim olib, og'ziga tashlabdi. Tuproqni qancha chaynasa ham, u hech g'ichirlamabdi. Shunaqa mazali tuyulibdiki, go'yo endigina tandirdan uzilgan nonning ta'mi kelar ekan. Chaynagani sari tanasiga issiqlik yugurib, o'zida quvvat sezibdi... Odamlar yashaydigan yerga yetib, omon qolibdi. Shunda ona tuproqning mo'jizasiga qoyil qolibdi. (Nabi Jaloliddin )*

O'qituvchi o'quvchilarga matnни ifodali o'qib chiqish topshiriq'ini beradi.

Matn ifodali o'qilgach, o'qituvchi ushbu matnning qaysi uslubga xosligini so'raydi. So'ngra o'quvchilar matn tarkibidagi qo'shma gaplarni aniqlaydilar. Qo'shma gaplarni aniqlab olishgach, ushbu topshiriqlar amalga oshiriladi.

**Topshiriq:** Matnda berilgan qo'shma gaplarning ma'no-mazmuniga e'tiboringizni qarating va ularni quyidagi jadval kataklariga moslab joylashtiring.

	Qo'shma gapga misol	Qo'shma gap turi	Qo'shma gapni bog'lovchi vosita
Tabiat tasvirini ifodalovchi qo'shma gap	<i>Qor degani odamning tizzasidan kelar, sovuq esa yuz-qo'lni chaqib olar ekan.</i>	Bog'lovchisiz qo'shma gap	Ohang
Holat tasvirini ifodalovchi qo'shma gap	<i>Qorni och, yegani hech vaqo yo'q ekan.</i> <i>Bechora o'rmon chetini izlab o'zini har yoqqa uribdi va holdan toyib yiqilib qolibdi.</i>	Bog'lovchisiz qo'shma gap Bog'langan qo'shma gap	Ohang Va - biriktiruv bog'lovchi si
O'xshatish ma'nosini ifodalovchi qo'shma gap	<i>Shunaqa mazali tuyulibdiki, go'yo endigina tandirdan uzilgan nonning ta'mi kelar ekan.</i>	Ergashgan qo'shma gap	Go'yo-o'xshatish-qiyoslash yuklamasi
To'siqsizlikni ifodalovchi qo'shma gap	<i>Tuproqni qancha chaynasa ham, u hech g'ichirlamabdi.</i>	Ergashgan qo'shma gap	-sa ham

Yuqoridagi jadval to'ldirib bo'lingach, o'qituvchi jadvalning o'ziga xos jihatlari, ya'ni qo'shma gapda ifodalanayotgan mazmunga o'quvchilarning e'tiborini qaratadi. So'ng o'quvchilarga uyga topshiriq sifatida yuqoridagi kabi jadvalni to'ldirib kelishni berishi mumkin. Bunda o'quvchilar qo'shma gaplarni badiiy asarlar tarkibidan qidirib topishlari lozim bo'ladi. Ushbu topshiriqlardan dars davomida foydalanish bugungi kundagi umumiy o'rta ta'lim tizimida joriy etilayotgan kompetensiyaviy yondashuvning maqsadlariga ham mos keladi. Ushbu topshiriqlarni bajarish davomida o'quvchilarda matnni ifodali o'qish orqali fanga oid bo'lgan kompetensiyalardan *mutqiy kompetensiya* shakllansa, undagi qo'shma gapga oid bo'lgan ma'lumotlar bilan ishlash *lingvistik kompetensiyaning* shakllanishiga yordam beradi. Birinchi jadvalni to'ldirish davomida o'quvchilarda *tayanch kompetensiyalardan axborotlar bilan ishlash, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish va foydalana olish kompetensiyasi* shakllanadi. Keyingi topshiriqni bajarish, ya'ni biron-bir badiiy asardan qo'shma gaplarni

qidirish orqali esa o'quvchilardagi badiiy asarlarni mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishini, unda berilayotgan gapning ma'no-mazmuniga o'tiborni qaratish ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilib olinadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilardagi o'z-o'zini rivojlantirish hamda milliy va umummadaniy kompetensiyalarning shakllanishiga sharoit yaratib beradi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

1-savol: *"O'zbek tili ta'limiga zamonaviy yondashuv" deganda ulmani tushunasiz?*

2-savol: *"Pedagogik texnologiya" nima?*

3-savol: *"Pedagogik texnologiya" nima uchun bugungi ta'lim jarayonida zaruratga aylandi?*

4-savol: *"O'quvchi – o'quv materiali – o'quvchi" munosabati asosida tashkil qilinadigan o'quv jarayonini qanday izohlaysiz?*

5-savol: *45 minutlik darsning har bir bosqichi uchun qanday slaydalar tayyorlay olasiz?*

6-savol: *Tashkiliy yoki tayyorlanuvchi qismni tashkil qilish uchun qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanasiz?*

7-savol: *O'tilganlarni xotirlash yoki uyga berilgan vazifalarni tekshirish jarayonini qaysi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etasiz?*

8-savol: *Yangi bilim berish jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati qay darajada?*

1-topshiriq: *An'anaviy dars haqidagi fikringizni "klaster" usulida ifodalang.*

2-topshiriq: *"Konferensiya darsi" va "seminar" kabi noan'anaviy dars shakllarining qo'llanishi qulay bo'lgan bo'limlarga izoh bering.*

3-topshiriq: *"Musobaqa" va "debat-munozara" kabi noan'anaviy dars shakllarining qo'llanishi maqbul bo'lgan bo'limlarga izoh bering.*

4-topshiriq: *"O'yin" va "muhokama-bahs darslari"ning qo'llanishi maqbul bo'lgan bo'limlarga izoh bering.*

5-topshiriq: *"Ijod darsi" va "ekskursiya-sayohat" darslarining qo'llanishi maqbul bo'lgan bo'limlarga izoh bering.*

6-topshiriq: *"Ma'ruza" va "sinov" darslarining qo'llanishi maqbul bo'lgan bo'limlarga izoh bering.*

7- topshiriq. *"Mashqlar bilan ishlash pragmatikasi" metodini leksikologiya mavzulari uchun moslab ishlab chiqing.*

8-topshiriq. *“Leksikologiya” bo‘limi mavzularidan birida intellekt xarita tayyorlang.*

9-topshiriq. *“Morfologiya” bo‘limi mavzularidan birini tanlang va uni o‘tish uchun innovatsion texnologiya ishlab chiqing.*

10-topshiriq. *“Sintaksis” bo‘limi mavzularidan birida darsda foydalanish uchun slaydlar tayyorlang.*

11-topshiriq. *“Nutq uslublari” bo‘limi mavzularidan birini tanlang va uni bajartirishda “mashqlar bilan ishlash pragmatikasi” metodidan foydalaning.*

12-topshiriq. *“Punktuatsiya” bo‘limi mavzularidan birini tanlang va uni o‘rgatish jarayoni uchun slaydlar tayyorlang.*

13-topshiriq. *“Fonetika” bo‘limiga oid mavzular yuzasidan slaydlar tayyorlang.*

14-topshiriq. *So‘z turkumlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash jarayoniga oid pedagogik texnologiyalarga doir mashqlar tizimini ishlab chiqing.*

15-topshiriq. *Deylik, siz 5-sinfda “Shevaga oid so‘zlar” mavzusini yangi mavzu sifatida o‘tmoqchisiz. Shu mavzuda slayd tayyorlab ko‘ring.*

16-topshiriq. *8-sinfda o‘qitiladigan “So‘z birikmasining turlari” mavzusing o‘tishga doir slaydlar to‘plamini tayyorlang.*

III. O‘z bilimlaringizni sinab ko‘rish maqsadida test savollarini yeching.

### TESTLAR

1. Ushbu fikrlar kimga tegishli? *“PT – bu o‘qituvchi bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir”.*

A. V.P.Bespalko B. V.M.Monaxov D. I.Y.Larner E. M.V.Klarin

2. Ona tilining milliy til sifatidagi ahamiyati haqida bilim olish til o‘qitish metodikasining qanday maqsadi hisoblanadi?

B. Amaliy. B.Ta‘limiy. D.Tarbiyaviy. Rivojlantiruvchi

3. Ushbu fikrlar kimga tegishli? *“PT – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo‘lgan tartibli amallar tizimidir”*

A. M.V.Klarin B. V.M.Monaxov D. I.Y.Larner E. V.P.Bespalko

4.O‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish o‘zbek tili o‘qitishning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?

B. Hamma bosqichlarda, har bir darsda. B. Nutq o‘stirish darslarida, yozma ishlarda. D. Grammatika darslarida. E. Sintaksisga oid darslarda.

5. Ushbu fikrlar kimga tegishli? “PT o‘quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg‘unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi”.

A. M.V.Klarin B. V.M.Monaxov D. I.Y.Larner E. V.P.Bespalko

## O‘ZBEK TILI DARS TIPLARI. O‘ZBEK TILI MASHG‘ULOTLARINING MAZMUNI VA TUZILISHI

### *Tayanch tushunchalar:*

*dars tiplari, o‘zbek tili mashg‘ulotlari, darsning maqsadi, darsning tuzilishi, ta‘limiy darslar, nazorat darslari, yangi bilim berish darslari, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darslari, o‘rganilganlarni takrorlash darslari, xatolar ustida ishlash darslari, til hodisalarining o‘zlashtirganlik darajasi ustidan nazorat, o‘quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi ustidan nazorat, mutqiy malakalarning egallanganlik darajasi ustidan nazorat.*

**O‘zbek (ona) tili darslarining maqsad va tuzilishiga ko‘ra tasnifi.**  
O‘zbek (ona) tili darslarining maqsadi va tuzilishidan kelib chiqib, uni ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Ta‘limiy darslar;
2. Nazorat darslari.

O‘zbek tilidan ta‘limiy darslarni to‘rtta katta guruhga ajratish mumkin:

1. Yangi bilim berish darslari.
2. Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darslari.
3. O‘rganilganlarni takrorlash darslari.
4. Xatolar ustida ishlash darslari.

*Yangi bilim berish darsi* keng tarqalgan dars turlaridan bo‘lib, bu darsda o‘quvchilar yangi zaruriy bilimlar bilan qurollantiriladi va o‘rganilganlar yuzasidan dastlabki malakalar hosil qilinadi. Darsning bu turi uy vazifasini tekshirish, egallangan bilimlar yuzasidan ko‘nikma va malakalar hosil qilish, darsni xulosalash, uyga vazifa berish singari unsurlarning yig‘indisidan iborat.

Yangi bilim berish darsi boshqa bosqichlarda bajariladigan ishlarni o‘ziga bo‘ysundiradi. Uy vazifasini tekshirish va o‘rganilganlarni takrorlash yangi bilimlarni puxta egallashga tayyorlasa, mustahkamlash, xulosalash, uyga vazifa berish egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘l ochadi.



Yangi bilim berish darslari faqat tilning turli tomonlariga oid bilimlarni egallash masalalari bilangina bog'liq bo'lmasdan, bilimlarni qay darajada o'zlashtirish muammosi bilan ham uzviy bog'langan. O'quvchi darsda olgan bilimlarini o'z so'zlari bilan aytib bera olishi, o'rganigan bilimlariga doir dalil keltira olishi, o'rganilgan bilimlarni oldin egallagan bilimlaridan ajrata bilishi lozim.

**Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari** maxsus dars turi bo'lib, hajm jihatidan katta, o'rganilishiga 2-3 soat vaqt ajratilgan mavzular yuzasidan o'tkaziladi. Bu dars turi yangi bilim berishdan tashqari boshqa barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Agar yangi bilimlar berish darsida qayta xotiralash xarakteridagi topshiriqlar qisman izlanuvchanlik va izlanuvchanlik xarakteridagi topshiriqlarga qaraganda ko'proq qismni tashkil etsa, bu darslarda shuning teskarisi sodir bo'ladi. Topshiriqlarning sharti ham bu darslarda ancha murakkablashadi. Har bir mashq uch-to'rt va hatto besh-olti topshiriqni o'z ichiga olishi mumkin.

**O'rganilganlarni takrorlash darslari** bir necha soat davomida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni mukammallashni nazarda tutadi. Takrorlash darslari o'quv yilining boshida, oxirida, yirik mavzular o'rganilgandan keyin va bo'limlar tugagandan so'ng o'tkaziladi. Shu jihatdan takrorlash darslarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- o'quv yili boshida takrorlash;
- o'quv yili oxiridagi yakuniy takrorlash;
- oldin o'rganilgan bilimlarni o'quvchilar esiga tushirish uchun takrorlash;
- darsda o'rganilgan yangi mavzuni takrorlash;
- o'zbek tilidan katta mavzu, bo'lim o'tilgandan keyin o'tkaziladigan takrorlash;
- ma'lum o'quv materialini o'rganilgach, kelgusi o'quv soatida o'tkaziladigan takrorlash.

**Xatolar ustida ishlash darslari** o'quvchilar nutqida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etishni ko'zlaydi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida nafaqat xatoning oldi olinadi, balki yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar bartaraf ham etiladi. O'qituvchilarning amaliyotida xatoni tuzatishning ikki usulidan foydalaniladi:

Omilkor o'qituvchilar ish amaliyotida xato haqida xabar berishning quyidagi usullaridan foydalanadilar:

1. "4", "5" bahoga oq'iydigan o'quvchilarning yozma ishlarini tekshirishda xato tuzatilmay, balki hoshiyasiga shu qatordagi xatoning soni ko'rsatiladi.

2. "3" baho bilan o'qiydigan o'quvchilarning yozma ishlaridagi xatolar haqida xabar berish maqsadida xatoli so'zning ostiga chizish, lekin xatoni tuzatib ko'rsatmaslik usulidan foydalaniladi.
3. Bo'sh o'zlashtiradigan yoki o'z xatosini aniqlashda qiynaladigan o'quvchilarning yo'l qo'ygan xatolarini xatoli bo'g'in ostiga chizish bilan belgilash maqsadga muvofiqdir.

Nazorat darslari o'quvchilarning o'rganilgan materiallarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, yo'l qo'yilgan imloviy, punktuatsion va nutqiy xatolarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

O'zbek tilidan nazorat darslarini uch turga ajratish mumkin:

1. Til hodisalarining o'zlashtirilganlik darajasi ustidan nazorat.
2. O'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi ustidan nazorat.
3. Nutqiy malakalarning egallanganlik darajasi ustidan nazorat.

Til hodisalarining o'zlashtirganlik darajasi ustidan nazorat berilgan tovush, so'z, gap, matnni tahlil qilish, so'zlarni muayyan xususiyatlariga qarab guruhlash, til hodisalarini qiyoslash, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish, qo'yilgan savollarga to'g'ri javob qaytarish, topshiriqlarni to'g'ri bajarish orqali aniqlanadi. O'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi ustidan nazorat, asosan, ta'limiy diktantlar, shuningdek, bayon va insholar orqali amalga oshiriladi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

1-savol: *O'zbek (ona) tilidan darslar maqsad va tuzilishiga ko'ra necha guruhga ajratiladi?*

2-savol: *Ta'limiy darslarning mazmun-mohiyati haqida gapiring.*

3-savol: *Ta'limiy darslar necha turga bo'linadi?*

4-savol: *"Nazorat darslari" deb qanday darslarga aytiladi?*

5-savol: *Nazorat darslarining tasnifini tushuntiring.*

6-savol: *Sizingcha, ta'limiy darslar faqat bilim berish maqsadini ko'zlaydimi?*

7-savol: *Ta'limiy darslar uchun qanday maqsadlar belgilanadi?*

8-savol: *"Yangi bilim berish darslari"ning bosqichlarini qanday tashkirlaysiz?*

9-savol: *45 minutlik ta'limiy darslarning bosqichlari qanday taqsimlanadi?*

10-savol: *45 minutlik nazorat darslarining bosqichlari qanday taqsimlanadi?*

11-savol: *Diktantlarning qaysi turlari o'quvchi so'z boyligini oshirishda imkoniyatlarga ega?*

12-savol: *O'tilganlarni xotirlash yoki uyga berilgan vazifalarni tekshirish jarayonida qanday diktant turlaridan foydalanish mumkin?*

13-savol: *Ta'limiy insholar qanday tashkil qilinadi?*

14-savol: *Ko'rik-tanlov insholari qanday maqsad bilan tashkil qilinadi?*

1-topshiriq: *Ta'limiy diktant uchun matnlar tanlang.*

2-topshiriq: *Lug'at diktantini o'tkazish haqidagi fikrlaringizni 5-sinf misolida biror bir matn vositasida tushuntirib bering.*

3-topshiriq: *O'tilgan mavzularni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni bajartirish jarayonida o'quvchi yo'l qo'gan xatoni tuzatish ikki usul yordamida amalga oshiring.*

4-topshiriq: *O'quvchingizni qanday qilib insholar ko'rik-tanloviga tayyorlaysiz? Buni amaliy ishlar yordamida tushuntirib bering.*

## **O'ZBEK TILI FANIDAN DAVLAT TA'LIM STANDARTI, O'QUV DASTURI, DARSLIKLARINING TARKIBI VA MAZMUNI, O'QUV VA METODIK QO'LLANMALAR**

### **Tayanch tushunchalar:**

*o'quv-me'yoriy hujjatlar, umumiy o'rita talim maktablari, standart, ta'lim standarti, DTS, DTS tarkibi va mazmuni, "O'zbek tili"dan Davlat ta'lim standarti, "O'zbek tili" o'quv dasturi, "O'zbek tili" darsliklari, darslik, lug'at, lug'atlarning turlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, ta'lim vositalari, darsliklarning tuzilishi, darsliklarning tarkibiy qismi, darslikka qo'yiladigan talablar, "O'qituvchi kitobi".*

**O'quv-me'yoriy hujjatlarga doir termin-tushunchalarning ilmiy-metodik talqini.**

**Me'yoriy hujjat** – har xil faoliyat turlari yoki ularning natijalariga taalluqli qoidalar, umumiy qonun-qoidalar yoki tavsiyalarni o'z ichiga olgan hujjat. Ta'lim standartlari tizimidagi me'yoriy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim standartlari kiradi.

**Standart** – ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har bir turlariga, natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llanilgan qoidalar, tavsiyalar, talablar, usullar belgilangan, tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjat.

**Ta'lim standarti** – standart tekshirish usullariga muvofiq keladigan va o'qitish sifatining standart ko'rsatkichlari bilan ifodalangan ta'lim turida o'quvchini o'qitishda va tarbiyalashda qo'yiladigan talab ko'rsatkichlarining mazmuni.

**Davlat ta'lim standartlari** – ta'limning zarur, yetarli darajasi va o'quv yuklamalar hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beruvchi mezon.

**Ta'limning standartlashtirilgan turlari** – DTS ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi: umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari); oliy ta'lim (bakalavriat va magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun boshqaruvchining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

**Umumiy o'rta ta'lim** – bu to'qqiz yillik (I – IX sinflari) o'qishdan iborat bo'lgan umumiy o'rta ta'lim – majburiy ta'limdir. Unda quyidagi muammolar hal qilinadi:

- ↓ fan asoslari bo'yicha uzluksiz bilim beriladi;
- ↓ mehnat ko'nikmalari shakllanadi;
- ↓ ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish o'rgatiladi;
- ↓ kasb tanlash shakllanadi<sup>47</sup>.

**Umumiy o'rta ta'lim DTS** – o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beruvchi, o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari, vositalari muvozanitini aks ettiruvchi, o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyatlari, qiziqishlari ustuvorligini ta'minlovchi hujjatdir.

**Umumiy o'rta ta'lim DTSning tayanch o'quv rejasi** – DTSning tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yoriylashga hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjati. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

**Dastur** – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi.

<sup>47</sup> Eslatma: Bu o'rinda 10-11-sinflarni ham nazarda tutish lozim.

**Namunaviy o'quv dasturi** – muayyan predmetlar bo'yicha ta'lim mazmunining zaruriy minimumini va o'quv materialini o'zlashtirish darajalarini batafsil ochib beruvchi hujjat.

**Namunaviy o'quv rejasi** – o'qitish muddatini hisobga olib, kasbga (mutaxassislikka) muvofiq ravishda sikllar, fanlar ro'yxati va hajmining davlat miqyosini belgilovchi hujjat. U o'quv darslarining maksimal hajmini va ishchi o'quv hujjatlarini ishlab chiqishda o'quv muassasalarining mustaqillik darajasini aniq belgilaydi.

**Ishchi o'quv dasturi** – muayyan o'quv predmeti uchun namunaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan va o'qitishning to'liq mazmunini ochib beruvchi hujjat.

**Ishchi o'quv rejasi** – muayyan ta'lim muassasi uchun o'qitish jarayonining kalendar-taqvim tuzilmasini va bosqichlarini ifodalaydigan namunaviy o'quv rejasi asosida ishlab chiqilgan hujjat.

**Darslik** – DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

**Elektron darslik** – an'anaviy darslikdan farqli o'laroq, fanga oid tegishli materiallarni dinamik talqinda, ya'ni foydalanuvchi e'tiborini jalb qiluvchi turli ranglardan, multimedia, audio va video animatsiyalar, gipermurojaatlardan o'rinli foydalangan holda tuzilgan yoxud dasturlashtirilgan darslikdir. U kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy adabiyotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan adabiyot.

**Elektron shakldagi o'quv-uslubiy materiallar** – bular elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalari, elektron ma'ruza matnlari, elektronkutubxonalar, mos (CD, Flash vah.z.) sig'imdagi audiovizual materiallar, interfaol o'quv kurslari, kompyuterda hisoblash tajribasini o'tkazish uchun laboratoriya vazifalari, test sinovlarini o'tkazish bo'yicha tizimlar.

**Elektron o'quv adabiyotlari** – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni to'plash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim qilish, nazorat etish imkoniyatlariga ega bo'lgan manbadir.

**O'quv qo'llanma** – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirishini

ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq, mashg'ulotlarni olib borishga mo'ljallangan nashr.

Ona tili ta'limida:

a) *o'zbek tili o'quv fani bo'yicha uzluksiz majburiy ta'lim tizimining davlat ta'lim standartlari;*

b) *12 yillik majburiy ta'lim muassasalari o'zbek tili ta'limi o'quv dasturi;*

d) *umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-9-sinflari (10-11-singlar uchun ham tatbiq etiladi) "O'zbek tili" va akademik litseylar 1-3-bosqichlari "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklari asosiy o'quv- me'yoriy hujjatlar bo'lib xizmat qiladi.*

*O'zbek tili o'quv fani bo'yicha uzluksiz majburiy ta'lim tizimining davlat ta'lim standartida quyidagilar o'z ifodasini topgan:*

1. *Tushuntirish xati* – unda majburiy o'rta ta'limning ikki bosqichdan iborat bo'lib, umumiy o'rta ta'lim (1-9 sinflar), o'rta maxsus ta'lim (1-3 kurslar)ni qamrab olganligi; majburiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarning minimal darajasini belgilab berishi; har bir sinf (kurs) yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarning o'zbek tili fani bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturida o'z aksini topishi; standartning o'quvchi - talabalarning o'zbek tili fani bo'yicha bilim va tayyorgarlik darajalarini belgilab berishi hamda o'quv reja, dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi uqtirilgan. O'zbek tili fani bo'yicha davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, BMTning o'quvchilar huquqlari bo'yicha konvensiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16-avgust 1999-yildagi 390-sonli "Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi va 16-oktabr 2000-yildagi "O'rta maxsus ta'lim davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 400-sonli qarorlariga asoslanilganligi haqida ma'lumot berilgan.

2. *"O'zbek tili" bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining majburiy ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan majburiy minimal talablar qismi* – unda a) *grammatik bilimlar:* fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, bog'lanishli nutq, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar, ularning muhim belgilari, tushunchalar bilan bog'liq grammatik atamalarni bilish; b) *nutqiy kompetensiya:*

*o'qish* – harflarning to'g'ri talaffuzi, so'zlarning to'g'ri o'qilishi, gap olungi, gapdagi tinish belgilarining talaffuzi, sanash va ajratish olianglaridan to'g'ri foydalanish, so'z urg'ulari, murakkab tipdagi ilmiy atama, ramzlarning to'g'ri talaffuzi, mumtoz adabiyot namunalarini, so'z, ibora va atamalarni to'g'ri talaffuz qilish, ma'nosini anglash.

*Fikrni og'zaki bayon qilish* – og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi, monologik nutq, diaologik nutq mantiqiy jihatdan aniq bo'lishi, matn mazmunining mos bo'lishi.

*Fikrni yozma shaklda bayon qilish* – matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, harf va tinish belgilarini to'g'ri yozish, husnixatda qatorlarni to'g'ri joylashtirish, so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash, tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish, matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va ma'nodoshlarini qo'llay olish, matnda xatboshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash, uyadosh so'zlardan foydalana olish, diktant, bayon, insho, maqola, ish qog'ozlari (xat, tabriknoma, tushuntirish xati, tilxat, ariza, ma'lumotnoma, hisobot, ishonch xati, axborot) ni yozish, sodda va murakkab reja tuzish, yozma ishga epigraf tanlash, xatboshini to'g'ri belgilash, til birliklarini fonetik, lug'aviy, morfologik, sintaktik tahlil qilish.

3. *O'zbek tili fanidan uzluksiz majburiy ta'lim tizimining bosqichlari qismi*– unda ta'lim bosqichlari, sinflar va kurslar, fanni o'zlashtirish darajasi va bosqichlar mazmuni aks etgan jadval o'z ifodasini topgan.

4. *O'zbek tili ta'limining maqsad va vazifalari bo'limi*– unda ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat ekanligi uqtiladi.

*O'zbek tili kommunikativ kompetensiyasi* – o'zbek tili bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir, deb ta'rif beriladi va quyidagi guruhlariga ajratiladi: *lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya*. O'zbek tilidan *muloqot malakasini egallash (kommunikativ kompetensiya)* hamda *til materialini va vositalarini nutqda qo'llay bilish uchun yetarli bilimlarni o'zlashtirish (grammatik kompetensiya)* ham tavsiflanadi. Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda vazifalar sanab ko'rsatiladi. A1, A2 darajalar uchun majburiy minimal ta'lim mazmuni jadvallarda aniq ko'rsatilgan, O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida berilgan.

*Ta'lim muassasalari o'zbek tili ta'limi o'quv dasturida* quyidagilar o'z ifodasini topgan:

**1. Uqtirish xati** – unda o'zbek tili ta'limining bosh maqsadi: o'zbek tili mashg'ulotlari o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratishdan iboratligi uqtiriladi.

**2. O'zbek tili fanining tarkibiy qismlari bo'limi** – unda o'zbek tili ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalar batafsil yoritilgan.

**3. O'zbek tili o'qitishning asosiy vositalari bo'limi** – unda o'qitish vositalari ikki bosqichga ajratilib ko'rsatiladi: a) ilk bosqich – shu dastur asosida yaratiladigan darsliklar va o'zbek tili bo'yicha lug'atlar; b) ikkinchi bosqich – “O'zbek tilidan so'z yasash lug'ati”, o'zbek tilidagi ensiklopediya, o'zbek tili mashg'ulotlarida og'zaki va yozma tasvir uchun izohli albom, ishlatilishi lozim bo'lgan zarur so'zlar berilgan rasm-tasvirlar va h.k.lar bilan to'ldiriladi.

**4. Ta'lim usuli qismida** ta'lim usuli asosan induktiv ekanligi uqtiriladi.

**5. O'zbek tilidan dastur va darsliklarning nazariy-amaliy asoslari qismi** – unda maktabda o'zbek tili o'qitishning asosiy mazmun-mohiyati hozirgi kun ta'limi maqsadlariga monand tuzilgan Davlat ta'lim standarti, dastur va darsliklarning nazariy-amaliy asoslari belgilanganligi uqtiriladi.

**6. Har bir sinf va kurslar bo'yicha ona tili bo'limlari taqsimoti berilgan qismda** mavzular va ular uchun ajratilgan soatlar miqdori aniq ko'rsatib berilgan.

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining “o'zbek tili” darsliklari* davlat ta'lim standartlari talablariga mos, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan fanning o'quv dasturi asosida mavzularni to'liq yoritgan va fanning asoslarini o'rganishga yordam beruvchi nashr hisoblanadi. Maktabda o'rganiladigan barcha sinflar uchun yaratilgan darsliklar bir-biriga bog'liq holda tuziladi va ta'limning uzviyligiga amal qilinadi. Darslik davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Darslik nafaqat bilim va ma'lumot beruvchi, balki o'quvchini o'ziga jalb etadigan, qiziqtiradigan noyob kitob bo'lishi shart. O'zbek tili darsligi – ta'limning muhim vositasi. Uning zimmasiga, asosan, quyidagi vazifalar yuklatiladi:

– o'zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki va yozma shakllaridan keng va to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berish;



– o'quvchilarni o'zbek tilida to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, imlo va punktuatsiya qoidalari bilan qurollantirish;

– fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish yo'llari bilan tanishtirish;

– muayyan bir xabar yoki ma'lumotni turli shakllarda berish usullarini o'rgatish;

– o'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani tarbiyalash.

O'zbek tili darsliklarida berilgan nazmiy va nasriy matnlarda milliy tafakkur, milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar, sharqona odob-axloq namunalari aks etishi kerak. «Eski qolipda bo'lgan darsliklardan, eski mafkuradan xalos bo'lmasdan, o'quvchilarimizni yangicha fikrlashga o'rgata olmaymiz», degan edi Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'z nutqida.

O'zbek tili darsligida o'zbek tili ta'limining maqsadi voqelanadi. Modomiki, maktab o'zbek tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarni ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish ekan, bu maqsad darslikda o'z ifodasini topadi.

O'zbek tili darsliklari bosqichli ketma-ketlik tamoyilida tuzilgan bo'lib, tilshunoslik bo'limlari o'zaro zich aloqadorlikda berilgan. O'zbek tili darsligi materiallari xususiylikdan umumiylikka qarab boradi.

Darslik o'quvchi uchun bilim manbai bo'lsa, o'qituvchi uchun asosiy o'quv qo'llanma sanaladi.

O'zbek tili darslarida o'quvchi mustaqil izlanib, mustaqil hukm va xulosalar chiqarmas ekan, yodlab hosil qilingan bilimlar amaliyotga tatbiq etilmay qolaveradi. Aksincha, xususiylikdan umumiylikka qarab borilganda esa umumiylikning xususiy voqelanishi cheksiz bo'lganligi sababli, bunday faoliyat o'quvchini doimiy izlanishga, qiyoslash, ajratish va farqlashga undaydi.

Tilshunoslik fani yutuqlari darsliklarga bevosita kiritilmasdan, amaliyot nuqtayi nazaridan olimlar, metodistlar va o'qituvchilar sinovidan o'tkazilib, eng foydali deb topilgan usullargina maktab ta'limiga tatbiq etilishiga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd qilindi. Tizimli tilshunoslikka asoslangan metodikada asosiy e'tibor shakl va mazmun uyg'unligiga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni oshirishga qaratildi.

An'anaviy ta'limda imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi quyidagi uch maqsadga xizmat qildi: a) savodxonlik; b) to'g'ri va chiroyli yozish; d) yozma nutqni rivojlantirish.

Yangilangan o'zbek tili ta'limi mazmuniga asoslangan, zamonaviy o'zbek tili o'qitish metodikasi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- soʻz boyligini oshirish va boyitish;
- mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish;
- nutqiy mahoratni shakllantirish;
- mustaqil matn yaratish malakasiga ega boʻlish.

Taʼlim tizimida kuzatish, taqqoslash, til hodisalarini guruhlash, umumlashtirish, ular orasidan nutqiy vaziyatga mosini tanlash va oʻz nutqida qoʻllash kabi aqliy faoliyat usullari talabadagi diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy fikrlash kabi xususiyatlarni shakllantiribgina qolmay, qinchiliklardan qoʻrqmaslik, uni mustaqil bartaraf etish, madaniy muloqot kabi ijobiy xislatlarning paydo boʻlishida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi eʼtirof etildi.

Oʻzbek tili taʼlimi mazmunining yangilanishi, til oʻqitish metodikasining oldiga ham dolzarb masalalarni qoʻydi. Shuni hisobga olgan holda, Respublika xalq taʼlimi vazirligi Oʻzbek tili doimiy ilmiy-metodik anjumanining (OʻTDA) birinchi yigʻinida: «Oʻzbek tili mashgʻulotlari oʻquvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki va yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalash koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim...»ligi taʼkidlab oʻtildi.

Bugungi kunda darsliklarning yangi avlodi yaratilmoqda:



Oʻquv dasturi tegishli DTS hamda oʻquv rejasiga tayanib yuzaga keladigan muhim davlat hujjatidir. U DTSni amalga oshirishda tayanch manba hisoblanadi. Butun oʻquv jarayoni ana shu davlat hujjatiga tayangan holda tashkil etiladi. Dastur talabalar oʻzlashtirishi lozim boʻlgan bilimlar hajmini, ogʻzaki va yozma nutq malakalarining egallanishi lozim boʻlgan darajasini belgilab beradi. U oʻzbek tili taʼlimining maqsadi, vazifalari va mazmunini muayyanlashtiradi.

Akademik litseylarning oʻquv rejalariga muvofiq aniq va tabiiy fanlar yoʻnalishida oʻzbek tili fanining miqdoriy koʻrsatkichlari

quyidagicha: «Davlat tilida ish yuritish» (40 soat), «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (176 soat), «Nutq madaniyati» (32 soat).

Ijtimoiy – gumanitar va xorijiy tillar yo'nalishida «Davlat tilida ish yuritish» (40 soat), «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (216 soat), «Eski o'zbek tili» (72 soat), «Nutq madaniyati» (32 soat) predmetlari ko'zda tutilgan. Ularga tegishli miqdordagi soatlar ajratilgan. Kasb - hunar kollejarida o'zbek tili darslari uchun 40 soat ajratilgan.

Dastur akademik litseylarning har bir bosqichi uchun alohida talablar tizimini ko'zda tutadi. Unda o'zbek tilining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishning hajmi, mazmuni va izchilligi ko'rsatilgan.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» dasturida amaliyot va nazariyaning uzviy aloqadorligini hisobga olgan holda xorijiy tajribalarga asoslanib, N–nazariya hamda A–amaliyot rukni ostida tegishli materiallar berildi.

Dasturda akademik litseylardagi o'zbek tili o'qitishning asosiy vazifalari qo'yidagicha ko'rsatilgan:

- o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish;
- fikrni og'zaki va yozma shaklda o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda to'g'ri ifodalash;
- bir ma'noni turli shakllarda bera olish ko'nikmasini shakllantirish;
- o'zbek tilining ichki tuzilishi va tuzilish birliklari yuzasidan umumiy o'rta ta'limda olgan bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish;
- orfografiya va punktuatsiya qoidalarini singdirish;
- ish qog'ozlarini yurita olish ko'nikmasini shakllantirish;
- turli fanlarni o'rganishda o'zbek tilining ahamiyatini ta'kidlash.

1960-80 yillarda jahon tilshunosligi fani, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida «til-me'yor-nutq» munosabatlari o'rnatilib, til va nutqni farqlab o'rganadigan, tizimiy tilshunoslikka asoslangan yangi metodikaga asos solindi. Til metodikasidagi tizimli yaxlitlik ta'lim mazmunini yangilashga qulaylik tug'dirdi. Til, uning bo'limlari – fonetika, leksikologiya, grammatikaning amalda tizimli ravishda yaxlitlikda qo'llanishi, bilim, ko'nikma, malakalarni yaxlit bir butunlikda shakllantirish bilan birga olib borilishi til o'qitish metodikasi fanida muhim rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etdi.

Til materiallarini o'zlashtirishda o'zbek tili metodikasining eng muhim talablaridan biri til sathlarining alohida-alohida emas, balki o'zaro uyg'unlikda, yaxlitlikda o'rganilishidir. Buning uchun leksikologiya (so'zshunoslik) har bir til sathining tarkibiy qismiga aylanishi, ya'ni fonetika, morfologiya, so'z tarkibi hatto sintaksisni o'rganishda ham so'z boyligini oshiruvchi o'quv-topshiriqlaridan foydalanishning mahsuldorligi,

DTS talablarida qayd etilgan kommunikativ savodxonlikning, nutqiy mahohiyatning shakllanuviga olib kelishi, zamonaviy til o'qitish metodikasida tan olingan interfaol metodlardan kam emasligi barchaga ma'lum.

Erkin, jadal fikrlashni o'rganishda so'z qoliplari ustida ishlashning imkoniyatlari ham benihoya keng (bu haqida keyinroq so'z yuritiladi).

Turg'un iboralar ma'nosini, so'zlar etimologiyasini bilish yoshlar uchun o'ta qiziqarli. O'zbek tili tarixi, uning til boyligi, unda ro'y berayotgan o'zgarishlar, lug'at tarkibida yangi so'zlarning paydo bo'lishi va ma'no nozikliklari hosil qilishi, grammatik qurilishning takomillashib borishi kabi hodisalarni o'zaro aloqadorlikda tahlil qilish yaxshi samara beradi. Iboralarni sharhlash bo'yicha namunalar:

"Qildan qiyiq axtarmoq" – yomon niyat bilan aybi yo'q inson faoliyatidan ayb topmoq; ma'nodoshi: "tirnoq orasidan kir izlamoq".

"Bag'ri tosh" – bemehr, iltifotsiz; ma'nodoshi: "tosh yurak", "ko'ngli qattiq". "Bahri-dili ochildi" – kayfiyati yaxshilandi; ma'nodoshi: "dimog'i chog' bo'ldi, "ko'ngli yozildi"... v. h.

Fanlararo bog'lanish turli ta'lim bosqichlaridagi o'zbek tili darsliklarida (o'quv topshiriqlari tizimida) ko'proq o'z yechimini topishi dardkor.

Aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlardan matnlar tanlash, boshqa o'quv fanlariga oid atamalardan foydalanib, kichik matnlar yaratish, berilgan matndan tilga oid atamalar, o'z va ko'chma ma'noli so'z, so'z birikmasi, ibora va tasviriy ifoda kabilarni ajratish, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish, so'z ma'nolarini kontekst ichida farqlash ko'nikmalarini singdirish – talabning fikr doirasini kengaytiradi, kommunikativ savodxonlik darajasini oshiradi.

*Lug'atlar – o'zbek tili ta'limining muhim vositasi.* Ta'lim bosqichlari o'zbek tili ta'limining konseptual asoslari sifatida darslik va lug'atlar keltiriladi. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o'stirish omillaridan biri lug'atlar ustida ishlashdir. Lug'atlar o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan qimmatli va boy so'z zaxirasini vujudga keltiradi. O'zbek tili darslarini lug'atsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Lug'at bilim manbai va o'qitish vositasidir. So'z ma'nosini sharhlash, ma'lum bir so'zning imlosini bilib olish, yo'l qo'yilgan imloviy xatoni bartaraf etish, so'z guruhlarini mustaqil davom ettirish, berilgan so'zga ma'nodosh, uyadosh so'zlar tanlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarishda lug'atlar keng foydalaniladi.

**Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

**1. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

1-savol: *“Standart” so‘zining ma’nosini qanday izohlaysiz?*

2-savol: *“Ta’lim standarti” deganda nimani tushunasiz?*

3-savol: *“Davlat ta’lim standarti” qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?*

4-savol: *Kompetensiyaga yo‘naltirilgan DTS qachon yaratildi?*

5-savol: *Standartda tilga olingan tayanch kompetensiyalar haqida nimalarni bilasiz?*

6-savol: *Kompetensiyada tilga olingan fanga doir kompetensiyalar haqida nimalarni bilasiz?*

7-savol: *“Nutqiy kompetensiya” degani nima?*

8-savol: *“Lingvistik kompetensiya” degani nima?*

9-savol: *Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari darsliklarining tarkibi va mazmuni hamda metodik qo‘llanmalar, o‘qituvchi kitoblari to‘g‘risida qanday tasavvurga ega bo‘ldingiz?*

10-savol: *Kasb-hunar kollejlari o‘zbek tili bo‘yicha DTS, dastur va darsliklarning tarkibi va mazmuni haqida qanday ma’lumotga ega bo‘ldingiz?*

11-savol: *5-sinf uchun «O‘zbek tili» darsligi mazmuni haqidagi fikrlaringiz?*

12-savol: *6-sinf uchun «O‘zbek tili» darsligi mazmuni haqidagi fikrlaringiz?*

13-savol: *7-sinf uchun «O‘zbek tili» darsligi mazmuni haqidagi fikrlaringiz?*

14-savol: *8-sinf uchun «O‘zbek tili» darsligi mazmuni haqidagi fikrlaringiz?*

15-savol: *9-sinf uchun «O‘zbek tili» darsligi mazmuni haqidagi fikrlaringiz?*

16-savol: *10-sinf uchun «O‘zbek tili» darsligi mazmuni haqidagi fikrlaringiz?*

1-topshiriq. *Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘zbek tili bo‘yicha DTS tarkibi va mazmuni haqida gapirib bering.*

2-topshiriq. *Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘zbek tili dasturining tarkibi va mazmuni haqida so‘zlang.*

3-topshiriq. *Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘zbek tili darsliklarining tarkibi va mazmuni haqida gapirib bering.*

4-topshiriq. *Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hozirgi o‘zbek adabiy tili va o‘zbek tili bo‘yicha o‘quv-me‘yoriy hujjatlarning tarkibi va mazmunini tushuntirib bering.*

5-topshiriq. "O'quv-me'yoriy hujjatlar, ularni rejalashtirish" deganda nimani tushundingiz, misollar bilan izohlang.

6-topshiriq. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo'raboevalar hammuallifligida yaratilgan 5-sinf uchun «O'zbek tili» darsligini mavzuga doir nazariy ma'lumotlar va mashqlarga qo'yilgan shartlar hamda matni bo'yicha o'rganing, tahlil qiling.

7-topshiriq. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirovlar hammuallifligida yaratilgan 6-sinf uchun «O'zbek tili» darsligini mavzuga doir nazariy ma'lumotlar va mashqlarga qo'yilgan shartlar hamda matni bo'yicha o'rganing, tahlil qiling.

8-topshiriq. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirovlar hammuallifligida yaratilgan 7-sinf uchun «O'zbek tili» darsligini mavzuga doir nazariy ma'lumotlar, mashqlarga qo'yilgan shartlar hamda matni bo'yicha o'rganing, tahlil qiling.

9-topshiriq. M. Qodirov, H. Ne'marov, M. Abdurayimova va R. Sayfullayevalar hammuallifligida yaratilgan «O'zbek tili» darsligini mavzuga doir nazariy ma'lumotlar va mashqlarga qo'yilgan shartlar hamda matni bo'yicha o'rganing va tahlil qiling.

10-topshiriq. N. Mahmudov, A. G'ulomov, R. Sayfullayeva va M. Abdurayimovalar hammuallifligida yaratilgan 9-sinf uchun «O'zbek tili» darsligini mavzuga doir nazariy ma'lumotlar va mashqlarga qo'yilgan shartlar hamda matni bo'yicha o'rganing va tahlil qiling.

11-topshiriq. Berilgan rasmlı topshiriq asosida yangi elektron topshiriqlar tayyorlang.

III. Bilimingizni sinab ko'rish maqsadida quyidagi testlarni yeching

#### TESTLAR

1. Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda talaba va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ... dir.

A. Ta'lim prinsiplari B. Ta'lim standartlari. D. Ta'lim turlari. E. Ta'lim usullari

2. Ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarida eng maqbul darajati tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har bir turlariga va natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llangan qoidalar, tavsiyalar, talablar, usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjat qanday nomlanadi?

A. Standart. B. Reja. D. Qaror. E. Strategiya

**3. O'qitish muddatini hisobga olib, kasbga (mutaxassislikka) muvofiq ravishda sikllar, fanlar ro'yxati va hajmining davlat miqyosini belgilovchi hujjat. U o'quv darslarining maksimal hajmini va ishchi o'quv hujjatlarini ishlab chiqishda o'quv muassasalarining mustaqillik darajasini aniq belgilaydigan hujjat nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**

A. Ishchi dastur. B. Ishchi reja. D. DTS. Konspekt.

**4. DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashrga nima deyiladi?**

A. Darslik. B. Dastur. D. O'quv dasturi. E. O'quv qo'llanma.

**5. Yangilangan o'zbek tili ta'limi mazmuniga asoslangan, zamonaviy o'zbek tili o'qitish metodikasi qaysi maqsadlarni ko'zlaydi?**

A. So'z boyligini oshirish va boyitish; mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish; nutqiy mahorartni shakllantirish; mustaqil matn yaratish malakasiga ega bo'lish.

B. Faqat so'z boyligini oshirish va boyitishnigina ko'zlaydi.

D. Nutqiy mahorartni shakllantirish va mustaqil matn yaratish malakasiga ega bo'lish maqsadlarini ko'zlaydi.

E. Mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishni ko'zlaydi.

**6. Kompetentlikka qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?**

A. Shaxsning o'zlashtirgan muayyan bilim, ko'nikma va tajribasining ijtimoiy-kasbiy sohadagi aniq vaziyatlardagi muammo va vazifalarni yechishga qodirlik darajasi, yaroqliligi. B. shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati. D. Shaxsning o'rgangan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olishi. E. Shaxsning o'rgangan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olishi.

**7. O'quv-metodik majmualarga qo'yilgan talablar soni nechta?**

A. 5ta. B. 4ta. D. 7ta. E. 10ta

**8. O'quv-metodik majmualarga qoyilgan talablar qaysi qatorda to'liq berilgan?**

A. Gigiyenik, estetik, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik, didaktik talablar. B. Estetik, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik, didaktik talablar. D. Pedagogik, psixologik, ilmiy-metodik, didaktik talablar. E. Pedagogik, psixologik, ilmiy, metodik, didaktik talablar.

**9. Qanday talabga didaktik talab deb aytiladi?**

A. Imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi va matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sir o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi lozim.

B. Bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta'minlanishi lozim. D. Rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq ifodalanishi lozim. E. Durcha javoblar birgalikda to'g'ri.

**10. Kompetensiyaga yo'naltirilgan davlat ta'lim satandartining loyihasi qachon tasdiqlandi?**

A. 2017 yil aprel. B. 2016 yil aprel. D. 2017 yil avgust. E. 2016 yil avgust

## **MAKTABDA O'ZBEK TILI KURSINING BO'LIMLARINI O'QITISH METODIKASI**

### *Tayanch tushunchalar:*

*o'zbek tili darslari, muqaddima, izchil kurs, muqaddima va izchil kursga ajratish sabablari, "Muqaddima"ning o'qitilish sabablari, "Izchil kurs"ning tarkibiy qismlari, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, standart darajalari, darajalanish.*

*O'zbek tili kursining "Muqaddima" va "Izchil kurs"ga ajratilish sabablari.*

Ma'lumki, V – IX sinflarda o'zbek tili o'quv materiallari bosqichli kotma-ketlik, shakl va mazmun aloqadorligi, tilshunoslik bo'limlarining o'zaro zich bog'liqligiga asoslangan holda berilgan. Bitta eng oddiy sodda yig'iq gapda tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik qurilishiga oid barcha hodisalarni kuzatish mumkin. Modomiki, shunday ekan, o'quvchilarni tildan yaxlit bir tizim sifatida foydalanish, matn ustida ishlash, fonetik, leksik, morfologik hodisalarni nutqda qo'llashga o'rgatuvchi umumlashtiruvchi bo'lim zarurdir.

"Muqaddima" bo'limi o'quvchilarni tilning sintaksis va punktuatsiya, mustaqil va yordamchi ma'noli so'zlar, so'z tarkibi yuzasidan zaruriy bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi. Bu qism til, uning barcha bo'limlari, vosita va birliklari o'zaro uzviy bog'langanligini, ma'lum bir fikrni ifodalashda tilning ko'p vositalarga egaligini tushunishga, uning mohiyatini anglashga yordam beradi. O'quvchi mazkur bo'limni o'rganish natijasida tilni yaxlit bir hodisa sifatida qabul qiladi. Shuning uchun bo'laklarni butunga aylantirishdan ko'ra butunni bo'laklarga ajratish oson. Shu bois bir butunlikni tashkil etgan "Muqaddima" bo'limi o'rganilgandan keyin



tilning fonetikasi, leksikasi va morfologiyasini o'rganish ancha osonlashadi.

Aytish mumkinki, "Izchil kurs"da o'rganiladigan masalalar tilning barcha sathlari uchun kirish vazifasini bajaradi. O'quvchilar "Muqaddima"da har bir bo'limga oid dastlabki ma'lumotlarni bilib olish va boshlang'ich sinflarda o'qitilgan til sathlariga oid bilimlar bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Boshlang'ich sinflarda o'rganilganlarni qayta eslaydilar va ularni chuqurroq tushunib olishga erishadilar. Bu esa keyinroq o'rganiladigan til sathlariga oid to'liq va mufassal bilimlarni yaxshi, izchil bilib olish uchun kalit vazifasini o'taydi. Demak, "Muqaddima" va "Izchil kurs"larga bo'linishda boshlang'ich sinflarda o'tilgan til sathlariga oid bilimlar keyin o'tiladigan til sathlariga oid bilimlar bilan bog'lanadi. "Izchil kurs"ning alohida berilishi, nomlanishidan ham ko'rinib turbdiki, o'zbek tili bo'limini izchil o'rganishni ta'minlaydi.

**"Muqaddima" va "Izchil kurs"ni o'rganishning maqsad va vazifalari.**

"Muqaddima" bo'limi o'quvchilarni sintaksis va punktuatsiya, fonetika, mustaqil hamda yordamchi so'zlar va leksikani alohida-alohida bo'lim sifatida o'rganish uchun dastlabki zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

O'quvchi "Muqaddima" bo'limi orqali o'zbek tilidan o'rganiladigan bilimlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini, har bir mavzu bir halqa bo'lib, bu halqalar bilim zanjirini hosil qilishini uqib olishi shart. O'quvchi har bir mavzuni puxta o'rganishi kerak. Bilim, malaka va ko'nikmalar halqalardan iborat zanjirga o'xshashini, har kun olinadigan yangi bilim halqalari oldingi halqalarga bog'lanishi lozimligini o'quvchi teranroq anglab yetmog'i lozim.

"Sintaksis" bo'limini o'rganishda eng muhim masalalardan biri "kesim – gap markazi" degan tushunchani o'quvchilar ongiga singdirishdir. Buning uchun ular *bordi, yozdik, oladilar, bajaramiz* singari so'zlarni tanlab, bu so'zlarni shaxslar bo'yicha tuslab, shaxsga ishora qiluvchi qo'shilmani aniqlaydilar (masalan, *o'qidim – men o'qidim*), so'z o'zagiga shaxs, son, zamon qo'shimchalarini qo'shib, kesimlar hosil qiladilar, shaxs olmoshlarining ma'nolarini tushuntiradilar.

Ikkinchi bosqichda egani aniqlash va ularni sodda yig'iq gaplarga, uchinchi bosqichda ikkinchi darajali bo'laklar qo'shish orqali sodda yoyiq gaplarga aylantirish ustida ish olib boriladi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

1-savol: *Nima sababdan o'zbek tili kursi "Muqaddima" va "Izchil kurs"ga ajratilgan?*

2-savol: *"Muqaddima" kursi o'qitilishining asosiy sabablari nimalardan iborat?*

3-savol: *"Izchil kurs" qanday tarkibiy qismlardan iborat?*

4-savol: *"Izchil kurs" deganda nimani tushunasiz?*

5-savol: *Tilshunoslikning qaysi bo'limlari izchil kursda keng o'rinni egallagan?*

6-savol: *"Nutqiy kompetensiya"ni misol asosida tushuntiring.*

7-savol: *"Lingvistik kompetensiya"ga misollar keltiring.*

8-savol: *5-sinf uchun «O'zbek tili» darsligi mualliflari kimlar?*

1-topshiriq. *Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili bo'yicha DTSi "Muqaddima" qismini o'rganing.*

2-topshiriq. *Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili dasturining "Muqaddima" qismini o'rganing.*

3-topshiriq. *Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "O'zbek tili" darsligi "Muqaddima" qismini o'rganing.*

4-topshiriq. *"Muqaddima" kursidan bitta mavzuni tanlang va unga dars ishlanmasi tayyorlang.*

### **FONETIKANI O'QITISH METODIKASI. UNING GRAFIKA, ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA BO'LIMLARI BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI**

#### *Tayanch tushunchalar:*

*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, talaffuz me'yorlari, harf, tovush, fonema, imlo, alifbo, alifbo tartibi, imlo qoidalari, unlilar imlosi, undoshlar imlosi, bo'g'in ko'chirish qoidalari, urg'u, so'z urg'usi, gap urg'usi, imlo savodxonligi, mantiqiy urg'u, bosh harflar imlosi, fonetik o'zgarishlar, tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi, fonetik hodisalar, nutq, matn.*

**Maktabda "Fonetika" bo'limini o'qitishning maqsad va vazifalari.**

"Fonetika" bo'limi 5-sinfda o'rganiladi va u tilning tovushlar tizimini o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga unli va undosh tovushlar, ayrim unlilar va ayrim undoshlarning imlosi, alifbo tartibi, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo'g'in, urg'u singarilar xususida ayrim zaruriy ma'lumotlar berilgan. Ammo 5-sinfda "Fonetika"ni yaxlit, bir butun bo'lim sifatida

o'qitish ko'zda tutiladi. Mazkur bo'lim o'z zimmasiga quyidagi vazifalarni oladi:


- o'quvchilarni adabiy talaffuz me'yorlariga o'rgatish;
- imlo savodxonligini oshirish maqsadida ularni zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar silsilasi bilan qurollantirish;
- so'z zahirasini oshirish; so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini rivojlantirish;
- badiiy o'qish malakalarini takomillashtirish;
- fonetikadan fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy - amaliy ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarda turli lug'atlar va ma'lumotnomalar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish.

“Fonetika” bo'limining izchil kursi “Talaffuz va imlo”, “Nutq tovushlari va harflar”, “*ng* tovushining talaffuzi va imlosi”, “*x* va *h* tovushlarining talaffuzi va imlosi”, “*f* tovushi va harfi”, “*j* tovushi va harfi”, “Unlilar talaffuzi va imlosi”, “Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi”, “Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi”, “Tutuq belgisi, uning talaffuzi va imlosi”, “Bo'g'in” singari mavzularni o'z ichiga oladi.

“Talaffuz va imlo” mavzusini o'rganishda asosiy e'tibor nutq tovushlarining ma'no farqlashdagi ahamiyatiga qaratiladi. O'quvchilarga berilgan so'z juftlari (mas., *bir-ber*, *bor-bur*; *tor-dor*)ni o'qib, ularning bir-biridan yozuvda va talaffuzda farqlanayotganligini aniqlash, bu haqida tegishli xulosa chiqarish, so'zlarni o'qib, ularning ma'nolarini izohlash, ikki undosh orasiga turli unlilarni qo'yib o'qish va so'z ma'nosidagi o'zgarishni tushuntirish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarishni topshirish mumkin. Darslikda berilgan “Nutq” matni (*166-mashq*) ana shu egallangan malakalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'quvchilarga matnni o'qish va uning mazmuni asosida tuzilgan savollarga (mas: *Nutq nima?*, *Nutqning qanday shakllari bor?*) javob topish vazifasi beriladi.

“Nutq tovushlari va harflar” mavzusini o'tishda o'qituvchi ayrim so'zlarni o'quvchilar diqqatiga havola etib, bu so'zlardagi tovushlarning talaffuzini qiyoslash, unlilar va undoshlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning talaffuzida ishtirok etadigan nutq a'zolarini belgilashni topshirishi mumkin. Kuzatishlar asosida o'quvchilar nutq tovushlarini hosil qilishda o'pka, tovush paychalari, bo'g'iz, og'iz bo'shlig'i, til, lablar, tishlar, pastki va yuqori jag'lar, burun ishtirok etishini aniqlaydilar. Shu o'rinda tovushlarning hosil bo'lish o'rinlari aks ettirilgan rasmlar yordamida yuqorida tilga olingan nutq uzvlarining qaerda joylashganligi va tovushlarning qaerda hosil bo'layotganligi aniqlanadi.

## Nutqning paydo bo'lishi



O'quvchilar nutq tovushlari xususida zaruriy bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirilgach, tovushning yozuvdagi aksi-harf haqida ma'lumotga ega bo'ladilar va "Alifbo" mavzusi o'rganiladi. Bu mavzuni o'rganishda boshlang'ich sinflarda egallangan bilimlar takrorlanadi; alifboni yoddan bilishning ahamiyati xususida savol-javob o'tkaziladi va berilgan so'zlarni alifbo tartibida tez joylashtirish bo'yicha musobaqalar tashkil etiladi. Mazkur mavzuni o'rganishda, ayniqsa, lug'atlar bilan ishlashga alohida e'tibor berishga tug'ri keladi. Zero, 5-sinf o'quvchisi "Imlo lug'ati" dan zarur so'zni yarim daqiqada topa olishi lozim.

Mashg'ulot "Alifboni yoddan bilish nega zarur?" mavzusida matn yaratish bilan yakunlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Unli va undosh tovushlar" mavzusini o'rganishda o'quvchilarning egallagan bilimlariga asoslangan holda quyidagi savollar o'rtaga tashlanadi:

1. *a, i, e, o, u, u* tovushlarining talaffuzi *b, v, g, d, z, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x* singari tovushlarning talaffuzidan qanday farq qiladi?

2. Qaysi tovushlar faqat ovozdan, qaysilari ovoz va shovqinning ishtirokidan va qaysilari faqat shovqindan iborat?

Unli va undosh tovushlarni o'rganishda asosiy e'tibor o'quvchilarning imlo savodxonligini yaxshilash, ularning so'z boyligini

oshirish, soʻz maʼnolarini farqlash, undan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish malakalarini kengaytirish, talaffuz meʼyorlarini shakllantirish ustida ishlashga qaratiladi.

Unli tovushlar va ularning imlosi xususida oʻquvchilarda zaruriy bilim, malaka va koʻnikmalar hosil qilish maqsadida matndan *a, i, oʻ, u, o, e* harflari ishtirok etgan soʻzlarni ajratish, ularning talaffuz xususiyatlarini sharhlash; *i-e, u-u, i-u, a-o* singari tovush juftlari bilan farqlanuvchi soʻzlar topish va ularni izohlash; birinchi boʻgʻinida *u*, ikkinchi boʻgʻinida *u* yoki *i* kelgan soʻzlar talaffuzi, imlosi va maʼnosi ustida ishlash (urushurish, tushum-tushim kabi); *i-u* tovushlari (harflari) tushib qoladigan soʻzlar roʻyxatini tuzish; *k, g, x, x* tovushlari (harflari) va *k, g, y* tovushlari (harflari) bilan yonma-yon kelgan *a, i, u* tovushlarining talaffuz xususiyatlari ustida ishlash; matnda *o, e* tovushlari ishtirok etgan soʻzlarni ajratish va tovush hamda harf orasidagi munosabatlarni izohlash; *o-a* bilan farqlanuvchi soʻz juftlari (ana-ona, ata-ota kabi) tanlash, ular ishtirokida gaplar tuzish, *i, e* harfi bilan farqlanuvchi soʻz juftlari tuzish (*ish-esh, bil-bel, tish-tesh kabi*), ular ishtirokida gaplar tuzish singari ishlar koʻzlangan maqsadga erishishning eng samarali usulidir.

#### **Fonetikani oʻrganishda soʻz boyligini oshirish imkoniyatlari.**

Soʻzlash, eshitish, (koʻrish) oʻqish, yozish vositasida fikr tushuniladi. Bularning barchasi nutq deyilib, u yozma va ogʻzaki koʻrinishlarda boʻladi. Nutqning oʻziga xos vositalari, birliklari, ularni ishlatish qonun-qoidalari va meʼyorlari bor.

Oʻzbek tilini oʻrganishda nutqiy meʼyorlarni tarbiyalash va roʻyobga chiqarish, “til – meʼyor – nutq” tushunchalarini aniqlab olish zarur. Til – maʼlum bir soʻzlar, qoʻshimchalar, ularning oʻzaro birika olish imkoniyatlari va birikish natijalari haqidagi qonun-qoidalar majmuyi boʻlib, fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqarish omillarini oʻrgatadi.

Meʼyor – til imkoniyatlaridan foydalanish koʻrsatkichlari majmuyi. Uning oliy koʻrinishi milliy adabiy til uslublari, mezonlarida oʻz aksini topadi. Milliy adabiy til muayyan bir uslubiy koʻrinishda yuzaga chiqadi.

Nutq – tafakkur mahsuli. Fikrni bayon qilish tafakkur va til orqali amalga oshadi. Tafakkur qancha rivojlangan, talabaning ogʻzaki va yozma fikr bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori boʻladi. Oʻzbek tili mashgʻulotlari nutq sanʼatini egallash va undan samarali foydalanish bilim koʻnikma va malakalarini tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat ham shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishdan tortib, kimga, nimaga, qachon, qaerda, qanday soʻzlashgacha boʻlgan muomala – muloqot sirlarini oʻrgatadi. Shuningdek,

sharqona odob – andisha, go‘zal qiroat san‘ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Fonetika (grekcha *pohne* — tovush) nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, talaffuzi, imlosi, tasnifi, harf va yozuvning o‘zaro munosabati, bo‘g‘in va bo‘g‘in ko‘chirish, so‘z urg‘usi xususiyatlari haqidagi fan. Unda nutq tovushlari – so‘zlarning, qo‘shimchalarning eng kichik bo‘lagi *to v u s h* va uning talaffuzi o‘rganiladi. Akademik litseyda bu bo‘lim takrorlash va fonetik hodisalarning uslubiy tomonlariga e‘tibor qaratish bilan boshlanadi. Bunda berilgan so‘zlardagi tovushlar talaffuzi qiyoslanadi, unli va undoshlarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tovushlar talaffuzida ishtirok etadigan nutq a‘zolari belgilanadi. Berilgan so‘zlarga tovushdosh (*tosh, tish, tush, to‘sh* kabi), shakldosh (*tosh* – suvda erimaydigan qattiq tog‘ jismi, ot; *tosh*– sakkiz chaqirimga teng masofa, ot: bir toshdan ortiq yo‘l bosdi kabi); fe‘l – toshmoq, qirg‘oqdan chiqib ketmoq; toshbag‘ir – “ko‘ngilchan”, “ko‘ngli bo‘sh” kabi zid ma‘noli so‘zlar topib, ma‘nolarini sharhlaydilar.

Unli va undosh tovushlar ustida ishlashda o‘quvchilar *u – o‘, i – u, a – o, k – g, s – z, t – d, q – g‘* kabi tovush juftlarining talaffuzi va imlosini bilib olib, shu tovushlar ishtirok etgan so‘z ma‘nolarini tushuntiradilar, qiyoslash orqali ma‘no farqlarini izohlaydilar. Chunonchi, birinchi bo‘g‘inda *u, o‘*, ikkinchi bo‘g‘inda *u, i* yoziladigan, qisqa, *i, u* tovushlari tushib qoladigan (to‘lqin, tutun, burun, tizim), jarangli tovushlarning *b – d, x, h, ng, h* kabilarning ishtirokida so‘z birikmalari va gaplar tuzish, o‘quvchi ongiga to‘g‘ri talaffuz hamda to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini singdiradi.

Fonetika bo‘limida, asosan, nutq tovushlari, ularning paydo bo‘lishida ishtirok etuvchi nutq a‘zolarining xizmati, hosil bo‘lish o‘rni va usuli, talaffuz va imlo, bo‘g‘in va bo‘g‘in ko‘chirish, so‘z urg‘usi kabi mavzular ustida bahs yuritilsa-da, uning so‘z boyligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni ravon, go‘zal va ta‘sirchan ifodalash imkoniyatlarini anglash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, talaffuz va imlo masalalariga e‘tiborni qaratish zarur. Masalan: «Unlilar imlosi» o‘rganilayotganda: *o – a, o – i, i – u, u – o‘, i – e, o – e*, tovushlari ishtirok etgan so‘zlardagi tovush va harf orasidagi munosabatlar izohlanadi: *bar – bir – ber – bor – bur – bo‘r: oq – uq – o‘q – yuq; qor – qor – qur – qo‘r; tar – tor – tir – ter – tur – so‘z* juftlarida ma‘no farqlash vazifasidagi o‘yin – topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Tovushdosh so‘zlar qatori tuziladi, ma‘nosi murakkab so‘zlar izohlanadi:

*qir* – ndir, tepalik, lalmi yer; *qur* – bunyod qilmoq, uyni qurmoq; *qo‘r* – olov, o‘tinning cho‘g‘idan hosil bo‘lgan qoldiq. Ko‘chma ma‘no: mol-dunyo, qo‘r- qut...

2. Tovushdoshlar so‘z turkumlariga ajratiladi: *uq* – fe‘l, *o‘q* – ot, *oq* – sifat, *qor* – ot, *tor* – (hajmi qisqa) sifat, *tur*- fe‘l..v.h.

3. Tovushdoshlar ishtirokida so‘z birikmalari va gaplar tuziladi: *Til – dil kaliti, uyga kir, o‘yga botdi, o‘tmi o‘r, markazga ur kabi; Qir– adirlarni oppoq qor qopladi. Tur, to‘rga o‘t. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo* (Maqol)... v.h.

Jarangli undoshlar aksariyat so‘z oxirida kelganda, talaffuzda jarangsizlashadi hamda ayrim hollarda boshqa ma‘nodagi so‘zlarni yuzaga keltiradi:

*bob* – “bo‘lim, qism” ma‘nosida;

*bop* – “yarashiqli, loyiq” ma‘nosida;

*sud* — hukm, mahkama, lavozim v.h.

*sut* – “mahsulot, sigir suti” kabi so‘zlarni qiyoslash va o‘zaro farqlash, ular ma‘nosini sharhlash topshiriqlari, o‘quvchilarda imlo savodxonligini mustah-kamlash bilan bir qatorda so‘z boyligini, nutqiy mahoratini ham oshiradi. Ayni paytda, mana shu so‘zlar ishtirokida ixcham, ijodiy matn yaratish ham mumkin.

Talaffuzda bir-biriga o‘xshash so‘zlarni farqlashda, ularga ma‘nodoshlar, uyadoshlar, zid ma‘noli so‘zlarni topishni talab qiluvchi topshiriqlar berish ham samarali usullardan hisoblanadi. Masalan, *shaxs* va *bahs* so‘zlarining o‘zaro farqini tushuntiring, izohlashda ma‘nodosh, uyadosh va zid ma‘noli so‘zlardan foydalaning.

Namuna: *Shaxs* – ma‘nodoshlari: *shaxs* – inson, odam, banda, kishi ...

*shaxs* – uyadoshlari: *kishi*, *erkak*, *ayol*, *ota*, *o‘g‘il*, *aka*, *uka* ...

*shaxs* – zid ma‘nolilari: *erkak* – *ayol*, *o‘g‘il*-*qiz*, *aka*-*singil*... v.h.

Talabalar topshiriq asosida so‘zdagi nuqtalar o‘rniga *i* va *u* harflaridan birini qo‘yib ko‘chiradilar. Hosil bo‘lgan so‘zlarning ma‘nolarini namunadagidek og‘zaki sharhlashlari va so‘z ma‘nolaridagi farqni tushuntirishlari mumkin:

Namuna: *urish* – fe‘l so‘z turkumi, harakatni bildiradi. *Musht urish, mushlashish*;

*urush* – ot so‘z turkumi, jang, uyushgan qurolli olishuv. M: *Ikkinchi jahon urushi 1939-yilda boshlandi*;

*yumish* – fe‘l, ko‘z yumish, ko‘rmaslikka olish; ko‘zi yumildi; 1. Uxladi (o‘z ma‘no). 2. Ko‘chma ma‘no: Ko‘z yumdi – chin dunyoga ketdi, o‘ldi... v.h. M: *Bu dunyodan ko‘z yumdi*.

*Yumush* – ot so‘z turkumi, ish, mehnat: *Og‘ir yumushni bajardi*...

Unlilar imlosi va talaffuzi ustida ishlashni quyidagi ijodiy topshiriqlar orqali mustahkamlash mumkin.

1-topshiriq. Berilgan soʻzlar maʼnosini sharhlang. Soʻzdagi undosh tovushni almashtirib, yangi soʻzlar hosil qiling. *Il, el, choy.*

*il - in, is, it, ip, ish ...; el, ep, esh, et, en, er, es, ez...;*

*choy - soy, toy, boy, moy, joy, loy, voy ...;*

2-topshiriq. A unlisi bilan boshlanuvchi bir boʻgʻinli soʻzlar qatorini tuzing. *Adl, avj, azm, aql, ark ...* Maʼnolarini sharhlang.

3-topshiriq. U – oʻ tovushi ishtirok etgan juftliklar tuzing: *uz – oʻz, uy – oʻy, un – oʻn, oʻq – uq ...* Maʼnolarini sharhlang.

Grammatik tahlilni DTS talablariga xizmat qildirish uchun til boʻlimlarini oʻzaro aloqadorlikda oʻrganish, uni kommunikativ mavodxonlikni rivojlantirishga yoʻnaltirish maqsadga muvofiq boʻladi.

Shu jarayonda oʻzbek tili taʼlimining boʻlimlararo hamda fanlararo aloqasi natijasi yaqqol koʻzga tashlanadi, tilni tizim asosida oʻrganishning amaliyotga ijobiy taʼsiri samarasi seziladi.

### **Orfografik tahlil tartibi:**

1. Soʻzdagi hamma orfogrammalarni ajratish.

2. Har bir orfogrammaning tipini aniqlash (bunda orfogrammaning oʻzbek tili imlo qoidasining qaysi boʻlimiga tegishli ekanligi aniqlanadi)

3. Yozuvga asos boʻlgan qoidani keltirish

4. Qaysi orfografik prinsipga asosan yozilganligini aniqlash.

### **Orfografik tahlil namunasi**

**Koʻzoynak** – qoʻshma soʻzlar va soʻz birikmalarining yozilish qoidasiga oid. Qoida: «ikkinchi qismi turdosh ot boʻlgan qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi»: *tomorqa, oybolta, oshqozon.*

Koʻzoynak – oʻzak-negiz va qoʻshimchalar imlosi. Qoida: “*q*” yoki “*k*” undoshi bilan tugagan koʻp boʻgʻinli soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda “*q*” tovushi *gʻ, k* tovushi *g* tarzida aytiladi va yoziladi: *qishloq-qishlogʻi, eshik-eshigi.* Bunda – *i* III shaxs egalik qoʻshimchasidir. Soʻz fonetik prinsipga binoan yozilgan.

Orfografik tahlil oʻquvchilarning oʻzbek adabiy tili orfografiyasi boʻyicha olgan bilimlarini toʻldirish va mustahkamlashda katta ahamiyatga egadir.

### **Amaliy mashgʻulot uchun savol va topshiriqlar:**

**I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

**1-savol: “Fonetika” boʻlimini oʻrganish nima uchun zarur?**



2-savol: Nima sababdan "Fonetika" bo'limiga oid mavzular grafika, orfoepia va orfografiya bo'limlari bilan aloqadorlikda o'rganiladi?

1-topshiriq. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili bo'yicha DTSining "Fonetika", "Gragika", "Orfoepiya", "Orfografiya" bo'limlarini o'rganing.

2-topshiriq. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili dasturining "Fonetika", "Gragika", "Orfoepiya", "Orfografiya" bo'limlarini o'rganing.

3-topshiriq. "Fonetika", "Gragika", "Orfoepiya", "Orfografiya" bo'limlarini o'rganing.

4-topshiriq. "Fonetika", "Gragika", "Orfoepiya", "Orfografiya" bo'limlaridan bitta mavzuni tanlang va unga dars ishlanmasi tayyorlang.

5-topshiriq. Ushbu mavzular mundarijasidan kelib chiqib, maktabda "Fonetika" bo'limini o'qitishning maqsad va vazifalari haqida fikringizni ifodalang.

Ma'lumki, bugungi kunda maktab o'zbek tili ta'limida "Fonetika" bo'limining izchil kursi "Tilshunoslik va uning bo'limlari", "Fonetika va grafika", "Nutq tovushi va harf", "Unli tovushlar", "Undosh tovushlar", "Nutq a'zolari", "Lab tovushlari", "Til tovushlari", "Burun tovushlari", "Bo'g'iz tovushi", "Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi", "O'zbek alifbosi", "Talaffuz va imlo me'yorlari", "Unlilar talaffuzi va imlosi", "Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi". "Jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosi", "Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi", "Tutuq belgisining ishlatilishi", "Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi", "Bo'g'in va uning turlari", "Bo'g'in ko'chirish qoidalari", "Urg'u va uning turlari. So'z urg'usi", "Gap urg'usi", "Tovushlarning o'rtirilishi va tushib qolishi" kabi mavzularni o'z ichiga qamrab olgan.

6-topshiriq. "Fonetika"ni o'qitishda o'quvchilarning so'z boyligi ustida ishlash imkoniyatlari haqida o'z tavsiyalaringsizni mustaqil va ijodiy tarzda yozib chiqing. O'zbek tilining "Fonetika" bo'limini o'qitish ham boshqa til bo'limlari singari, avvalo, amaliy maqsadlarni ko'zlaydi. Ana shu amaliy maqsadlardan biri o'quvchilarning so'z boyligini oshirishdir.

7-topshiriq. Xuddi shunday tovushdosh so'zlardan yozib chiqing. Tovushdosh so'zlar ustida ishlash orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirish mumkin. Tovushdosh so'zlar bir-biridan bir tovush bilan farqlanuvchi, turli xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardir. Har bir unli va

undosh tovushning talaffuzi, imlo xususiyatlari o'rganilgach, o'quvchilar berilgan so'zlarga tovushdosh so'zlar tanlashlari va ularning ma'nolarini tahlilashlari mumkin. Masalan, *ber-bur-bor-bur; loy-moy-soy-toy-boy-voy-poy-hoy* v.h.

**8-topshiriq.** Akademik litseyda "Fonetika" bo'limining izchil kursini o'rganish, so'zlarning ma'no nozikligi ustida ishlash xususida fikr yuriting.

Ma'lumki, og'zaki nutqda unli yoki undosh tovushlarni cho'zish vositasida ma'noni kuchaytirish (ka-tta bino, ki-chkina bola, qar-i chol kabi), ishonchsizlikni ifodalash (yo'-q-q, kela-r-r, bora-r-r kabi), yalinish-erkulash (oyijoni-m, buviyo-n kabi) ma'nolarini berish mumkin. O'qil'iylikni ifodalash maqsadida so'z oxirida undoshni qattiq talaffuz etish usulidan foydalanilsa, ishonchsizlik ma'nosini berish uchun oxirgi undosh tovush talaffuzini susaytirishdan foydalaniladi. Masalan, "Yo'qq, yo'qq. U ko'rmadi", - deb qichqirdi bola va "Yo'-q, - dedi ishonchsizlik bilan Salima" gaplaridagi *yo'q* va *yo'qq* so'zlarining ma'nosida farq bor. **Xuddi shunday amaliy jihatlarni toping va yozing.**

**9-topshiriq:** Maktabda "Fonetika" bo'limini o'qitishning asosiy maqsadi nima? Fikringizni og'zaki ifodalang.

(Mehnattan do'st ortar, minatdan yov) محنت تن دوست آرتر ، منت دن یاو ، maqoloni bo'g'inlarga ajrating.

**10-topshiriq:** Nutq tovushlarini o'qitishning metod va usullari haqida loyiha tayyorlang va taqdimot o'tkazing.

(Mehnatti ortida zahmat bor) محنت تی آر تی ده ، زاحت بار ، maqolidagi jurangli undoshlar miqdorini aniqlang. Tushum kelishigi qo'shimchasidagi fonetik o'zgarishni izohlang.

**11-topshiriq.** Fonetika va fonologiya haqidagi tushunchangizni "Venn diagrammasi" orqali ifodalang.

**12-topshiriq:** Tovush hosil qiluvchi organlar haqidagi fikrlaringizni ushbu jadval ko'rinishida ifodalang.

Nutq tovushlarini hosil qiluvchi nutq a'zolarining jami nutq apparati deb yuritiladi	
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashing	

## LEKSIKOLOGIYA VA FRAZELOGIYA BO'LIMLARINI O'QITISH METODIKASI

### *Tayanch tushunchalar:*

*leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, so'zning o'z va ko'chma ma'nolari, ma'no ko'chish usullari, ma'nodosh so'zlar, shakldosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, paronimlar, uyadosh so'zlar, lug'at bilan ishlash, so'z ma'nolarini izohlash, innovatsion texnologiya, leksik tahlil metodikasi.*

### **Leksikologiya va frazeologiya bo'limlarining o'quvchilar nutqini o'stirishda alohida ahamiyatga ega ekanligi.**

Leksikologiya (yunoncha lexis – so'z, logos – fan, ta'limot) so'z haqidagi fan bo'lib, muayyan tilda ishlatiladigan barcha so'zlar shu tilning lug'at boyligini tashkil qiladi. Tilshunoslikning bu bo'limi so'z va uning ma'nolarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Shu sababli, leksikologiya o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishda katta imkoniyatlarga ega. Leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zning grammatik hamda lug'aviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, ma'no ko'chish usullari, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, shakldosh, talaffuzi yaqin, ma'nosi farq qiluvchi – paronim so'zlar, ko'p ishlatiladigan va kam ishlatiladigan so'zlar, tarixiy, shevaga oid, yangi paydo bo'lgan va eskirgan, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi.

Talabalar nutqining go'zalligi, izchilligi, ta'sirchanligi, asosan, ularning lug'at boyligi bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflardan boshlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlarigacha bo'lgan davrda o'quvchilar o'rganadigan so'zlar lug'ati kengaytirilib boradi. Bunda bir qator xususiyatlar e'tiborga olinadi. Xususan:

- so'zlarning amaliy ahamiyati, ya'ni butun ta'lim jarayoni uchun ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar;
- so'zlarning amaliyotda qo'llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo'llanishi;
- so'z ma'nosining to'la tushunilishi, o'rinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi.

### **So'zning o'z va ko'chma ma'nosini o'rganish usullari.**

So'zning o'z va ko'chma ma'nosini o'rganish usullari mavzusini o'rganish jarayonini tahlil qilib ko'ramiz: Topshiriq: quyidagi gaplarni o'qng. O'z va ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni ajrating.

Me'mornikida bir yorqin yulduz o'syapti. U yulduz – Badia, yorqin nur sochadi (Mirmuhsin). Hovlimizda bir gul bor, Uning ismi — Zulxumor, Har o'zbekning hovlisini Gilam kabi gul bezar. (A.Suyun)

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi *gul*, *yulduz* soʻzlarining maʼnolarini aniqlang. Namuna: 1-ustunda berilgan gaplardagi *yulduz*, *gul* soʻzlari “qiz, farzand” maʼnosini beradigan koʻchma maʼnoda qoʻllangan. 2-ustundagi mazkur soʻzlar esa oʻz maʼnosida qoʻllangan. Demak, bir xil shakldagi soʻzlar ikkinchi tur manoda ham qoʻllaniladi va mazkur holat soʻzning koʻchma maʼnosi deb yuritiladi.

2-topshiriq. Gapdagi *gul* va *yulduz* soʻzlarining uyadoshlarini toping. Namuna: *gul* – atirgul, chinnigul, gulsafsar, boʻtakoʻz; *gul*–qiz, farzand, oon, ayol, singil; *yulduz* – sayyora, Yer, Oy, Quyosh, Mars, Yupiter, Neptun; *yulduz* – qiz, goʻzal qiz, tarbiyali, aqli, ilmi qiz...v.h. Bu kabi oʻyin-topshiriqlar oʻquvchilardagi tafakkurni rivojlantiradi, Mustaqil mushohada malakasini chuqurlashtirishga, soʻz boyligini oshirish va boyitishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

“Izchil kurs”ni oʻrganishda – oʻz va koʻchma maʼnoli soʻzlar orasidagi maʼnoviy munosabatlar, maʼno guruhleri (uyadosh, maʼnodosh, gid maʼnoli soʻzlar kabi)ning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi ustida ishlash, til sathlarini bogʻlab oʻrganish orqali lugʻat xazinasini oshirish va boyitishga imkon beradi.

Oʻzbek tili mashgʻulotlarida berilgan mashqlardagi soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari ustida ishlanadi.

Bogʻlarga namozgar salqini tushdi,

Gullar nam bargini qayirdi asta.

Oftob ham suv ichar togʻlardan pastda,

Loladek qip-qizil oʻt – shafaq oʻchdi. (U.Nosir)

Ushbu satrlarda yasama goʻzallik yoʻq, tun bilan kunning oʻzaro almashish daqiqalariga xos belgilarni payqab, tuyub, koʻrib, kun botishi bilan salqin tushishi nozik badiiy boʻyoqlarda, koʻchma maʼnoda tasvirlanadi: «Oftob ham suv ichar togʻlardan pastda...», «Loladek qip-qizil oʻt–shafaq oʻchdi...» kabi.

Matn ustida ishlash mashqlaridan soʻng, oʻquvchilarda mustaqil mushohada malakasini hosil qilish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Hayvon, qush va oʻsimlik nomlari roʻyxatini tuzing. Har bir soʻzni oʻz maʼnosida va koʻchma maʼnoda qoʻllab, soʻz birikmasi va gaplar hosil qiling.

Namuna:

1-ish. *Burgut, arslon, qaldirgʻoch, sher, lochin, ohu, kiyik...v.h.*

2-ish. *Burgutning qanoti, arslon naʼrasi, qaldirgʻochlar qoʻshigʻi, hurkak kiyik, sherning yuragi...v.h.*

3-ish. *Bizning shirin uyqumizni arslonlarning na'rasi buzdi. Burgutning qanoqlari parvoz paytida salkam ikki metrga boradi. Arslon tongda ko'zini ochdi. Uni qaldirg'ochlar galasining vijir-vijiri bezovta qilgan edi.*

I.O'quvchilar hayvon va qush nomlari orqali insonga xos bo'lgan salbiy va ijobiy xususiyatlarni tavsiflash bilan o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ular shaxsni qanday baholash va tavsiflashni so'z birikmasi yoki gap qurish orqali izohlaydilar. Topshiriq javoblari baholangach, madaniy va yovvoyi o'simlik nomlari, poliz ekinlari, uy-ro'zg'or nomlari kabi uyadosh so'zlardan lug'atlar tuzish; ularni o'z va ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar qurish, matn yaratish, so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilganda, qanday ma'noni anglatayotganini tushuntirish talab etilsa, o'quvchining tafakkur doirasi kengayadi, so'zlash mahorati rivojlanadi. Bunda, ayniqsa, badiiy asarlarga tayanish yaxshi samara beradi. O'quvchilar e'tiborini so'z ma'nolarining doimiy yashash joyi – nutq jarayoniga qaratish nihoyatda dolzarb va zaruriydir.

Tilimizda ayrim so'zlar o'zlariga xos xususiyatlariga ko'ra ma'noviy, shakliy, ma'no jihatdan o'xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko'ra ular shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim so'zlar kabi guruhlarga bo'linadi. So'z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko'pqirrali. Shunga erishish lozimki, o'quvchi yangi va notanish so'zga e'tiborsiz bo'lmasin. Uning ma'nosini anglashga, zarur paytlarda o'z nutqida qo'llashga harakat qiladigan bo'lsin.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida sinonimiya hodisasi va uning nutqiy amaliyotini o'rganish uchun maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim amaliyotida xilma-xil shakl va usullar mavjud. Ularning orasida eng keng tarqalganlaridan biri sinonim so'zlar qatorini hosil qilishdir. Buni o'quvchi va talabalar mustaqil ravishda bajarishadi. O'quvchining dunyoqarashi, tasavvur doirasi, tayyorgarlik darajasiga qarab bu qatorlar ancha mukammal yoki ixcham bo'lishi mumkin. O'quvchilar sinonimik qatorlarni tuzish jarayonida yangi so'zlarni o'z lug'at boyliklari sirasiga kiritadilar. Shu bilan birga, hozirgacha nisbatan kam ishlatiladigan so'zlarning faollashishiga ham zamin yaratiladi. Bu xildagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun: berilgan so'zlarga sinonimlarni tanlash; tegishli matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan sinonim so'zlarni ajratib yozish; sinonim so'zlar asosida saylanma diktant o'tkazish; har bir sinonim so'zning ma'no noziklarini izohlash kabi mashqlar bajarilishi mumkin.

Eng oxirgi turkumdagi vazifalar talabalarning yangi so'zlarni o'rganishlari va o'zlashtirishlarida eng ko'p darajada yordam beradi. Bu

jarayondagi mashqlarning turlari juda rang-barang bo'lishi mumkin. Ular orasida sinonimik qatordagi barcha so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni topish asosiy o'rin tutadi. Masalan, *jahl*, *achchiq*, *g'azab*, *qahr*, *zarda* so'zlarini ko'raylik. Bularning hammasini birlashtirib turadigan bosh ma'no nojo'ya xatti-harakat yoki hodisaga nisbatan qo'zg'algan kuchli darajadagi his-tuyg'u va uning ifodasidir.

Mazkur so'zning ma'nolarini aniqlashda "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan foydalanish mumkin:

*achchiq* – "qahr, jahl; zarda".

*Zarda* – ko'chma. "jahl, g'azab, zug'um".

*qahr* – "qattiq achchiqlanish holati"; *g'azab*.

*g'azab* – kuchli darajada nafratlanish, achchiqlanish hissi, *qahr*, *jahl*.

Keyingi bosqichda shu qatordan barcha so'zlar uchun umumiy bo'lganlarini (*jahl*, *achchiq*), ulardan belgining darajasi nisbatan kuchli va yuqori bo'lganlarini (*g'azab*, *qahr*) ajratish mumkin bo'ladi.

Ushbu qatordagi so'zlarni ma'noning kuchayib borishi yoki pasayib borishi yo'nalishida joylashtirib chiqish ham topshiriq sifatida yaxshi namuna beradi. Bunda ham o'quvchilar so'z ma'nolari ustida bosh qotirishadi, natijada, mazkur so'zlarning ular ongida mustahkamlanib, nutqlarida faollashib qolishiga imkon yaratiladi.

**Leksikologiya va frazeologiya bo'limlarini o'rganishda so'z boyligini oshirish imkoniyatlari.**

Sinonimlar ustidagi ish jarayonida o'quvchilar so'zlarning faol yoki passiv darajadagi iste'molini («barvasta» oddiy nutqda juda kam ishlatiladi, «gavdali» esa faol qo'llanadi), ularning muayyan yo'nalishdagi chegaralanishi («norg'ul», asosan, yosh, yigit kishilargagina nisbatan qo'llanadi), ayrim hollarda ularning emotsional bo'yoqqa ega bo'lishini («barzangi», asosan, salbiy ma'no tashiydi) anglab yetishadi. Bu sinonimlarni nutq jarayonida qo'llash orqali ham o'quvchilarning sinonim so'zlarga bog'liq bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish imkoniyatlari bor. Ular nutq jarayonida bir so'zning o'rniga boshqasini qo'llab bo'lmasligini, bordi-yu qo'llanganda ham u yerdagi ma'noning boshqacha noziklik bilan yuzaga chiqishini amaliy jihatdan sezib olishadi, ko'rishadi.

Sinonimlar ustidagi ishlar o'quvchilar nutq boyligini oshiradi, ularning bitta ma'noni ifodalashdagi ortiqcha takrorlardan qutulishlariga imkon beradi, fikrni nisbatan aniq, lo'nda va tiniq ifodalashga o'rgatadi. Shuning uchun ham bu jarayonda badiiy adabiyotlarga ko'proq murojaat

etish, o'quvchilarning bevosita izohli lug'atlar ustida ishlashlarini rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari ustida ishlashda ma'nodosh so'zlar guruhlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'nodosh so'zlar – tilimizning leksik boyligi. Undan qancha o'rinli foydalanilsa, fikrni ravon, go'zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, so'zdan to'g'ri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi.

So'zning grammatik shakllari tizimi *paradigma* deyiladi. Paradigma morfologiya bo'limida o'rganiladi. Morfologiyada turkumlanish hodisasi uyadosh so'zlarni o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu hodisani morfologiyada uyadoshlik paradigmatikasi deb atash mumkin.

“Leksikologiya” bo'limi o'tilayotganda quyidagi topshiriqni bajarish yaxshi natija berishi mumkin. “Bir so'zdan o'n so'z yasang”.

#### **O'tinchimiz:**

1. O' –undov so'z
2. O't –o't qopchasi, organizm, fe'l, maysa, olov;
3. O'ti –egalik affiksining qo'shilishi so'z ma'nosini konkretlashtirib, qarashlilikni anglatmoqda.
4. O'tin –narsa nomi
5. O'tinch –shaxs nomiga bog'liq, iltijo, uzr, qattiq iltimos
6. O'tinchi –o'tin tayyorlaydigan odam; uning shaxsiy uzri, iltimosi.
7. O'tinchim –mening iltimosim, mening yalinishim.
8. O'tinchim –menga o'tin tayyorlovchi yoki o'tin olib kelib beruvchi shaxs.

9. O'tinchimi –o'tin tayyorlovchiga ishora, so'roq.

10. O'tinchimiz: 1. Biz hammamiz o'tinchi. 2. Bizning o'tinchimiz– faqat bizga o'tin tayyorlovchi yoki keltiruvchi. 3. Iltimosimiz– oltinchi javob (izoh)dagi ma'no – egalik kategoriyasidagi holati. Bu topshiriqni bajarishda ham ajratilgan qismlarning ma'nosi (lug'aviy ma'nosi)ga hamda grammatik ko'rsatkichlariga diqqat qaratilib, tahlil qilinadi. Bunda tilshunoslik bo'limlari integratsiyasi yuzaga keladi, o'quvchi tafakkuri taraqqiy qilib, nutqi ravonlashadi.

**Leksikografiya bo'limini o'rganishning o'ziga xosliklariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari.**

O'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga o'zbek tilidagi so'zning ma'no va mohiyatini o'rgatishdan, so'zni his etishga yo'llashdan iborat. Bunda so'z ma'nolarini o'zlashtirish va uni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash malakasining hosil qilinishi alohida o'rin tutadi. Buning uchun o'zbek tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida

e'tibor beriladi. Lug'at ustida ishlash o'zbek tili darslaridagi oddiy mashg'ulot emas. Mazkur jarayonda:

✓ o'quvchilarning aqliy va nutqiy jihatdan rivojlanishi ko'zda tutiladi;

✓ dasturda belgilangan ilmiy-nazariy hamda metodik vazifalar bajariladi;

✓ o'quvchilarning aqliy, axloqiy-ma'naviy, badiiy-estetik tarbiyasi amalga oshiriladi;

✓ o'quvchilarning o'zbek tili zamiriga yashiringan sir-u sinoatlar, fuyz-u go'zalliklarni ilg'ab olishiga imkon beriladi.

Shuning uchun ham lug'at ustidagi ish oddiy va tasodifiy mashg'ulotlar bo'lib qolmasligi, balki muntazam va qat'iy rejaga tayanadigan, uzoq va oliy maqsadlarga xizmat qiladigan, uzluksiz tizim tarzida amalga oshishi kerak.

Lug'at ustida ishlaganda har bir so'zning amaliy jihatlariga, amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. Har bir so'zning dunyoni bilish va o'zlashtirishdagi, o'quvchi nutqiy faoliyatidagi muayyan bir xizmatlari bo'lishini ta'minlash shart. Masalan, "elig" degan so'zning qadimda turkiy xalqlar tilida mamlakat hukmdori ma'nosida qo'llangani, uning oddiy so'zlashuv tilida ham, o'z davridagi adabiy tilda ham faol iste'molda bo'lganligini bilish o'quvchiga faqat o'zbek tili darslari uchun emas, balki tarix, adabiyot fanlaridagi tegishli atama, tushunchalar mohiyatini o'zlashtirishlari uchun ham amaliy jihatdan kerak bo'ladi.

So'zlarni tanlashda ularning qo'llanish darajasi ham e'tiborda turishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kam qo'llanadigan, o'quvchining amaliy faoliyatida, deyarli, ishlatilmaydigan so'z emas, balki uning hayotida tez-tez uchrab turadigan so'zlarga ko'proq murojaat qilish o'quvchi nutqiy faoliyatining silliqlashishiga, boyishiga, bu jarayonning tasodifiy kamchiliklardan xoli bo'lishiga kafolat bo'ladi. Albatta, bu jarayonda talabalar qobiliyati hech qachon nazardan chetda qolmasligi kerak. Buning uchun faqat o'zbek tili ta'limidagi uzviylik va uzluksizlik kifoya qilmaydi, balki imkoniyat doirasida boshqa fanlar bilan aloqadorlik nazarda tutilgani ham ishning yutug'iga poydevor bo'la oladi.

Har bir matn, tushuncha, atama ustida ishlashdan tashqari, o'quvchilarga turli-tuman lug'atlardan foydalanishni o'rgatishni ham tizimli tarzda yo'lga qo'yish muhim. O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan so'zlarning umumiy miqdori va hajmi belgilangan bo'lishi, tegishli so'zlarning alfavitli tizimi ishlab chiqilishi ish muvaffaqyatini ta'minlaydigan dastlabki omillardir. O'quvchilar uzviylik va uzluksizlik prinsiplari asosida sinonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, o'zbek tilining



izohli lug'ati bilan tanishtirilib borilishi kerak. O'zbek tilini o'qitishda tilshunoslikning turli bo'limlarini o'rganishda bu ishning o'ziga xos imkoniyatlaridan foydalanish o'rinli bo'ladi. Bu jarayondagi eng muhim bosqich esa so'z ma'nolarini o'zlashtirish bilan aloqador.

Leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zning grammatik hamda lugaviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, ma'no ko'chish usullari, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, shakldosh, talaffuzi yaqin, ma'nosi farq qiluvchi – paronim so'zlar, ko'p qo'llanadigan va kam ishlatadigan so'zlar, tarixiy, shevaga oid, yangi paydo bo'lgan va eskirgan, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi.

O'quvchilar nutqining go'zalligi, izchilligi, ta'sirchanligi, dastavval, ularning lug'at boyligi bilan bog'lik. Boshlang'ich sinflardan boshlab akademik litsey va kasb-hunar kollejarigacha bo'lgan davrda o'quvchilar o'rganadigan so'zlar lug'ati o'rganilishi, ana shu asosda so'zlar tanlanishi zarur. Bunda bir qator xususiyatlar e'tiborga olinadi. Xususan:

➤ so'zlarning amaliy ahamiyati, ya'ni o'quvchilarning butun ta'lim jarayoni uchun ma'rifiy hamiyatga ega bo'lgan so'zlar;

➤ so'zlarning amaliyotda qo'llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo'llanishi;

➤ so'z ma'nosining to'la tushunilishi.

Tilimizda ayrim so'zlar o'zlariga xos xususiyatlariga ko'ra ma'noviy, shakliy, ma'no jihatdan o'xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko'ra ular shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim so'zlar kabi guruhlariga bo'linadi.

So'z ustida ishlash jarayoni mo'rakkab va ko'pqirrali. Shunga erishish lozimki, o'quvchi yangi va notanish so'zga e'tiborsiz bo'lmasin. Uning ma'nosini anglashga harakat qiladigan bo'lsin.

### **Ma'nodosh so'zlar ustida ishlash usullari.**

So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari ustida ishlashda ma'nodosh so'zlar guruhlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'nodosh so'zlar– tilimizning leksik boyligi. Undan qancha o'rinli foydalanilsa, fikrni ravon, go'zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, so'zdan to'g'ri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi. O'quvchilar so'z boyligini oshirishda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash ham katta ahamiyatga ega. Ular nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Ulardan foydalanish usullari xilma- xil. Masalan: Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlar tanlash: katta – ..., xursand – ... , tez – ... , xunuk – ... , oq – ... olmoq – ... , kelmoq – ... kabi. Zid ma'noli so'zlarning ma'nosini sharhash; ma'nosiga ko'ra (kichik, xafa, sekin, chiroyli, qora,

bermoq, ketmoq ...) qavs ichida berilgan soʻzlardan mosini tanlab koʻchirish. – Kecha – kunduz, oq – qora, yosh – qari, katta – kichik kabi juftliklar maʼnosini aniqlash, ular ishtirokida gap tuzish va matn yaratish kabi amaliy ishlar bilan shugʻullanish, shu asosda oʻquvchilar soʻz boyligini oshirish.

Nutqni zid maʼnoli soʻzlar bilan boyitishda xalq maqollarining oʻziga xos oʻrni, vazifasi bor. Oʻquvchilar “Oʻzbek xalq maqollari”, “Aql aqldan quvvat oladi”, “Soʻz koʻrki – maqol” kitoblaridan zid maʼnoli soʻzlar ishtirok etgan maqollarni ajratadilar va maʼnosini sharhlaydilar.

Masalan: “Yaxshidan yetar sharofat, yomondan yetar kasofat”, “Doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib», “Yaxshilardan hargiz chiqmas yomonlik, asli yomon boʻlsa, qilmas yaxshilik”, “Yomonga bosh boʻlguncha, yaxshiga yoʻldosh boʻl”, “Yomondan qoch, yaxshiga quloch ochi” kabi maqollar maʼnosini sharhash, maʼlum bir mavzuga oid maqollar topish va yozish ham qiziqarli, ham samarali usullardan biridir.

Berilgan maʼnodoshlarga zid munosabatda boʻladigan qator hosil qilish ham soʻz boyligini oshirishda yaxshi foyda beradi. Namuna: *Bu ertakni barcha oʻqishi kerak. – Bu ertakni katta -kichik oʻqishi kerak. Turmush gʻavgʻolaridan xabardor – Turmushning issiq -sovugʻini bilgan kabi.*

Zid maʼnoli soʻzlar koʻprok sifat va ravish soʻz turkumlaridan hosil boʻladi.

Ular: 1) soʻz birikmasi tarkibida: *baland bino – past bino, oq marmar – qora marmar* kabi; 2) butun bir birikmada: *baland boʻyli semiz kekxa ayol – past boʻyli oriqli yosh ayol; qalin muqovali (jildli) katta kitob – yupqa muqovali (jildli) kichik kitob* kabi; 3) baʼzi birikmada zid maʼnoga ega boʻlgan soʻz boshqa birikmada aynan shu maʼnoni bildirmasligi ham mumkin. Solishtiring: *qalin daftar – yupqa daftar*, ammo *qalin soch – yupqa soch* emas, *siyrak soch; issiq havo – salqin havo*, ammo *issiq suv – salqin ichimlik* emas, *sovuq yo muzdek ichimlik* kabi; 4) soʻz zid maʼnoli juftiga ega boʻlmaganda, yasovchi qoʻchimchani qoʻshish bilan zid maʼnoli tushunchalarni ifodalash orqali soʻz boyligini oshirish mumkin: *maʼnoli – maʼnosiz, bemaʼni – bamaʼni* kabi.

Zid maʼnoli soʻzlarning maʼnosi, tuzilishini bilish narsa va hodisalar orasidagi farqni toʻgʻri ajrata olish imkonini beradi.

Soʻzning shakl va maʼnolarini belgilashda ayni bir soʻzning maʼnodoshlari va zid maʼnolilarini kontekstda qiyoslash ham oʻquvchida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga katta yordam beradi. *Sovuq* va *issiq* soʻzlari oʻz maʼnodoshlari va zid maʼnolilariga ega: 1) *issiq havo – sovuq*

*havo*; 2) *qaynoq suv* – *muzdek suv*; 3) *qaynoq hayot* – *sokin hayot*; 4) *tinch mamlakat* – *notinch mamlakat*; 5) *xush xabar* – *noxush xabar* ...

Tovushlar soni va turi jihatidan teng bo'lmasa-da, talaffuzda o'xshash bo'lgan paronimlar shakldoshlarga ko'p jihatdan yaqin turadi. Paronimlarni shakliy, ma'noviy hamda qo'llanishi doirasida quyidagi ma'no guruhlariga ajratish, o'rganish yaxshi natija beradi: 1) bir ikki, ba'zan undan ortiq tovushga ko'ra qisman farqlanuvchi shakliy umumiylikning mavjudligi: *tahlil*– *tahrir*, *matbuot* – *matlubot*, *taqlid* – *taxlit* kabi; 2) paronim juftliklar o'rtasidagi tovush almashtirish va ma'no munosabatining turli xilligi: *arosat* – *asorat*, *arg'uvon*–*armug'on* kabi; 3) leksik ma'nolarida umumiy semantik qirralar mavjudligi: *tanglay* – *manglay*, *kift* – *kaft*, *jiyron* – *jayron* kabi;

– leksik ma'nolari nisbatan yaqinligi, o'xshashligi: *mahrum* – *marhum*, *taomil* – *tamoyil* kabi; 4) ma'lum tomonlari bilan ma'nodosh munosabatda bo'lish: *bekinmoq* – *biqinmoq*, *nihon* – *pinhon*, *kurtak*–*murtak* kabi; 5) zidlanishdagi ma'lum umumiylik hollari: *e'tiroz* – *e'tirof*, *bema'ni* – *bama'ni*, *import* – *eksport* kabi. Paronimlarni nutqda xato qo'llash, juftliklarni qorishtirish so'z ma'nolarini yaxshi bilmaslikdan kelib chiqadi. O'qituvchi bunday xatoning oldini olish uchun mashg'ulot jarayonida shakliy, ma'noviy bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan paronimlar ma'nosini sharhash, ularni so'z birikmasi, gap ichida qo'llashdan foydalanishi zarur. Namuna: *Matbuotda hikoya e'lon qilindi* – *matbuot*–*iste'mol hamkorligi*, *keng iste'mol mollari*; *asorat* – *qoldiq*, *shamollash asorati*, *yomon asorat* – *arosat* – *ikkilanmoq*, *ikki yo'l orasida* (*arosatda*) *qolmoq*; *bog'cha* – *tuguncha*, *bog'* – *bog'cha* – *maktabgacha tarbiya maskani*; *o'qituvchi mehnatiga tahsin aytmoq* – *Alisher Hirot va Mashhadda tahsil oldi*.

Xullas, o'quvchining nutqiy taraqqiyotida shakldosh, paronim so'zlarning har biriga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlash, ular ishtirokida so'z birikmasi va gap tuzish, so'z o'yinlari tashkil qilish, tuyuqlar va hikmatli so'zlar, maqol va matallar ustida ishlash; turli izohli lug'atlardan foydalanib, so'z ma'nolarini sharhlash, xilma-xil iboralar, matnlar yaratish kabi amaliy ishlarni bajarish foydalidir.

Kam ishlatiladigan so'zlar ustida ishlash berilgan so'zlarni fanlarga oid, kasb-hunarga oid, shevaga oid, tarixiy so'zlar kabi guruhlarga ajratish, guruhlarni mustaqil davom ettirish, shunday so'zlar ishtirokida matnlar yaratish, asosiy e'tibor kam ishlatiladigan so'zlar ma'nosi va nutqda qo'llanishiga qaratilishi darkor. Atamalar (terminologiya) shunday so'zlar jumlasiga kiradi.

Atamalarning qaysi fanga mansubligiga ko'ra guruhlarga ajratish, so'z va atamalar orasidagi munosabatni aniqlash (til – anatomiya atamasi; til – muloqot vositasi, o'zbek tili faniga oid atama; izg'irindek dilni tilgan (siftdosh) uylar ... kabi); uyadosh atamalar yordamida matn tuzish kabi topshiriqlarni bajarish lozim:

1. *Ma'lum bir fan sohasida tor, xususiy ma'noga ega bo'lib, ko'pchilik boshqa ma'noda keng qo'llaydigan so'zlarni toping. Tor va keng qo'llanish ma'nolari doirasida gaplar tuzing. Namuna: Quyosh sistemasining to'rtinchi sayyorasi – Yer. Osmon uzok, yer qattiq (M.) Sen yerni boqsang – yer seni boqadi. Dehqon rizqini yerdan topadi.*

2. “Geografiya”, “Matematika”, “Tabiatshunoslik” darsliklarining ma'lum bir betini sinchiklab o'qing. Ularda xususiy, tor ma'noda qo'llanilgan va keng qo'llanishda boshqa ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzing. Ularning ma'nosini tushuntiring.

Har bir fan uning o'zigagina xos bo'lgan, muayyan atamalar tizimiga ega. Shunday ekan, ularni bilish, tushunish, keng va tor ma'nolarini farqlay olish, to'g'ri ishlatish bilan birga fan, kasb-kor uchun xos bo'lgan atamalar sirasini o'zlashtirishga erishish mashg'ulotlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Atamalarni o'rganishda o'quvchilarga tanish va yaqin bo'lgan kasb-hunarga oid so'zlar lug'atini tuzish, ularni izohlash va shu so'zlar ishtirokida matnlar yaratishga oid topshiriqlarni bajarish samarali natija beradi.

Boshqa tillardan kirib, o'zbek tiliga o'zlashib qolgan so'zlar olinma so'zlar hisoblanadi. Ularni og'zaki va yozma nutqda bema'lol ishlatish uchun ular anglatgan ma'no o'quvchilar ongiga singdirilishi zarur. Ayniqsa, ilmiy atamalar borasida olinma so'zlar muhim mavqega ega. Aniq fanlarga xos “kvadrat”, “kub”, tilshunoslikdagi “morfologiya”, “sintaksis”, “leksikologiya”, kundalik turmushda ishlatiladigan EHM, kompyuter, disket, kasseta kabi atamalarni almashtirish o'zbek xalqini jahon madaniyatidan uzishga olib kelmasligi lozim.

Tilimizda *maktab, maorif, mashq, tolib* (talaba) kabi arabcha; *barg, daraxt, shirin* kabi forscha-tojikcha; *lag'mon, shiypon* kabi xitoycha so'zlar mavjud. Rus tili va u orqali boshqa xorij tillaridan *kirgan stol, stul, ruchka, buxgalteriya, soldat (nem.), palto, triko (frants.), klub, futbol, biznes, kompyuter (ing.), tomat, limon (isp.)* kabi atamalar ham keng iste'mol qilinadigan va o'zlashgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Bunday so'zlar semantikasini sharhash, imlosi va ma'nosi ustida ishlash, ular ishtirokida gaplar tuzish va turli matnlar yaratish kabi amaliy ishlardan dars jarayonida unumli foydalanish mumkin. Turli sohalar bo'yicha olinma so'zlarning ro'yxatini olish, ma'nolari ustida ishlash kabi amaliy

ishlar uyg'unlikda olib borilsa, o'quvchilar so'z boyligini oshirish, ularning nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Nutqimizda *kvadrat, kub, grammatika, leksika, stol, stul, shkaf, palto, kostyum, tufli, botinka, traktor, kombayn, rektor, universitet, professor, kompyuter, multimedia, kodoskop* kabi ko'pgina so'z va atamalar borki, ularni boshqa so'zlar bilan almashtirishga hech qanday ehtiyoj ham, zarurat ham yo'q.

O'quvchi lug'at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil qiladi. Ma'nosi va qo'llanishi jihatdan bir so'zga teng keladigan, ko'chma ma'no ifodalaydigan so'zlar qo'shilmasi iboralardir. U nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va tasirchanligini oshiradigan vositadir. O'zbek tilini o'qitish metodikasida berilgan so'zlarni iboralar bilan (yoki aksincha) almashtirish, ular ma'nosini sharhash ma'no darajalarining oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. Tadbirkor o'z ishini yaxshi biladi.      1. Tadbirkor ishning ko'zini biladi.
2. Onamning jahli chiqdi.      2. Onam to'nalarini teskari kiyib oldilar.
3. U ishni oson bajardi.      3. U ishni xamirdan qil sugurganday bajardi.
4. Masalani yechishda Shahlo juda qiynaldi.      4. Masalani yechishda Shahloning ona suti og'ziga keldi.

Bundan tashqari, o'quvchilarga o'zbek tili mashg'ulotlarida iboralar lug'atini tuzdirish, iboralarga zid ma'noli, muqobil ibora yoki so'z, so'z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanishni o'rgatish ham so'z boyligini oshirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iboralar o'rtasida o'zaro shakldoshlik va ma'nodoshlik ham bo'lishi mumkin: *boshga ko'tarmoq* (e'zozlamoq), *boshga ko'tarmoq* (shovqin-suron solmoq) – shakldosh iboralar: *tegirmonga tushsa butun chiqadi – suvdan quruq chiqadi* – ma'nodosh iboralar. O'quvchilar badiiy asarlarni o'qiyotganda uchragan shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli iboralar ma'nosi sharhlangan izohli lug'at daftari tutsalar va mazkur so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzsalar, so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratni shakllantirishda yaxshi natijalarni qo'lga kiritadilar.

Tasviriy ifodalar narsa-hodisalarning tasviriylikka asoslangan ikkinchi nomlaridir: *po'lat ot* – traktor; *zangori ekran, oynajahon* – televizor; *qanotli do'stlar* – qushlar; *oq oltin* – paxta. Tasviriy ifodalardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlovchi asosiy usullardan biri hisoblanadi. Bunda narsa yoki shaxs nomlarini tasviriy ifoda orqali berish yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish,

ularning ma'nolarini sharhash, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish foydalidir.

Leksikologiyani o'rganishda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirishda so'zning botiniy, lug'aviy ma'nosini tavsiflash shu jamiyonda to'g'ri va o'rinli so'zlash mahoratini egallash uchun leksik tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi. O'zbek tili kursining barcha matnlari qatori "Leksikologiya" bo'limini o'qitishda ham o'quvchilarning so'z zahirasini oshirish va nutqi ustida ishlash ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.**

**1-savol:** *Leksikologiya, frazeologiya va leksikografiya bo'limlarini o'rganishda qaysi o'quv-me'yoriy hujjatlarga asoslaniladi?*

**2-savol:** *Leksikologiya va frazeologiya bo'limlarini o'rganishda so'z boyligini oshirish imkoniyatlari qay darajada?*

(Har kim topar tilidan, tani chiqmas dilidan) هر کیم تا پرتیلیدن ، تنی چیمس دلیدن  
Ushbu maqoldagi *til* va *dil* so'zlarini leksik jihatdan tahlil qiling.

**3-savol:** *Leksikografiya haqidagi ma'lumotlar o'rta va o'rta maxsus ta'limning qaysi bosqichlarida o'rganiladi?*

(Gapdan gap chiqar, kengashdan haq) گپ دن گپ چپەر ، کینگش دن حق  
maqolidagi *gap* so'zini leksik jihatdan tahlil qiling.

**4-savol:** *Frazeologiya bo'limining o'quvchilar nutqini o'stirishdagi ahamiyati nimalardan iborat?*

**1-topshiriq.** *Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili bo'yicha DTSining "Leksikologiya", "Frazeologiya", "Leksikografiya" bo'limlarini o'rganing.*

(Har yigitti yo'ni chopsin yo' baxti) مر ییگیت تی ، یا آتی چاپسین یا بختی

Ushbu maqoldagi har bir so'zni lug'aviy ma'nosiga ko'ra tahlil qiling.

**2-topshiriq.** *Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili dasturining "Leksikologiya", "Frazeologiya", "Leksikografiya" bo'limlarini o'rganing.*

**3-topshiriq.** *Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili darsligining "Leksikologiya", "Frazeologiya", "Leksikografiya" bo'limlarini o'rganing.*

(Har kimdi o'z tug'ilgan yeri o'ziga jannat) هر کیمدی اوز توغیلگن بیرری اوز زیگه  
maqolidagi so'zlarni lug'aviy ma'nosiga ko'ra tahlil qiling.

4-topshiriq. “Leksikologiya”, “Frazeologiya”, “Leksikografiya” bo‘limlaridan bitta mavzuni tanlang va unga dars ishlanmasini tayyorlang.

5-topshiriq. *Leksikologiya bo‘limini o‘qitishning o‘ziga xos belgilari haqida gapiring.*

(Vatan vayrona bo‘lmasin, bola beona) وطن ويرآنه بولمسين، باله بى آنه  
maqolidagi *vatan, vayrona, beona* so‘zlarini leksik tahlil qiling qaysi tilga mansubligini ayting.

6-topshiriq. *Fikrlaringizni ushbu jadval ko‘rinishida ifodalang.*

Leksikologiya, leksikografiya va frazeologiya bo‘limlarining o‘quvchilar nutqini o‘stirishdagi ahamiyati	
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

7-topshiriq. *Namunadagidek dars ishlanmasi tayyorlang.*

6-sinf uchun kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilingan darsning ishlanmasi.

**Mavzu:** So‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari.

**I. Darsning maqsadi:** O‘quvchilarda 5-sinfda o‘tilgan so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarini farqlash yuzasidan ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi.

**II. Asosiy tushuncha va atamalar:** *so‘zlar, shakl va ma‘no munosabati, ma‘nodosh so‘zlar, zid ma‘noli so‘zlar, paronimlar, shakldosh so‘zlar, uyadosh so‘zlar.*

**O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi:**

**Metod:** Kichik guruhlar bilan ishlash, “Aqliy hujum” texnologiyasi.

**Shakl:** Guruhlarda ishlash.

**Usul:** Savol-javob, darslik bilan ishlash, mashq, musobaqa.

**Vosita:** Darslik, plakat, jadvallar, kompyuter vositalari, tarqatma materiallar.

**III. O‘tilgan darsni takrorlash va uyga vazifani so‘rash:**

**Topshiriq:** uyga berilgan 27-mashq tekshiriladi. Rasm asosida “Kuzda” mavzusida matn tuzish va unda ko‘chma ma‘noli so‘zlardan foydalanish talab qilingan. O‘quvchilardan bu vazifalar so‘ralib bo‘lingandan so‘ng, ular “Aristokrat”, “Intellekt” va “Everest” guruhlariga taqsimlanadi.

**IV. Yangi mavzuning bayoni:** Yangi mavzuni o‘rganish “*Bilimlar oroliga sayohat*” o‘yini bilan boshlanadi. O‘qituvchi orol manzarasi, ya‘ni

uchta kema, daraxtlar, qirg'oq va dengiz tasviri tushirilgan plakatni doskaga ilib qo'yadi. Uch guruhga bo'lingan o'quvchilar o'z kemalarida bilimlar oroliga sayohatga chiqadilar. Orolidagi "Savol-javob" va "Davom ettir" bekatlarida to'xtab, undagi shartlarni bajarish lozim. Birinchi bekat: "Savol-javob" deb nomlanadi. O'quvchilar berilgan savollarga guruh bilan kelishgan holda javob beradilar.

### Savollar quyidagicha:

1. *Sinonim so'zlar deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.*
  2. *Qanday so'zlarni antonim so'zlar deymiz? Misollar keltiring.*
  3. *Omonim so'zlarga ta'rif bering va misollar keltiring.*
- Savollarga to'g'ri javob bergan guruh ikkinchi bekatga yo'l oladi. Bu bekatda o'quvchilar bosh qismi berilgan maqollarning, qolgan qismini mustaqil ravishda topishlari kerak.

### Maqollar:

1. *Avval o'yla, ... .. (keyin so'yla)*
2. *Baxilning bog'i ... (ko'karmas)*
3. *Dangasaning ishi bitmas, ... .. (yoz kelsa ham qishi bitmas)*
4. *Do'sting ming bo'lsa ham oz, ... .. (dushmaning bir bo'lsa ham ko'p)*
5. *Do'stsiz boshim ... .. (tuzsiz oshim)*
6. *Ota-ona ... .. (oltin qanot)*
7. *Yaxshilik qilsang yashir, ... .. (yaxshilik ko'rsang oshir)*
8. *Yaxshi niyat- ... .. (yarim mol)*
9. *Yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z- ... .. (bosh qozig'i)*

Bekatlardagi shartlarni a'lo darajada bajargan guruh g'olib deb e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

1. "Ilmga parvoz" o'yinidan foydalaniladi. Bunda o'qituvchi havo sharining maketini yasab, sinfga olib kiradi. Unda to'rt tomon mavjud. 1-to-monida kirish eshigi bor bo'lib, qolgan uch tomoniga konvertlarga joylashtirilgan uchta shartning nomi yoziladi. Shartlarda test savollari berilgan bo'lib, har bir guruh quyidagi bekatlarda uchtadan shartni bajarishlari kerak: 1-bekati: "O'zingni sinab ko'r"; 2-bekati: "Boshqotir"; 3-bekati: "Kamalak jilosi". "O'zingni sinab ko'r" bekatida quyidagi test savollari beriladi:

1. *Sinonim so'zlar berilgan qatorni toping.*
  - A) *yorishmoq-ochilmoq, naf-ziyon*
  - B) *xursand-xushvaqt, yaroqli-layoqatli*
  - D) *sayoz-chuqur, xulq-axloq*
2. *Qaysi qatorda o'zaro antonim so'zlar berilgan?*
  - A) *yangi-eski, to'g'ri-egri*
  - B) *tejamkor-isrofgar, g'alaba-zafar*



- D) *tayyor–muhayyo, jahl–g‘azab*  
 3. *Takabbur–kamtar so‘zlari o‘zaro ...*

A) *sinonim*

B) *omonim*

D) *antonim xulq-axloq*

2-bekatda o‘quvchilarga o‘zaro antonim, sinonim va omonim so‘zlar beriladi. O‘quvchilar ushbu so‘zlar yordamida ta’sirchan va mazmundor gaplar tuzishlari kerak. Masalan, ***aqli, es-hushli***: *Buvijonim menga har doim aqli, es-hushli qiz bo‘lgin, – deb nasihat qiladilar.*

3-bekatda “*Kamalak jilosi*” deb nomlanuvchi bekatda esa o‘quvchilarga oldingi bekatda tuzgan gaplari asosida kichik matn yoki hikoya tuzish topshiriladi. Qaysi guruh barcha shartlarni bosqichma-bosqich a’lo darajada bajarsa, o‘sha guruh g‘olib sanaladi.

**V. Darsni mustahkamlah:** Dars yanada qiziqarli, o‘quvchilar faolligi yuqori bo‘lishi uchun mavzu doirasidagi turli boshqotirma va rebuslarni yechishni tavsiya etish mumkin. Chunki qiziqarli boshqotirmalar ham darsning yanada qizg‘inroq o‘tishini ta’minlaydi. O‘quvchilarga quyidagi boshqotirmaning yechish vazifa qilib topshiriladi:

				1	S				
				2	I				
					N				
3			4		O				
					N				
5			6		I				
				7	M				

1. *Asta so‘zining sinonimi.*
2. *Birinchi so‘zining sinonimi.*
3. *Yoqimli so‘zining sinonimi.*
4. *Taniqli so‘zining sinonimi.*
5. *Katta so‘zining sinonimi.*
6. *Go‘zal so‘zining sinonimi.*
7. *Kichik so‘zining sinonimi.*

Navbatdagi vazifa quyidagicha. Unda o‘quvchilar berilgan so‘zlarning antonimlarini topishlari lozim.


Topshiriq quyidagicha:

Quyidagi so‘zlarga antonim so‘zlar toping.

- |                      |                    |                      |
|----------------------|--------------------|----------------------|
| 1. Do'st- .....      | 2. Ozg'in- .....   | 3. Uzun- .....       |
| 4. Oq- .....         | 5. Sarishta- ..... | 6. Odobli- .....     |
| 7. Tayyor- .....     | 8. Qimmat-.....    | 9. Bekorchi- .....   |
| 10. Xavf- .....      | 11. Katta- .....   | 12. Badbaxt- .....   |
| 13. Noto'g'ri- ..... | 14. Kasal- .....   | 15. Shirin- .....    |
| 16. Xursand- .....   | 17. Kecha- .....   | 18. Sergo'sht- ..... |
| 19. Mazmunli - ..... | 20. Noqobil- ..... |                      |

Nuvbatdagi topshiriqda o'quvchilarning antonimlar yuzasidan egallagan bilim va ko'nikmalari sinab ko'riladi.

**“Antonim” boshqotirmasi**



1. *Qora* so'zining antonimi.
2. Qish faslining aksi, ya'ni eng issiq fasl.
3. ....siz odamning mevasiz daraxtdan farqi yo'q. (*Nuqtalar o'rniga dushman so'zining antonimini toping*).
4. .... gapirding. Yaxshi gap, diqqat e'tibor har qanday doridan kuchli ekan (*O'. Umarbekov*). Nuqtalar o'rniga *noto'g'ri* so'zining zid ma'nosini topib, qo'ying.
5. ....lik muhtojlik eshigidir. (*Nuqtalar o'rniga ishchan so'zining antonimini toping*).
6. Kuz fasli. Shamollar mayin, ..... esadi (*Oybek*). (*Nuqtalar o'rniga noxush so'zining zid ma'nosini qo'ying*).

Ushbu dars jarayonida integratsiyadan foydalanib, antonimlar mohiyatini yoritishda tazod san'ati, antiteza va kontrast usullari tavsiflaridan foydalanish, adabiyotshunoslikdagi zidlik tushunchasining kengligi, mantiqiy zidlik hamda uning ta'sirchanlikni oshirishdagi o'rni ko'rsatiladi.

(Mehnatdan do'st ortar, minnatdan yov) محنت تڭ دوست آرتر ، منت دن يلو  
توغرىلىككە تە يڭ ، اوغرى لېك دن چىكىڭ

(To'g'rilikka tayan, o'g'rilikdan chekin) maqollarini keltirilib, semantik zidlikni izohlash so'raladi. *O'g'rilik* leksemasi semantikasida “egilik” semasi ham mavjudligiga e'tibor qaratiladi.

Dars yakunida guruhdagi barcha o'quvchilar baholanadi va ma'naviy rag'batlantiriladi. Uyga vazifa sifatida darslikdagi 32-mashqni bajarib kelish topshiriladi. Unga qo'shimcha ravishda quyidagi jadvalli labirintni bajarib kelishni ham vazifa qilib berish mumkin: *Antonim so'zlar bo'yicha olgan bilimingizni Jadvalli labirint orqali sinab ko'ring. 4-ustundagi so'zlar qaysi so'zning antonimi ekanligini toping va raqamlar orqali belgilang.*

№	So'z	Javob	Antonimi
1.	Yaxshi	5	Achchiq
2.	Oq	7	Yaqin
3.	Shirin		Xunuk
4.	Chiroyli		Semiz
5.	Uzoq		Yomon
6.	Og'ir		Qisqa
7.	Baland		Qora
8.	Keng		Tor
9.	Uzun		Yengil
10.	Ozg'in		Past

**Uyga vazifa:** Darslikdagi 32-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

**Eslatma:** Kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilinadigan darslarda har bir guruh tarkibi ham e'tiborga olinishi kerak. Guruhdagi o'quvchilar soni ham uning samaradorligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Guruhdagi o'quvchilar soni 5-6 tadan oshmasligi zarur.

**8-topshiriq. Maktabda "Leksikologiya", "Frazeologiya", "Leksikografiya" bo'limlarini o'qitishning asosiy maqsadi nima?**

*Fikringizni og'zaki ifodalang.*

(Ota o'rmini oqil o'g'il olar) آتہ اورنی نی ، عاقل اوغیل الر

maqolidagi ota va o'gil so'zlarining ma'nolarini izohlang.

**9-topshiriq. Leksikografiya bo'limini o'rganishning o'ziga xosliklariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari haqida gapiring.**

آتہ آقیشی نی آگن ، آت مینر ، آتہ آقیشی نی آگن اوییدن تینر.

(Ota olqishini olgan ot minar, ona olqishini olgan uyidan tinar) maqolidagi uy so'zining ma'nolari haqida to'xtaling.

**10-topshiriq: Leksikografiya bo'limini o'rganishning o'ziga xosliklariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari haqidagi fikrlaringizni ushbu jadval ko'rinishida ifodalang.**

Leksikografiya bo'limini o'rganishning o'ziga xosliklari	
(I) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashiring	

**11-topshiriq.** *Quyidagi mashqni o'quvchi sifatida bajarib ko'ring va o'zingiz ham ham shunday mashq namunalari tayyorlang.*

*Namuna: Alisher Navoiy shohbaytlarida ilgari surilgan g'oya haqida bahslashing. Qavs ichida berilgan paronim so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring va ularga izoh bering.*

1. Hunarni asrabon netkumdur (oxir, axir, oxur), Olib tufroqqamu ketkumdur (oxir, axir, oxur). 2. Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish mij ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz (ganch, ganj) ila. 3. Quyoshlig' istasang, kasbi kamol et, Kamol (kosib, kasb) etarsen, bermalol et. 4. Har kishikim, birovg'a qozg'ay (chog', choh), Tushgay ul (chog', choh) aro o'zi nogoh.

*Namuna: Gaplarni o'qing, leksik tahlil qiling.*

1. Sekinroq gapiring, aylanay, devorning ham qulog'i bor. 2. Hozirgi yoshlarimizga ko'z tegmasin, ular bizdan ko'ra aqlliroq, bilimdonroq bo'lib o'sishyapti. 3. Guruhimizning birlashishi uchun unga bir bosh kerak bo'lib qoldi. 4. Samolyotning qanoti o'ta pishiq materialdan ishlangan. 5. Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning qo'li baland keldi. 6. Olimpiadada birinchilikni bu gal Buxoro olib ketdi. 7. Avtomobilning eshigini ochib do'stini chiqarib oldi. 8. Askarlarimiz Vatan sarhadlarini ko'z bo'lib, quloq bo'lib tun-u kun sergaklik bilan qo'riqlamoqdalar. 9. Bu xushxabarni do'stlaringa yetkazish uchun oyoq bo'lib yugurdim.

## MORFOLOGIYANI O'QITISH METODIKASI.

### MORFOLOGIK TAHLIL METODIKASI

#### *Tayanch tushunchalar:*

*morfologiya, so'z turkumlari, mustaqil so'z turkumlari, yirdamchi so'z turkumlari, nutq o'stirish, grammatika, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, og'zaki va yozma nutq, innovatsion texnologiyalar, o'qitish usullari.*

**Grammatikani o'rgatish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.**

Talabalar "Morfologiya" bo'limini o'rganish jarayonida tilning adabiy me'yorlari, so'zning shu me'yorlar doirasida o'zgarishi va yasalishi (grammatik xususiyatlari); so'zni nutqda to'g'ri va o'rinli ishlatish prinsiplari bilan tanishadilar.

**Grammatika** tilning grammatik qurilishini o'rganadigan fandır. Grammatik qurilish esa tilning asoslaridan biridir. Har bir tilning negizi uning grammatik qurilishi bilan leksiksidir. *Grammatika* atamasi o'z ichiga morfologiya va sintaksisni oladi. O'zaro bog'langan har ikki qismning o'z tekshirish obyekti bor. Demak, grammatika fani tilning grammatik qurilishi haqidagi ta'limot bo'lib, unda so'zlarning shakllari, so'zlarning bog'lanishi, gap qurilishi va uning turlari o'rganiladi.

**Morfologiya** (*grekcha morfe – shakl va logos – so'z, ta'limot*) so'zning grammatik shakllari haqidagi fandır. Morfologiya so'zning tuzilishini, so'z shakllarini, uning hosil bo'lish yo'llarini, so'zning morfem tarkibini va leksik-grammatik kategoriyalarini, ya'ni so'z turkumlarini o'rgatadi.

**Leksik ma'no.** So'z leksikologiyada ham, grammatikada ham tekshiriladi. Leksikologiyada, asosan, so'zning leksik ma'nosi o'rganiladi. So'zning obyektiv borliq (narsa, belgi, harakat kabilar) haqidagi tushunchani anglatishi uning *leksik ma'nosidir*. Masalan: *paxta, qalam, uzum* kabi so'zlarning texnika ekinlaridan birini, yozuv qurolini, meva turlaridan birini anglatishi bu so'zlarning leksik ma'nosidir. Bundan tashqari, *bordik, keldik* kabi so'zlarning ma'lum bir harakatni anglatishi uning leksik ma'nosi hisoblanadi.

**Grammatik ma'no.** Morfologiyada so'zning grammatik ma'nolari o'rganiladi. So'zning morfologik tuzilishiga, ularning o'zaro bog'lanishiga ko'ra ifodalanadigan ma'no so'zning *grammatik ma'nosi* deyiladi. Yuqorida keltirilgan misollarning leksik ma'nosi tushuntirilgan bo'lsa, endi o'sha so'zlarning grammatik ma'nosini aniqlaymiz: *paxta, qalam, uzum* so'zlari birlik son, bosh kelishikda, uchala so'zning ham ot so'z turkumiga taalluqli ekanligi shu so'zlarning grammatik ma'nosidir. *Bordik, keldik* so'zlarining o'tgan zamon, birinchi shaxs va ko'plik kabilarni bildirishi esa bu so'zlarning grammatik ma'nosidir. So'z anglatadigan leksik ma'no odatda xususiy bo'ladi, grammatik ma'no esa doim umumiy bo'ladi. Demak, grammatik ma'no yakka bir so'zga ko'ra belgilanmaydi, balki shunday grammatik ma'noni ifodalovchi so'zlarning barchasiga ko'ra belgilanadi. Masalan: *kitabim, qalamim, daftarim* kabi so'zlarda birinchi shaxs egalik ma'nosi bunday qo'shimchani (-imni) olgan barcha so'zlarga xos.

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zlarning shakllari, bu shakllarning hosil bo'lish yo'llari va so'zlarning ma'lum belgilar asosida guruhlarga, ya'ni so'z turkumlariga bo'linishini o'rganadi. Shu bois, morfologiyani o'qitishda asosiy e'tibor so'zning tuzilishi, yasalishi, so'z turkumlariga bo'linishiga qaratiladi.

Maktabda morfologiyani o'qitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyati shundaki, keyingi bosqichda o'rganiladigan «Sintaksis» bo'limi bevosita morfologiya bilan bog'langan. Chunki kelishik, egalik va shaxs-son qo'shimchalari garchand morfologiya obyekti sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida so'z va so'z birikmalari orasidagi sintaktik aloqani ta'minlovchi vosita sanaladi. Qo'shma gap sintaksisini o'rganishning bevosita yordamchii so'zlar bijaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Maktabda morfologiyani o'qitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur bo'limni o'rganishda o'z amaliy ifodasini topadi. O'quvchi mustaqil va yordamchi so'z turkumlarini o'rganishda so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, uyadosh, ahakldosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlarga yana murojaat qiladi va so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri hamda o'rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maktab morfologiya kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni ko'zda tutadi:

↓ o'quvchilarni so'z yasashga, so'zning yangi shakllarini hosil qilishga o'rgatish;

↓ so'z zaxirasini oshirish;

↓ so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;

↓ so'zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish;

↓ imloviy savodxonlikni takomillashtirish;

↓ gap qurish va matn yaratish malakalari ustida ishlash.

So'zni o'zak va qo'shimchalarga ajratish so'z turkumlarini o'rganishga puxta zamin hozirlaydi. O'quvchilar berilgan so'zlardan o'zakdoshlarni topish, o'zakdoshlar nima bilan bir-biridan farqlanishini tushuntirish, o'zakdosh so'zlarni qo'shimchadoshlarga ajratish, qo'shimchalarning o'zaklarga qanday qo'shimcha ma'no qo'shayotganligini aniqlash orqali o'zak va qo'shimcha haqida keng ma'lumotga ega bo'ladilar. So'zning o'zagini aniqlay olish, qo'shimchalarning turlarini bilish fe'l, ot, sifat, ravishlarni tub va yasama so'zlarga to'g'ri ajrata olish imkonini beradi.

**Mustaqil soʻzlarni oʻqitish metodikasi.** Oʻquvchilar soʻz yasovchi, soʻz oʻzgartiruvchi va shakl yasovchi qoʻshimchalar xususida zaruriy bilim, malaka va koʻnikmalarni egallashgach, soʻz tarkibi bilan tanishadilar hamda soʻzning asosi xususida umumlashma hosil qiladilar. Bu – soʻz turkumlarini puxta oʻrganish uchun poydevordir.

**“Feʼl” soʻz turkumini oʻqitish.** “Feʼl” soʻz turkumi xususidagi dastlabki maʼlumotlar boshlangʻich sinflarda va 5-sinfda “Muqaddima” boʻlimi orqali beriladi. 5-sinfda feʼllarning lugʻaviy shakllari va maʼno guruhlari oʻrganiladi. Mazkur mavzularni oʻrganishda asosiy eʼtibor oʻquvchilarning soʻz zaxirasini feʼllar bilan boyitish, ogʻzaki va yozma nutqda ulardan toʻgʻri, oʻrinli foydalanish malakalarini kengaytirishdan iboratdir. Oʻquvchilarning soʻz zaxirasini feʼllar bilan boyitishining muhim choralaridan biri feʼl-sinonimlar ustida ishlashdir. Berilgan feʼlarga maʼnodoshlar topish (mas., *ajablanmoq, taajjublanmoq, hayron boʻlmoq; ayirmoq, ajratmoq, judo qilmoq, mahrum qilmoq*), sinonimik uyadagi maʼnosi tushunarli boʻlmagan soʻzlarning maʼnosini izohlash, qatordagi har bir soʻz yordamida gaplar tuzish (mas., Salimaxon berilgan soʻzlar ichidan feʼllarni *ajratdi*. Bozorga olib ketilishi lozim boʻlgan mevalarni bir yoqqa *ayirdi*), matni tahrir qilib, takrorlangan feʼllar oʻrniga ularning sinonimlarini qoʻllash singari ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish oʻquvchilarning soʻz zaxirasini oshirishda muhimdir.

“Harakat nomi” mavzusini oʻrganishda berilgan matn yoki gaplardan harakatni atab kelgan soʻzlarni ajratish, ularni qoʻshimchadoshlarga boʻlib guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, qoʻshimchadosh soʻz guruhlari uchun xos boʻlgan qoʻshimchalar: *-sh –ish, -v –uv, -moq* ni ajratish, bu qoʻshimchalar bilan hosil boʻlgan soʻzlarning imlosi, ularni harakat nomi birikmalariga, birikmalarni gaplarga aylantirish (mas., Haqiqat tantana qiladi, - Haqiqatning tantana qilishi kabi), harakat nomlarining *zarur, kerak, lozim, shart, muhim* kabi soʻzlar bilan birikib, kesim vazifasida kelishi ustida ish olib boriladi.

Feʼlning ravishdosh va sifatosh shakllarini oʻrganishda ham shunga oʻxshash amaliy ishlar davom ettiriladi. oʻquvchilar berilgan feʼl juftlarini (mas., *keldim, ishladim*) bogʻlovchilar yoki ohang vositasida bogʻlab gap tuzish, bu feʼllarni *-b (-ib), -gach (-kach, -qach)* qoʻshimchalari bilan birlashtirib, gaplarning shaklini oʻzgartirish (mas., *Men kelim va ishladim – Men keldim, ishladim – Men kelib ishladim – Men kelgach, ishladim* kabi), ravishdosh yasovchi qoʻshimchalar roʻyxatini tuzish, ular yordamida soʻzlar hosil qilish, bu qoʻshimchalarning imlosi ustida ishlash kabi amaliy ishlardan foydalaniladi.

Sifatdoshlarni o'rganishda o'vchilar berilgan "sifat – ot" shaklli birikmalarda (mas., *siniq shisha, buzuq uy, quruq meva*) sifatni fe'l bilan almashtirish (mas., *singan shisha, buzilgan uy, qurigan meva*) va sifatli birikmalarni aniqlash, ularning imlosi ustida ishlash, sifatdoshlardan foydalanib, gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish (mas., Kim ko'p o'qisa, u dono bo'ladi. – Ko'p o'qigan kishi dono bo'ladi) singari topshiriqlarni berish mumkin.

"Fe'l" so'z turkumini o'rganishda, ayniqsa, uyadosh fe'llar ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. 5-sinfda o'quvchilar "Uyadosh so'zlar" mavzusini o'rganishda bir qator uyadosh fe'llar bilan ham tanishganlar. Chumonchi, «O'zbek tili» darsligi (5-sinf)ning "Lug'at" qismida namuna sifatida "olmoq" va "ko'rmoq" fe'lining uyadoshlari berilgan. Bu ish 6-sinfda davom ettiriladi. Berilgan umumiy ma'noli fe'lning xususiy ma'nolarini aniqlash, bir paradigmani tashkil etgan fe'llar ro'yxatini tuzish (mas., nutq fe'llari: *so'zlamoq, gapirmoq, pichirlamoq, shivirlamoq, haqirmoq, o'qimoq hikoya qilmoq, qichqirmoq* v.h.) singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilar so'z zaxirasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

"Fe'l" so'z turkumini o'rganishda o'quvchilarni shu so'z turkumining uslubiy imkoniyatlari bilan tanishtirish ham, ayniqsa, zarurdir. "Fe'l" so'z turkumini o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rinni egallaydi. Bir bo'lakli sodda gaplarni fe'l kesimdan so'roq berish orqali ikki bo'lakli va ko'p bo'lakli sodda gaplarga aylantirish (mas., *Boraman – Men boraman – Men bugun qishloqqa boraman* kabi) gaplarda tuslangan fe'llarni tuslanmagan fe'llar bilan almashtirish (mas., *Yozgi ta'til boshlandi va biz sayohatga chiqdik – Yozgi ta'til boshlangach, biz sayohatga chiqdik; Karim xatni oldi va diqqat bilan o'qidi – Karim xatni olib, diqqat bilan o'qidi* kabi), harakat nomlari ishtirokida gaplar tuzish va matn yaratish, gaplarni harakat birikmalariga, bunday birikmalarni gaplarga aylantirish (mas., *Hamma biladiki, haqiqat tantana qiladi – Haqiqatning tantana qilishini hamma biladi* kabi) berilgan fe'l juftlarini bog'lovchilar yoki ohang yordamida bog'lab gap tuzish, bu fe'llarni hosil qilingan gaplar tarkibida bir-biri bilan yana qay usul bilan bog'lash mumkinligini aniqlash, gaplarni kengaytirish va toraytirish singari amaliy ishlar o'quvchilarda faqat morfologik malakalarnigina emas, balki sintaktik malakalarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

"Ot so'z turkumini o'qitish". Otning predmet nomini bildirishi kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lishi, atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi, otlarga qo'shiladigan kelishik qo'shimchalari boshlang'ich sinflardan o'quvchilarga ma'lum. Mazkur so'z turkumini o'rganishda, avvalo, ana shu o'rganilganlarni xotirada tiklash maqsadida qayta



sotirilishi va qisman ijodiylikka asoslangan ta'limiy mashqlar o'tkaziladi. Takrorlash jarayonida «predmet» tushunchasiga kengroq to'xtalish lozim. *Predmet* deganda nafaqat qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rish yoki o'lchash mumkin bo'lgan narsalar, balki umumiylikni ifodalovchi nomlar (ovqat, imorat), tabiat hodisalari va turli voqealarning nomi (toshqin, zilzila, momaqaldiraq), harakat nomlari (bilim, terim), belgi-holat nomlari (baxillik, saxiylik, ozodalik, tashvish) ham tushuniladi.

Otning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifalariga oid zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar, asosan, amaliy ishlar orqali o'quvchilar ongiga singdiriladi.

“Ot so'z turkumini o'rganish bu turkum haqida umumiy ma'lumot berish bilan boshlanadi. O'quvchilar *Toshkent, Buxoro, "G'uncha", "O'zbekiston ovozi", Ro'zimmurodova, gul, qo'shiq, non, tuz, go'zallik, sog'lik, san'at, nafosat* singari otlarning har biriga so'roq berish va guruhlarini mustaqil davom ettirish, har bir guruhdagi otlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni aniqlash va sharhlash, boshlang'ich sinflarda egallangan bilimlarni xotirada tiklash hamda uni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

“Kichraytirish shakllari” mavzusi o'rganilar ekan, so'z juftlarining ma'no farqini tushuntirish (*baliq-baliqcha, chumchuq-chumchuqcha*), *-cha* qo'shimchali kichraytirish shakllariga misollar topish singari topshiriqlarni bajaradilar, kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *-gina* qo'shimchasining ma'nosi ustida ishlaydilar (*Qizgina bo'rilarga em bo'ldiyov* kabi).

Atoqli otlar o'rganilar ekan, avvalo, atoqli otlar jumlasiga kiradigan so'zlar ustida ishlar olib boriladi. Berilgan so'zlarni: 1) kishilarning ismi, familiyasi, taxallusini ifodalovchi otlar, 2) jug'rofiy nomlar, 3) turli tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari (mas., *O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi, «Yakkabog'» davlat xo'jaligi, Botanika instituti, «Bahor» ansambli v.h.*), 4) planeta va yulduzlarning nomi (mas., *Quyosh, Yupiter, Mars, Hulkar v.h.*), 5) tarixiy hodisalar, gazata, jurnal, ilmiy muassasalarning nomlari (mas., *Mustaqillik maydoni, «Ikki eshik orasi» romani, «Tong yulduzi» ro'znomasi, «Gulxan» jurnali v.h.*), 6) hayvonlarga maxsus qo'yilgan nomlar (mas., *Boychibar, Yo'lbars v.h.*) singari guruhlariga ajratish, hosil bo'lgan guruhlarini mustaqil davom ettirish, «belgi nomi + turdosh ot» qolipli qo'shma toponimlar (mas., *Yangiyo'l, Qorabog', Qorako'l, Qiziltepa, Tinch okeani, Qizil dengiz, Orol dengizi v.h.*) «belgi nomi + atoqli ot» qolipli jug'rofiy nomlar (*Shimoliy Kavkaz, O'rta Osiyo, Markaziy Amerika, Shimoliy Qozog'iston v.h.*) ro'yxatini tuzish singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning imlo

savodxonligini oshirish va soʻz zaxirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Ot soʻz turkumini oʻqitishda otlarning maʼno guruhlariga alohida eʼtibor qaratish lozim. Otlar ifodalab kelgan maʼnosiga koʻra: *mahsulot nomlari, shaxs otlari, qavm-qarindoshlik otlari, kasb-hunarni ifodalovchi otlar, shaxsni boshqa jihatlari koʻra atovchi otlar, hayvonot otlari, daraxt va oʻsimlik nomlari, narsa-buyum otlari, modda-maʼdan, xomashyoni anglatuvchi otlar, oʻrin-joy (makon) otlari, payt (zamon)ni anglatuvchi otlar* kabi guruhlarga boʻlinadi. Bu guruhlar oʻz navbatida yana bir necha kichik guruhlarga boʻlinishi mumkin. Masalan, kasb-hunarni ifodalovchi otlarning dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, shifokorlik kabi tarmoqlari mavjud.

“Qavm-qarindoshlik otlari” ustida ish olib borilar ekan, shunday soʻzlarni: 1) qon-qarindoshlik (*ota, ona, singil, aka, uka, amaki* v.h.) va 2) nikoh qarindoshligiga (*yanga, kelinoyi, pochcha, qaynona, quda* v.h.) koʻra guruhlarga ajratish, shunday soʻzlar lugʻatini tuzish, qarindoshlikni ifodalovchi nomlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash (mas., qarindosh boʻlmagan kishilarni *otaxon, onaxon, buvijon* deb chaqirish) singari ijodiy-amaliy ishlar bajariladi.

Otlarning yana bir maʼno guruhi oʻrin-joy (makon) otlaridir. Oʻquvchilar bino, inshoot, muassasa, tashkilot, narsa-buyumlarni atovchi soʻzlar predmetlik va oʻrin-joy (makon) maʼnolarini ifodalab kela olishi sababli, ular *nima?* va *qayer?* soʻroqlariga javob boʻla oladigan soʻzlar ham otlar ekanligini bilishlari lozim. Shuni nazarda tutib, bir oʻrinda *nima?* ikkinchi oʻrinda *qayer?* soʻroqlariga javob boʻla oladigan gap juftlari tuzish (mas., Yangi uy qurib bitkazildi – Bolalik uy – bozor kabi), gaplarda ajratilgan soʻzlarning maʼnosiga eʼtibor berib, ularning bino-inshootlar yigʻindisi yoki oʻrin-joyini atab kelishini aniqlash, aholi istiqomat qiladigan oʻrin-joy nomlari ishtirokida gaplar tuzish, maʼmuriy-mintaqaviy boʻlinishni ifodalovchi otlarning maʼnolarini sharhlash, ularni atoqli otlar bilan birlashtirib, soʻz birikmalari tuzish, sharqona dunyo tomonlarini atovchi otlar roʻyxatini tuzish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur mavzu «Ustozning uyi» matnini oʻqish va ajratilgan soʻzlar (*quyi, qibla, kunbotar, yuqori, shimol, gʻarb, kunchiqar, janub* kabi) ning maʼnosini izohlash hamda “Dunyo tomonlarini aniqlash” maʼrifiy matnning mazmuni ustida ishlash bilan yakunlanadi.

“Payt (zamon) anglatuvchi otlar” mavzusini oʻrganishda berilgan soʻzlarni (mas., yil, soniya, daqiqa, soat, sutka, kun, tun, asr, hafta, oy) ular bildirgan vaqt chegarasiga qarab oʻsib boruvchi qatorga joylashtirish, bu

so'zlarga ma'nodoshlar topish, *juma, peshin, yarim tun, bomdod, subh, tong, oqshom, ertalab, kechqurun, kecha* singari so'zlarning ma'nolari ustida ishlash, soat ko'rsatayotgan vaqtni aytish va yozish, fasl nomlarining ma'nodoshlarini topish, raqamlar bilan berilgan kun, oy va yillarni o'qish va yozish, "Kabisa yili" matni ustida ishlash, «o'tgan yilni qaday yakunladim?» mavzusida insho yozish, berilgan so'z juftlari (kecha-kech, kech-kechqurun) orasidagi farqlarini, payt (zamon) otlariga qo'shiladigan *-lar* va *-cha* ko'plik qo'shimchasi va *-cha* kichraytirish qo'shimchalarining ma'nolarini aniqlash, payt (zamon) otlariga *-lab* qo'shimchasini qo'shib, ravishlar hosil qilish, payt (zamon) otlariga qo'shilib kelgan *-i, -si* egalik qo'shimchasining ma'nolarini aniqlash, «Taqvimlar» (bobo dehqon taqvimi, hijriy taqvim, shamsiy taqvim, qamariy taqvim) matni ustida ishlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda otli birikmalar ustida ishlash muhim o'rin egallaydi. Matndan otli birikmalarni ajratish, berilgan so'zlar ishtirokida shunday birikmalar hosil qilish kabi ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilar lug'atini shunday birikmalar bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, berilgan bosh yoki tobe so'zga muvofiq keladigan tobe yoki bosh so'zlar tanlash ancha samarali ish usullaridan biridir. Masalan, *maktabimiz o'quvchilari* so'z birikmasidagi *o'quvchilari* o'rniga *atrofi, binosi, zali, kutubxonasi, dovrug'i, g'alabasi, to'yi, yigilari, qizlari* kabi so'zlarni qo'shib, *maktabimiz kutubxonasi, maktabimiz qizlari* kabi so'z birikmalari hosil qiladilar.

O'quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug'diradigan muammolardan biri qo'shma otlar va ularning imlosidir. Bu mavzuni o'rganishda berilgan so'z birikmalaridan joy nomlari hosil qilish (mas., *qora ko'l – Qorako'l, yangi yer – Yangiyer, katta qo'rg'on – Kattaqo'rg'on*), qo'shma so'zlarni so'z birikmalariga aylantirish (*paxtagul – paxta guli, boshog'rig' – bosh og'rig'i, badantarbiya – badan tarbiyasi, gulbozor – gul bozori*), berilgan qo'shma so'zlar lug'atini tuzish, ularning imlosini sharhlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish bu mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Juft otlar masalasi ham ancha murakkab masalalardan biri bo'lib, juft so'zlarni ular orasidagi ma'no munosabatlariga ko'ra uyadosh so'zlar (*aka-uka, ota-ona, ko'z-qo'loq, og'iz-burun, tog'a-jiyan* v.h.), ma'nodosh so'zlar (*uy-joy, shirin-sharbat, kuch-quvvat, baxt-saodat, tog'u-tosh, makr-hiyla* v.h.), qarama-qarshi ma'noli so'zlar (*do'st-dushman, kecha-kunduz*) singari guruhlariga ajratish, faqat bitta tovushning o'zgarishi bilan takrorlanadigan *bug'doy-mug'dooy, ko'rpa-mo'rpa, choy-poy, osh-posh,*

*maxta-maxta* singari juft soʻzlarning maʼnosini sharhlash singari topshiriqlardan foydalansa boʻladi.

“Sifat” soʻz turkimini oʻqitish. Sifat, uning lugʻaviy shakllari, yunalishi 6-sinfda oʻrganiladi. «Sifat» soʻz turkumini oʻrganishda oʻta muhim masalalardan biri qoʻshma sifatlar va juft sifatlar imlosidir. Mazkur mavzuni oʻrganishda “ot+feʼl+ar”, “sifat+feʼl+ar”, “son+feʼl+ar” qolipli hodisalar ustida ishlash (mas., *muzyorar, ertapishar, beshotar*), “Imlo lugʻati”dan bu sifatlarni ajratib yozish, bittia tushunchani, belgini ifodalab kelgan “ot+ot”, “sifat+ot” qolipli qoʻshma sifatlar (mas., *bodomqovoq, sarviqomat, koʻkkoʻz, qorasoch, oq koʻngil*) ustida ishlash; tarkibida *nim, yarim, umum, -aro, rang* soʻzlari boʻlgan qoʻshma sifatlar roʻyxatini davom ettirish; berilgan juft sifatlarni qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar bilan almashtirish, juft va takroriy sifatlar roʻyxatini tuzish; ular orasida ahiziqchanning qoʻyilishi ustida ishlash kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shundan soʻng oʻquvchilar asliy va nisbiy sifatlar hamda asliy sifat darajalari bilan tanishadilar. Asliy va nisbiy sifatlar soʻz oʻzagiga *-roq* qoʻshimchasini erkin qabul qila olishi va qabul qila olmasligiga qarab farqlanadi. Oʻquvchilar berilgan sifatlar *-roq* qoʻshimchasini qoʻshib, bu qoʻshimchani erkin qabul qiladigan sifatlarni asliy va nisbiy sifatlar ajratadilar hamda umumlashma fikr hosil qiladilar.

“Asliy sifat darajalari” mavzusini oʻrganishda oʻquvchilar asliy sifatlar belgining koʻlamini ifodalab kelishiga koʻra: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja kabi uch guruhga ajralishini, ularning hosil boʻlishini, maʼnosi imlosi va talaffuzini bilib oladilar. Mazkur mavzuni oʻrganish jarayonida oddiy, qiyosiy, orttirma darajadagi sifatlar roʻyxatini tuzish, ularning maʼnosini qiyoslash, shu darajalarni hosil qiluvchi qoʻshimchalarning oʻzaro sinonimik munosabatga kirishi kabi ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, berilgan gaplarda yoki matnda – *roq* qoʻshimchasini shunga yaqin maʼno anglatuvchi *-ish, -mtir, -imtir* qoʻshimchalari, *biroz* soʻzi bilan almashtirish (mas., *qoraroq – qoramtir – bir oz qora, qizilroq – qiziqish – biroz qizil*), orttirma daraja hosil qilgan maʼlum bir vosita (eng) oʻrnida shu maʼnoni beruvchi boshqa vositani (mas., *juda gʻoyat, nihoyat, behad, cheksiz, gʻoyatda, nihoyatda*) qoʻllash sifat yasovchi qoʻshimchalarni sinonimlari bilan almashtirish (mas., *-li, be-*: mazali – bemaza; *-li, adigan*: *yoqimli-yoqadigan*; *-li, -adigan*: *ajablanarli-ajablanadigan*; *-li, -dor*: *aybli- aybdor, gunohli-gunohkor*; *-gi, -ki, -qi, -dagi*: *pastki-pastdagi, kuzgi-kuzdagi*; *-k, -uk, -ak, -aq, -gan*: *chirik-chirigan, siniq-singan*; *-kir, -gir, -gʻir, -qir, -agʻon*: *chopqir-chopagʻon, topqir-topagʻon*; *-li, be-, -siz*: *aqlli-beaql-aqlsiz*,

*mazali-bemaza-mazasiz*) kabi ishlar o'quvchilar nutqini rivojlantirishda o'ta muhimdir.

O'quvchilar sifatlarning ma'no guruhleri bilan tanishtirilar ekan, asosiy e'tibor rang-tus sifatlari (*qo'ng'ir, pushti, jigarrang, ko'kish, sarg'ish* v.h.), maza-ta'm sifatlari (mas., *achchiq, taxir, nordon, chuchuk, shirin, asaldek. Tilyorar* v.h.), xususiyat bildiruvchi sifatlari (mas., *sodda, quvnoq, sho'x, kamtar, ayiqsimon, bo'ydor, andishali* v.h.), holat bildiruvchi sifatlari (mas., *xursand, ho'l, issiq, navqiron, uyg'oq* v.h.), shakl (ko'lam) sifatlari (mas., *baland, do'mboq, uzun, beso'naqay, xushbichim* v.h.), hid bildiruvchi sifatlari (mas., *muattar, qo'lansa, xushboy, badboy* v.h.), miqdor sifatlari (mas., *ko'p, mo'l, oz, serob, kamchil* v.h.)ni ro'yxat qilish, ularning ma'no nozikligi ustida ishlash, sifatlarning har bir ma'no guruhleri ishtirokida so'z birikmalari va gaplar hosil qilish, belgining oshib borishiga qarab sifatlarni birin-ketin joylashtirish, sifatlarga ma'nodosh, zid ma'noli so'zlar topish singari ijodiy-amaliy ishlarni bajaradilar. Mazkur so'z turkumini o'rganish «Ranglar jilosi» ma'rifiy matni (darslikning 135-betida) ustida ishlash bilan yakunlanadi. O'quvchilar qadim-qadimdan ota-bobolarimiz ranglar jilosi, ularning uyg'unligiga katta e'tibor bilan qaraganliklarini bilib oladilar.

“Sifat” so'z turkumini o'rganishda uning ichki ma'no guruhleri ustida ishlash, sifatlari ishtirok etgan so'z birikmalari hosil qilish, bu so'z turkumiga oid materiallarni semantika va stilistika bilan uzviy aloqadorlikda o'rganish, sifat sinonimlar va sifat antonimlar ustida maxsus ish olib borish, har xil o'yin, topshiriqlardan foydalanish kabilar mazkur so'z turkumini o'rganishni ancha osonlashtiradi.

“Son” so'z turkumini o'qitish. Maktabda «Son» so'z turkumini o'qitishdan ko'zlangan amaliy maqsad o'quvchilarni predmetning son-sanog'ini ifodalovchi so'zlar olamiga olib kirish, ulardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalana olish, imlo savodxonligini oshirish, talaffuz me'yorlarini shakllantirishdir. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilar son yuzasidan boshlang'ich sinfda zaruriy ma'lumotlar bilan qurollantirilganligi tufayli ulardan nutqiy faoliyatda foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Shuning uchun izchil kursda bu so'z turkumidan o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar silsilasi uncha ko'p emas. Ular, asosan, oldin egallangan bilimlarni takrorlaydilar hamda sonning ichki ma'no guruhleri, qo'shma va juft sonlar, ularning imlosi va talaffuziga oid zaruriy ma'lumotlarni egallaydilar. Takrorlash va oldingi sinflardan egallangan bilimlarga asoslangan holda o'quvchilarni miqdor hamda tartibni bildirib, *necha?*, *nechanchi?*, *qancha?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar sonlar ekanligi, sonlar *sanoq, dona, chama, kasr,*

*jamlovchi, tartib sonlar* kabi ma'noviy guruhlarga bo'linishi xususida xulosaga keladilar.

Sonlarning ma'no guruhlarini o'rganish natijasida o'quvchilar berilgan so'zlarni bir turdagi predmetning umumiy ma'nolarini anglatgan sonlar (*to'rt kishi, sakkiz yil, o'n besh kun* kabi), bir xil predmetlarning yukkala, donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatgan sonlar (*uchta qalam, yigirmata qoramol, o'ttiz uchta sinf* kabi), taxminiy miqdorni anglatadigan sonlar (*o'ttiztacha, yuzlarcha, minglab* kabi), miqdorni bir guruhga birlashtirib ifodalaydigan sonlar (*ikkov, to'rtov, oltovlon* kabi), predmetlarni taqsimlashni ifodalaydigan sonlar (*o'ntadan, yuztadan, mingtadan* kabi)ga ajratadilar va ularni qiyoslash natijasida ma'no nozikligini bilib oladilar.

O'zbek tilida qadimdan qo'llanilgan va ma'nosi ko'pchilikka tushunarli bo'lmagan *lak, tuman, botmon, chaqirim, farsah, tanob, sadyak, misqol, qirot; baynalmilal fut, dyum funt, mil* kabi so'zlarning lug'aviy ma'nosi ustida ishlash, shuningdek, *millimetr (mm), santimetr (sm), detsimetr (dm), metr (m), kilometr (km), kilogramm (kg), sentner (ts), tonna (t), gektar (ga), milliard* kabi so'zlarning ma'nosi, qo'llanilishi ustida to'xtash ham foydalidir.

"Son" so'z turkumini o'rganishda o'yin-topshiriqlar, topishmoqlardan keng foydalaniladi. Bu topishmoq va topshiriqlar sonlarning ichki ma'no guruhlari, ma'lum bir ma'no guruhidan boshqa bir ma'no guruhidagi so'zlar hosil qilish, sonlar sinonimiyasi, ularning imlosi kabi muhim masalalarga bag'ishlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur so'z turkumini o'rganishda, ayniqsa, "Maktabimiz tarixi", "Maktabimiz ustaxonasi jihozlarini topshirish va qabul qilish" kabi mavzularda matnlar yozdirish foydalidir.

**Ravish so'z turkumini o'qitish.** Ma'lumki, mustaqil ma'noli o'zgarmas so'zlar ravishlardir. Ravishlar belgini, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nolarni ifodalaydigan, lug'aviy shakllarga ega bo'lmagan mustaqil ma'noli o'zgarmas so'zlar bo'lib, ular o'z ma'nosi bilan ot, sifat, sonlarga yaqin turadigan so'zlar sanaladi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni qabul qila olmasligi bilan yuqoridagi so'zlardan farq qiladi. O'quvchilar berilgan so'zlarga ko'plik (-lar), qiyosiy daraja (-roq), egalik (-im, -ing, -i, -si), kelishik (-ning, -ni, -ga, -da, -dan) qo'shimchalarini qo'shib, bu qo'shimchalarni qabul qilmaydigan so'zlarni aniqlash, o'zgarmas so'zlar qatorini davom ettirish, berilgan ravishlarni ma'no guruhlariga ajratish, *-ona, -larcha, -chasiga* qo'shimchalari yordamida so'zlar hosil qilish orqali bu turkumdagi so'zlar xususida umumiy ma'lumotga ega bo'ladilar.

Ravish xususida umumiy ma'lumot berilgach, ular tub va yasamalarga ajratiladi. Tub va yasama ravishlarni o'rganish jarayonida *-larcha, -ona, -an, -lay, -incha* qo'shimchalari yordamida so'zlar hosil qilish (mas., *yangicha, boshqacha, qahramonlarcha, o'rtog'larcha, buxorochasiga, eskichasiga issiqligicha, tirikligicha, saharlab, nahorlab, mardona, fikrona, umuman, taxminan, butunlay, tiriklayin, ko'pincha, aksincha*), berilgan so'zlardan qo'shma ravishlar hosil qilish, bu so'zlar yordamida gaplar qurish singari amaliy ishlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Ravishlarning ma'no guruhleri ustida ishlash ham o'quvchilar lug'atini boyitishning muhim manbaidir. Xususan, berilgan matn yoki gaplarda *qanday?, qay tarzda?, qay holda?* so'roqlariga javob bo'ladigan holatni ifodalovchi so'zlarni ajratish (mas., *qahramonlarcha, botirlarcha, fidokorona, astoydil, qachon?, qachongacha?, qachondan?, qaerga?* so'roqlariga javob bo'ladigan o'rinni ifodalovchi so'zlar ro'yxatini tuzish (mas., *unda, bunda, pastda, quyida, uzoqda*), *qancha?, qay darajada?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni alohida guruhlash (mas., *juda, ozozdan, g'oyat, ancha, sal, mo'l*), u so'zlarga ma'nodosh va uyadoshlar tanlash, har bir guruhdagi so'zlarning ma'no nozikligi ustida ishlash, bu so'zlar yordamida gaplar tuzish, matnlar yaratish kabi amaliy ishlardan foydalanish yaxshi samara ko'rsatadi. Ravimshlarning ma'no guruhleri ustida ishlashda berilgan qoliplar (mas., «sifat +*ligicha*», «son +*lab*» v.h.) so'zlar hosil qilish, bu hosilalarning ma'nosini sharhlashdan ham foydalansa bo'ladi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda ravishlar qatnashgan so'z birikmalaridan foydalanish mumkin. Xususan, berilgan gaplar yoki matndan ravishlarni topib, uni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirish, berilgan fe'lga ravishlar topib qo'yib, so'z birikmalari hosil qilish yoki berilgan so'zga ma'nodosh ravishlarni qo'shib, so'z birikmalari yaratish kabi ishlar foydalidir.

Mazkur so'z turkumini o'rganishda ajratib va qo'shib yoziladigan qo'shma ravishlar hamda juft ravishlar imlosiga alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi. Bu so'zlarni alohida-alohida guruhlarga ajratish, har bir guruhni mustaqil davom ettirish kabi amaliy ishlar o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhimdir.

Xullas, "Ravish" so'z turkumini o'rganishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish imkoniyatlari katta. O'qituvchi o'rganilayotgan til hodisasining o'ziga xos xususiyatlari va mavjud shart-sharoitlarni hisobga olib, ulardan o'rinli va unumli foydalana olmog'i lozim.

“*Olmosh*” soʻz turkumini oʻrganish. Maʼlumki, turkiyshunoslikda olmosh nafaqat ot, sifat, son, balki feʼl, ravish, taqlidiy soʻzlar, undovlar va hatto matnni ham almashtirishi, ularga ishora qilishi maʼlum. Shuni nazarda tutib, mazkur soʻz turkumi barcha mustaqil soʻz turkumlaridan keyin oʻqitiladi.

Oʻquvchilar olmosh xususidagi dastlabki maʼlumotlarni boshlangʻich sinflarda egallaganlar. Shuning uchun mazkur soʻz turkumini oʻrganishda, avvalo, ana shu maʼlumotlarga tayanmoq lozim. Ular oldin egallagan bilimlarga asoslanib, berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan soʻzlar (olmoshlar) qaysi soʻz, gap, voqea – hodisaga ishora qilayotganligini aniqlashlari mumkin.

“*Olmosh*” soʻz turkumi xususidagi izchil bilimlar 7-sinfda beriladi. Oʻquvchilar berilgan gap juftliklarida ajratilgan soʻzlar oldingi gapdagi qaysi soʻzga ishora qilayotganligini aniqlash, ularning gapdagi vazifasini tushuntirish; bir gapni ikki yoki uch gapga ajratish, gaplarni oʻzaro mazmunan bogʻlashda olmoshlardan foydalanish; berilgan gap juftliklarini bir gapga birlashtirish; olmoshlarni qatnashtirib gaplar tuzish singari amaliy topshiriqlar orqali bu soʻz turkumi xususida maʼlumotga ega boʻladilar.

Shundan soʻng olmoshlarning maʼno guruhleri oʻrganiladi. «Koʻrsatish olmoshlari» mavzusi oʻrganilar ekan, *bu, shu, oʻsha, u* olmoshlari gapdagi biror soʻzni aniqlab kelishi ham, matndagi biror tushuncha yoki fikrga ishora qilib, uni almashtirib kelishi ham mumkinligini bilib oladilar. Mazkur mavzuni oʻrganishda asosiy eʼtibor olmoshlarning maʼnosi, imlosi, talaffuzi va qoʻllanilishiga qaratiladi.

Kishilik olmoshlari xususidagi dastlabki maʼlumotlar boshlangʻich sinfda, shuningdek, 5-sinfda berilgan. 7-sinfda esa bu bilimlar takomillashtiriladi.

Oʻquvchilar shaxs, predmet, voqea ishora etuvchi olmoshlarni puxta egallashlari uchun gap yoki matndan (mas., *Rahimjon bugun xursand. U chigal jumboqni echdi. Rasmda chiroyli manzara tasvirlangan ekan. Bunday rasmlardan biz oʻzbek tili mashgʻulotlarida tez-tez foydalanamiz*) *men, sen, u, biz, siz, ular, bu, shu, oʻsha, ana, mana, mana bu, anavi* singari olmoshlarning nimalarga ishora etayotganligini aniqlashlari, matndagi yoki gaplardagi soʻz, soʻz biriknasi, gap, voqea-hodisa tavsifini ishora soʻzlar bilan almashtirishlari maqsadga muvofiqdir.

Oʻzlik olmoshi predmetni aniqlab yoki taʼkidlab koʻrsatish uchun xizmat qiladigan olmoshdir. Oʻquvchilar berilgan gaplardagi koʻrsatish, kishilik olmoshlarini oʻz soʻzi bilan kuchaytirib yozish, bu soʻz ishtirokida



gap tuzish yoki matn yaratish, o'z so'zining ifodalab kelayotgan ma'nosini sharhlash orqali uni o'zlarining nutqiy faoliyatlariga olib kiradilar.

"So'roq olmoshlari" mavzusini o'rganishda berilgan gaplarni o'qib, so'roq ma'nosi qaysi so'z bilan ifodalanayotganligini aniqlash, shu gaplarda so'roq, ifodalovchi so'zlarni: 1) shaxs, hayvon yoki narsa-buyum, voqea-hodisa nomlari so'roqlari; 2) belgi-xususiyati so'roqlari; 3) harakat-holat so'roqlari kabi guruhlarga ajratib, ularni mustaqil davom ettirish, so'roqlar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chirish, istagan matndagi gaplarni o'qib, har bir so'zni birin-ketin so'roqlar bilan almashtirish, bu gaplarning ohangi, imlosi ustida ishlash mazkur mavzuni o'rganishni ancha osonlashtiradi, samaradorlikni oshiradi.

So'roq olmoshlarini o'rganishda - *mi* so'roq yuklamasining so'roq olmoshli gaplarda ta'qid, so'rash ma'nolarida ishlatilishi hamda ularda tinish belgilari xususida ham to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Olmoshning yana bir ma'no guruhi belgilash olmoshlaridir. O'quvchilar berilgan matndan *shunday, shunaqa, muncha, shuncha* so'zlari ifodalagan ma'noni, qanday so'zlarga ishora qilib kelayotganligini aniqlash, bunday olmoshlar ro'yxatini tuzish, ular ishtirokida matn yaratish orqali bu haqda puxta bilimga ega bo'ladilar.

Tilimizda jamlash olmoshlari ko'p emas, o'quvchilar *hamma, bari, jami, butun, yalpi* so'zlarining ma'no va vazifasi ustida ishlash, bu so'zlar yordamida gaplar tuzish singari amaliy ishlar orqali mazkur mavzuni o'zlashtiradilar. O'quvchilar lug'at boyligiga belgilash, bo'lishsizlik va gumon olmoshlarini olib kirish, bu so'zlarning nutqiy faoliyatda qo'llanishini ta'minlash uchun so'roq olmoshlarini *har, hech va alla* so'zlari bilan biriktirib qo'shma so'zlar hosil qilish, *hech kim, hech narsa, har bir, har narsa, allakim, allanima, allaqanday, allamahol, allaqachon, allavaqt, nimanidir, kimnidir, qayerdadir, qayerdandir, qachondir* kabi so'zlarning ma'nolari, qo'llanishi ustida ishlash, "*har +ot*", "*hech+ot*", "*alla+ot*" singari hosilalar lug'atini tuzish kabi amaliy ishlardan unumli foydalanishga to'g'ri keladi.

So'roq olmoshlari o'rganilayotganda uning turli xil ko'rinishlari (*kim, nima, qanaqa, qanday, qaysi, qancha, qachon, necha, qayer* kabi) o'zaro sinonim sifatida ishlatishga oid amaliy mashqlardan foydalanish o'rinlidir. Ayniqsa, berilgan gaplarda yoki matnda ajratilgan olmoshlarni uning ma'nodoshi bilan almashtirish (mas., Sinfdoshim Mo'tabar sizning kimingiz bo'ladi? – Sinfdoshim Mo'tabar sizning nimangiz bo'ladi? kabi) samarali usullardan biridir.

Sinonimlari mavjud olmoshlarni alohida ro'yxat qilish (mas., *hammasi – jami – barcha – bari; allakim – kimdir – allanima – nimadir,*

*allaqanday – qandaydir* kabi), ular ishtirokida gap yoki matnlar yaratish o'quvchilar nutqini rivojlantirishda muhimdir.

Muzkur so'z turkumini o'rganishda juft va takroriy olmoshlar ustida tahlilga ham to'g'ri keladi. Berilgan juft yoki takroriy olmoshlarni (mas., *shu-shu, o'sha-o'sha, u-bu, uni-buni, necha-necha* v.h.) qatnashtirib gaplar hosil qilish, ularning ma'nosini sharhlash bu mavzuni o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

**Taqlidiy so'zlar va undovlarni o'rganish.** Tilimizda mustaqil so'z turkumlariga ham, yordamchi so'z turkumlariga ham kirmaydigan taqlidiy so'zlar va undovlar bo'lib, o'quvchilarni bu so'zlar olamiga olib kirish ularning nutqiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

Ma'lumki, taqlidiy so'zlar ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) tovushga taqlid bildiruvchi so'zlar; b) holatga taqlid bildiruvchi so'zlar.

O'quvchilar lug'atini tovushga taqlid bildiradigan so'zlar bilan boyitish maqsadida berilgan so'zlarni (mas., *inga-inga, gumbur-gumbur, pix-pix, viz-viz, vish-vish, vaq-vaq, miyov-miyov, bildir-bildir, hov-hov* v.h.) inson tovushiga taqlid so'zlar, hayvon, qush, hasharotlar chiqaradigan tovushga taqlid so'zlar, tabiat hodisalari chiqargan tovushlarga taqlid so'zlarga ajratib, bu so'zlar guruhini mustaqil davom ettirish, tovushga taqlid so'zlarni to'liq takrorlangan (mas., *gumbur-gumbur, guldur-guldur*) va tovushlar takrori (mas., *taq-tuq, shaq-shuq*) kabi guruhlariga ajratish, ular yordamida gaplar tuzish, matn yaratish, taqlid so'zlarda ma'noning tarayishi (mas., shaqshaqa, tartarak, sharshara), ularning qo'llanishi va imlosi ustida ishlashga oid amaliy ishlar bajariladi.

Holatga taqlid so'zlar ustida ishlashda ham xuddi shunga o'xshash ish usullaridan (mas., holatga taqlid so'zlar ro'yxatini tuzish, berilgan so'zlarning uyadoshlarini topish, bu so'zlar yordamida gaplar tuzish, matn yaratish v.h.) foydalansa bo'ladi.

Juft va takrorlanib qo'llangan taqlid so'zlar orasida chiziqcha qo'yib yozish malakasi yuqorida tilga olingan har bir amaliy ish orqali o'quvchilarga singdirib boriladi.

Undovlarni o'rganishda ham, ularning ma'no guruhlarida ustida ishlashda ham o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish muhim talab sanaladi. Berilgan undovlarni ma'no jihatidan his-hayajon undovlari (mas., *oh, eh, uh, o, e, voy, ura, ofarin, rahmat, hormang, balli, hay-hay, bay-bay, xo'sh*) va haydash-chaqirish undovlari (mas., *kisht, chuh, beh-beh, po'sht-po'sht*)ga ajratish, ro'yxatni mustaqil davom ettirish, ularning yakka holda yoki takror qo'llanganligini aniqlash, imlosini sharhlash, har bir undov so'zning ma'no nozikligi ustida ishlash, ular yordamida gaplar tuzish, matn yaratish, *oh-vohlari, dodiga yet, voy-*

*voylari* singari ma'nosi toraygan undovlarning nutqda qo'llanishi ustida ishlash kabi amaliy ishlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy asarlardan undovli gaplarga misollar toptirishning ahamiyati katta. Undovning ma'no guruhlari ustida ishlash ularning imlosi ustida ishlash bilan qo'shib olib boriladi.

Mazkur mavzuni o'rganishda xalqimizning asriy urf-odatlaridan biri – minnatdorchilikni ifodalovchi *hormang, bor bo'ling, rahmat, tashakkur, barakalla, ofarin, balli* kabi undov so'zlarni o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirishga alohida e'tibor berish lozim. Xullas, taqlid so'z va undovlar ustida ishlash o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Modal so'zlarni o'rganish.** Tilimizda so'zlovchining anglashilayotgan fikrga munosabatini ifodalovchi *albatta, darhaqiqat, shubhasiz, tabiiy, aslida, chamasi, balki, ehtimol, koshki, qaniydi, darvoqe, nahotki* singari bir qator so'z - gaplar borki, ularning ma'nosini bilish va nutqda qo'llanishini ta'minlash mazkur mavzuni o'rganishda ko'zlanadigan asosiy maqsadni tashkil etadi.

O'quvchilarni modal so'zlar olamiga olib kirishning eng qulay usullaridan biri berilgan so'zlarni: a) fikrning rostligi, chinligini ifoda etuvchi so'zlar (mas., *albatta, haqiqatdan, tabiiy, so'zsiz*); b) fikrning noaniqligini ifoda etuvchi so'zlar (mas., *balki, chamasi, ehtimol*); v) istakni ifoda etuvchi so'zlar (mas., *zora, shoyadki*); g) kutilmaganlikni ifoda etuvchi so'zlar (mas., *nahot, nahotki*)ni ajratish, bu so'zlar ro'yxatini mustaqil davom ettirish, ularning ma'no nozikligi ustida ishlash, berilgan modal so'zlarga ma'nodosh so'zlar topish, gapda yoki matnda ma'lum bir modal so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtirish, shunday so'zlar ishtirokida gaplar tuzish, matn yaratish kabilar muhim sanaladi. Mazkur ish usullaridan foydalanishda modal so'zlarning gapda vergul bilan ajratilishiga ham alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi.

**Yordamchi so'zlarni o'qitish metodikasi.** Ma'lumki, yordamchii so'zlar haqida ilk ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda beriladi. 7-sinfda o'quvchilar gaplarni gap bo'laklariga ajratish, mustaqil holda gap bo'lagi bo'lib kela olmaydigan so'zlar ro'yxatini tuzish, bu ro'yxatni mustaqil davom ettirish, shunday so'zlar yordamida gaplar tuzib, bu so'zlarning vazifalari ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.

Yordamchii so'zlarning muhim qismini *ko'makchilar* tashkil etadi. Tilimizda *bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar, tomon, sababli, orqali, tufayli, qarab, ko'ra, chog'li, uzra* singari juda ko'p so'zlar borki, nutqiy faoliyat uchun ularning ahamiyati katta. Mazkur mavzuni o'rganishda berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan so'zlarni (mas., *uchun, orqali*)

kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish (mas., Bu ertaklar to'plamini *singlim uchun* oldim. – Bu ertaklar to'plamini *singlimga* oldim. Mehribon *telefon orqali* men bilan so'zlashdi. –Mehribon *telefonda* men bilan so'zlashdi v.h.), bu so'zlar va kelishiklar orasidagi o'xshashlik, farqini tashkil qilish «*ot + ga ko'ra (qarshi, tomon, qarab, qaramasdan, qaramay)*», «*ot + dan so'ng (boshqa, keyin, tashqari, bo'lak)*» singari hosilalar ustida tashkil qilish, bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar (mas., *bilan, uchun, sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, bo'ylab, chamasi, haqida*), jo'nalish kelishidagi so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar (mas., *tomon, qadar, ko'ra, qarab, qaraganda, qarata*), chiqish kelishidagi so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar (mas., *so'ng, keyin, boshqa, tashqari*)ni alohida-alohida ro'yxat qilish, ma'lum bir ko'makchini uning sinonimi bilan almashtirish, gaplarda *bilan* so'zini va bog'lovchisi bilan almashtirish, bu so'zlarning qaysi holatda bog'lovchi bo'lib kelishini aniqlash kabi amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi.

Yordamchi so'zlarning yana bir muhim qismini bog'lovchilar tashkil etadi. Bu so'zlarni o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun gapda gap juftliklarini o'zaro biriktirib, bitta gapga aylantirish, ularning o'zaro bog'lanish vositalarini aniqlash, juft va yakka bog'lovchilarni alohida-alohida guruhlarga ajratish, teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar ro'yxatini shakllantirish, ular yordamida gaplar tuzish, matn yaratish kabi amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi. Mazkur mavzuni o'rganishda ohang va bog'lovchilarning o'zaro vazifadoshligi ustida ishlashni ham unutmash lozim.

Yuklamalarni o'rganish jarayonida berilgan gaplarni o'zaro qiyoslab, ma'no farqlarini aniqlash (mas., Gullarga suv berdim – Gullarga suv berdim-ku), berilgan yuklamalarni (mas., *-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -u, -yu, -da, -oq, -yoq, -xuddi, faqat*) ifodalab kelayotgan ma'nosiga ko'ra: a) so'roq va taajjub yuklamalari; b) kuchaytiruv va ta'qid yuklamalari; v) ayiruv va chegaralov yuklamalari; g) inkor yuklamalariga ajratish, ular yordamida gaplar tuzish, har bir yuklamaning ma'no nozikligini sharhlash, so'z-yuklamalar va qo'shimcha-yuklamalar ro'yxatini tuzish, ularning imlosi, tinish belgilari ustida ishlash kabi topshiriqlardan unumli foydalanish mumkin. Ayniqsa, yuklamalardan foydalanib, matnlar yaratish, tasviriy, rivoya va muhokama insholar yozish kabi amaliy ishlar nutqiy taraqqiyot uchun muhimdir.

**Morfologik tahlil metodikasi.** Morfologik tahlil o'z mazmuniga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. So'z tarkibi bo'yicha tahlil.

2. Soʻz turkumlari boʻyicha tahlil. Bu tahlillar birin -ketin oʻtkazilishi kerak, ular bir- biriga bogʻliq boʻlib, biridagi nuqson ikkinchisiga taʼsir qilishi mumkin. Soʻz tarkibi boʻyicha tahlil orfografiya va soʻz yasalishi hodisalari bilan uzviy bogʻliqdir. Soʻz turkumlari boʻyicha tahlil esa gapda soʻzlarning ikkinchi bir turkum vazifasida kelishi, soʻzlarning belgisi (qoʻshimchali) va belgisiz (qoʻshimchasiz) qoʻllanish hodisalari bilan bogʻlanadi. Soʻzni oʻzak va qoʻshimchalarga ajratishni bilmagan oʻquvchi soʻz yasalish yoʻllarini, soʻz oʻzgarishini, shular bilan bogʻlangan toʻgʻri yozish qoidalarini ongli ravishda oʻzlashtira olmagan boʻlib chiqadi.

### 1. Soʻz tarkibi boʻyicha tahlil

Soʻz tarkibi boʻyicha tahlil morfologik tahlilning bir koʻrinishi boʻlib, bir qancha mavzularni oʻz ichiga oladi: soʻzning oʻzagi, qoʻshimcha, qoʻshimchalarning maʼno va vazifasiga koʻra turlari (soʻz yasovchi, soʻz shaklini yasovchi); soʻzning negizi; sodda, qoʻshma, juft soʻzlar va boshqalar. Soʻz tarkibi boʻyicha oʻtkaziladigan tahlil soʻzdagi ikki qismni –soʻzning asosiy maʼnosini anglatuvchi qismni, shuningdek, soʻzning grammatik maʼnosini anglatuvchi qismni ajratishdan boshlanadi.

Soʻzning asosiy maʼnosini anglatuvchi qismni ajratishda quyidagi holatlar hisobga olinadi: soʻzning tarkibidagi tarixiy holat va soʻzning tarkibidagi hozirgi holat. Masalan, *qishloq, yaylov, ogʻayni* kabi soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida morfologik qismlarga ajralmaydi, lekin bunday soʻzlar tarixiy jihatdan qismlarga ajralgan. Demak, soʻzni maʼnoli qismlarga ajratishda etimologik jihatdan yondashmaslik kerak. Berilgan gapdagi soʻzlarni oʻzak va qoʻshimchalarga ajratishda aniq, yaqqol koʻrinib turadigan jadvallardan foydalanish oʻrinlidir. Maʼlumki, oʻrta maktablarda morfologik tahlilning turli usullaridan foydalaniladi. Biz bu oʻrinda Sh.U.Rahmatullayev va dotsent Y.G.Gʻulomov usullaridan foydalanib, morfologik tahlilning yagona umumlashgan jadvalini joriy etish tarafdorimiz.

Grammatik tahlil uchun masalan, quyidagi gap berilgan boʻlsin:

*Biz bu quvonchli kunlarga osonlik bilan etib kelmadik.* (A.Q)

Berilgan gapdagi soʻzlar, avvalo, soʻz tarkibi boʻyicha tahlil qilinadi. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) gapdagi har bir soʻzning asl maʼnoli va grammatik maʼnoli qismlari ajratiladi;

b) yasalgan soʻz boʻlsa, negiz ajratib koʻrsatiladi; yasama negiz boʻlsa, oʻzak va yasovchi qoʻshimcha; qoʻshimcha negiz boʻlsa oʻzaklar ajratiladi;

v) soʻz oʻzgartuvchi va forma yasovchi qoʻshimchalar aniqlanadi;

g) imlo bilan bogʻliq tomonlar izohlanadi.

### 2. Soʻz turkumlari boʻyicha tahlil

Soʻz turkumlari boʻyicha oʻtkaziladigan tahlil, soʻz tarkibi boʻyicha oʻtkaziladigan tahlil kabi morfologik tahlilning bir koʻrinishi boʻlib, muhtab dasturidagi «Soʻz turkumlari» mavzusining masalalarini qamrab oladi. Oʻquvchi matndagi soʻzlarni turkumlarga toʻgʻri ajrata olsa, gap boʻlaklarini aniqlashda ham qiynalmaydi. Demak, bu tahlil oʻz-oʻzidan sintaktik tahlil bilan bogʻlanadi. Soʻz turkumlarining mohiyatiga toʻla tushunmasdan turib, sintaktik tahlil vaqtida gapning bosh boʻlaklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan soʻzlar («boʻlaklar»)ni aniqlash mumkin emas. Soʻz turkumlari boʻyicha oʻtkaziladigan tahlilning birinchi bosqichini gapdagi soʻzlarni turkumlarga ajratishdan – soʻzlarni morfologik jihatdan tasnif qilishdan boshlash kerak. Bundan soʻng har bir turkumning ichki xususiyatlari koʻrsatiladi.

### Amaliy mashgʻulot uchun savol va topshiriqlar:

#### I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.

1-savol: *Morfologiya boʻlimini oʻrganishda qaysi oʻquv-meʼyoriy hujjatlarga asoslaniladi?*

(Xudodan qoʻrq, bandasidan sharm qil) خدادن قورق ، بنده دن شرم قيل  
muqolidagi soʻzlarni morfologik tahlil qiling.

2-savol: *Morfologiya boʻlimini oʻrganishda soʻz boyligini oshirish imkoniyatlari qay darajada?* Maqollarning ogʻzaki nutqni oʻstirishdagi ahamiyatini yoriting.

(Doʻstingga holingni ayt, dushmaningga lof) دوستينگگه حالينگدى ايت ،  
دوستينگگه لوف maqoli mazmunini ogʻzaki nutq kompetensiyasi talablari asosida izohlang.

3-savol: *Morfologiya haqidagi maʼlumotlar oʻrta va oʻrta maxsus taʼlimning qaysi bosqichlarida oʻrganiladi?*

4-savol: *Morfologiya boʻlimining oʻquvchilar nutqini oʻstirishdagi ahamiyati nimalardan iborat?*

سوودى آقيشى سيزيلر ، وقت دى آقيشى سيزيلمس

(Suvdi oqishi sezilar, vaqtdi oqishi sezilmas) maqoli mazmunini ogʻzaki nutq kompetensiyasi talablari asosida izohlang. Morfologik koʻrsatkichlarni tavsiflang, fonetik oʻzgarishlarga eʼtibor bering.

5-savol: *Soʻz turkumlarini oʻrgatishda tasnifning qanday ahamiyati bor?*

6-savol: *Mustaqil soʻz turkumlarining sintaktik sath yoki boshqa boʻlimlar bilan bogʻliqligini taʼminlashda qaysi texnologiyalardan foydalanish mumkin?*

7-savol: *Soʻz turkumlarini oʻrgatishda morfemika (soʻz tarkibi)ga bogʻlab tushuntirishning ahamiyatini yoriting.*

(Tuhmatti umri qisqa) تهمت تى عمرى قيسقه . Ushbu maqoldagi soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajrating.

8-savol: *Mustaqil soʻz turkumlarini oʻrgatishda fonetika bilan bogʻliqlikni qanday amalga oshirish mumkin?*

بولت كانى توكنر ، علم كانى توكنمس  
(Davlat koni tuganar, ilm koni tuganmas) maqolidagi soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajrating.

9-savol: *Mustaqil soʻz turkumi bilan yordamchi soʻz turkumlarining oʻzaro farqlarini oʻquvchilarga qanday usullar bilan tushuntirish lozim?*

كوز بولسه كورمس بولمسين ، كوچيك بولسه هورمس  
(Koʻz boʻlsa koʻrmas boʻlmasin, kuchik boʻlsa hurmas) maqolidagi soʻzlarni turkumlarga ajrating.

10-savol: *Sof va vazifadosh koʻmakchilarni mustahkamlashda qaysi ish turlaridan foydalanish mumkin?*

11-savol: *Bogʻlovchi mavzusini oʻtishda uning koʻmakchidan farqini qay yoʻsinda tushuntirasiz?*

12-savol: *Yuklamaning maʼno turlarini oʻtishda qanday ijodiy ishlardan foydalanish mumkin?*

تېلینگ يامان بولسه هم ، دليگ يامان بولمسين  
(Tiling yomon boʻlsa ham, diling yomon boʻlmasin) maqolidagi yuklamaning vazifasini tushuntiring. Ham yuklamaning boshqa vazifalarini misollar asosida izohlang.

13-savol: *Undov, taqlid va modal soʻzlarning nima uchun alohida guruhga mansubligini, ularning mustaqil soʻzlarga oʻxshash tomonlarini oʻquvchilarga qanday yoʻllar bilan oʻrgatasiz?*

14-savol: *Kishilar nutqida uchraydigan tasdiq va inkor soʻzlar hamda ularning vazifasi haqida nimalar bilasiz?*

(Koʻpchilik bor yerda, toʻqchilik bor) كوچى ليک بار ، توقچى ليک بار  
maqolining mazmunini saqlagan holda shaklan inkor gapga aylantiring.

1-topshiriq. *Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻzbek tili boʻyicha DTSining "Morfologiya" boʻlimini oʻrganing.*

2-topshiriq. *Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻzbek tili dasturining "Morfologiya" boʻlimini oʻrganing.*

3-topshiriq. *Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻzbek tili darsligining "Morfologiya" boʻlimini oʻrganing.* اورگنماق بېر هنر ، اورگنماق ايکكى

(Oʻrganmoq bir hunar, oʻrgatmoq ikki hunar) maqolini soʻz turkumlarini boʻyicha tahlil qiling.

4-topshiriq. "Morfologiya" bo'limiga oid mavzuda dars ishlanmasi tayyorlang.

5-topshiriq. Morfologiyani o'qitishning o'ziga xos belgilari haqida gapiring.

6-topshiriq. Fikrlaringizni ushbu jadval ko'rinishida ifodalang.

Morfologiya bo'limiga oid ma'lumotlarning o'quvchilar nutqini o'stirishdagi ahamiyati

(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

7-topshiriq. Namunadagidek slaydlar tayyorlang va ularning bajarilish yo'llarini ham tushuntiring. Masalan, yangi mavzu sifatida o'tiladigan "Dona son va uning yasalishi" mavzusini o'tishda nazariy qoidalarni o'quvchilarni qiziqtirish va faolligini oshirish maqsadida quyidagi slayd asosida tushuntirish mumkin. Darslikda berilgan qoida: Narsalarning miqdorini donalab ifolaydigan sonlar *dona son* deyiladi.

Ular -ta qo'shimchasi yordamida yasaladi: -ta qo'shimchasi o'rnida "dona, bosh, bog', nafar, tup, litr, gramm" so'zlari ham ishlatiladi. Beshta barmoq – besh barmoq, Qani, topingchi, o'rtoq?


8-topshiriq. Yuqoridagi chizma asosida qiziqarli topshiriqlar o'ylab toping.

9-topshiriq: Darslikdagi mashqlarni qiziqarli va quvnoq bajarish uchun g'ayrioddiy usullar o'ylab toping va ularni slayd ko'rinishida taqdim eting. Namuna: Slayd "Donoxonga guldasta,

Dona sondan bir dasta", – deb nomlanadi.

Bu slayddan darslikdagi 401-mashqni bajartirishda foydalanish mumkin.





Yana bir slayddan namuna. Bunda o'quvchilar viloyatlarni joylashtirishi kerak.



## SINTAKSIS BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI

### *Tayanch tushunchalar:*

*sintaksis, so'z birikmasi, so'z birikmasi turlari, gap, gap turlari, gapning tuzilishiga ko'ra turlari, sodda gap sintaksisi, qo'shma gap, qo'shma gap turlari, qo'shma gap sintaksisi, murakkablashgan sodda gaplar, murakkab qo'shma gaplar, sintaktik tahlil metodikasi, tahlil turlari, sintaksisni o'qitishning maqsadi, vazifalari, ohang, tinish belgilari, tilning grammatik qurilishi, grammatika, gap bo'laklari, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.*

**Ta'lim bosqichlarida sintaksis bo'limini o'qitishning maqsad va vazifalari.** Sintaksisning o'rganish obyekti so'z birikmasi va gapdir. Bu



bo'lim oldin o'rganilgan bo'limlar: fonetika, leksikologiya, so'zlarning bog'aviy shakllari va ma'noviy guruhlari, so'zlarning aloqa-munosabat shakllari bilan uzviy bog'langan. Chunoschi, gap bo'laklari o'rganilar ekan, so'z turkumlaridan egallangan bilimlarga tayanishga to'g'ri keladi.

Maktabda "Sintaksis, ohang va tinish belgilari" bo'limini o'qitishning maqsadi, vazifalari o'zbek tili ta'limining maqsadi, vazifalari bilan uyg'undir.

**Sintaksis** grekcha "tuzish" degan ma'noni bildiradi. Sintaksis so'zlarning birikish yo'llarini, so'z birikmasini tekshiradi. Sintaksisning asosi gap haqidagi ta'limotdir. Sintaksisda so'zlarni biriktirib gap qurish qoidulari, gapning tuzilishi, vazifasi, qo'llanishi, gaplarning o'zaro munosabati kabi masalalar tekshiriladi. Nutqning grammatik shakl, ohang hamda mazmun jihatdan tugallikka ega bo'lgan mustaqil parchasi gapdir. Sintaksis atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1. Tilning sintaktik qurilish qonuniyatlari. 2. Tilning grammatik qurilishi haqidagi fanning, grammatikaning bir qismi. Har bir tilda so'zlarni sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar har xildir. O'zbek tilida so'zlar qo'shimchalar, yordamchi so'zlar, tartib va intonatsiya orqali sintaktik aloqaga kirishadi. **Sintaktik aloqa** deganda odatda ikki so'zning o'zaro bog'lanishi tushuniladi. So'zlar orasida sintaktik aloqa bo'lsa, gap bo'laklari orasida sintaktik munosabat bo'ladi. Masalan: *hayotni sevmog, qo'l bilan ushlamoq, bizning ko'chamiz* va boshqalar.

Sintaktik aloqa vositalarining qo'llanishidagi farq so'zlarning umumiy kategorial, leksik-grammatik xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan: ot+fe'l aloqasida kelishik qo'shimchalari va ko'makchilardan foydalanilsa, sifat +ot munosabatida tartib va intonatsiyadan foydalaniladi: *o'qishga bormoq, qiziqish bilan o'qimoq, go'zal hayot, muloyim qiz* kabilar.

Grammatik shakl so'zning u yoki bu grammatik vosita yordamida o'zgarishidir. Turli grammatik shakllar hosil qilish so'zning paradigmatic o'zgarishi bo'lib, u leksik ma'no hamda kategorial grammatik ma'nolar birligiga asoslanadi. So'zning grammatik shakllari tizimi morfologik paradigmatica (turlanish, tuslanish tartibi, o'zgarishlar yig'indisi) sanaladi. Ma'lumki, «Mustaqil so'zlar obyektiv borliqdagi ma'lum bir predmet, belgi, harakat kabilarni anglatadi. Bu so'zning leksik ma'nosi hisoblanadi. Grammatik ma'no so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, leksik ma'noga qo'shimcha tarzda mano orttirish, so'zni so'zga, gapni gapga bog'lash, biriktirish vazifasini bajaradi hamda maxsus vositalar (masalan, qo'shimchalar) orqali ifodalanadi. Grammatik ma'no va grammatik shakl (so'z shakli) deganda, mustaqil so'zlargina nazarda tutiladi».

Grammatik ma'no quyidagicha ifodalanadi:

• o'zak (negiz)ga grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimcha qo'shish bilan: *kitob-im, kitob-ni, o'qidi-ng, yaxshi-roq;*

• yordamchi so'zlar bilan: *siz uchun, radio orqali, keldi-yu gapirmadi;*

• so'zlarni takrorlash bilan: *burro-burro gapirdi, katta-katta qurilishlar.*

So'zlar leksik-semantik ma'nosi, grammatik belgilariga ko'ra guruhlarga bo'linadi. Ular so'z turkumlaridir.

O'qituvchi o'quvchilarga so'z turkumlari haqida o'rganilgan bilimlarni takrorlash va tekshirish uchun lug'at diktanti yozdirishi, berilgan matn ustida ishlash, so'z turkumlarini ajratish, guruhlash, ular bilan SB hosil qilish, gap tuzish – MYaBT-4 moduli asosida matn yaratish kabi o'quv topshiriqlarini berishi mumkin.

Til jamiyatning eng muhim aloqa vositasi sifatida fikrni shakllantiradi, ifodalaydi, bayon qiladi. Fikr – gap orqali yuzaga chiqadi.

Gap haqida egallangan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirishda so'z birikmasining ahamiyati beqiyos. So'z birikmasi – gapda aniq bir yo'nalishga ega bo'lish, maqsadli fikrlash, qolaversa, gapning badiiy bo'yog'ini oshirish, uni qiziqarli hamda mukammal holatga keltirish vazifasini bajaradigan hodisa. Shuning uchun so'z birikmasidan gapning qurilish materiali sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, o'z navbatida, talabaning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, fikr ifodasini tezlashtiradi. Buni bir qator misollar yordamida kuzatish mumkin.

O'quvchilar "Sintaksis, ohang va tinish belgilari" bo'limini o'rganish orqali eng so'nggi natija – sodda va qo'shma gaplardan nutqiy faoliyatda (og'zaki va yozma nutqda) to'g'ri foydalanish malaka va ko'nikmalarini egallaydilar. Demak, mazkur bo'limni o'qitishda o'qituvchining diqqat markazida sodda va qo'shma gaplardan iborat matnni maqsadga muvofiq ravishda to'g'ri o'qish, mazmunini tushunish, o'quvchilarning matn yaratish mahoratini kengaytirish turadi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun "Sintaksis, ohang va tinish belgilari" bo'limi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. So'zlarning sintaktik munosabatga kirishish yo'llari (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), so'z birikmalarida hokim so'z va tobe so'z, so'z birikmasi va so'z, ibora va gap orasidagi farq xususida o'quvchilarda puxta nazariy bilim hamda amaliy malaka va ko'nikmalar hosil qilish.

2. Sodda gap, kesim va uning ifodalanishi, egali va egasiz gaplar, ifodalangan egali va yashiringan egali gaplar, egasiz gaplarning turlari; yoyiq gaplar (hol, uning ma'no turlari va ifodalanishi; to'ldiruvchi va uning ifodalanishi; aniqlovchi); yoyiq atov va so'z-gaplar; uyushiq

bo'laklar, ularning ohangi va tinish belgilari; gapda ajratilgan izoh bo'laklar; kiritmalar; undalma, to'liqsiz gap haqida ma'lumot berish hamda ulardan nutqiy faoliyatda foydalanish malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish lozim bo'ladi.

3. Ikki va undan ortiq sodda gaplarni turli vositalar bilan biriktira olish.

4. Nutqda teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar, yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar, nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar, faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplardan foydalanish malaka va ko'nikmalarini mukammal egallash.

5. Sodda va qo'shma gaplarda tinish belgilarini to'g'ri hamda o'rinli qo'llay olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

6. Sodda va qo'shma gaplarni to'g'ri o'qish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish.

7. Sodda va qo'shma gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish malaka va ko'nikmalarini singdirish.

8. Gaplarni hollar, to'ldiruvchilar va aniqlovchilar bilan kengaytirish malakalarini takomillashtirish.

9. Sodda va qo'shma gap tarkibidagi so'zlarni ularning vazifadoshlari (muqobillari) bilan almashtirish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish.

10. Sodda va qo'shma gaplardagi ma'no nozikliklarini farqlashga o'rgatish.

11. Sodda va qo'shma gaplardan foydalangan holda ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik, badiiy va rasmiy-idoraviy uslublarda matn yaratish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Dastur talabiga ko'ra, 8-sinfda sodda gap sintaksisi, 9-sinfda qo'shma gap sintaksisi o'rganiladi.

### **So'z birikmasini o'qitish metodikasi.**

O'quvchilar 5-sinfda so'z birikmasi xususida dastlabki ma'lumotlarni egallaganlar. Ular yig'iq gaplardan sodda yoyiq gaplar hosil qilish, berilgan so'z birikmalarida hokim va tobe so'zni aniqlash, hokim so'zlarga so'roq berish orqali tobe so'z topib qo'yish singari topshiriqlarni bajara oladilar.

8-sinfda so'z birikmasini o'rganishga qadar ular kengayuvchi va kengaytiruvchi so'zlar bilan birgalikda so'z birikmalarini tashkil etishini, so'z birikmalaridagi kengaytiruvchi so'z – tobe so'z, kengayuvchi so'z – hokim so'z ekanligini o'rganganlar.

Bundan "So'z birikmasi" mavzusini o'rganish berilgan so'z birikmasida (mas., *katta kuch, tunda kelmoq, tez gapirmoq, Tursunboyning basharasi, kitobdan ko'chirmoq* v.h.) ajratilgan hokim so'zdan tobe so'zga so'roq berib, so'z birikmalarini:

- 1) aniqlovchili birikmalar;
- 2) to'ldiruvchili birikmalar;
- 3) holli birikmalar kabi uch guruhga ajratish, ularni fe'li birikmalar va otli (sonli, sifatli, olmoshli, ravishli) birikmalar kabi guruhlash, berilgan matnlarda tobe so'z qaysi hokim so'zni kengaytirib, u bilan birga so'z birikmasi hosil qilishini aniqlash, tobe so'zning o'rnini aniqlash singari ijodiy-amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar. O'quvchilar kuzatish va egallangan bilimlarga asoslangan holda so'z birikmalarida tobe so'z hamisha hokim so'zdan oldin kelishi xususida umumlashma fikr hosil qiladilar.

"So'z birikmasi" mavzusi o'rganilar ekan, o'quvchilar so'z birikmasida so'zlarning o'zaro birikish usullari bilan ham tanishtiriladi. Berilgan so'z birikmalari tarkibida ajratilgan vositalardan qaysi birlari so'zlarni bir-biriga bog'lashga, qaysilari esa lug'aviy ma'noga qo'shimcha ma'nolar kiritishga xizmat qilishini bilib oladilar. Shundan so'ng so'z birikmasida tobe – hokim so'zning o'zaro bir-biri bilan bitishuv, boshqaruv va moslashuv yo'li bilan birikishi; tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ma'nosi va tobe so'zning hokim so'zdan oldin kelish usuli bilan bog'lanishi bitishuv ekanligi; tobe so'zning hokim so'zga tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi boshqaruv ekanligi; tobe so'zning hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi orqali bog'lanishi, hokim so'zning esa egalik qo'shimchalari yordamida tobe so'zga birikishi moslashuv ekanligini bilib oladilar va shu yo'nalishda bir qator ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

So'z birikmasi va so'zlar qo'shilmasini o'zaro qiyoslash natijasida o'quvchilar so'zlarning o'zaro birikishi ikki yo'l bilan: 1) tobelanish, bir so'zning (tobe so'zning) boshqa bir so'zga – hokim so'zga bo'ysunishi orqali; 2) ikki so'zning teng huquqli, biri ikkinchisiga tobelanmay bog'lanishini bilib oladilar.



Soʻz birlashtirishda soʻzlar oʻzaro oddiy bogʻlangan boʻladi: oʻshamaqa englatadi, turgʻun bogʻlarva. (Iboralarda esa soʻzlar maʼnolari birlashtirish uchun birlashtirilgan – yozilgan boʻladi va bir iboraga oʻzaro englatadi.)

Turgʻun bogʻlarva (iboraga bir soʻz sifatida qoʻllaniladi, bogʻlatilgan soʻzlar qatorida hisoblanadi, chunki ular ham soʻzlar hisoblanadi) iborada. Masalan, bogʻlarva yozilgan – "turgʻun bogʻlarva". Bu iboraga qoʻllanilgan iboraga "turgʻun bogʻlarva" soʻzlar hisoblanadi. Iboraga "qoʻyish uchun" maʼnolari beriladi. Iboraga maʼnolari oddiyroq, shunda turgʻun bogʻlarva.

Soʻz birikmasining soʻzdan farqini aniqlashda kuzatish, qiyoslash, mushohada qilish singari usullardan foydalaniladi. Masalan, *onamning akalari* – *amakim*, *kimyoviy tajribaxona* – *laboratoriya*, *hisoblash mashinasi* – *kompyuter* singari soʻz birikmasi va soʻzlar oʻzaro qiyoslangach, oʻqituvchi ularning oʻzlariga bu haqda mustaqil xulosa chiqarishni topshiradi. Shundan soʻng berilgan soʻz birikmalarini soʻzlar bilan almashtirish, ularni oʻzaro qiyoslab, maʼno farqini aniqlash, berilgan soʻzlarga ularning muqobillarini topib qoʻyish singari ijodiy-amaliy ishlar bajariladi.

Tasviriy ifodalarning soʻz birikmalariga shaklan oʻxshashligi koʻp hollarda ularni farqlashga monelik qiladi. Shuning uchun bu mavzuni oʻrganishda soʻzlarni tasviriy ifodalar bilan almashtirish (mas., *televizor* – oynayi jahon, *paxta* – oq oltin, *rassom* – moʻyqalam sohibi, *neft* – qora oltin, *samolyot* – poʻlat qush v.h.), berilgan matnda ajratilgan har bir soʻzni uning muqobili bilan almashtirish singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Soʻz birikmasining qoʻshma soʻzlardan farqi ham oʻquvchilar uchun ancha murakkablik tugʻdirayotgan masalalardan biridir. Bu mavzuni oʻrganishda berilgan gaplar yoki qoʻshma soʻz, soʻz birikmalari qatorini oʻzaro qiyoslab, oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash, ular ishtirokida gaplar tuzish, berilgan qoʻshma soʻz va soʻz birikmalari qatorini mustaqil davom ettirish, qoʻshma soʻz qanday hosil boʻlganligini aniqlash singari amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin. Darsning oxirida oʻquvchilar soʻz birikmasi qoʻshma soʻzga aylanganda soʻz birikmasi tarkibidagi aloqa-munosabat shakli qoʻshimchalari baʼzan tushib qolishini (mas., *boshogʻriq* – *bosh ogʻrigʻi*, *suvoʻt* – *suv oʻti*, *boʻrikalla* – *boʻri kallasi* v.h.) bilib oladilar.

Maʼlumki, oʻquvchilar soʻz birikmasini soʻzlar qoʻshilmasidan, soʻzdan, iboradan, gapdan, tasviriy ifodadan farqlashda qiynaladilar. Shu bois, ularning har biriga (soʻz birikmasi va soʻzlar qoʻshilmasi, soʻz birikmasi va soʻz, soʻz birikmasi va turgʻun bogʻlama v.h.)ga alohida-alohida toʻxtalishga toʻgʻri keladi.

Soʻz birikmasining soʻzlar qoʻshilmasidan farqini tushuntirish uchun ularni oʻzaro qiyoslash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Karimjonning akasi” soʻz birikmasini “Karimjon va akasi” soʻzlar qoʻshilmasi bilan qiyoslash mumkin.

“Soʻz birikmalari zanjiri” mavzusini oʻtishda gap tarkibida bir soʻz birikmasidagi hokim soʻz boshqa bir soʻzga tobelanishi, bir hokim soʻz bir necha tobe soʻz yoki bitta tobe soʻz bir necha hokim soʻzga aloqador boʻlishi kabilarga eʼtibor qaratilishi lozim. Masalan, “*uch kundan beri shimoldan esgan mayin shamol*” birikmasi zanjirida 5 ta soʻz birikmasi mavjud: 1) uch kundan beri 2) shimolgan esgan 3) mayin shamol 4) shimoldan esgan mayin shamol 5) uch kundan beri shimoldan esgan mayin shamol.

<i>Soʻz birikmasi</i>	<i>Ibora</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Soʻzlar oʻzaro erkin bogʻlangan boʻladi.</li> <li>• Tushuncha anglatadi.</li> <li>• Erkin bogʻlama hisoblanadi.</li> <li>• Erkin bogʻlangani uchun soʻzlar oʻrmini almashtirish mumkin.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Soʻzlar maʼnoviy butunlik uchun yaxlitlangan boʻladi.</li> <li>• Turgʻun bogʻlama hisoblanadi.</li> <li>• Leksik maʼno anglatadi.</li> <li>• Bir soʻz sifatida qaraladi.</li> <li>• Maʼnolari obrazli tarzda ifodalanadi.</li> </ul>

Soʻz birikmasi va gapning oʻzaro farqi ham qiyoslash asosida tushuntiriladi. Masalan, *qiziqarli mashgʻulot – Mashgʻulot qiziqarlidir. Oydin kecha – Kecha oydir* v.h. tipidagi soʻz birikmasi va gap qiyoslangach, ularning farqi soʻraladi hamda kesimning qay biriga xosligi aniqlanadi. Shundan soʻng berilgan soʻzlardan soʻz birikmalari tuzib, ular ishtirokida gaplar, gaplardan soʻz birikmalari hosil qilish singari ijodiy-amaliy ishlar bajariladi. Dars oxirida oʻquvchilar soʻz birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni muayyanlashtirgan holda atab kelishi, gap esa kesim markazida boʻlib, fikrni, hukmni, tasdiq yoki inkorni ifodalab kelishini, uning markazi kesim ekanligini, gaplarning kesimlik qoʻshimchalari bilan shakllanganligini bilib oladilar.

#### **Sodda gap sintaksisini oʻqitish.**

Oʻquvchilar 5-sinf dan kesim gap markazi ekanligini biladilar. Shuning uchun sodda gap haqida umumiy maʼlumot berilgach, gaplarning markazini aniqlash, ularni sodda va qoʻshma gaplarga ajratib koʻchirish, sodda va qoʻshma gaplarni tahlil qilib, ular orasidagi asosiy farqni belgilash, ayni bir fikr (axborot)ni bir necha sodda gaplar va bitta qoʻshma gap shaklida ifodalash (*Men sinfga kirdim. Deraza oldida turgan*

*Baxtiyorni ko'rdim. U bilan salomlashdim – Men sinfga kirib, deraza oldida turgan Baxtiyorni, Mehrinozni ko'rgach, u bilan salomlashdim)* Singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish bilan yakunlanadi. O'quvchilar sodda gap tarkibidagi kesimlik shakliga ega bo'lgan bitta kesimning bitta gap markazi ekanligini, qo'shma gap tarkibida esa bunday markaz ikki va undan ortiq bo'lishini bilib oladilar. Kesim gap markazi bo'lganligi sababli egadan avval “Kesim va uning ifodalanishi” mavzusi o'rganiladi. Bu mavzuni o'rganishda, avvalo, o'quvchilar e'tibori kesimning mavqeyiga qaratiladi.

Ma'lumki, gapning boshqa bo'laklari ishtirok etsa-yu, kesim ishtirok etmasa, gap tugal fikrni ifodalamaydi. Masalan, “Dam olish kuni biz sayohatga” gapida kesim ifodalanmagani uchun tugal fikr yo'q. Shuning uchun o'quvchilarga shunday gaplarni berib, ularni gap markazi – kesim bilan to'ldirish va kesimning gapdagi mavqeyi, fikrni ifodalashdagi ahamiyati xususida hukm chiqarish topshiriladi. Kesimning ifodalanishi oldingi sinflardan o'quvchilarga tanish. Shuning uchun ularga gaplar yoki matn berib, gapning markazi – kesimi qaysi so'z turkumi orqali ifodalanayotganligini aniqlash topshiriladi. Shu jarayonda fe'l kesim va ot-kesim haqidagi bilim o'quvchilar xotirasida tiklanadi hamda sodda kesim, murakkab kesim haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar bir qator ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarishgach, bir so'zdan iborat kesimlar sodda, ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan kesimlar esa murakkab kesimlar ekanligini bilib olishadi.

“Kesim” mavzusini o'rganishda o'quvchilar ijodiy fikrlashni tashkil etish uchun uch maylning turli zamon shakllarini qo'llab, gap tuzish, hosil bo'lgan gaplardan qaysi birlarida tugallanayotgan fikr ifodalanayotganligini aniqlaydilar, kesimning fikr ifodalashdagi asosiy vazifasini bilib oladilar.

“Ega” mavzusini o'rganishda gap kesimining shaxs-son qo'shimchalariga qarab uning egasini tiklash, eganing qaysi so'z turkumi bilan ifodalanayotganligini aniqlash singari amaliy ishlar bajariladi hamda qaysi hollarda ega va kesim orasida tire qo'yilishi tushuntiriladi. O'quvchilar uchun ancha murakkablik tug'diradigan masalalardan biri egali gaplarni egasiz gaplardan ajratishdir. Gapning bu ikki turi orasidagi farqni aniqlash maqsadida berilgan gaplarni tahlil qilish (Biz g'alabaga erishdik – G'alabaga erishildi) qiyoslash, egani aniqlash, nuqtalar o'rniga yashiringan egani topib qo'yish, berilgan gaplarni:

- 1) ifodalangan egali gaplar;
- 2) yashiringan egali gaplar;
- 3) egasiz gaplar singari guruhlariga ajratish topshiriladi.

Shundan so'ng ifodalangan egali gaplar, yashiringan egali gaplar va egasiz gaplar alohida-alohida mavzu sifatida o'rganiladi. Bu mavzularni o'rganishda ham kuzatish, qiyoslash; farqlarni topish, guruhlash, hukm chiqarish va amaliy faoliyatda qo'llash singari aqliy faoliyat usullaridan foydalaniladi.

Tilimizda "borish lozim", "bajarish kerak", "ko'rish shart" singari bir qator imkoniyat – zaruriyat gaplari borki, ular fe'l-kesimli bo'ladi va biror ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi ular tarkibida egalik qo'shim-chasining bo'lmasligidir. O'quvchilarning bunday gaplar ustida olib boradigan amaliy ishlari ularni bo'lishli-bo'lishsiz shakllarda qo'llash, ifodalangan egali gaplarni yashiringan egali va egasiz gaplarga aylantirish singarilardan iborat.

"So'z-gaplar" – mavzusini o'rganishda *albatta, shak-shubhasiz, ha, yo'q, balki, ma'qul, mayli, marhamat* singari so'zlarni suhbat matnlarida qo'llash, ularning ma'nosi ustida ishlash kabi amaliy ishlardan foydalanish ma'qul.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari 5-sinfdan boshlab o'rgatiladi. 7-sinfda hol, to'ldiruvchi va aniqlovchi ustida alohida-alohida ish olib boriladi.

Hol yuzasidan ijodiy-amaliy ishlar ularni sodda va murakkabga ajratish, hollarning so'z, so'z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi; holning ma'naviy turlari jadvali ustida ishlash; vositali to'ldiruvchi va holning shaklan farqlanmaslik holatlariga bag'ishlanadi.

"To'ldiruvchi" mavzusini o'rganishda asosiy e'tibor vositasiz to'ldiruvchi, uning, so'z, so'z birikmasi va kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi; o'zga gapni (ko'chirma gapni) kengaygan birikmalar bilan ifodalash; vositali to'ldiruvchi, ularda kelishik shakllari va ko'makchilar ma'nodoshligi, ot bilan ifodalangan bo'lakning to'ldiruvchilar bilan birikishi masalalariga qaratiladi.

Aniqlovchi so'z kengaytiruvchisi bo'lganligi uchun ham hol va to'ldiruvchidan keyin o'rganiladi. Mazkur mavzuni o'rganishda ijodiy-amaliy topshiriqlar orqali qaratqichli aniqlovchi va sifatlovchi aniqlovchilar haqida tushuncha hosil qilinadi; ularning so'z, so'z birikmalari bilan ifodalanishi yuzasidan ma'lumotlar beriladi. Aniqlovchi bilan bir qatorda izohlovchi haqida ham ma'lumot beriladi. Berilgan izohlovchilarni sodda va murakkab izohlovchilarga ajratish, ularni shaxs nomlari va shaxs otlari, shuningdek, vaqt (yil, oy, kun) otlari bilan birga qo'llash yuzasidan ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.



8-sinfda dastur talabiga ko'ra o'quvchilarni "Yoyiq atov va so'z - gaplar", "Gapda uyushiq bo'laklar, ularda ohang va tinish belgilari", "Gapda ajratilgan izoh bo'laklar", "Gapda undalma" va "To'liqsiz gaplar" singari mavzular bilan tanishtirish ko'zda tutilgan.

Mazkur mavzularni o'tishda yoyiq atov gaplar va yoyiq so'z-gaplar ustida ishlash, atov gaplarni yoyiq atov gaplarga aylantirish; uyushiq bo'lak haqida umumiy tushuncha hosil qilish, uyushiq bo'laklar va so'z qo'shimmalari, uyushiq bo'lakli gaplarda ohang va ularning teng bog'lovchilar bilan bog'lanishi, uyushgan egali, holli, to'ldiruvchili va aniqlovchili gaplar tuzish, kesimning uyushishidagi xususiyatlar, uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi qism, kiritmalarning gap mazmuniga, gap bo'laklariga aloqasi, kiritmalarning so'z, so'z birikmasi, kengaygan birikmalar, gaplar bilan ifodalanishi, kiritmali gaplarda tinish belgilari, ohang; undalma, uning sodda va murakkab turlari, undalmalarning so'z, so'z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi, undalma va egani farqlash, to'liqsiz gaplardan nutqiy faoliyatda foydalanish singari bir qator amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, izlanishi, fikr mahsulining nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda ifodalanishi namoyon bo'ladi.

#### **Qo'shma gap sintaksisini o'qitish metodikasi**

9-sinfda o'zbek tili o'rganishga 68 soat vaqt ajratilgan bo'lib, shundan 5 soati kirish va takrorlash, 6 soati qo'shma gaplar tasnifi, 6 soati teng bog'lovchili qo'shma gaplar, 8 soati ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar, 5 soati yuklamali qo'shma gaplar, 7 soati nisbiy so'zli qo'shma gaplar, 8 soati faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar, 6 soati tobe gaplar va gap bo'laklari, 2 soati murakkab sintaktik butunliklarni o'rganishga, qolganlari esa takrorlash va ijodiy yozma ishlar o'tkazishga ajratilgan. O'qituvchi sharoitga qarab katta mavzularga ajratilgan soatlarni kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin.

Kirish va takrorlash soatlari dunyo tillari orasida o'zbek tilining o'rmi, til oilalari, turkiy tillarning asosiy guruhlarini, sodda gap yuzasidan 8-sinfda egallangan bilimlarni takrorlash hamda qo'shma gap sintaksisini o'rganishga bag'ishlanadi.

Qo'shma gap sintaksisini o'rganish «Qo'shma gap turlari» mavzusini o'rganish bilan boshlanadi. O'quvchilar berilgan gaplarni sodda gaplar va qo'shma gaplar kabi guruhlariga ajratish, qo'shma gapning asosiy belgisini aniqlash orqali (gap tarkibida ikki va undan ortiq shakllangan kesimning mavjudligi) 5-sinfda o'rganilgan bilimlarni xotirada tiklaydilar. Shundan so'ng qo'shma gapning bog'lovchi vositalar asosidagi tasnifi beriladi. Ular berilgan matnni tahlil qilish, nutqdagi gaplarni sodda gaplar va qo'shma

gaplarga ajratish orqali qo'shma gaplarni ikki sodda gapli qo'shma gaplar hamda uch va undan ortiq sodda gapdan tuzilgan qo'shma gaplarga ajratadilar. Matnni tahlil qilish natijasida "Agar qo'shma gap ikki sodda gapdan iborat bo'lsa, qo'shma gap uch va undan ortiq sodda gaplardan iborat bo'lsa, murakkab qo'shma gap sanaladi", – degan xulosaga keladilar. Darsning keyingi bosqichlarida berilgan matn yana qayta o'qilib, undagi gaplarni teng bog'lovchili qo'shma gaplar va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarga ajratish topshiriladi. Bu bilan o'quvchilar 7-sinfda teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar xususida olgan bilimlarini xotiralarida tiklaydilar va bog'lovchilarning qanday ma'no ifodalab kelayotganligini aniqlaydilar.

"Qo'shma gap turlari» mavzusini o'rganishda o'quvchilarga yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar va ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar ham (yozuvda vergul bilan ajratiladi) tavsiya etiladi. Mazkur mavzu qo'shma gaplarni ularning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalariga ko'ra bir necha turga ajratish mumkinligi haqida umumlashma fikr hosil qildirish bilan yakunlanadi. O'quvchilar mustaqil ijodiy mushohada yuritish natijasida qo'shma gaplarni ularning bog'lanish vositalariga ko'ra quyidagi besh turga ajratadilar:

1. Teng bog'lovchili qo'shma gaplar
2. Ergashtiruvchi bog'lovchili gaplar
3. Yuklamali qo'shma gaplar
4. Nisbiy so'zli qo'shma gaplar
5. Faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar.

Berilgan yangicha tasnif "*Men borganda...*", "*U kelgandan keyin...*" tipidagi gaplarni qo'shma gaplar tarkibidan chiqarish va ularni kengaytirilgan birikmalar sifatida talqin etish imkoniyatini yaratadi. Qo'shma gaplarning umumiy tasnifi berilgandan keyin ularning har biri alohida-alohida o'rganiladi.

O'qituvchi "Teng bog'lovchili qo'shma gaplar" mavzusini o'tishda o'quvchilar e'tiborini yana matn tahliliga qaratadi. Matn ko'rilgach, uning mazmuni asosida savol-javob o'tkaziladi; matndagi gaplar: a) biriktiruv bog'lovchili qo'shma gaplar; b) ayiruv bog'lovchili qo'shma gaplar; v) zidlov bog'lovchili qo'shma gaplarga ajratiladi; nuqtalar o'rniga teng bog'lovchilardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish topshiriladi; gaplarni *galma-gal; goh, goh; dam, dam; hali, hali; ba'zan, ba'zan; bir zamon, bir zamon* kabi bog'lovchilar bilan biriktirib, ma'noda qanday o'zgarish sezilganligini aniqlash; berilgan gaplarda nuqtalar o'rniga zidlov bog'lovchilarini qo'yib, gaplarni ko'chirish, murakkab qo'shma gaplardan

7-3 ta sodda gaplar, sodda gaplarni birlashtirib, teng bog'lovchili qo'shma gaplar hosil qilish singari ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

"Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar" mavzusi o'rganilganidan, o'quvchilar e'tibori berilgan so'z birlashtirishida hokim so'z va tobe so'zni aniqlash; so'z birlashtirishini hollat birlashtirish, to'ldiruvchili birlashtirish va aniqlovchili birlashtirishga ajratish; berilgan qo'shma gaplarni kengaytirilgan birlashtirish sodda gapga aylantirish, matn tahlili asosida qo'llangan bog'lovchilarni:

1) sabab bog'lovchilari; 2) maqsad bog'lovchilari;

3) shart bog'lovchilari; 4) natija bog'lovchilari;

5) o'xshatish-chog'ishtirish bog'lovchilari kabi turlarga ajratish; gaplardagi *shuning uchun* bog'lovchisini *chunki* bog'lovchisi bilan (va aksincha) almashtirish, ikkita sodda gap juftini *shuning uchun, natijada, oqibatda, shu sababli, shu bois, -ki, chunki, zeroki, esa, deb, go'yo* bog'lovchilari bilan bog'lab qo'shma gaplar hosil qilish, ularning ma'naviy farqini aniqlash singarilarga qaratiladi. Shundan so'ng *-ki* bog'lovchili qo'shma gaplar, *agar* bog'lovchili qo'shma gaplar, *shuning uchun* bog'lovchili qo'shma gaplar ustida alohida-alohida ish olib boriladi. Bu mavzularni o'rganishda shu vositalar bilan bog'langan qo'shma gaplarning o'qilish ohangi va imlosi ustida ish olib borish ham o'qituvchining diqqat markazida turmog'i lozim. Teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda vergulning ishlatilishini o'zlashtirish murakkab masalalardan biri bo'lganligi uchun ham bunday gaplar ustida muttasil ish olib borishga to'g'ri keladi. Mazkur mavzuni o'rganishda verguli tushirib qoldirilgan gaplarning vergulini qo'yish, berilgan gap qoliplari asosida gaplar hosil qilish, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda vergulning ishlatilish sabablarini aniqlash lozim bo'ladi; 1) "sodda gap, ammo sodda gap"; 2) "yo sodda gap, yo sodda gap"; 3) "sodda gap, lekin sodda gap"; 4) "yoki sodda gap, yoki sodda gap" singari gap qoliplari berilgan bo'lsa, o'quvchilar andazaga qarab gaplar hosil qiladilar va tinish belgilarining ishlatilish sabablarini tushuntiradilar.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro bog'lanish vositasiga ko'ra yana bir turi yuklama vositasida bog'langan gaplardir. Bu turdagi qo'shma gaplarni o'rganishdan oldin yuklamalar xususida 7-sinfda o'rganilgan bilimlar o'quvchilar xotirasida jonlantiriladi. Bu yuklamalar qo'shimcha va so'z- yuklamalarga ajratiladi; o'quvchilar berilgan sodda gaplarni yuklama vositasida birlashtirib, qo'shma gap hosil qiladilar; yuklamalar qanday vazifa bajarayotgani xususida xulosa chiqaradilar.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni turli yuklamalar vositasida o'zaro bog'lash, bu yuklamalarning ma'no nozikligini aniqlash, nuqtalar o'rniga zarur yuklamani topib qo'yish, boshlanish qismi berilgan gaplarni yuklamalar vositasida bog'lab, mazmunan davom ettirish, berilgan yuklamali qoliplar asosida qo'shma gaplar hosil qilish singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning fikrlashiga, berilayotgan bilimlarni puxta egallashlariga ko'maklashadi. Yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan egallangan malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida berilgan qoliplar asosida qo'shma gaplar hosil qilish, tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'rniga qo'yib gaplarni ko'chirish singari amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Shubhasiz, yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi bunday gaplarning o'qilish ohangi ustida ishlashdan ajralmasligi lozim.

Qo'shma gaplarning yana bir turi nisbiy so'zli qo'shma gaplardir. Bunday gaplarning qo'shma gaplar qatoriga kiritilishida nisbiy so'zlarda shaxs, son, zamon ko'rsatkichlarining mavjudligiga asoslaniladi.

“Nisbiy so'zli qo'shma gaplar” mavzusini o'rganishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

➤ nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalarni aniqlash;

➤ bunday qo'shma gaplarda tinish belgilarini to'g'ri qo'llashga o'rgatish;

➤ nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplarning boshqa vositalar yordamida bog'langan qo'shma gaplardan farqini aniqlash;

➤ nisbiy so'zli qo'shma gaplarni o'qishda ohangga rioya qilish;

➤ berilgan sodda gaplardan nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar hosil qilish;

➤ nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplarning ma'noviy munosabatini aniqlay olish;

➤ nisbiy so'zli qo'shma gaplarni ma'nodoshi bilan almashtirish.

Bu zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishini ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Berilgan qoliplar asosida nisbiy so'zli qo'shma gaplar hosil qilish ham eng samarali ish usullaridan biridir. Bu qoliplar sirasiga: 1) “Kim (-ki),... o'sha”; 2) “Qancha,... shuncha (o'shancha)”; 3) “Har kim,... u (o'sha)”; 4) “Qanday, shunday”; 5) “Qay biri,... o'shanisi”; 6) “Qayer..., shu (o'sha) yer”; 7) “Nima, ...shu” kabilarni kiritish mumkin. Faqat ohang

vositasida bog'langan qo'shma gaplar haqida ma'lumot berilar ekan, gapda uyushiq bo'laklarning ohang vositasida bog'lanishi sodda gaplarning ohang vositasida bog'lanishi bilan qiyoslanadi. O'quvchilar uyushiq bo'laklar va sodda gaplar orasida vergulning qo'yilish sabablarini tuzohlaydilar.

Ma'lumki, yozma nutqda qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar nafaqat vergul, balki ikki nuqta, nuqtali vergul, tire orqali ham bog'lanishi mumkin. Shuning uchun bir qator ijodiy-amaliy ishlar ana shu malaka va ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratilishi lozim. "Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar" mavzusini o'rganishda boshlanish qismi berilgan gaplarni davom ettirish, qoliplar asosida gaplar hosil qilish singari topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qo'shma gaplar yuzasidan o'quvchilarning egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini aniqlash maqsadida test topshiriqlaridan foydalaniladi.

Test topshiriqlaridan namunalari:

1. Berilgan qo'shma gaplarda nuqtali vergul noto'g'ri qo'yilgan gaplarni aniqlang.

A. Quyosh chiqqan; yo'lovchilar gavjum.

B. Men, ... derazalarni lang ochib qo'ysa ham bo'ladi.

D. Vaqting ketdi – baxting ketdi (Maqol).

E. Yomg'ir yog'di; Erkin va Gulchehra daraxtlarni oqladik; Bahodir yerni ag'dardi.

2. Berilgan qo'shma gaplarda nuqtali vergul to'g'ri qo'yilgan gaplarni aniqlang.

A. Havo bulutli; ammo yomg'ir yog'mayapti.

B. Kun issiq; Yo'lchi odimlaydi (O.)

G. Bog'imizda anor, olma, nok kabi turli mevali daraxtlar ko'p; biz ularni parvarish qilamiz.

E. Shineli jiqqa hol; Bektemirning yuzida yosh tomchilar edi.

Berilgan qo'shma gaplarning qaysi birida ikki nuqta noto'g'ri qo'llangan?

A. Bugun havo ochiq; hamma tarqaldi.

G. Dengiz sokin: atrof yaqqol ko'rinar edi (X.G.)

D. Tong otdi: biz yo'lga otlandik.

O'qituvchi qo'shma gap turlarini o'rgatish jarayonida ham, undan keyin ham gap sinonimiyasi ustida ishlashni unutmasligi lozim. Shu bois, qo'shma gaplarning barcha turlari o'rganilgandan so'ng, "Qo'shma gaplarda ma'nodoshlik" mavzusini o'rganish ma'qul. O'quvchilar bu dars mashg'ulotida dastlab mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan, ammo bog'lanish vositalari jihatidan bir-biridan farq qiladigan qo'shma gaplarni

o'zaro qiyoslab, ularning o'xshash va farqli tomonlari ustida ishlaydilar hamda "Bahor keldi, borliq yashnab ketdi" tipidagi gaplarning o'zaro ma'nodosh ekanligini isbotlaydilar.

Darsning keyingi bosqichlarida o'quvchilar berilgan sodda gaplarni o'zaro bog'lovchilar va ohang vositasida bog'lab, ma'nodosh qo'shma gaplar hosil qiladilar; bog'lovchilar va yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarga (va aksincha) aylantirish singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajaradilar. "Qo'shma gap" bo'limini o'rganishda matnni tahrir qilish, boshlanish qismi berilgan matnni mazmunan davom ettirish, matn yaratish kabilarga alohida e'tibor qaratiladi.

9-sinfning oxirida o'quvchilarga murakkab sintaktik butunliklar xususida ham ma'lumot beriladi. O'quvchilar gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (darak, so'roq, buyruq gaplar) ritorik so'roq gaplar, ularda tinish belgilari va ohang, ko'chirma gapli qurilmalar bilan tanishtiriladi. Shunday qilib, "Sintaksis, ohang va tinish belgilari" bo'limini yuqorida belgilangan tartib asosida o'rganish "O'zbek maktablarida o'zbek tili o'qitish konsepsiyasi" da belgilangan maqsad – ta'lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga hamda rivojlantirishga muvofiq keladi.

#### **Sintaktik tahlil metodikasi.**

- 1) sodda gap bo'yicha sintaktik tahlil;
- 2) gap bo'laklarini aniqlash metodi;
- 3) tahlilda gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmaydigan bo'laklarni izohlash;
- 4) qo'shma gap bo'yicha sintaktik tahlil.

#### **Sodda gap tahlili:**

Masalan: *Inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.*

- 1) gapda so'zlarning bog'lanishi:
  - a) Inson baxtli bo'ladi – ergashgan bog'lanish, moslashuv ega va kesim mosligi;
  - b) ilm va mehnat – teng bog'lanish orqali;
  - v) ilm bilan baxtli bo'ladi – ergashgan bog'lanish, boshqaruv, ko'makchi orqali;
  - g) mehnat bilan baxtli bo'ladi – ergashgan bog'lanish, boshqaruv ko'makchi orqali.

#### **Sodda gap qurilishi bo'yicha:**

- a) ifoda maqsadiga ko'ra darak gap;

- b) tuzilishiga ko'ra sodda gap, sodda yoyiq gap;
- v) bosh bo'laklarning ishtirokiga ko'ra ikki bosh bo'lakli gap;
- g) to'liq -to'liqsizligiga ko'ra: to'liq gap;
- d) gapda avval bosh, keyin II darajali bo'laklar aniqlanadi.

**Qo'shma gap bo'yicha sintaktik tahlil:**

1. Bog'langan qo'shma gap quyidagi tartibda tahlil qilinadi:

a) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar va ularning mazmun jihatidan bog'lanishi;

b) sodda gaplarning bog'lanish yo'li, bog'lovchilarning turi;

v) sodda gaplar orasida qo'llanilgan tinish belgilari;

g) gap bo'laklari.

2. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar quyidagicha tahlil qilinadi:

a) qo'shma gap tarkibidagi qismlar va ularning mazmun jihatidan bog'lanishi;

b) qismlarning bog'lanish yo'li;

v) qismlar orasida qo'llanilgan tinish belgilar;

g) gap bo'laklari.

3. Qo'shma gaplar quyidagicha tahlil qilinadi:

a) bosh gap va ergash gap;

b) ergashgan gapning turi;

v) ergashgan gapning o'rni va tinish belgilari;

g) ergashgan gapning bosh gapga bog'lanish yo'llari;

d) gap bo'laklari.

**Bog'langan qo'shma gapni quyidagi usulda tahlil qiling:**

1. Mazmuni.

2. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar va ularni bog'lovchi vositalar.

3. Tinish belgilari,

4. Sodda gapdan birining sintaktik tahlili.

Namuna: *Gullar sarg'ayar, ammo sarg'aymas go'zal inson.*

Berilgan gap darak ma'nosini bildiradi, ikki sodda gapdan tuzilgan, bog'langan qo'shma gap; *gullar sarg'ayar* – gapi ikkinchi sodda gap (*sarg'aymas go'zal inson*) bilan “ammo” bog'lovchisi yordamida bog'langan; zidlik mazmuni ifodalangan; zidlov bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. *Gullar sarg'ayar* – yig'iq gap; egasi – *gullar*; bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan; nimalar? savoliga javob bo'ladi. *Sarg'ayar* – fe'li-kesimi nima qilar? savoliga javob bo'ladi; tuzilishi – sodda; ega bilan shaxsda moslashgan. Lekin sonda moslashmagan: ega ko'plik, kesim birlik formada kelgan.

**Berilgan qolipga moslab gaplar tuzing.**

A) \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_

B) \_\_\_\_\_ ham \_\_\_\_\_

V) \_\_\_\_\_ lekin \_\_\_\_\_

G) \_\_\_\_\_ yo \_\_\_\_\_

Goh \_\_\_\_\_ goh \_\_\_\_\_

**Namuna:** *Urushdan boylar manfaat topdi, ammo kambag'allar xonavayron bo'ldi.*

1. Ikki sodda gap (qism) bor: *urushdan boylar manfaat topdi, kambag'allar xonavayron bo'ldi*: zidlash munosabati mavjud.

2. Sodda gaplar o'zaro vergul bilan ajratilgan.

3. Gap bo'laklarini aniqlash: *boylar* – ega, *manfaat topdi* – kesim, *urushdan* – to'ldiruvchi; *kambag'allar* – ega, *xonavayron bo'ldi* – kesim.

**Ergash gapli qo'shma gaplar quyidagicha tahlil qilinadi:**

1. Bosh gap va ergash gap. 2. Ergash gapning turi 3. Ergash gapning o'rni va tinish belgilari. 4. Ergash gapning bosh gapga bog'lanish yo'li. 5. Gap bo'laklari.

**Namuna:** *Shuni bilib qo'yingki, xodimlar bir joyda qotib qolgan rahbarni yoqtirmaydilar.*

1) bosh gap – *Shuni bilib qo'yingki*; ergash gap – *xodimlar bir joyda qotib qolgan rahbarni yoqtirmaydilar*;

2) to'ldiruvchi ergash gap; 3) ergash gap bilan bosh gap vergul bilan ajratilgan; 4) bosh gap ergash gapga –*ki* bog'lovchi-yuklamasi vositasida bog'langan; 5) gap bo'laklarini aniqlash: *shuni* – to'ldiruvchi, *bilib qo'yingki* – kesim; *xodimlar* – ega, *bir joyda qotib qolgan* – aniqlovchi, *rahbarni* – to'ldiruvchi, *yoqtirmaydilar* – kesim.

Sintaksisga oid mustahkamlash darsida kichik guruhlarda ishlash mumkin. Masalan, o'quvchilar *tadqiqotchilar, munaqqidlar, va zukkolar donishmandlar* guruhlariga ajralib, quyidagi topshiriqlarni birin-ketin bajaradilar:

**Topshiriq:** Berilgan 5 daqiqa ichida qo'shma gaplarga oid maqollardan, she'riy satrlardan namunalar keltiring va ularning bog'lanish vositalarini ayting.

**“Tadqiqotchi” guruhi:**

1. Necha ming alloma, jo'mardlar o'lgan, tafakkur sasigan, ruhlari so'lgan, urug'lar aynigan tap-taqir cho'lda o'z bekim davlatin qursak maylimu? (ohang vositasida bog'langan qo'shma gap, tuzilishiga ko'ra so'roq gap).



2. Agar tirik bo'lsa, bir chetda turmay, hozirgi yoshlarga sardor bo'lardi, goh ko'kdan yog'ilgan, goh yerdan chiqqan tuhmat-u baloga qulqon bo'lardi. (Sh.R.) (Ayiruv bog'lovchisi vositasida).

3. Farosat bozorda sotilmas, aql tarozida tortilmas. (Ohang vositasida).

*O'ylab gapirgan, maqtovda bo'lar,*

*O'ylamay gapirgan, mazaxda qolar.*

**“Munaqqidlar” guruhi:**

1. Tamizli odam – tuzli odam, tamizsiz odam – tuzsiz odam. (Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gap).

2. Shariat ham, tariqat ham, haqiqat mandadur mavjud, chunon multoni azmudurman, arshi a'loga sig'mamdur. (Ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida).

3. Gahi o'ris, gahi cherkas, gahi mo'mindurman gahi, ne kavlaysan, miyon-u louillalog'a sig'mamdur. (Ayiruv bog'lovchisi vositasida).

4. Mudom miskindurman, lekin g'ulomi Mashrabingdurman, Meni bechora bu dunyo bila uqbog'a sig'mamdur. (Mashrab, zidlov bog'lovchi vositasida).

**“Donishmandlar” guruhi:**

1. Odamlarga nisbatan yomonligingni to'xtat, shu o'zingga sadaqa bo'ladi. (Ohang vositasi bilan).

2. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'ramagan o'ziga zolim. (Ohang vositasida)

3. Ko'p yig'lama, og'riydi boshing, axir baxtli bo'lmog'imiz shart. Yomon bo'lar agar ko'z yoshing tugab qolsa, kelgunicha Baxt. (Ohang va agar bog'lovchili qo'shma gaplar)

4. Kel, yashirib qo'yayin seni yurakning eng chuqur yeriga, keyin sen ham yashirgin meni yurakning eng chuqur yeriga. Topolmasin bizlarni birov. (Sh. R. Ohang yordamida).

**“Zukkolar” guruhi:**

1. Dunyo qizil, sariq deb, bekor bizga berishgan saboq, dunyo azal rangindir va biz o'ylagandan ko'ra ranginroq. (Fe'l shakli yordamida).

2. Xayr, Bahor! Alvido, Bahor! Ushalmasdan qoldi armonim, kutgil, dedi-yu Bahor – lablarimga bosdi barmog'in. (Bog'lovchi-yuklama orqali).

3. Bir nafis gul ko'rdik yovuz jununda, Orzulab ismini armona qo'ydik, ismi jismiga mos armona bo'ldi, bu gulga tikilib vayrona bo'ldik. (Ohang vositasida)

4. Hozirgi yoshlarda pokizalik bor, tirik qalblariga diyonat ega, go'yo pok tabiat yomon ko'zlardan asrab qo'rganlarin shularga bergan. (Sh. R. Bog'lovchi vos.)

#### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

##### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

1-savol: *Sintaksis bo'limini o'rganishda qaysi o'quv-me'yoriy hujjatlarga asoslaniladi?*

2-savol: *Sintaksis bo'limini o'rganishda o'quvchilarning matn bilan ishlash imkoniyatlari qay darajada?*

3-savol: *Sintaksis haqidagi ma'lumotlar o'rta va o'rta maxsus ta'limning qaysi bosqichlarida o'rganiladi?*

4-savol: *Sintaksis bo'limining o'quvchilar nutqini o'stirishdagi ahamiyati nimalardan iborat?*

5-savol: *Gap bo'laklarini o'rgatishda tasnifning qanday ahamiyati bor?*

6-savol: *Gap bo'laklarining morfologiya bo'limi bilan yoki boshqa bo'limlar bilan bog'liqligini ta'minlashda qaysi texnologiyalardan foydalanish mumkin?*

7-savol: *So'z birikmasini o'rganishda uchraydigan o'ziga xos murakkabliklar haqida nimalarni ayta olasiz?*

8-savol: *So'z birikmasiga oid bilimlarni o'zlashtirishda qaysi innovatsion texnologiyalar samarador hisoblanadi?*

9-savol: *Gap va uning tuzilishiga ko'ra turlarini o'qitishda sxemalardan foydalanishning ahamiyati qay darajada?*

اگر بولسه اما نت اونگه قيلمه خيانت  
maqolining tuzilishiga ko'ra turini ayting.

10-savol: *Sodda gap sintaksisini o'qitishda qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin?*

التين السنك فار بولر ، القيش السنك يار  
(Oltin olsang qor bo'lar , olqish olsang yor) maqolining gap tuzilishiga ko'ra turini ayting, fikringizni asoslang.

12-savol: *Sintaksisni punktuatsiya bilan bog'lab o'rganishning zaruriyati nimalardan iborat?*

13-savol: *So'z birikmasini o'qitish imkoniyatlari qaysilar?*

14-savol: *So'z birikmasining so'zdan, so'zlar qo'shilmasidan, tasviriy ifoda va iboradan farqini tushuntirishga xizmat qiladigan ijodiy- amaliy topshiriqlar to'g'risida fikr yuriting.*

(Odam odamga soyadir) آدم آدمگه سايه دير maqolini so‘z birikmalariga ajratib.

15-savol: *Teng bog‘lovchili qo‘shma gaplarni o‘qitishda qanday (jodiy – amaliy topshiriqlardan foydalaniladi?*

16-savol: *Ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar mavzusini o‘qitishda, asosan, nimalarga e‘tiborni qaratish darkor?*

1-topshiriq. *Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zbek tili bo‘yicha DTSining “Sintaksis” bo‘limini o‘rganing. Xulosalaringizni ayting.*

2-topshiriq. *Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zbek tili dasturining “Sintaksis” bo‘limini o‘rganing. Misollar orqali izohlang.*

آده دن كورگن آت چاپر آنه دن (Odob odamdi yarashig‘i) maqolidagi so‘zlarning sintaktik bog‘lanish usullarini tushuntiring.

3-topshiriq. *Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zbek tili darsligining “Sintaksis” bo‘limini o‘rganing. آته دن كورگن آت چاپر آنه دن كورگن نان چاپر*

(Otdan ko‘rgan ot chopar, onadan ko‘rgan non yopar) maqolidagi gap bo‘laklarini ajratib.

4-topshiriq. *“Sintaksis” bo‘limidan bitta mavzuni tanlang va unga dars ishlanmasini tayyorlang.*

5-topshiriq. *Darslikdagi mashqlarni qiziqarli va quvnoq bajartirish uchun yangi usullar o‘ylab toping va ularni slayd ko‘rinishida taqdim eting.*

6-topshiriq. *Fikrlaringizni ushbu jadval ko‘rinishida ifodalang.*

Sintaksis bo‘limiga oid ma‘lumotlarning o‘quvchilar nutqini o‘stirishdagi ahamiyati	
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

7-topshiriq. *Sintaksisni o‘qitishning o‘ziga xos belgilari haqida gapiring.*

8-topshiriq. *“Sintaksis” bo‘limining boshqa bo‘limlar bilan aloqadorligi haqida fikr yuriting.*

آچيق آيتلگن سوز ، آچيق كونگيلگه بخشى. (Ochiq aytilgan so‘z, ochiq ko‘ngilga yaxshi) maqolini ham morfologik, ham sintaktik jihatdan tahlil qiling.

9-topshiriq. *“Sintaksis” bo‘limining boshqa bo‘limlar bilan aloqadorligi haqida fikr yuriting.*

10-topshiriq. *Maktabda «Sintaksis» bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari haqida so‘zlang.*

**11-topshiriq.** *Sodda gap sintaksisi mavzusini o'qitishda foydalaniladigan ijodiy - amaliy topshiriqlar tizimi haqida gapiring.*

ادم دی سوزی اولگندن اوزی اولسین (Odamdi so'zi o'lgandin o'zi o'lsin) maqolini gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiling.

**12-topshiriq.** *Yuklamali qo'shma gaplarni o'qitish metodikasi haqida fikr yuriting.*

**13-topshiriq.** *Nisbiy so'zli qo'shma gaplarni o'qitishda qo'llanadigan ijodiy -amaliy topshiriqlar tizimi haqida so'zlab bering.*

**14-topshiriq.** *Faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplarni o'qitishda boshlanish qismi berilgan gaplarni davom ettirish, qo'liqlar asosida gap hosil qilish singari topshiriqlarning amaliy ahamiyati to'g'risida fikr yuriting.*

ادم كورنر دوستی، مینن ، بادام كورینر پوستی مینن

(Odam ko'rinar do'stiminan, bodom ko'rinar po'stiminan) maqoliga o'xshash barqaror birikmalarga uchta misol keltiring. Ushbu qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiling.

## **PUNKTUATSIYANI O'QITISH METODIKASI. TINISH BELGILARI TASNIFI VA TAFSIFI. TINISH BELGILARINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

### *Tayanch tushunchalar:*

*punktuatsiya, punktuatsion belgilar, punktogramma, tinish belgilari, tinish belgilarining turlari, nutq oqimi, intonatsion-prosodik to'xtam, yozuv, shartli belgilar, nuqta, vergul, undov belgisi, so'roq belgisi, ikki nuqta, ko'p nuqta, tire, qavs, qo'shtirnoq, nuqtali vergul, tinish belgilarining qo'llanish tamoyillari, logik-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, farqlovchi (differensial) tamoyil.*

### **Ta'lim muassasalarida punktuatsiya o'qitishning ahamiyati.**

Punktuatsiya – tilshunoslikning tinish belgilari haqidagi bo'limi bo'lib, unda tinish belgilari (punktogrammalar)ning qo'llanilish qoidalari o'rganiladi. Punktuatsiya tilshunoslikda nutq oqimidagi intonatsion-prosodik to'xtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yig'indisini (tinish belgilarini) anglatadi.

Punktuatsiya yozuv tizimining grafika va orfografiya bilan bir qatorda turadigan uchinchi komponentidir.

Tilshunoslikda punktuatsiya termini quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1) tilshunoslikning tinish belgilari tizimini, ularning ishlatilish qonun-

qoidalarini o'rganadigan bo'limi; 2) punktuatsiya qoidalari yig'indisi; 3) tinish belgilari.

Demak, punktuatsiya tinish belgilari haqidagi qoidalar yig'indisi bo'lib, u fikrni yozuv orqali to'g'ri ifodalashga va boshqalarning fikrini to'g'ri anglashga yordam beradi. Yozma nutqni tinish belgilarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Punktuatsiya ham yozuv kabi, kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi<sup>48</sup>.

O'quvchilarga punktuatsiya o'rgatish o'zbek tili o'qitishda eng murakkab soha sanaladi. Bu ish ta'lim muassasalarida sintaksis o'qitish bilan birgalikda olib boriladi. Sintaksisga oid mavzularning, deyarli, hamma punktuatsiya bilan bog'lab o'tiladi. Punktuatsiya qoidalari sintaksis kursidagi mavzular asosida tuziladi va shu kurs asosida amalga oshiriladi<sup>49</sup>.

Puntuatsiya maktabda boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitiladi. 8-9-sinflarda esa muntazam ravishda o'rgatiladi. Akademik litseylarda alohida bo'lim sifatida o'qitiladi. Unda mavjud 10ta tinish belgisining har biriga alohida to'xtalinadi. O'quvchilarga punktuatsiyaning fikrni ifodalashdagi ahamiyatini tushuntirish uchun, dastavval, o'qituvchi tinish belgilari tushirib qoldirilgan yoki xato qo'yilgan biror-bir matnni olib, uni o'quvchilarga o'qitishi lozim. O'quvchilar matnni o'qish jarayonida qiynaladilar, ayniqsa, matn mazmunini to'liq ahg'lay olmaydilar. Tinish belgilarining qo'yilishi matnni ham ifodali o'qiy olishda, ham matn mazmunini ahg'lab yetishda muhim ahamiyatga ega ekanligini bilib oladilar, chunki tinish belgilari matnni qismlarga bo'lib ko'rsatib turadi.

Bilamizki, maktabda tinish belgilariga oid ma'lumotlarni o'rgatish darak, so'roq va undov gaplarga bog'lab, nuqta, so'roq va undov belgilarini qo'llashni tushuntirishdan boshlanadi. Akademik litsey dasturi talablariga binoan ularning har biri alohida bir mavzu sifatida mukammal va muntazam o'rgatiladi.

O'quvchilarga tinish belgilariga oid bilimlarning zarurligini quyidagi misollar orqali anglatish mumkin. Solishtiriring:

*Zulfiyaning kelgani rost emas, yolg'on.*

*Zulfiyaning kelgani rost, emas yolg'on.*

Bu gaplarning birinchisi Zulfiyaning kelgani yolg'on ekanligini anglatga, ikkinchisida uning kelgani rost ekanligi ta'kidlanayapti.

Ta'lim muassasalarida punktuatsiya o'qitish o'quvchilar yozma va og'zaki nutqining o'sishiga yordam beradi. Adabiy o'qish darslarida asarni tinish belgilariga rioya qilib o'qiydigan o'quvchilarning so'z boyligi ham

<sup>48</sup> Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида пунктуация. —Т.: УЎФАН, 1951.

<sup>49</sup> Абдурахмонов Г. Пунктуация ўқитиш методикаси. —Т.: Ўқитувчи, 1968.

ancha ortiq bo'ladi. Asarni yaxshi va to'g'ri o'qishning bir tomoni punktuatsiya o'rgatish bilan bog'liqdir. Asarni tinish belgilariga rioya qilib to'g'ri o'qiydigan o'quvchining yozma va og'zaki nutqi ravon bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida punktuatsiya o'rgatish adabiy o'qish darslarida asarni ifodali o'qish, uning mazmunini, muallif aytmoqchi bo'lgan fikr va maqsadini, uning ichki hissiyotlarini faqat o'quvchigagini emas, tinglovchiga ham yetkazish kabi ta'sirli o'qish san'atini egallashga yordam beradi. Asarni undagi tinish belgilariga rioya qilmasdan o'qish badiiy asarning mazmunini ham, badiiy qimmatini ham aniqlashga monelik qiladi; jumalarning mazmuni mavhumlashadi. Demak, o'quvchilarga ifodali o'qish texnikasini o'rgatish ularga punktuatsiya o'qitish bilan ham bog'liq ekanligini unutmash kerak.

Quyidagi misol tinish belgilari bilan bog'liq holatni o'quvchilarga yanada chuqurroq tushuntirish zarurligini uqtiradi.

*Ey tabib, qo'y, boqma dardim bedavolardan biri* (Muqimiy) gapida uch holat bor:

a) *qo'y* so'zidan keyin vergul qo'yilmasa, "tabib" "qo'yboqar"ga aylanadi;

b) "dardim"dan keyin vergul qo'yilsa, "dardim" "boqma"ga bog'lanadi – kesim+to'ldiruvchi (boqma dardimni) munosabati amalga oshadi;

d) "boqma"dan keyin vergul qo'yilsa, "ega+kesim" (dardim bedavolardan biri) munosabati ifodalanadi.

Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashtirishda, gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sanaladi. Punktuatsiya, bir tomondan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olishga yordam beradi.

#### **Punktualsiya o'qitish asoslari.**

Tinish belgilarining qo'llanishini belgilab beradigan qoidalar ma'lum tamoyillar asosida yaratiladi. Punktualsiyaning tamoyillari uning ilmiy asoslaridan iboratdir.

O'zbek tilida punktogrammalarning (tinish belgilarining) qo'llanish asoslari va shartlari mavjud. Tinish belgilarining qo'llanishida:

1. Gap mazmuni e'tiborga olinadi. Ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov yoki so'roq belgisi, uch nuqta qo'yiladi.

Gaplar orasidagi mazmuniy munosabatlar ikki nuqta, tire, vergul yoki nuqtali vergul orqali ifodalanadi. Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar orqali ifoda etiladi.

2. Gapning grammatik qurilishi ham tinish belgilarining ishlatilishini belgilab beradi. Masalan, ega bilan kesim orasida tire qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ma'lum grammatik qoidalar asosida belgilanadi.

3. Gap ohangi asosida tinish belgilari qo'yiladi. Undov, so'roq belgisi, ko'p nuqta va nuqta, tire tugallangan ohang bilan, vergul kichik to'xtam bilan, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire esa izoh ohangi bilan talaffuz qilinadi.

Ma'lumki, yozma nutqda muayyan bir tinish belgisining qo'llanish qoidalari ma'lum bir tamoyilga asoslanadi. O'zbek tilidagi tinish belgilarining qo'llanish tamoyillari tilshunos olimlar Sh. Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, K. Nazarov, B. Egamberdiyevlar tomonidan asoslab berilgan<sup>50</sup>.

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanish tamoyillari quyidagilardir:

**Logik-grammatik tamoyil.** Bu tamoyil nutq mazmuni, tuzilishi, nutq intonatsiyasini o'z ichiga oladi. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari nutqning logik-grammatik jihati bilan bog'liq tarzda ishlatiladi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gapning oxirida nuqta, so'roq mazmunini anglatgan gapning oxirida so'roq, emotsiya (hayajon) ifodalangan gaplar oxirida undov belgilari ko'proq nutq mazmuniga asoslanib qo'yiladi; kiritma qurilmalarning asosiy gap bilan zich bog'langanlari qavs, zich bog'lanmaganlari tire bilan ajratilishi nutq tuzilishiga asoslanadi: *"Dod" degan ovoz eshitildi. (O.) Qalandarov jon-jahdi bilan baqirdi: Yo'qol!!!* gaplarining birinchisida qo'shtirnoq nutq tuzilishiga, ikkinchisidagi undov belgilari ohangga asoslanib qo'yilgan.

**Uslubiy tamoyil.** Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari nutq purchasing uslubiga bog'liq holda qo'llanadi. Uslubiy tamoyil keng ma'noda bo'lib, yozuvchining individual uslubini ham o'z ichiga oladi.

Til taraqqiyoti, til uslublarining rivojlanishi nutqning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaning taraqqiyotiga, uning qo'llanish doirasi kengayishi yoki o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqlarda) ixchamlik uchun personaj nutqi tire bilan ajratiladi. Dramatik asarlarda esa nutq egalarining nomi keltirilganligidan tire bilan

<sup>50</sup> Qarang: Shoabdurahmonov Sh. Punktuatsiya qoidalari. – T., 1953; shu muallif. O'zbek tilida punktuatsiya. – T., 1955; Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – T.: Fan, 1974; Nazarov N., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – T.: O'qituvchi, 1996; G'.Abdurahmonov. Punktuatsiya o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1968.

ajratishga ehtiyoj bo'lmaydi yoki qo'shtirnoq havola (sitata)larda qo'yilib, badiiy asarlardagi ko'chirma gaplarda qo'llanmaydi. Nutqning individual uslub shaklida tinish belgilari, ko'pincha, yozuvchining subyektiv maqsadi, emotsional fikr ifodalash, uning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llanadi. Masalan, *Yoz. Quyosh hammayoqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqchilik, to'kinchilik fasli! (U.)* gaplarida "yoz" so'zi orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni ifodalagan. Bu maqsadlar tinish belgilari (nuqta, undov belgisi) orqali reallashgan.

**Farqlovchi (differensial) tamoyil.** Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari yozuv texnikasi (shakl)ni farqlash uchun qo'llanadi. Boshqacha aytganda, tinish belgilarining yozuv shakllariga bog'liq holda odatdagidan farqli ishlatilishi farqlovchi tamoyil asosida yuz beradi. Ilmiy uslubda, jumla ichida so'zlarni qisqartirishda iqtibos – sitatalarning manbasini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlatiladi. Masalan, kitob muqovasida tire (Toshkent – 2011 kabi), havolalarda vergul (G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1985 kabi) qo'yiladi. Bu tamoyil yozma nutqni ixchamlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ba'zan muallif va uning asari, matbuot nomlari qisqartirilib, unda tinish belgisidan foydalaniladi: Navoiy – N.; Oybek – O.; Abdulla Qahhor – A.Q.

Ko'p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo'yilib, numerativlik vazifasini ham bajaradi, bunda ham farqlovchi tamoyilga asoslaniladi.

Umuman, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va farqlovchi tamoyillar asosida qo'llaniladi. Bulardan logik-grammatik tamoyil yetakchi tamoyil hisoblanadi, keyingi ikkisi shunga asoslanadi va yordamchi tamoyillar hisoblanadi.

Tinish belgilari:

- a) ijtimoiy-sotsial ahamiyatga ega bo'lishi;
- b) gapning semantik-grammatik jihatdan bog'liqligini ta'minlashi;
- e) qo'llanishi grammatik qonuniyatga asoslanishi;
- d) o'z grafik shakliga, qo'llanish tizimiga ega bo'lishi lozim<sup>51</sup>.

**Punktuatsiya yoki tinish belgilariga oid mashqlar va ularning turlari.**

<sup>51</sup> Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – T.: Fan, 1974, 7-b.



O'quvchilarga tinish belgilariga oid qoidalarni to'la singdirish, ularga tinish belgilarini o'z o'rnida ongli ishlatishni o'rgatish maqsadida turli shildagi punktuatsiya mashqlari o'tkaziladi.

Bunday mashqlarning eng ko'p qo'llaniladigan turlari quyidagilardir:

1. **Sintaktik-puntuatsion tahlil.** Bu tipdagi mashq punktuatsiya o'qitishda eng asosiy usul sanaladi. Bunday mashqning mohiyati shundan iboratki, unda o'quvchi tinish belgisining qo'yilish sababini izohlaydi. Bu ish shunday o'tkaziladi: o'quvchi berilgan gapni tahlil qiladi; gap bo'laklariga sintaktik tavsif beradi, so'ng undagi tinish belgilariga mos keladigan punktuatsion qoidani aytadi. Bu mashq orqali o'quvchi punktuatsiya qoidalarining mohiyatini yaxshiroq tushunib oladi va bu qoidalar uning ongida mustahkamlanib boradi. Masalan: *Doimo e'zozda bo'ling, ey aziz ustozim!* Bu gapni o'quvchi shunday tahlil qiladi; – Bu gap undov mazmunini bildiradi; tarkibida yoyiq undalma (*aziz ustozim*) bor; u so'zlovchining fikri qaratilgan shaxs ma'nosini ifodalab, gap oxirida kelgan, shuning uchun *ey aziz ustozim* undalmasidan oldin vergul, so'ng esa undov belgisi qo'yilgan.

Sintaktik-puntuatsion tahlilni yana quyidagicha o'tkazish mumkin: a) o'quvchi matnni doskada aytib turish orqali yozadi. O'quvchilar tinish belgilarini mustaqil qo'yadilar. Matning hammasi yozib bo'lingach, o'quvchilar undagi tinish belgilarini og'zaki izohlaydilar; b) gapni yozmasdan tahlil qilish: o'qituvchi biror matnni gapma-gap o'qiydi, o'quvchilar esa unga qanday tinish belgisi qo'yish kerakligini yo'l-yo'lakay izohlab boradilar. Matnni o'qituvchi intonatsiya, pauza, logik urg'u va tinish belgilari bilan bog'liq bo'lgan o'rinlarga alohida ahamiyat berib o'qiydi. Bunday tahlil vaqtida o'quvchilar, ko'pincha, gapni sintagmalarga ajratishda va gapdagi sintagmalar orasida vergulning qo'yilgan yoki qo'yilmagan o'rinlarida yanglishadilar. Gapdagi sintagmalar har doim ham vergul bilan ajratilavermaydi: *Mening singlim Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida a'lo baholarga o'qiydi.* Bu gapda uchta sintagma bo'lib, uni o'qishda uch marta pauza bo'ladi; lekin bu pauzalar yozuvda hech qanday belgi (vergul) bilan ajratilmaydi; v) biror punktuatsiya qoidasiga mos matn tanlab olib, uni diktovka qilishdan oldin tinish belgilariga oid qoida o'quvchiga eslatiladi. Matn yozib bo'lingandan so'ng, o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib sinfda tekshiriladi va undagi tinish belgilari izohlanadi; g) biror tinish belgisining qo'yilishi (tirenning ishlatilishi, ikki nuqtaning ishlatilish o'rinlari va boshqalar)ga yoki ikki va undan ortiq tinish belgisining qo'yilishiga bag'ishlab yakunlovchi punktuatsion tahlil o'tkaziladi. Bir necha punktuatsion qoidani o'z ichiga olgan kichikroq bir

matn tanlab olinib, uni o'quvchilarga yodlab kelish vazifa qilib topshiriladi. Bir necha kundan so'ng o'qituvchi bu matnni tinish belgilarini to'g'ri qo'yish sharti bilan sinfda yoddan yozishni va tahlil qilishni talab qiladi. Bunday mashqlarni umumta'lim maktablarining 8-9-sinflarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'tkazish tavsiya qilinadi.

**2.Misollar topish.** O'quvchilar biror tinish belgilariga oid qoidaga mos keladigan misollar topadilar. Bunday mashqni uzoq o'tilgan, shuningdek, yangi o'tilayotgan mavzu yuzasidan ham o'tkazish mumkin. Masalan, 8-sinfda "Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z" mavzusi o'tilgandan so'ng, "Umumlashtiruvchi so'zlarda tinish belgilarining qo'yilishi" mavzusini o'tishda o'qituvchi bu mavzuga misollar topishni o'quvchilarga vazifa qilib topshirishi mumkin. Bu kabi mashqni mustaqil ish sifatida bajartirish yaxshi natija beradi. O'quvchilarda tinish belgilariga oid qoidalarni o'rganishlari davomida qoidaga mos keladigan misollarni o'zlari o'qigan badiiy asarlardan topib yozib kelish topshiriladi.

**3.Tinish belgilari tushirib qoldirilgan matnning tinish belgilarini qo'yib ko'chirish va ishlatilgan tinish belgilarini izohlash.** Matn tinish belgilarining turli xillarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Mashqning bu turi punktuatsiya o'rgatishda keng tarqalgan usul bo'lib, dastavval, o'quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini yaxshilaydi. Mashq matni bog'li matn bo'lgani ma'qul. O'quvchilar bu matnni to'liq yozib olib, mazmunini anglab yetganlaridan keyingina tinish belgilarini qo'yadilar. Agar matn mazmunan bir-biriga bog'lanmagan alohida-alohida gaplardan iborat bo'lsa, bunday gaplarning har biri raqamlab beriladi. Birinchi gap yozilib bo'lganidan so'ng, uning mazmuni tushuntiriladi (zarur hollarda u gap sintaktik tahlil ham qilinadi), so'ng kerakli tinish belgisi qo'yiladi, ish shu tartibda davom etadi.

**4.Diktantlar.** Punktuatsiya o'qitishda aytib yozdirish orqali o'quvchilarning xatosiz yozish malakasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu usul orqali o'quvchilar tinish belgilarining qo'yilishi intonatsiya, pauza, logik urg'uga ham bog'liq ekanligini yanada puxta o'zlashtirib oladilar.

Ta'kid diktantini o'tkazishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga xato qilishlari mumkin bo'lgan o'rinlarni eslatib, ayrim punktuatsiya qoidalarini ta'kidlaydi va undan so'ng aytib yozdiradi.

Puntuatsiya qoidalarini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladigan ijodiy diktant ikki xil bo'ladi: 1) o'qituvchi doskada bir necha so'zni yozib ko'rsatadi yoki oldindan tayyorlab kelgan so'zlar yozilgan slaydni taqdim etadi, o'quvchilar ana shu so'zlar ishtirokida gap tuzadilar. Bu gaplardan ayrimlari doskaga yozilib, undagi tinish belgilari jamoa bo'lib tahlil

qilinadi; 2) o'qituvchi dokada bir necha so'z yozib ko'rsatadi va bu so'zlar uchun umumiy bo'lgan mavzu ham beradi. O'quvchilar doskada yozib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida ayrim gaplar emas, balki bog'li matn yozadi. Bunda o'quvchi o'qituvchi tavsiya etgan mavzuning mazmunini ochishi kerak. Matnda o'quvchilar qo'ygan tinish belgilari o'qituvchi tomonidan uyda tekshirib ko'riladi, keyingi darsda bu ish yakuni sinfda tahlil qilinadi. Ishni baholashda orfografik, punktuatsion xatolardan tashqari, o'quvchining jumla tuzishi, mavzuni ochishi hisobga olinadi. Demak, bu mashq yolg'iz punktuatsion mashq bo'libgina qolmasdan, orfografik va stilistik mashq hisoblanadi. Gaplar stilistik jihatdan puxta, mazmuni mantiqiy izchil bo'lishi kerak.

**5. Punktuatsiya bilan bog'langan stilistik mashq.** Bunday mashq nutq o'stirish bilan ham bog'lab olib boriladi.

O'quvchi bir sintaktik konstruksiyani boshqasi bilan almashtiradi:

a) uyushiq bo'lakli gaplarga umumlashtiruvchi so'zning oldin kelishi bilan bog'liq tinish belgilarini to'g'ri ishlatish va, aksi: *Bahorda hamma qushlar: laylaklar, chittaklar, bulbullar uchib keladi. Laylaklar, chittaklar, bulbullar – hamma qushlar bahorda uchib keladi.*

b) bog'langan qo'shma gapni ergash gapli qo'shma gapga aylantirish va aksi: *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi. Qo'ng'iroq chalingach, dars boshlandi.*

d) sodda yoyiq gapni qo'shma gapga aylantirish va aksi: *Men raisning xafaligini sezdim. – Men sezdimki, rais xafa. Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor. – Dilozordan yurt bezor.*

e) ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish, muallif gapini ko'chirma gapning turli o'rinlarida keltirish va tinish belgilarida yuz bergan o'zgarishlarni kuzatish. O'quvchi bunday gaplarda ishlatilgan tinish belgilarini punktuatsion qoidalar asosida izohlab boradi.

f) bayon yoki inshodagi tinish belgilarini izohlash. Bunda o'quvchilar tinish belgilarini o'zlari mustaqil ishlatadilar, ishni yozib bo'lganlaridan so'ng uni jamoa bo'lib tekshirishda tinish belgilarining vazifasini izohlab berishlari kerak. Bunday ishni maxsus punktuatsion topshiriq orqali bajarish ham mumkin. Buning uchun o'qituvchi ayrim punktuatsiya qoidalarini mustahkamlovchi bayon matnini tanlab oladi, punktuatsiya qoidalarini bayon yozishdan oldin o'quvchilarga eslatadi. Matnni o'qib eshittiradi va mazmunini o'quvchilarga tushuntiradi, so'ng o'quvchilar matnning mazmunini xotirlab yozadilar. Bunda ular o'qituvchi tomonidan izohlangan tinish belgilari qoidalariga alohida diqqat qilib, to'g'ri ishlatishlari kerak. Qayd etilgan mashqlar davomida o'quvchilar

tinish belgilarini to'g'ri qo'llashdan tashqari, ularning ishlatilish sabablarini ham izohlab berish malakasini egallaydilar.

g) o'qituvchi doskada aytib turib gaplar yozdiradi. O'quvchi bunday gaplardagi tinish belgilarining qo'yilish sabablarini izohlaydi va bu tinish belgilarining intonatsiyaga mos kelish-kelmasligini tushuntiradi. Bunday mashq adabiy o'qish darslari bilan ham aloqador bo'ladi. O'quvchi doskada yozgan gaplarining intonatsiyasi, pauzasi, logik urg'usiga rioya qilib o'qishi va nima uchun shunday o'qilishini izohlashi kerak.

h) nazorat diktanti. Bir necha tinish belgilarini o'z ichiga olgan matn tanlab olinib, aytib yozdiriladi. Bunday diktant orqali o'qituvchi o'quvchilarning punktuatsion savodxonligini sinab ko'radi. Diktant uchun ikki soat vaqt ajratiladi. Bir soat diktant olishga, ikkinchi soat uni tahlil qilishga bag'ishlanadi. O'quvchilarda biror punktuatsion qoidani o'zlashtirishda qiyinchilik sezilsa yoki o'quvchilar ayrim tinish belgisini har xil qo'llasa, o'qituvchi tegishli punktuatsiya qoidasi yuzasidan maxsus takroriy mashq o'tkazadi.

Mashqlar uchun olingan har qanday matnning mazmuni yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi, milliy istiqloq g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim.

#### **Punktuatсион xatolarning tiplari va ularni tuzatish.**

O'quvchilarning yozma ishlaridagi punktuatsion xatolarning soni orfografik xatolarning miqdoriga nisbatan bir necha marta ko'p bo'ladi. O'quvchilarning punktuatsion savodxonligi ularning orfografik savodxonligi kabi o'qituvchining ish rejasidan keng o'rin olishi kerak.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning punktuatsion savodxonligi nazorat ishlari, turli tipdagi diktantlar, insho, bayon kabi yozma ishlar, uyda va sinfda o'tkaziladigan mashqlar orqali tekshiriladi.

O'quvchilarning yozma ishlarida uchraydigan punktuatsion xatolarning quyidagi tiplari kuzatiladi: 1) kerakli tinish belgisini qo'ymaslik; 2) tinish belgisini ortiqcha qo'llash; 3) tinish belgilarini farqlamaslik: birining o'rniga boshqasini qo'llash; 4) belgilardan birini tushirib qoldirish; 5) tinish belgilarini ishlatishda izchillikning yo'qligi; masalan, ayni bir xil konstruksiyada bir safar tinish belgisini qo'yib (Unga ayting: biz do'stlikni qadrlaymiz), ikkinchi safar xuddi shunday tipdagi gaplarda boshqa tinish belgisini qo'yish (Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q, Yov qo'lga taslim ham bo'lganim yo'q).

Punktuatсион o'qitishning maqsad-vazifasi va mohiyati punktuatsion xatoning oldini olishdir. Agar o'quvchi shu gapdagi qo'yilishi zarur bo'lgan ikki belgidan birini qo'yib, boshqasini qo'ymagan bo'lsa, baribir xato hisoblanadi. Agar o'quvchi gapda tinish belgilarining nima uchun va

qayerga qo'yish kerakligini bilmasa, uni qo'ymagani ma'qul: biror tinish belgisini noo'rin ishlataverish xavfliroq, bu ham o'quvchining, ham o'qituvchining ishini murakkablashtiradi. Agar o'quvchi biror tinish belgisini qo'ymagan bo'lsa, demak, u shu tinish belgisining ishlatilishi bilan aloqador punktuatsion qoidani bilmaydi yoki uni yaxshi tushuntirishga qodir bo'lmagan bo'ladi. Agar o'quvchi tinish belgisini ortiqcha qo'ysa, u tinish belgisini asossiz qo'yaverishga odatlanib qolgan bo'ladi. Bunday odat bilan kurashish tinish belgisini ishlata bilmaslikka qarshi kurashga nisbatan qiyin bo'ladi. Tinish belgisini qo'ya olmagan o'quvchiga nisbatan tinish belgisini tushunmasdan ishlatgan o'quvchining bilim-malakasida sezilarli darajada farq bo'ladi. Shuning uchun ana shunday o'quvchilar bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazishga jiddiy e'tibor berish kerak.

O'quvchilarning punktuatsion xatolarini tahlil qilishni quyidagicha tashkil etish mumkin:

1) u yoki bu punktuatsion qoida yuzasidan xatoga yo'l qo'yan o'quvchilardan birortasi doskaga chaqiriladi va o'sha gapni ifodali o'qish talab qilinadi, so'ng bu gap aytib yozdiriladi, o'quvchi ma'lum bir tinish belgisini ishlatishda nima uchun xato qilgani, xatoning sababi izohlanadi;

2) punktuatsion qoidaga mos keladigan misol topib, uni har bir o'quvchi o'z daftariga yozadi. Undan so'ng o'qituvchi rahbarligida bu gaplardan ba'zilar tekshirib ko'riladi;

3) o'quvchiga nazorat ishi vaqtida xato qilgan punktuatsion qoida eslatiladi, undan so'ng bu qoidaga amal qilib, o'quvchi o'z xatosini to'g'rilaydi;

4) nazorat ishi paytida ko'proq xato qilgan o'quvchilarga individual topshiriq, qolgan o'quvchilarga, nazorat ishidagi punktuatsion xatolarning umumiy xarakteriga qarab, uy vazifasi topshiriladi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

1-savol: *Puntuatsiyon xatolarning tiplari qaysilar?*

2-savol: *Tinish belgilari qanday vazifalarni bajaradi?*

3-savol: *O'quvchilarning yozma savodxonliklarini oshirishda qanday usullardan foydalaniladi?*

4-savol: *Puntuatsiyaga oid bilimlar maktabda qaysi sinfdan boshlab beriladi?*

5-savol: *Qavsni ishlatishda qaysi texnologiyalarni qo'llash mumkin?*

6-savol: *Nuqta qaysi o'rinlarda qo'llaniladi va uning qo'llanilishini o'rgatishda qaysi metodlar yaxshi samara beradi?*

7-savol: *Qo'shtirnoqning vazifasi nimadan iborat? Uning ishlatilishini o'rgatishda qaysi metodlardan foydalanasiz?*

8-savol: *Ikki nuqtaning vazifalari haqida gapiring. Uni o'qitishda qaysi metodlardan foydalanish mumkin?*

1-topshiriq. *Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili bo'yicha DTSining "Sintaksis va punktuatsiya" bo'limini o'rganing.*

2-topshiriq. *Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili dasturining "Sintaksis va punktuatsiya" bo'limini o'rganing.*

3-topshiriq. *Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili darsligining "Sintaksis va punktuatsiya" bo'limini o'rganing.*

4-topshiriq. *"Sintaksis va punktuatsiya" bo'limidan bitta mavzuni tanlang va unga dars ishlanmasi tayyorlang.*

5-topshiriq. *Darslikdagi mashqlarni qiziqarli va quvnoq bajartirish uchun g'ayrioddiy usullar o'ylab toping va ularni slayd ko'rinishida taqdim eting.*

6-topshiriq. *Fikrlaringizni ushbu jadval ko'rinishida ifodalang.*

Tinish belgilariga oid ma'lumotlarning o'quvchilar yozma nutqini o'stirishdagi ahamiyati	
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

7-topshiriq. *Tinish belgilariga oid bilimlarni o'rgatishning o'ziga xos jihatlari haqida gapiring.*

8-topshiriq. *"Punktatsiya" bo'limi qaysi bo'limlar bilan aloqadorlikda o'rganiladi?*

9-topshiriq. *Tinish belgilariga oid bilimlarni o'qitishda foydalaniladigan ijodiy - amaliy topshiriqlar tizimi haqida gapiring.*

10-topshiriq. *"Ha" va "yoq" javoblarini belgilang.*

t-r	Savollar	Ha	Yo'q
1.	"Punktatsiya" termimi o'zlasganmi?		
2.	Punktatsiya yozuv tizimining birinchi komponentimi?		
3.	Punktatsiya yozuv tizimining uchinchi komponenti hisoblanadimi?		
4.	Tinish belgilari punktogramma deb ham yuritiladimi?		
5.	"Punktatsiya" bo'limi tinish belgilari qoidalarini o'rganadimi?		

6.	Tinish belgilarining o‘rinli qo‘llanmasligi ma‘lum bir sintaktik qurilmaning ham mazmun, ham tuzilish jihatidan o‘zgarib ketishiga olib keladimi?		
7.	“Punktuatsiya” bo‘limi “grafika” bo‘limi bilan aloqadormi?		
8.	Punktuatsiya sintaksis bilan usviy bog‘liqmi?		
9.	Hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilarining qo‘llanish tamoyili 3ta deyilgan. Shu to‘g‘rimi?		
10.	Yakka holda qo‘llanuvchi tinish belgilariga faqat ikki nuqta kiradi. Shu fikr to‘g‘rimi?		
11.	Vergul, nuqta, tire bir elementli tinish belgilariga kirishi to‘g‘rimi?		
12.	Punktuatsion tamoyillardan logik-grammatik tamoyil asosiy sanaladimi?		
13.	O‘quvchilarga ifodali o‘qish texnikasini o‘rgatish ishi ularga punktuatsiya o‘qitish bilan ham bog‘liqmi?		
14.	Tinish belgilarining qo‘llanishida gap mazmuni e‘tiborga olinmasligi to‘g‘rimi?		
15.	Gapning grammatik qurilishi tinish belgilarining ishlatilishini belgilab bermaydi, degan xulosaga qo‘shilasizmi?		

### III. Bilimingizni sinab ko‘rish maqsadida quyidagi testlarni yeching TESTLAR

1. Gapda tinish belgilari o‘z o‘rnida ishlatilmasa, gap qaysi jihatdan o‘zgarishi mumkin?

- A) faqat mazmuni o‘zgaradi
- B) faqat sintaktik tuzilishi o‘zgaradi
- C) mazmuni va sintaktik tuzilishi o‘zgaradi
- D) mazmuni va sintaktik tuzilishi o‘zgarmaydi

2. Qo‘shma gap qismlari oralig‘ida *yoki* bog‘lovchisi yolg‘iz holda qo‘llanganda, bog‘lovchidan oldin qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

- A) tinish belgisi qo‘yilmaydi
- B) ikki nuqta qo‘yiladi
- C) tire qo‘yiladi
- D) nuqtali vergul qo‘yiladi

3. Tire noto‘g‘ri qo‘llangan qatorni aniqlang.

- A) O‘zbekiston – mustaqil davlat.
- B) Til – millatning boyligi va bebaho mulki.

- C) Men – o‘quvchiman.
- D) Ona yerim – oltin tuprog‘im.

**4. Qaysi qatorda tinish belgilari noto‘g‘ri qo‘llangan?**

- A) – Xo‘sh, qanday yangiliklar bor? – dedi O‘ktam.
- B) – Xo‘sh, qanday yangiliklar bor – dedi O‘ktam.
- C) – Xo‘sh qanday yangiliklar bor? – dedi O‘ktam.
- D) – Xo‘sh qanday yangiliklar! – dedi O‘ktam.

**5. Bugun havo ochiq // derazalarni lang ochib qo‘vsa bo‘ladi**

**Ushbu gapdagi // belgisi o‘rniga qanday tinish belgisi qo‘yish kerak?**

- A) tire
- B) vergul
- C) nuqtali vergul
- D) ko‘p nuqta

**6. Fikrning tugallanmaganligini ko‘rsatish uchun qanday tinish belgisi ishlatiladi?**

- A) undov va so‘roq belgisi
- B) nuqtali vergul
- C) ikki nuqta
- D) ko‘p nurta

**7. O‘zbek tilidagi tinish belgilarining qo‘llanish tamoyillari qaysi tilshunos olimlar tomonidan asoslab berilgan?**

- A) Faqat K.Nazarov tomonidan
- B) Sh.Shoabdurahmonov va G‘.Abdurahmonovlar tomonidan
- C) Javoblarda ularning to‘liq ro‘yxati keltirilmagan
- D) Sh.Shoabdurahmonov, G‘.Abdurahmonov, K.Nazarov, B.Egamberdiyevlar tomonidan

**8. Hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilarining qo‘llanish tamoyillari to‘g‘ri va to‘liq berilgan qatorni toping.**

- A) Logik-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, farqlovchi tamoyil
- B) Logik tamoyil, semantik tamoyil, farqlovchi tamoyil
- C) Logik-semantik tamoyil, uslubiy tamoyil, farqlovchi tamoyil
- D) Logik-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, semantik tamoyil

**9. Logik-grammatik tamoyil nimalarni o‘z ichiga oladi?**

- A) nutq mazmuni va tuzilishini
- B) nutq mazmuni, tuzilishi, nutq intonatsiyasini
- C) nutq mazmuni va nutq intonatsiyasini
- D) Faqat nutq tuzilishinigina o‘z ichiga oladi.

**10. Tinish belgilari qanday vazifalarni bajarishi lozim?**



- A) Ijtimoiy-sotsial vazifa bajarishi, gapning semantik-grammatik jihat bilan bog'liq bo'lishi, qo'llanishi grammatik qonuniyatga asoslanishi, o'z grafik shakliga, qo'llanishi tizimiga ega bo'lishi lozim.
- B) Faqat ijtimoiy-sotsial vazifa bajarishi lozim.
- C) Ijtimoiy-sotsial vazifa bajarishi va o'z grafik shakliga, qo'llanish tizimiga ega bo'lishi lozim.
- D) Qo'llanishi ma'lum bir grammatik qonuniyatga asoslanishi lozim.


## PUBLITSISTIK, ILMIY, RASMIY VA BADIY USLUBLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI USTIDA ISHLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

### *Tayanch tushunchalar:*

*so'zlashuv uslubi, oddiy so'zlashuv uslubi, adabiy so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy ish qog'ozlari, ariza, buyruq, murojaatnoma, uslubiy vositalar, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ma'no ko'chish usullari, neytral so'zlar, ijtimoiy leksika, targ'ibot-tashviqot, ilmiy atamalar, terminlar, ilmiy maqola, monografiya.*

**Nutq uslublarining o'zaro farqlari.** Uslub – tilning inson faoliyati muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. Kishilar faoliyatining barcha sohalaridagi munosabatda tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash, ishlatishda bir-biridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi xilma -xil nutq ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funktional) uslub, deb yuritiladi. Vazifaviy uslub deganda, tildan farq qiladigan qandaydir alohida narsa tushunilmaydi, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o'zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi<sup>52</sup>.

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalar, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi:



<sup>52</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Uslub>

So'zlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qo'llashning nisbatan erkin uslubidir. Bu uslub o'z xususiyatlariga ko'ra ikki turdagi adabiy so'zlashuv uslubi va oddiy so'zlashuv uslubiga ajratiladi.

So'zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ega. Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (*ketti, ottan, yigichcha*), bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (*traktir, zaril, bironta*), tovushlarning o'rin almashishi (*turpoq, aynalmoq*), tovushlarning orttirilishi (*o'ramol, fikir, banka*), tushirib qoldirilishi (*gazet, burni, egni*) kabi fonetik hodisalar, avvalo, so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi.

So'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam – bu kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy-ro'zg'or yumushlari bilan bog'liq so'zlar. Bundan tashqari bu uslubda «...siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi»<sup>53</sup> Ikkinchi qatlam – og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: *kichkina (bolagina), yiqildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (yiyanglig' loqi)* kabi.

Bu uslubning *burnini ko'tarmoq, ko'zini shira bosmoq, qo'li kaltalik qilmoq* singari o'z frazeologizmlari mavjud. Kishi nomlarini *Abdi, Bek, Zuli, Dili* singari qisqartirib ishlatish mumkin. So'zlarning metonimik ko'lamini juda keng tarqalgan. Masalan: *auditoriya kuldi, kengash bo'ldi, dasturxoniga o'tirdi, samovarga chiqdi* kabi. So'zlashuv uslubida nutqiy vaziyatning ahamiyati juda katta. *Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yo'q, albatta, aha, xo'p* singari so'zlar nutqda ko'p ishlatiladi.

So'zlashuv nutqi o'zbek tilshunosligida prof. B.O'rinboyev tomonidan o'rganilgan<sup>54</sup>. Bu nutq kitobiy nutqdan bir qadar farq qilib, *Asal, asal, barmog'ingni tishlab olasan; Ish, faqat tugmachani bossang bas; Kechaday kecha; Boladay bola* kabi gap shakllari odatdagi hol hisoblanadi.

Kitobiy nutq uchun bog'lovchisiz qo'shma gaplar, odatda, xos emas, og'zaki so'zlashuv nutqi uchun esa, aksincha, xarakterlidir. So'zlashuv nutqidagi soddaga gaplar, ko'pincha, fe'l bilan ifodalangan kesimning yo'qligi bilan xarakterlanadi. Hatto ba'zan shunday holatlar ham bo'ladi, bunday gaplarga fe'l-kesimni qo'yib ham bo'lmaydi. Masalan, *Biz*

<sup>53</sup> Sh o m a q s u d o v A. O'zbek tili stilistikasi. –T.: O'qituvchi, 1983, 15-bet.

<sup>54</sup> O' r i n b o y e v B. O'zbek tilining so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. –Toshkent: Fan, 1975. 89-bet

stiznikiga. Biz magazinga; Men, odatda, ishga avtobusda, ishdan piyoda kabi.

**Adabiy soʻzlashuv uslubi** umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun moʻljallangan turi boʻlib, u adabiy meʼyorlarga mos, ishlangan va tartibga solingan boʻladi. Adabiy soʻzlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, oʻqitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

**Oddiy soʻzlashuv uslubi** nutq muomalasi jarayonida adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan taʼriflanadi. Bu uslubda soʻz tartibi qoidaga nomuvofiq boʻlishi (Kecha konsert boʻldi klubda); koʻchma, obrazli emotsional vositalar koʻproq ishlatilishi (gʻayrat qil, shalvirama; Alini qarang, ogʻzi qulogʻida kabi) kuzatiladi. Bu uslubdagi nutq dialogik shaklda boʻlib, toʻliqsiz gaplar va imo-ishoraning koʻp ishlatilishi (Kelyapti (navbatchi), Ketdimi?— Ha, kubi), takrorlar (Kelib-kelib shu gapni topdingmi?), talaffuzda erkinlik (naʼlat (laʼnat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi) kabi) yaqqol namoyon boʻladi. Oddiy soʻzlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qoʻllanadi.

**Rasmiy-idoraviy uslub** jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub hujjat xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga koʻra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, eʼlonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi.

**Rasmiy uslub** tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy shtamlar, kasbga oid soʻzlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qoʻllanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini taʼminlaydi. Tayyor nutq formulalari (shu asosda, shunga koʻra, maʼlum qilamizki, ... ni eʼtiborga olib, ... ga koʻra, ... biz, quyida imzo chekuvchilar, ... ga asosan, (muvofiq), ... uchun, ... dan kelib chiqib, ... sharti bilan, ... berilsin, ... taqdirlansin kabi) hujjat matnining darak-axborot xarakterida boʻlishini, soʻzlarning bir maʼnoda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning boʻlmasligini, majhullik va buyruq-istak shakllarining, qoʻshma gap turlarining keng qoʻllanilishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

**Ilmiy uslub** tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar toʻgʻrisida aniq, asoslangan, izchil maʼlumot berishda qoʻllanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini taʼriflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Bu uslub maxsus atamalar leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy meʼyorga

qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi.

**Ilmiy uslub** bilimning turli sohalariga, shuningdek, kimga mo'ljallanganligiga qarab o'zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislarigagina mo'ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir.

**Ilmiy-ommabop uslubda** maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

**Publitsistik uslub** siyosiy-ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Bu uslubning yozma turiga publitsistik maqolalar, felyeton, murojaatnoma, xatlar, chaqiriqlar kirsqa, og'zaki turiga notiqlik kiradi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ'ibot uslubi bo'lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza, dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi. Shunga ko'ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo'yoqdor so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.

**Badiiy uslub** kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan, ijodiy foydalanishi, turli ifoda vositalarini qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko'lamini, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda

bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha turdagi san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

**Uslubiy ma'no.** Nutqda so'zlarni ma'nosiga muvofiq tarzda qo'llash lozim. So'z ma'nosini to'g'ri anglamaslik natijasida ko'pincha uslubiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan: *Yo'l yurib raso (rosa) charchadi. Buxoroli (buxorolik) yigit g'olib bo'ldi. Derazadan go'zal qizning basharasi (chehrasi) ko'rindi.*

**Uslubni yaratuvchi vositalar ustida ishlash.** Ma'lumki, har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud. Bular quyidagi turlarga bo'linadi:

**1. Leksik vositalar:** sinonim, omonim, antonim, paronim, ko'p ma'nolilik, tag ma'no (gapning tagidagi yashiringan ma'no), sifatlash, o'xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so'zlar (jargon, argo, so'kish, qarq'ish kabilar), kasb-hunar so'zlari, mubolag'a (giperbola), urxaik va tarixiy so'zlar, atamalar.

**2. Fonetik vositalar:** nutq tovushlari, ohang, urg'u.

**3. Grammatik vositalar:** a) morfologik vositalar: turli turumdagi so'zlar; b) sintaktik vositalar: gap bo'laklari, ritorik so'roq gaplar, undalma, kirish so'z, kirish birikma, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.

Ma'lum bir uslubga tegishli bo'lgan so'zlar *uslubiy xoslangan* so'zlar deb yuritiladi: *yanglig'* so'zi badiiy uslubga, *omonim*, *sinonim* so'zlari ilmiy uslubga, *balli*, *ketvorgan* kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga, *faollar yig'ilishi*, *siyosiy maydon* kabi so'z birikmalari ommabop uslubga xosdir. So'zlashuv uslubida ham, kitobiy uslubda ham ishlatiladigan so'zlar **uslubiy betaraf so'zlar** hisoblanadi: *suv*, *toy*, *bola*, *xat*. Bu so'zlar ko'chma ma'noda qo'llansa, ma'lum bir uslubga tegishli bo'lishi mumkin.

8-sinf o'zbek tili darslarida nutq uslublari "Adabiy nutq va uning uslublari" mavzusida tavsiflangan.

10-sinf o'zbek tili darslaridagi nutq uslublari o'z mavzulari quyidagicha:

Uslubiyat. Til va uslub.
Nutq uslublari va til vositalari.
Nutq uslublarning turlari. So'zlashuv uslubi.
Nutq uslublarning turlari. Publitsistik uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy uslub.
Nutq uslublari va uslubiy bo'yoq.

**Nutq uslublarini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan samarali usullar texnologiyasi.**

“Hayotiy vaziyatlar” o'yini. Muhokama qilinayotgan muammoga oid aniq vaziyatlar darsda olingan bilimlardan foydalangan holda ko'rib chiqiladi. Odatda, ular sahna shaklida namoyish etiladi. Ushbu metodning kuchli tomonlari quyidagilardan iborat:

➤ barcha qatnashchilarning jalb etilishi, bilimlarning amaliyotda qo'llanilishi va tekshirilishi;

➤ amaliyotga yo'naltirilganligi.

#### **Kartochkalar.**

Ushbu mashqning o'tkazilish tartibi quyidagicha:

- kartochkalar (varaqlar) tarqatiladi;
- ma'lum mavzu bo'yicha savollar beriladi;
- har kim alohida kartochaga javobini yozadi;
- 2-3 kishi bo'lib guruhlariga birlashiladi;
- umumiy kartochkaga guruhning fikrini ifodalovchi javob yoziladi;
- guruhlar ikkitadan bo'lib bir guruhga birlashadilar, jarayon davom etadi.

Oxirida barcha bitta umumiy (agar umumiy qarorga kelishning mutlaqo iloji bo'lmasa bir necha) javobni tayyorlaydi.

#### **Rolli o'yinlar.**

Bu mashqlarda o'quvchilar o'zlarini boshqa birov deb tasavvur qilishlari lozim. Mazkur metod ijodiy faollik, taffakkur, tasavvurni ishga solish, ko'pchilik oldida so'zga chiqish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ishtirokchilarning muammoga munosabatini bildirish imkoniyatini yaratadi.

#### **Guruhdagi bahs.**

Bahsli masala yuzasidan turli nuqtayi nazarlarni aniqlash va barcha ishtirokchilar o'z xulosalarini chiqarishlari uchun imkoniyat yaratish maqsadida o'tkaziladi. Bunga jo'shqin, hissiyotlarga boy aql-idrok bellashuvi muhiti yordam beradi. Katta guruhda bir muammo yoki mavzu muhokama qilinadi. Mavzuni oldindan rejalashtirgan ma'qul. Maxsus savollar tuzish kerak, bu ishtirokchilarni o'z fikr-qarashlarini ifodalashga rag'batlantiradi. Bahsda ishtirokchilar o'z qarashlari himoyasi uchun qarshi holda istalgan asos, dalil keltirishlari mumkin. Guruh bo'lib bahslashish chuqur taassurotlarni qo'zg'aydi, yodga soladi, ishtirokchilarni boshqa sharoitda ifodalay olmaydigan fikrlarini aytishga undaydi. Ba'zan qarashlar mos kelmasligi mumkinligini unutmaslik va tomonlar o'rtasida janjal chiqishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

### Insert jadvali

Tushunchalar	B	+	-	?
So'zlashuv uslubi				
Rasmiy uslub				
Ilmiy uslub				
Publitsistik uslub				
Badiiy uslub				

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uslublarni bilish va o'rganish barcha uchun birdek muhimdir. Chunki nutqning chiroyli, mazmundor echiqishida uslubning o'zni beqiyos. Adabiy kechalarni rasmiy uchrashuvga aylantirmaslik uchun adabiy me'yorlar asosida so'zlashish lozim yoki ilmiy kengashlarda so'zlashuv uslubida maruza qilish ham kulgili holat bo'ladi. Har bir shaxs eng kamida o'z sohasi tilini, uslubini o'rganib qo'yishi foydadan xoli bo'lmaydi. Masalan, jurnalistika sohasi vakillari, albatta, publitsistik uslubni chuqur egallagan bo'lishlari kerak, bundan tashqari, jurnalistika barcha sohalar bilan bog'liqligini hisobga olgan holda boshqa uslublarni ham o'rganish zarar qilmaydi.

**Nutq uslublari bilan ishlashda amaliy topshiriqlardan foydalanish.** Nutq uslublari bilan ishlashda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

**1-topshiriq.** She'ni ifodali o'qing. Undagi g'oya va badiiy uslubga xoslangan so'z va so'z shakllari haqida fikrlaringizni ayting. Maktablarning 10-sinfi uchun xuddi shunday matn yaratishga harakat qiling.

Sen mangusan, baqosan,  
 Men esam o'tkinchi zot.  
 Sen hamisha bahorsan,  
 Men – lahzalik xotiro.  
 O'zbek tilim, jon tilim,  
 Sensiz men so'ladorman,  
 Devona bo'ladorman.  
 Tug'ganimga yetti yot  
 Begona bo'ladorman.  
 O'zbek tilim, jon tilim –  
 Yuragimning qoshida  
 Sayrab turgan bulbulim.

(Shukur Qurbon)

**2-topshiriq.** 10-sinf "O'zbek tili" darsligida berilgan quyidagi mashqni bajaring va namunadagidek mashq va topshiriq tuzing.

**14-mashq.** Berilgan matnda ajratib ko'rsatilgan so'z va ifodalarning qaysi uslubga xoslanganini aniqlang.

Saboning eri keyin mashinasiga yetar-yetmas haydovchiga «Motorni qo'sh!» imosini qildi-yu, uyga – Saboga sim qoqdi.

– Tez bo'! – dedi har qanday mulozamatni yig'ishtirib qo'yib, nafasi bo'g'ziga tiqilgan. – Tez bo'! Donor topilibdi. Tayyorgarligingni ko'rib, pastga tush! Yigitlar seni kasalxonaga olib kelishadi.

Men o'sha yerga ketyapman. Ha, Shahlo yoningdami? Ovol o'zing bilan. Qo'rqma, hammasi joyida bo'ladi... Sabo xuddi avvaldan o'ylab qo'ygan rejaga amal qilayotgandek shosha-pisha kiyinib, tashqariga chiqdi. (Ulug'bek Hamdam)

**3-topshiriq.** *Ish yuritish jarayonida eng ko'p ishlatiladigan ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimai hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot kabi ish qog'ozlari ma'lumot-axborot hujjatlari sifatida umumlantiriladi. Ularning aksariyati bilan Siz ta'lim bosqichlarida tanishgansiz. Bilasizki, har qanday ish qog'ozlari o'zining zaruriy qismlariga ega bo'ladi. Ana shu zaruriy qismlar haqida fikrlashing.*

**Namuna:** Arizaning zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Ariza yo'llangan muassasaning yoki mansabdor shaxsning nomi.
2. Ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi, otasi ismi va familiyasi.
3. Hujjatning nomi (Ariza).
4. Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat kabi).
5. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar (agar zarur bo'lsa).
6. Ariza yozuvchining imzosi, ismi va otasi ismining bosh harflari, familiyasi.
7. Ariza yozilgan vaqt (yil, kun, oy).

**4-topshiriq.** *Ish qog'ozlarining zaruriy qismlari tartibiga rioya qilgan holda ariza, bayonnoma, tavsifnoma, taklifnoma matnini yarating.*

**5-topshiriq.** Quyidagi matnning qaysi uslubga oidligini aniqlang va unga tavsif bering. Uni namuna sifatida qabul qilib, o'zingiz ham shunga o'xshash misollar toping.

Tildagi har bir so'z o'z o'rnida qo'llangandagina nutq ko'rkam, jozibador bo'ladi.

Masalan, *professor, dotsent, prorektor, rektor, direktor* kabi so'zlar rasmiy uslub uchun xos me'yor sanaladi, biroq qolgan uslublarda ularni aynan ishlatib bo'lmaydi. Ishxonada "Professor E. Begmatov, sizni

talabalar kutishyapti" deyish mumkin, lekin uyda unga o'zining farzandlari "dada" deyishning o'rniga "professor" deb murojaat qila olishmaydi – me'yor buziladi.

**6-topshiriq.** Ariza namunasini o'qing. Siz ham o'zingizga moslab shu asosda ariza yozishga odatlaning.

**N a m u n a:**

*Asaka akademik litseyi direktori  
D. Mo'minova 2-bosqich tala-  
basi M. Abdullayevdan*

*A r i z a*

2009-yilning 4 – 6-aprel kunlari Chirchiq shahrida respublika birinchiligi uchun boks bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalarda ishtirok etishim uchun ruxsat berishingizni hamda ko'rsatilgan kunlarda darslardan ozod qilishingizni so'rayman.

(imzo) M. Abdullayev 2009-yil 2-aprel

**7-topshiriq.** "Tadbirkorlikka keng yo'l", "Kichik korxonalar hayotidan", "Bozor infrastrukturasi", "Makroiqtisodiyot nima?" kabi mavzulardan birida ilmiy-ommabop matn tuzing, matnning o'ziga xos tomonlarini izohlang.

**Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

**I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishleng.**

**1-savol:** "Uslubiyat" deganda nimani tushunasiz?

**2-savol:** Nutq uslublarida til vositalaridan qanday foydalaniladi?

**3-savol:** Og'zaki so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan xususiyatlar haqida nimalar bilasiz?

**4-savol:** So'zlashuv uslubining qaysi turida (adabiy so'zlashuv, oddiy so'zlashuv) qisqalikka, ba'zan nutqiy ortiqchalikka yo'l qo'yiladi?

**5-savol:** Nutq uslublarini o'zlashtirishda bilimning qanday ahamiyati bor?

**6-savol:** Opti, kepti, bo'sa, na'lat, ko'ynak kabi so'zlar qaysi nutq uslubda uchraydi?

**7-savol:** Og'zaki so'zlashuv uslubining qaysi turida adabiy me'yorlarga qat'iy amal qilinadi?

**1-topshiriq.** Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili bo'yicha DTSining "Nutq uslublari" bo'limini o'rganing.



2-topshiriq. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili dasturining "Nutq uslublari" bo'limini o'rganing.

3-topshiriq. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili darsligining "Nutq uslublari" bo'limini o'rganing.

4-topshiriq. 10-sinf "O'zbek tili" darsligidagi mavzu asosida dars ishlanmasini tayyorlang.

5-topshiriq. Darslikdagi mashqlarni bajarish uchun o'ziga xos usullar o'ylab toping va ularni slayd ko'rinishida taqdim eting.

6-topshiriq. Fikrlaringizni ushbu jadval ko'rinishida ifodalang.

Nutq uslublariiga oid ma'lumotlarning o'quvchilar og'zaki va yozma, shuningdek bog'lanishli nutqini o'stirishdagi ahamiyati	
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

7-topshiriq. Nutq uslublarning o'ziga xos belgilari haqida gapiring.

8-topshiriq. "Nutq uslublari" bo'limi qaysi bo'limlar bilan aloqadorlikda o'rganiladi?

9-topshiriq. Tinish belgilariga oid bilimlarni o'qitishda foydalaniladigan ijodiy - amaliy topshiriqlar tizimi haqida gapiring.

10-topshiriq. Uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so'zlarga misollar keltiring.

## TIL SATHLARINI O'RGANISHDA OG'ZAKI, YOZMA VA BOG'LANISHLI NUTQNI O'STIRISHDA DASTURLASHTIRILGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASI, O'YINLI TEXNOLOGIYALAR, O'QITISHNING TABAQALASHTIRILGAN VA INDIVIDUAL TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

### Tayanch tushunchalar:

*nutq, nutq turlari, og'zaki nutq, yozma nutq, bog'lanishli nutq, nutq o'stirish, texnologiya, nutq o'stirish metodikasi, nutq o'stirish usullari, bayon, insho, diktant, esse, qiroat, nutqning ichki va tashqi ko'rinishlari, ichki nutq, tashqi nutq, insho turlari, ilmiy insho, tasviriy matnlar.*

**Nutq turlari.** Odam nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi. Inson nutqi rang-barang. Do'stlarning suhbatlari ham, so'zlayotgan kishining chaqirig'i ham, san'atkorning sahnadagi monologi



ham, o'quvchining ma'lum bir so'roqqa qaytarayotgan javobi ham nutqdir. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo'ladi. U ba'zan istak-tilak, ba'zan chaqiriq-murojaat, ba'zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi.

Nutq *ichki* va *tashqi* ko'rinishlarga ega. **Ichki nutq** odamning o'z ichidagi passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun o'zbek tili ta'limi jarayonida ichki nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Fikrni bir joyga to'plash, nimalar xususida fikr yuritish kerakligini belgilash, bayon qilinadigan asosiy fikrning mohiyatini anglash, ichki nutqni rivojlantirishda muhim omildir. O'zbek tili mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlarning hammasi ichki nutq holatida boshlanib, keyin tashqi nutq shaklida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, insho, bayon yozishdan oldingi jarayon ichki nutq namunasidir. **Tashqi nutq** boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma shakllarga ega.

**Og'zaki nutq** odatdagi tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan, deyarli, foydalanilmaydi. O'quvchi og'zaki nutqda ko'proq sodda gaplarni qo'llaydi: u o'z suhbatdoshiga nimanidir ko'rsatishi, mantiqiy urg'udan foydalanib, ma'lum bir so'zni alohida ta'kidlashi, nimanidir mimika, qo'l, ko'z, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Og'zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to'liqsiz gaplardan foydalaniladi. Nutqning bu turi bir yoki bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi va monolog, dialog, polilogik shaklda namoyon bo'ladi.

**Yozma nutq** esa harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzaslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilish orqali voqealanadi. Yozma nutq ham og'zaki nutq singari monologik, dialogik va polilogik shakllarga ega.

**Monologik nutq** bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi bo'lib, u himoya qilish, xabar berish, o'qilganni qayta so'zlab berish, o'zi savol berib, o'zi javob berish shaklida namoyon bo'ladi.

**Dialogik nutq** ikki kishi o'rtasida amalga oshiriladi. Polilogik nutq esa ko'p kishining nutqidir. Nutqning bu ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, bu nutq turlari keng jummalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik va polilogik nutq tarkibida to'liqsiz gaplar juda

ko'p bo'ladi. Bunday nutq tarkibida so'roq va undov gaplar ham uchraydi. Gaplar, ko'pincha, o'zining qisqaligi bilan ajralib turadi. Og'zaki dialogik va polilogik nutqda so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan bir qator vositalar: mimika, imo-ishoralar, ohang ham ishga solinadi. O'quvchilarda bu vositalarni tarbiyalash ham o'zbek tili o'qitishning muhim vazifalaridan biridir.

Ta'lim jarayonida, ko'pincha, dialogning keng tarqalgan ko'rinishi – suhbatdan foydalaniladi. Bu, odatda, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotdir. Nutqning bu ko'rinishi tugallangan jumladan foydalanish bilan ajralib turadi.

Nutqning ikkinchi turi yozma nutqdir. Yozma nutq ustida ishlash og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayondir. Chunki u o'quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutq turining murakkab tabiati ham shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi.

Yozma nutq tekshiriladi, tuzatiladi, takomillashtiriladi, bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. Yozma nutqdagi imlo va tinish belgilari ustida ishlash matn mazmuni ustida ishlash bilan qo'shib, yaxlitlik hosil qiladi.

**O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar.** Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. Tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali kechadi. Kichik bolalik davridan boshlab, inson aloqa-aralashuvga ehtiyoj sezadi: o'zgalarning fikrini tinglash va o'z fikrini bayon qilishga tobora ko'proq zaruriyat seza boshlaydi.

Avvalo, shuni qayd qilish lozimki, maktabda o'qitiladigan barcha o'quv fan-lari o'quvchi nutqi ustida ishlashga yo'l ochadi. "O'zbek tili" o'quv fani sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, o'quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go'zal olamiga olib kiradi, nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo'yoq berish, nafasot bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi nutqiga bir qator muhim talablar qo'yiladi. Ana shu muhim talablardan biri nutqning nutq sharoitiga mosligidir. "Nutq sharoiti"

deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Bu sharoit behad ko'p tarkibli, serqirra bo'lib, so'zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa-buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so'zlovchining maqsadi va imkoniyatlarigacha bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi.

Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoq turgan so'zlovchi va tinglovchi faqat yozma nutq (xat, maktub, axborot va h.k.) vositasida fikr almasha oladi. Tabiiyki, bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bir-biriga yaqin turgan so'zlovchi va tinglovchi orasida fikr almashishning eng qulay yo'li og'zaki nutqdir. Og'zaki va yozma nutqning o'z nutq sharoitlariga yarasha xilma-xil xususiyatlari bor. Chunonchi, so'zlovchi bitta, tinglovchi ko'p bo'lsa, so'zlovchining baland ovozda to'xtamlar (pauzalar)ga rioya qilib, imo-ishoralardan kamroq foydalanib, fikrni izchil va bir-biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchining nazariy masalalarni yoritishi yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma'lum bir mavzuni sinfda, biror yig'inda ochib berishdagi nutqida o'z aksini topadi. Shuning uchun bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning o'zaro to'g'ri bog'lanishi, bog'lovchilar, olmoshlar, soha atamalari, ovoz tembri, ohang kabilarni to'g'ri qo'llashga alohida e'tibor berish lozim.

O'quvchining bunday nutqi uzundan-uzoq jumalardan, ortiqcha so'zlardan, odat tusiga kirib qolgan takrorlardan xoli bo'lishiga, nutq yaratilayotgan paytda o'quvchining so'zlovchilarga nisbatan qanday turishiga, qo'l, ko'z, bosh, bo'yi, oyoq harakatlariga alohida e'tibor berish kerak.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir. Xalqimiz qadimdan bunga juda katta e'tibor bergan. «So'zni aytgin uqqanga» maqolida nutqni tinglovchilarga tushunarli qilib bayon etish zaruriyati ta'kidlangan.

Dindorlar orasida bir rivoyat keng tarqalgan. Tasavvuf ilmining buyuk namoyandalaridan Mansur Xalloy (858-920 yillar) dunyoqarashiga binoan har bir odam haqning bir zarrasidir. Shuning uchun u «Analhaq» (Men ham haqman) deb aytdi. Uni «xudolikka da'vo qilyapti» deb, bu so'zi uchun dorga osganlar. Shunda birovlar Mansur Xalloyni «haq» (to'g'ri), boshqalar esa «nohaq» (noto'g'ri) deb baholagan. Muridlari Mansuri Xalloyning haq yoki nohaqligini aniqlash maqsadida buyuk olim Abdullo Ansoriyga murojaat qiladilar. Ansoriy bu haqda lo'ndagina javob beradi: «So'zni tushunganga aytish kerak». Agar Mansuri Xalloy olimlar yoki fozillar orasida, ya'ni «Analhaq» ma'nosini tushunadiganlar davrasida shu

gapni aytganida uni o'ldirmasliklari mumkin edi. Bu gapni tushunmaydigan avom oldida aytish, «Men haqman» deyish xudolikka da'vo qilish bilan teng va bunday shaxs shariat hukmiga ko'ra o'ldirilishi lozim ekan.

Rivoyatdan ko'rinib turibdiki, tinglovchilarning saviyasini hisobga olish faqat nutq taqdirini emas, balki notiq taqdirini ham hal qiladi. Shuning uchun o'quvchilarda o'z fikrini tinglovchining saviyasi, yoshi, mavqeyini hisobga olgan holda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun o'quvchilar bilan ayni bir fikr (axborotni, tilak-istak va h.k.)ni o'zidan kichiklarga, tengqurlarga, o'zidan kattalarga, yaqinlarga, yaqindan tanish bo'lmagan shaxslarga ifodalash ustida muntazam ish olib borishga to'g'ri keladi. O'quvchilarni maktublar yozishga o'rgatish, ayni bir fikri turli kishilarga turli xilda bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab mazmundorlikdir. Shuni unutmaslik lozimki, nutq sharoitiga mos tushsa, u mazmunli bo'ladi. O'quvchi faqat bilgan narsalarini, o'zi xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar, o'quvchining shaxsiy kuzatishi yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritilgan fikrigina o'zgalar diqqatini o'ziga tortadi. Mazmunsiz fikr na shaxsning o'ziga, na o'zgalarga yoqadi. O'quvchiga o'zi o'qigan, kuzatgan, bilgan narsalar yoki voqea-hodisalar xususida yozish ancha oson kechadi.

Suhbat, hikoya, insho uchun o'qilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari, kinofilmlar, shaxsiy kuzatish va taassurotlar, kundalik hayot voqealari bo'y material bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri fikrning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytariq fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Nutq – mantiqiy fikrlash mahsuli. U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog'langan. Taqqoslash shunday bir mantiqiy usullardirki, u bilan moddiy olamdagi narsalar va voqealarning bir-biriga o'xshashligi, bir-biridan farqi aniqlab

olinadi; shu asosda muhim xulosalar chiqariladi. O'quvchi bu faoliyat usulidan foydalanmay turib, mantiqan to'g'ri fikr yurita olmaydi.

Nutqning mantiqan to'g'riligi esa, avvalo, fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog'langanligi, mavzudan chetga chiqmaslik, mazmunda mantiqiy ziddiyatlar, poyma-poy, mujmal jumlar bo'lmasligi, hukm, xulosalar asosli, ishonarli bo'lishi demakdir.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab uning boy va rang-barangligidir. Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, "so'z-olmosh", "so'z-ibora", "so'z-tasviriy ifoda", "so'z-ramziy belgi" sinonimlaridan unumli foydalanishda, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, shoir, yozuvchilarning aforizmga aylanib qolgan iboralari va jumlaridan, badiiy asarlardan olingan parchalardan, o'zbek xalqining qochiriq so'zlari, ko'chma ma'noli so'zlaridan, o'xshatish, sifat-dosh, jonlantirish, istiora, mubolag'a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so'roq gaplardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go'zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri uning aniq bo'lishidir. Nutqning aniqligi faqat narsa, voqea - hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea - hodisa uchun xos bo'lgan belgilarni aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so'z, so'z birikmalari va gaplar tanlashdan iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog'langan. Ma'lum bir mazmunni turli shakllarda bera bilish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlash nutqqa aniqlik kiritadi.

Ohangdorlik ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. Shuning uchun she'riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o'qiy olish malakasi ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. U ohang yordamida nutqni sintagmalarga bo'ladi, mantiqiy urg'uni o'rinli qo'llaydi. Shu sababli, ifodali o'qish malakasi faqat adabiyot darslaridagina emas, balki o'zbek tili mashg'ulotlarining ham tarkibiy qismiga aylanmog'i lozim.

Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi ham unga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Nutqqa qo'yiladigan yana bir muhim talab uning soddaligi va sofligidir. Sodda nutq, avvalo, tushunarli bo'ladi. Nutqning tushunarli bo'lishi bir tomondan, fikrni lo'nda, aniq bayon qilish, tushunarli bo'lmagan g'aliz jumalardan saqlanishda namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog'liqdir. Demak, o'quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilishi, ham o'zgalar fikri mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Nutqning sofligi, avvalo, uning tozaligi demakdir. Ma'lumki, o'quvchilar nutqida har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlar, o'zbek adabiy tiliga xos bo'lmagan so'zlar ko'p uchraydi. Nutqni bunday so'zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish o'zbek tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Yuqorida tilga olingan talablar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchi yaxshi nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi. Shuning uchun o'zbek tili darslarida nutqqa qo'yilgan bir talabni hisobga olib, ikkinchisini unutish yoki bir talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfda o'tish mumkin emas. Bu talablarga doimiy va qat'iy amal qilinsagina nutq o'stirish samarali kechadi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida matn bilan ishlash. Matn nutqiy hodisa bo'lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmunan birikishidir. "Qish. Qor yog'yapti." shaklidagi uchtagina so'zning mazmunan birikishidan tortib, butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matn sanaladi. Har bir matn ma'lum bir narsa, voqea-hodisani tasvirlaydi; u haqida xabar beradi; so'zlovchining munosabatini ifodalaydi.

Matn o'z tuzilishiga ko'ra gap, murakkab sintaksis butunlik, xat boshi, bo'lim, qism, bob va paragraflardan tashkil topishi mumkin. O'quvchilar tomonidan yaratilgan matnlar esa asosan gap, xat boshi va muayyan kichik qismlardan iborat bo'ladi. Bu birliklar, albatta, matn hosil qilishda ishtirok etadi va uni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

"Matnlar xilma-xildir, – deb qayd qilinadi o'quv dasturida. Ularning aniq to'la va ko'rinishlari qisman darsliklarda berilsa, asosan, o'qituvchi tomonidan belgilanadi." Shuning uchun dastur o'qituvchiga darslikdagi matnlarni o'z didi, talabi, sharoitga qulayligi bilan bema'lol almashtirish, o'qitish jarayonini tom ma'nodagi ijodiylik va izlanuvchanlik asosida qurishga to'liq imkoniyat beradi.

"O'zbek tili" darslarida berilgan matnlarni; a) ta'limiy-ma'rifiy matnlar; b) ta'limiy-tarbiyaviy matnlar singari ikki guruhga ajratish mumkin.

Ta'limiy-ma'rifiy matnlar o'zbek tilining grammatik qurilishi, lisoniy tushuncha va ta'riflar sharhiga oid matnlar bo'lib, nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qildirishda muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, 5-sinf darsligida berilgan "Tilshunoslik fani" (162-mashq), "Nutq" (166-mashq), "Nutq tovushlari" (168-mashq), "Adabiy talaffuz va imlo" (177-mashq), "Nutq bezagi" (24-mashq), "Keng qo'llanilishli va tor qo'llanilishli so'zlar" (227-mashq) shunday matnlar sirasiga kiradi. Ta'limiy-tarbiyaviy matnlar esa bilim berishni ham, tarbiyalashni ham ko'zda tutadi. Bunday matnlar sirasiga "Alisher bilan bulbul" (41- mashq), "Bahri-bayt" (181-mashq), "So'z ko'rki – maqol" (249-mashq), "Anor" (164-mashq), "Alisherning zukkoligi" (274-mashq) singarilarni kiritish mumkin. Har bir mashg'ulotda o'quvchilar tomonidan yaratiladigan matn to'la-to'kis ijodiydir. O'zbek tili darslarida o'quvchilar hosil qilingan nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llab, matn yaratishlari, berilgan mavzu asosida kichik insho yozishlari mumkin.

Matnlar uslub jihatidan rang-barangdir. O'zbek tili mashg'ulotlarida badiiy, publisistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy matnlardan foydalaniladi. Har bir uslub o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir til me'yorini talab etadi.

Badiiy uslubda yozilgan matnlarning o'ziga xos xususiyati ularda tasviriylik va ta'sirchanlikning kuchliligidir. O'quvchi badiiy matn yaratishda tabiat va ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo'ladi; uning mohiyatini ochish uchun turli-tuman leksik birliklar (ko'chma ma'noli so'zlar, ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar, tasviriy ifoda va frazeologik birliklar, adabiy tilning tasvir vositalari: o'xshatish, mubolag'a, kuchaytirish, jonlantirish kabilar)dan o'z imkoniyatiga qarab foydalana oladi. Badiiy matn o'quvchilarda badiiy didni shakllantiradi. O'quvchi bunday matnlar orqali go'zallik va nafosat olamiga kiradi; o'z quvonchi va tashvishlari bilan o'rtoqlashadi; sevimli qahramonlariga ergashadi.

Publitsistik matn ko'proq matbuotga xos bo'lib, u xabar, maqola, taqriz, reportaj kabilarda namoyon bo'ladi. O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni publisistik matnlar yaratishga o'rgatish uchun, avvalo, bu usulning til xususiyatlari ustida ishlashni to'g'ri tashkil etish kerak bo'ladi. Publitsistik matnning tili aniq, ravon, ixcham, jonli bo'lib, u nutqning ta'sirchanligi va ommabopligini ta'minlaydi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida ilmiy matnlardan ham keng foydalaniladi. O'quvchilar yaratadigan ilmiy matnlarni ikki guruhga ajratish mumkin: a) sof ilmiy matnlar; b) ilmiy ommabop matnlar. Sof ilmiy matnlar faqat ma'lum bir sohaga doir tushunchalar asosida yaratiladi.

Ilmiy-ommabop matnlar esa ko'pchilikka tushunarli bo'lib, ayrim murakkab tushunchalarga izoh beriladi.

Matnning eng oliy ko'rinishi inshodir. U mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijodiy asar bo'lib, o'quvchi faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi.

Inshoda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga munosabati, tarbiyalanganlik darajasi, mustaqil tayyorgarligi yozgan inshosidan ma'lum bo'ladi. Boshqacha aytganda, insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Bu ko'zgu orqali u nafaqat o'zini ko'radi, balki boshqalarga o'zligini tanitadi.

Insho o'quvchining o'zbek tilidan egallagan bilimlarini o'zida mujassamlantiradi. Til hodisalari insho orqali o'quvchining ijodiy-amaliy faoliyatiga ko'chadi. Shuning uchun o'zbek tili o'qituvchilari darsda mustaqil ishning bu muhim turiga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Insho sarlavhani to'g'ri belgilashdan boshlanadi. To'g'ri tanlangan sarlavha inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun tashlangan ilk qadamdir. Mavzu tanlashga o'rgatish boshlang'ich sinflardayoq boshlanadi. Berilgan matnni bir necha mustaqil qismlarga ajratish, ularning har biriga sarlavha topish, bir matnga bir necha sarlavha tanlash kabi ishlar faqat boshlang'ich sinflarda emas, balki keyingi bosqichlarda ham davom ettiriladi.

Inshoda yoritilgan fikrlar sarlavhaga muvofiq kelishi va uning mohiyatini to'la qamrab olishi lozim. Kuzning shirin-sharbat mevalari xususida fikr yuritib, uning sarlavhasini "Polizda" yoki "Qovun pishdi" deb atab bo'lmaydi. U, albatta, "Kuz saxovati", "Mevalar g'arq pishdi", "Kuz ne'matlari" kabi nomlar bilan atalishi lozim.

Inshoni to'g'ri nomlash uchun undagi asosiy fikrni ajrata olmoq ham kerak. O'quvchi nimalar haqida yozishini aniq tasavvur etmay turib, fikrini sarlavhaga mos ravishda aks ettira olmaydi. O'quvchi mavzu talabini to'g'ri anglashi lozim. Masalan, insho mavzusi «Ta'til kunlarining birida» deb nomlangan bo'lsa, o'quvchi butun bahorgi, qishki yoki yozgi ta'til haqida fikr yurita olmaydi. Mavzu "Mening sevimli qahramonim" deb nomlangan bo'lsa, o'qilgan asarlardagi barcha qahramonlar haqida fikr yuritib bo'lmazligi aniq.

Inshoga material to'plash ham uni to'g'ri yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shuni unutmaslik lozimki, har bir o'quvchi borliqni, undagi narsa, voqea-hodisalarni, tevarak-atrofnii, odamlarni, badiiy asar qahramonlarini o'z ko'zi bilan ko'radi. Demak, har bir o'quvchi inshoga o'zicha material to'playdi. Insho uchun asosiy material bu, avvalo, hayotning o'zi, uning kitoblardagi, san'atdagi ifodasidir. Shuning uchun



har bir o'quvchida kuzatuvchanlik xususiyati to'la shakllangan bo'lish lozim. Kuzatish bevosita o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin. O'quvchi insho yozish uchun borliqni kuzatar ekan, demak, u nimalar haqida fikr yuritish lozimligini o'ylaydi va shunga muvofiq keladigan materiallarni yig'adi.

Insho uchun material to'plashda manba muhim ahamiyatga ega. Masalan, rasm asosida material to'plash borliqni kuzatish yoki badiiy asar asosida material to'plashdan farq qiladi. Rasm asosida material to'playotganda ko'proq rassomning maqsadi, unda tasvirlangan narsa, voqea-hodisalar, ranglarning tanlanishi, tasvirning diqqatga sazovor tomonlari va kamchiliklari singarilarga ko'proq e'tibor qaratilsa, badiiy asar asosida material to'playotganda yozuvchining maqsadi, asarda ishtirok etgan shaxslar, yozuvchi yoki shoimning obraz yaratish mahorati, asardan chiqariladigan xulosa kabilar markaziy o'rinni egallaydi.

To'plangan materialni tartibga solish va uni muayyan izchillikda bera olish ham o'quvchi uchun o'ta zarur malakalardan biri sanaladi. Tartibga solish bu, avvalo, to'plangan materialni saralab, uning ichidan yoritilayotgan mavzu uchun zarurini ajratish, ularni mantiqiy izchillikda joylashtirish demakdir. Bu ishda o'quvchiga puxta o'ylab tuzilgan reja yaxshi yordam beradi. Yozilgan inshoni takomillashtirish, unda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bataraf etish ham o'quvchilar uchun zarur malakalardan biridir. Matnni takomillashtirish bu imloviy, punktuatsion xatolar ustida ishlashdangina iborat emas, balki mazmunni takomillashtirishni ham o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchi yozgan inshosini tahlil qilishga qiziqishi, bu ishga ehtiyoj sezishi, xatoni tuzatish usullarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, o'quvchi o'z ishidagi xatolarni aniqlashdan ko'ra o'zgalari ishidagi xatolarni tezroq topadi. Shuning uchun o'quvchilarga ba'zida bir-birlarining ishlarini tekshirishni topshirish ham mumkin.

Yozilgan inshoni takomillashtirish uchun o'quvchi uni diqqat bilan o'qishi, mazmun ustida ishlashni imloviy, punktuatsion va uslubiy xatolar ustida ishlash bilan birga amalga oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

O'quvchilar inshosi tur jihatidan ham juda xilma-xildir. Pedagogik maqsadiga ko'ra o'quvchilar inshosini shartli ravishda uch, guruhga ajratish mumkin:

- 1) ta'limiy insholar;
- 2) nazorat qilishga qaratilgan insholar;
- 3) ko'rik-tanlov insholari.

Ular o'zaro chambarchas bog'langan. Ta'limiy insholar ayni vaqtda nazorat uchun ham xizmat qiladi. Har qanday nazorat qilishga qaratilgan

insho ta'limiy maqsadni ko'zlaydi. Ko'rik – tanlov uchun yozilgan insholar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadga qaratilgan. Mavzu tanlash, asosiy g'oyani belgilash, material yig'ish, reja tuzish, shu asosda to'plangan materialni saralash, fikrni muayyan izchillikda bayon qilish, yozilganlarni takomillashtirish kabi ishlar barcha turdagi insholar uchun xosdir.

Insholarning asosiy qismini ta'limiy insholar tashkil etadi. Bunday insholar, asosan, o'qitishga qaratilgan, o'rgatishni ko'zlaydigan insholardir. Til hodisalarini amalda qo'llashga o'rgatish, o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish kabi zarur malakalar, deyarli, ta'limiy insholar orqali shakllantiriladi. Bu insholarning qoralama va oq nusxalari bo'lmaydi. Ular, odatda, o'quvchilarning mashq daftarlarida bajariladi. Shuning uchun matnlardagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni takomillashtirish maqsadida qabul qilingan shartli belgilardan o'quvchi o'z inshosida bemaolol foydalanishi mumkin.

Nazoratga qaratilgan insholar, odatda, katta bo'limlar o'rganilgandan keyin yoki chorak va o'quv yilining oxirida o'tkazilishi mumkin. Ular, asosan, o'quvchilarning egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi, ular avval qoralama nusxada bajarilib, keyin, takomillashtirilgach, oqqa ko'chiriladi. Odatda, nazorat maqsadini ko'zlagan insholarga ikki soat vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar sinf yoki maktab g'oliblarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Insho mavzulari oldindan e'lon qilinadi; o'quvchilar ko'rik-tanlov shartlari bilan tanishtiriladi. Shubhasiz, g'olib o'quvchilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan bunday ko'rik-tanlovlar ijodiy ishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida qo'llanadigan insholarni mavzu jihatidan ilmiy, badiiy va erkin mavzularga ajratish mumkin.

**Ilmiy insholar.** Ma'lumki, maktab o'quvchilarni ilmiy bilim asoslari bilan qurollantiradi. O'quv rejasiga kiritilgan barcha o'quv fanlari o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tabiat va jamiyat hodisalarining haqiqiy mohiyatini anglashga yordam beradi.

Ilmiy insholarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ilm-fanga oid tushunchalardan keng foydalanishdir. Masalan, tilga oid insholarda *so'z, so'z birikmasi, tasviriy ifoda, turg'un birikma, ega, kesim, hol, uyushiq bo'lak* kabi tushunchalardan keng foydalanilsa, matematikaga oid insholarda *ko'proq qoldiq, ko'paytma, tenglama, kasr, maxraj, ildiz chiqarish, bo'lish* kabi tushunchalar qo'llaniladi. Barcha sinflarda o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasini hisobga olgan holda ilmiy insholardan foydalansa bo'ladi. 5-sinfda o'quvchilar o'zbek tili,

matematika, tabiatshunoslik, qadimgi dunyo tarixi, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlarni o'rganishar ekan, demak, ilmiy insholar ana shu o'rganilgan mavzularga oid bo'ladi. Bu sinfda: «Quyosh va tabiat», «Biz matematikadan nimalarni o'rganamiz?», «Qo'shiq aytish uchun nimalarga amal qilish kerak?», «Grippning oldini olish» kabilar ilmiy insho mavzusi sifatida tanlanishi mumkin.

Ilmiy insholar uchun eng asosiy manba maktab darsliklari, turli ensiklopedik lug'atlar, gazeta va jurnallarda berilgan ilmiy maqolalar, ilmiy mavzulardagi teleko'rsatuvlar bo'lishi mumkin.

**Adabiy insholar.** Adabiy insholardan faqat adabiyot darslarida emas, balki o'zbek tili mashg'ulotlarida ham keng foydalaniladi. U yozuvchi mahoratini tushunish, asar qahramonlari olamiga kirish, ularni bir-biri bilan taqqoslab, yaxshilik va yomonlikning tub mohiyatini anglash imkoniyatini beradi. Bunday insholar o'quvchidan badiiy nutqni talab etadi. O'quvchi ana shu insholar orqali o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a singari badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, ma'noni kuchaytiradigan bo'yoqdor so'zlarni qo'llash, tovushlarni cho'zish orqali turli xil ma'nolarni ifodalash kabi badiiy nutqqa xos bayon usullarini o'rganadi

Adabiy insholar badiiy adabiyot namunalari asosida yaratiladi. O'quvchilar o'rganilayotgan til hodisalari bilan bog'liq holda badiiy asarlar, ulardagi qahramonlar, bayon qilingan qiziqarli voqea-hodisalarni tahlil qiladilar, ularga o'z munosabatlarini bildiradilar.

**Erkin mavzudagi insholar.** Bunday insholar adabiy insholarga yaqin turadi. Badiiy adabiyotdan yaxshi xabardor o'quvchigina erkin mavzuda qiynalmay insho yozishi mumkin.

Erkin va badiiy insholar bir-biridan, avvalo, asoslaniladigan manba bilan farq qiladi. Adabiy insholarning manbai adabiy asarlar bo'lsa, erkin insholarning manbai serqirra hayotimiz, o'quvchilarning kuzatish va taassurotlari bo'lishi mumkin. Demak, erkin mavzuda ijod qilish hayotni yaxshi tushunish va bilishni, narsa, voqea-hodisalar haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lishni, ularni bir-biri bilan taqqoslab, umumiy xulosalar chiqarishni, o'qilgan badiiy asarlar, ko'rilgan kinofilm yoki teleko'rsatuvlarni umumlashtirib, hukm va xulosalar chiqarishni talab etadi. Shuning uchun erkin mavzudagi insholar adabiy insholarga qaraganda bir muncha murakkabdir. Erkin mavzudagi insho o'ziga xos kichik nasriy asar bo'lib, unda o'quvchining o'zligi ko'proq namoyon bo'ladi.

Yuqorida tilga olingan insho turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular ustida ishlash usullari ham bir-biridan farq qiladi. Shubhasiz,

tabiat tasvirini yaratish insonning tashqi qiyofasini tasvirlashdan tamomila farq qiladi. Quyida har bir insho turiga alohida to'xtalib, ular ustida ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

**Tasviriy insholar.** Turmushdagi narsalar, hayotdagi voqea-hodisalar, odamlar, jamiki jonli va jonsiz mavjudotning muhim belgilari, xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan insholar tasviriy insholardir. Inshoning bu turi uch ko'rinishga ega: 1) oddiy tasvir; 2) ilmiy tasvir; 3) badiiy tasvir.

**Oddiy tasvir** hammaga tushunarli bo'lgan tasvir shaklidir. O'quvchi narsa, buyum, voqea-hodisalarni oddiy so'zlar bilan hammaga tushunarli bo'lgan shaklda bayon qiladi. Bunday inshoda tasvirlanayotgan narsaning hamma belgilari, birin-ketin ko'rsatiladi, unda muallifning munosabati ifodalanmaydi hamda badiiy tasvir vositalari ishga solinmaydi.

**Ilmiy tasvir**da turmushdagi narsa-buyumlarning eng muhim belgilari aniq dalillar asosida qat'iy mantiqiy izchillikda beriladi. Masalan, *suv, paxta, quyosh* v.h.larning ilmiy tasviri kabi.

**Ilmiy tasvir**da tasvirlanayotgan narsaning nomi, nima uchun qo'llanilishi, uning nimadan tayyorlanganligi, qanday qismlardan iboratligi, shakli, hajmi ko'rsatiladi.

**Badiiy tasvir**da narsalarning hamma belgilari emas, balki muallif uchun muhim va aniq bo'lganlarigina ko'rsatiladi. Bunday tasvirida o'quvchi o'xshatish, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan, badiiy so'z va iboralardan foydalana oladi. Tasviriy insho o'quvchi tomonidan yaratilgan mustaqil kichik badiiy, ijodiy asardir.

O'zbek tili mashg'ulotlarida hayotdagi narsalar, hayvonlar, voqea-hodisalar: insonning tashqi qiyofasi, tabiat manzarasi, ma'lum bir joyning (mas., sinf xonasi, darsxona v.h.) tasviri yaratilishi mumkin.

**Hayotdagi alohida narsalarni tasvirlash.** Turmushdagi alohida narsalarni og'zaki tasvirlash maktabgacha davrda shakllana boshlaydi. Bu muhim ish boshlang'ich sinflarda ham amalga oshiriladi va o'zbek tilining izchil kursini o'rganish jarayonida davom ettiriladi.

O'quvchilar o'zbek tili mashg'ulotlarida hayotdagi istalgan barcha narsaning (mas., kitob, kundalik, yozuv stoli, deraza, chizg'ich, chinor, dastro'mol) oddiy, ilmiy va badiiy tasvirini yaratishlari mumkin.

Narsalarning tasvirini yaratishda natyurmortlar, ularning asl shaklidan unumli foydalansa bo'ladi.

**Hayvonlarning tasvirini yaratish.** Ma'lumki, o'quvchilar hayvonlarni juda yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun ular hayvonlar haqida fikr yuritish, ular haqida og'zaki va yozma insholar yaratishga juda qiziqadilar. Inshoning bu turi, avvalo, tasvirlanayotgan hayvon haqida

yetarli tasavvurga ega bo'lishni, uning qayerda yashashi, tuzilishi, rangi, harakatlari, nimalar bilan oziqlanishi kabilarni bilishni talab etadi. Ayniqsa, o'quvchi o'zi ko'rgan, kuzatgan hayvonlarni tasvirlashni xush ko'radi.

**Bino tasviri.** Bino tasviri kuzatish asosida yaratiladi va uning oddiy, ilmiy va badiiy shakllari mavjud. Binoning oddiy tasviri axborot tarzida bo'lib, asosan, uning hajmi, yorug'lik darajasi, balandligi, uy jihozlari va ularning joylashtirilishi kabilar ko'rsatiladi. Ilmiy tasvirda bu belgilar ilmiy nuqtayi nazarda o'z ifodasini topadi.

**Tabiat tasviri.** Ma'lumki, o'quvchilar 1-sinfidan boshlab "Atrofimizdagi tabiat" o'quv fanini o'rganadilar va tabiat tasvirini berishda qiynalmaydilar.

O'zbek tili mashg'ulotlari o'quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytiribgina qolmay, balki shu haqda tasviriy matn yaratish mahoratlarini ham shakllantiradi. Tabiat tasvirini yaratishda matn namunalaridan foydalanish mumkin. Chunonchi, mashhur so'z ustalari: yozuvchi va shoirlarning asarlaridan tabiat tasviriga oid o'rinlarni o'qib berish, matn namunalari ustida ishlash, ularning til xususiyatlarini tahlil qilish kabi ishlar o'quvchilarning shunday matnlar yaratishlariga keng yo'l ochib beradi. Kuzatish tabiat tasvirini yaratishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan kuzatishlar tasviriy insho uchun boy materialdir. Bundan tashqari, suhbat o'tkazish, tabiat tasviriga oid rasmlar, diafilmlar, kinofilmlar va diapozitivlardan foydalanish ham inshoning bu turi uchun boy material beradi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida, ayniqsa, tabiatning badiiy tasvirini yaratishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bunday insholar badiiy nutq imkoniyatlaridan unumli foydalanishni talab etadi. Tasvirning eng murakkab ko'rinishlaridan biri insonning tashqi qiyofasini aks ettirishdir. O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchi ota-onasi, aka-ukalari, sinfdoshlari, tanish-bilishlari, o'qigan badiiy asar, ko'rgan kinofilmi qahramonlarining tashqi qiyofasini tasvirlashi mumkin.

Tashqi qiyofa tasviri ham tasviriy inshoning boshqa turlari kabi ilmiy va badiiy ko'rinishlarga ega. Ilmiy tasvirda odamning yoshi, yuz tuzilishi, ko'zi qulog'i, burni, sochining rangi, bo'yi gavdasi kabilar aniq faktlarga asoslangan holda ko'rsatiladi. Badiiy tasvirda esa shubhasiz, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a kabi usullardan foydalaniladi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida portret tasviridan ham keng foydalansa bo'ladi.

Harakat tasvirini yaratish ham inshoning muhim turlaridan biridir. Bunday insholar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan ish-harakatni

bayon qilishni talab etadi. Shu jihati bilan bunday insholar hikoya janriga yaqin turadi. Ammo bu insholarda tasviriylik hikoyaga qaraganda ustundir.

Harakat tasviri ham inshoning boshqa turlari singari ilmiy va badiiy bo'lishi mumkin. Ilmiy inshoda ko'proq axborotdan foydalaniladi. Bunday insholarda maslahat, tavsiya, ta'kid kabilar asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, "Mehnat darsida", "Suzishni qanday o'rganish kerak?", "Dars tayyorlashni o'rgan", "Sog' bo'lay desang" kabi mavzularda yoziladigan insholar ko'proq axborot tarzida bo'lib, muallif, ta'kid, maslahat, tavsiyadan unumli foydalanadi. Badiiy insholarda ana shu harakatlarga badiiy buyoq beriladi. O'quvchi ba'zan hikoya usulidan foydalanib, o'zining ichki kechinmalarini ham, bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ham ifodalaydi.

Harakat tasvirining murakkabligini hisobga olib, avvalo, ishni o'quvchilarga tanish jarayonlarni tasvirlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Shubhasiz, V – VI sinflarda o'quvchilar dars tayyorlash, o'yin, maktab atrofini ko'kalamzorlashtirish, suzish kabi jarayonlarni tasvirlasalar, VII, VIII, IX sinflarda murakkab ishlab chiqarish jarayonini tasvirilaydilar. Harakat tasviriga oid insholarning muhim qismini reportajlar tashkil etadi. Biror kundalik voqea-hodisa, ishlarning borish tafsilotini dalillar, jonli tasvirlar asosida yorituvchi kichik badiiy asar *reportaj* sanaladi. Unda voqea sodir bo'lgan joy, manzara, ishtirokchilar ko'rsatiladi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni kichik reportajlar tayyorlashga o'rgatib borish lozim. Ular sport musobaqalari, xalq sayllari bayramlaridan olib boriladigan kichik reportajlar tayyorlashlari mumkin. Reportaj mavzusi o'quvchilar tomonidan tanlansa, u yanada qiziqarli bo'ladi. O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchilar shahar, qishloq, dala, sahro, cho'l kabilar tasvirini yaratadilar. Har bir joy o'ziga xos tasvirni talab etadi. Masalan, shahar yoki qishloq tasviri haqida fikr yuritilar ekan, uning umumiy ko'rinishi, diqqatga sazovor joylari, xalqi, ularning urf-odatlari, sevimli mashg'ulotlari haqida fikr yuritilsa, sahro haqida so'z borganda ko'proq unda yashaydigan hayvonot va o'simliklar olami haqida to'xtalishga to'g'ri keladi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning orzu-umidlari aks etgan insholardan ham foydalaniladi. «Agar men sehrar bo'lsam», «Sinfoshim Oybek 20 yildan so'ng», «Men maktabimizni kelajakda qanday tasavvur qilaman?», «Men me'mor (o'qituvchi, shifokor) bo'lganimda .....», «O'zbekiston XXI asr o'rtalarida», kabi mavzularda yozilgan insholar o'quvchilarni ertangi kun haqida xayol surishga, o'ylashga majbur etadi.

Shunday qilib, tasviriy insholar o'zbek tili mashg'ulotlarida keng tarqalgan insho turilaridan biri bo'lib, o'quvchilar nutqini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarning badiiy adabiyot ustida ishlashi, hayotni, turmushni, tevarak-atrofni, odamlarni, hayvonot olamini doimiy ravishda sinchkovlik bilan kuzatishi, o'z taassuroflarini boyitib borishi ularning tasviriy insho yozishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida keng qo'llaniladigan insho turlaridan biri rivoyat-insholardir. Inshoning bu turi tasviriy inshodan shu bilan farq qiladiki, unda mazmunan bir-biriga bog'liq voqea-hodisalar haqida fikr yuritiladi. Shuning uchun bu insho *kichik hikoya* deb ham yuritiladi. O'quvchilarning bu kichik nasriy janrga bo'lgan qiziqishini oshirish, uni tahlil qila olish mahoratini shakllantirish xuddi shunday hikoyalar yaratishga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni rivoyat insholar yozishga o'rgatish, avvalo, ularni shu nasriy janrning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishdan boshlanadi.

Hikoya kichik epik janr bo'lib, hayot hodisalari ixcham ifoda etilgan nasriy asar sanaladi. U uch tarkibiy qismdan iborat: a) tugun; b) voqea-hodisaning rivojlangan nuqtasi; d) yechim.

Tugun bu – harakat boshlanadigan hodisalarning rivojlanishiga turtki bo'ladigan voqeadir. Voqea-hodisaning rivojlangan nuqtasi ish harakat va kurashning keskinlashgan, avj olgan o'rni sanaladi. Yechimda bayon qilinayotgan voqea-hodisa o'z xotimasiga yetadi.

O'quvchilarga hikoya yaratishni o'rganishning muhim shartlaridan biri voqea-hodisani tanlashga o'rgatishdir. Ular, ko'pincha, hayotda juda ko'p voqea - hodisalarga duch kelsalar-da, ammo nimalar haqida yozish kerakligini bilmaydilar. Shuning uchun ko'proq o'quvchilar hayotidan olingan va rivoya inshoga material bo'la oladigan voqea - hodisalar ustida ishlash maqsadga muvofiqdir. Shubhasiz, boshdan kechirilgan sarguzashtlar, eshitilgan, ko'rilgan, kuzatilgan voqea-hodisalar rivoyat insho uchun boy material bo'lib xizmat qiladi. Maktabda o'quvchilar yaratadigan hikoyalar tur jihatidan xilma-xildir. Ana shulardan biri sarguzasht hikoya sanaladi. Boshdan kechirilgan voqealar asosida hikoya yaratish, ayniqsa, 5-6 sinflarda ko'p qo'llaniladi. Bu hikoyalarda har bir o'quvchi o'z boshidan kechirgan voqea - hodisalar haqida fikr yuritadi. Masalan, "Yozning issiq kunlaridan birida", "Men ko'rgan voqea", "Ma'murjonga qanday qilib yordam berdim", "Yong'in bartaraf etildi" kabi mavzularda yoziladigan insholarda o'quvchilar ko'proq o'z sarguzashtlarini hikoya qiladilar.

Hikoya yozishning eng samarali usullaridan biri berilgan g'oya asosida hikoya yozishdir. O'qituvchi va o'quvchilar tomonidan o'rtaga

tashlangan g'oya insho uchun asosiy material bo'ladi. Muallif (o'quvchi) berilgan g'oyani kengaytiradi, voqea ishtirokchilarini tanlaydi, unga badiiy sayqal beradi.

Xalq maqollari va hikmatli so'zlar hikoya uchun yaxshi mavzu bo'la oladi. Ammo ularni hikoya mavzusiga singdirish uchun ma'lum bir voqea bilan bog'lashni unutmaslik lozim.

O'zbek tili mashg'ulotlarida keng qo'llaniladigan insho turlaridan yana biri ertak insholardir. Ma'lumki, o'quvchilar juda ko'p ertaklarni biladilar, ammo o'zlari ertak yaratishda qiynaladilar. Bu ijodiy-amaliy ish turi o'quvchilarning tasavvur olamini kengaytiradi: ularni g'aroyib voqea-hodisalar og'ushiga olib kiradi: og'zaki va yozma nutqni rivojlantiradi, shuning uchun o'qituvchi o'zbek tili mashg'ulotlarida ijodiy ishning bu turidan unumli foydalanish choralari ko'rishi lozim.

O'quvchilarni ertak yaratishga o'rgatish, avvalo, ularni bu janrning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishdan boshlanadi. O'quvchilar ertakda voqeaning tuguni, rivojlangan nuqtasi va yechimini bilishlari, uning til xususiyatlaridan xabardor bo'lishlari, mubolag'a, o'xshatish, jonlantirish, kichraytirish kabi tasviriy vositalarni o'z o'rnida qo'llash malakalariga ega bo'lishlari kerak. Boshlanish qismi berilgan ertaklarni davom ettirish, berilgan rasmlar asosida ertak yaratish, qahramonlar nutqi tushirib qoldirilgan o'rinlarni to'ldirish kabi vazifalar o'quvchilarning ertak yaratish mahoratini kengaytiradi.

Inshoning yana bir muhim turi **muhokama insholardir**. Inshoning bu turi o'quvchilardan qiyoslash, ma'lum bir voqea - hodisaga baho berish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, o'zining haqligini isbotlash kabilarni talab etadi.

**Muhokama insho** induktiv yoki deduktiv usulda qurilgan bo'lishi mumkin. Induktiv usulda qurilgan insholarda avval ilgari surilayotgan fikrni asoslashga xizmat qiladigan dalillar, isbotlar keltirilib, so'ngra umumiy xulosa chiqariladi. Deduktiv usulda esa xulosadan dalil va asoslar keltirishga o'tiladi.

**Tavsifiy insholar** ham muhokama inshoning bir ko'rinishidir. Tavsifiy insholar o'quvchidan o'qigan badiiy asar, ko'rilgan kinofilm qahramonlari haqida shaxsiy fikr - mulohazasini bayon etishni talab etadi.

Muhokama inshoning yana bir turi munozara insholardir. Bunday insholarning mavzusi ham munozara shaklida bo'ladi. Masalan, «Dilkash (Dilmurod, Nigina v.h.) haqmi?», «Oybek (Sohib, Olim v.h.) haqiqiy do'stmi?» kabi mavzularda yoziladigan insholar o'quvchining qo'yilgan munozarali savolga shaxsiy munosabatini bildirishiga va o'z nuqtayi nazarini asoslashiga asoslanadi.



O'qituvchi insho mavzusini sinf o'quvchilari hayotidan, ro'znomalarda e'lon qilingan munozarali maqola va xabarlardan tanlashi mumkin.

Insho o'quvchining ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarashi, adabiy til me'yorlarini nutqiy sharoitlarda qo'llash imkoniyatlarini belgilovchi asosiy mezondir.

**O'zbek tili ta'limi jarayonida o'quvchilarni ish qog'ozlaridan foydalanishga o'rgatish.** O'quvchilarni ish qog'ozlaridan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish hayotiy zaruriyatdir. Zero, «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi qonunining 7-moddasida: «O'zbekistonda muassasa, korxonona, tashkilot birlashmalarida ish respublika davlat tilida yuritiladi», - deb qayd qilinadi.

Ish qog'ozlaridan foydalanishga o'rgatish til sathlarini o'qitish bilan chambarchas aloqadorlikda amalga oshiriladi. O'zbek tilining, deyarli, barcha bo'limlarini o'qitishda o'quvchilar hujjatlarning u yoki bu turi bilan tanishadilar, uni yozishni o'rganadilar. Chunonchi, "Fonetika" bo'limini o'rganishda manzilgohni yozish, telegramma matni ustida ishlash, ariza yozish kabilar ko'zda tutilgan bo'lsa, "Leksikologiya"da e'lon, taklifnoma, dalolatnoma, tavsianoma yozish, "Morfologiya"da tarjimayi hol, majlis bayoni, bildirishnoma, tilxat, ishonchnoma, ma'lumotnoma kabilar ustida ishlash ko'zda tutiladi. "Sintaksis"ni o'rganishda o'quvchilar buyruq, farmoyish, yo'riqnoma, shartnoma, hisobot kabilar bilan tanishadilar.

O'zbek tili mashg'ulotlarida ish qog'ozlaridan foydalanishni samarali tashkil etish uchun, avvalo, shu hujjatning murakkablik darajasi hisobga olinadi. 5-6-sinflarda asosan, sodda hujjatlar (bir muammoni o'z ichiga olgan hujjatlar) ustida ish olib borilsa, keyinchalik murakkab hujjatlar (ikki va undan ortiq masalani o'z ichiga olgan hujjatlar) ustida ish olib boriladi. Ayrim ish qog'ozlari hatto ikki bosqichda o'rganiladi. Birinchi bosqichda (5-6 sinflarda) ayni bir hujjatning sodda shakllari o'rganilsa, keyingi bosqichda (7-9-sinflarda) uning murakkab shakllari o'rganiladi. Masalan, ariza, ma'lumotnoma kabi ish qog'ozlarining ham sodda, ham murakkab ko'rinishlari mavjud. O'quvchilar uning sodda ko'rinishi bilan quyi sinflarda tanishsalar, murakkab ko'rinishlari yuqori sinflarda o'rganiladi.

Hujjatda fikrni bayon qilish shakli o'ziga xosdir. Ularning ko'pi (mas., ma'lumotnoma, dalolatnoma kabi) muayyan bir qolipga ega bo'lib, erkin fikr yuritishni talab etmaydi. Lekin shunday hujjatlar ham borki (mas., tarjimayi hol, qaror, shartnoma kabi), ularda ma'lum darajada erkin fikr yuritiladi.

Ish qog'ozlari matniga bir qator talablar qo'yiladi. Avvalo, hujjatlar matni boshqa ijodiy yozma ish matnlari singari imloviy, ishoraviy va uslubiy jihatdan to'g'ri bo'lishi kerak.

Hujjatlar matniga qo'yiladigan muhim talablardan biri xolislikdir. Unda bayon qilinayotgan mazmunga o'quvchi (muallif) hech qanday munosabat bildirmaydi, balki axborotni xolis aks ettiradi. Shuning uchun hujjatlar tilida so'z va so'z shakllarini qo'llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Rasmiy ish uslubida kichraytirish, erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlar, ko'tarinki – tantanavor so'zlar, iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a singari badiiy tasvir vositalaridan foydalanilmaydi. Shubhasiz, hujjat matni mazmunan aniq, ixcham va to'liq bo'lishi shart.

O'quvchilar hujjatlar matnida asosan, turg'unlashgan, rasmiy qabul qilingan so'z va so'z birikmalari (mas., *berildi, bajarilsin, tayinlansin, eshitildi, qaror qilindi, ko'rib chiqildi, ko'rsatib o'tildi* kabilar)dan foydalanish lozimligini bilishlari kerak.

Ish qog'ozlari, asosan, uch qismdan iborat bo'ladi:

a) kirish;

b) asosiy qism;

v) yakun.

O'quvchilarni ish qog'ozini yozishga o'rgatish shu ish qog'ozining mufassal rejasi bilan tanishtirishdan boshlanadi. Masalan: «Tarjimayi hol»ning mufassal rejasi quyidagicha:

1 – kirish:

a) tarjimayi hol muallifining ismi familiyasi, tug'ilgan yili, oy va kuni, joyi va millati, oilasi;

b) ota va onasi haqida;

v) aka-ukalari, opa-singillari haqida.

2 – asosiy qism:

a) muallifning maktab yoshigacha bo'lgan hayoti haqida;

b) maktab hayoti haqida;

v) hozirgi kundagi faoliyati haqida.

3 – yakun:

a) ushbu tarjimayi holning nima sababdan yozilganligi;

b) imzo, kun, oy, yil;

«Ariza» matnining mufassal rejasi esa quyidagilardan iborat.

1 – kirish:

a) kimga– ariza yo'naltirilgan shaxsning egallab turgan mansabi (lavozimi), daraja va unvonlari, ismi sharifi, familiyasi;

b) kimdan– ariza beruvchining mansabi (lavozimi), daraja va unvonlari, ismi sharifi, familiyasi, istiqomat joyi;

2 – asosiy qism:

a) arizani yozishga sabab bo'lgan holatning qisqacha bayoni;

b) ariza yozishdan maqsad;

v) arizaga ilova qilinadigan hujjatlar.

3 – yakun:

a) ariza beruvchining shaxsiy imzosi, ismi va familiyasi;

b) ariza yozilgan (berilgan) kun, oy, yil.

O'zbek tili darslarida ijodiy yozma matn ustida ishlash ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Til sathlarini o'qitish orqali.

2. VII sinfda "Ijodiy yozma matn ustida ishlash" (12 soat) va VIII sinfda "Insho va uning turlari" (16 soat) bo'limlarini o'rgatish orqali.

Birinchi yo'nalish o'zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan har bir mavzuni o'rganish orqali amalga oshirilsa, ikkinchisi VII sinfda "Ijodiy yozma ish" tushunchasini sharhlash: rasm asosida hikoya, manzara tasviri yaratish; o'quvchi va borliq; yozma ishda o'quvchi (muallif) o'zligining namoyon bo'lishi xususida ma'lumot berish, mavzu tanlash, mavzuni yoritish uchun zarur material to'plash, yozma ishga reja tuzish, yozma ishga epigraf tanlash, "Xat boshi" tushunchasini, yozma ish matnini qayta ishlash, matn uslubi ustida ishlash, ishni oqqa ko'chirish, tekshirilgan yozma ishning xatolari ustida ishlash va VIII sinfda "Insho haqida ma'lumot" berish, insho turlari (ilmiy insholar, badiiy insholar, erkin insholar) yuzasidan bir qator ijodiy-amaliy ishlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

1-savol: *Ta'limiy, nazorat qilishga qaratilgan insholar, ko'rik-tanlov insholarining maqsadi nimaga qaratilgan?*

2-savol: *O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar qaysilar? Ular to'g'risida fikr yuriting.*

3-savol: *O'zbek tili mashg'ulotlarida matn bilan ishlashning ahamiyati nimada?*

4-savol: *Matnlar uslub jihatidan necha xil? Misollar keltiring.*

5-savol: *O'zbek tili darslarida o'quvchilarni qanday qilib insho yozishga tayyorlab borish mumkin?*

1-topshiriq. *Nutq va uning turlari haqida ma'lumot bering.*

2-topshiriq. *Nutqning mantiqiy fikrlash mahsuli ekanligini isbotlang.*

3-topshiriq. *Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili bo'yicha DTSining "Matn va uning turlari" bo'limini o'rganing.*

4-topshiriq. *Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili dasturining "Nutq uslublari" bo'limini o'rganing.*

5-topshiriq. *10-sinf "O'zbek tili" darsligidan bitta mavzuni tanlang va unga dars ishlanmasini tayyorlang.*

6-topshiriq. *Insho va uning turlari haqida ma'lumot bering.*

## **DARSDAN TASHQARI ISHLARNING MAZMUN-MOHIYATIGA KO'RA TURLARI VA ULARNING TIL TA'LIMIDA TUTGAN O'RNI. O'ZBEK TILI O'QUV XONASINI JIHOZLASH**

*Tayanch so'zlar:*

*dars, mashg'ulot, insholar tanlovi, darsdan tashqari ishlar, darsdan tashqari ishlarning turlari, darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyati, til ta'limi, o'zbek tili o'quv xonasi, o'zbek tili va adabiyot o'quv xonasi, jihoz, fan kabineti, jihoz uchun zaruriy materiallar.*

**O'zbek tilidan sinfdan tashqari ishlarning turlari va mazmuni.**

O'zbek tilidan sinfdan tashqari ishlarni doimiy va mavsumiy tadbirlarga ajratish mumkin. Doimiy tadbirlarga to'garak mashg'ulotlari kirsa, qolganlari vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbirlardir.

To'garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bo'lib, u o'quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko'radi. To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriy, ammo uning mashg'ulotlariga ishtirok etish majburiydir.

O'zbek tili to'garagi 12-15 o'quvchidan oshmasligi kerak. Ular parallel sinflardan iborat bo'lsa, mashg'ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Agar ta'lim muassasasida parallel sinflar bo'lmasa, to'garak a'zolari bitta sinfdan iborat bo'lishi mumkin.

To'garak har xil nomlanadi. Masalan, "O'zbek tilim – jonu dilim", "Til – dil kaliti", "O'zbek tili – davlat tili" va h.k.

O'quvchilar to'garakning maqsadi, vazifalari, yillik ish rejasi bilan tanishtiriladi. Mashg'ulotlar 15 kunda bir marta o'tkaziladi. Uning ishini rejalashtirishda o'quvchilarning qiziqishlari inobatga olinadi. Quyida to'garak mashg'ulotlaridan namuna keltiramiz:

5-sinflar uchun

**Birinchi mashg'ulot**

To'garakka nom qo'yish. O'quvchilarni to'garakning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish. "To'garak bizga nima beradi?" mavzusida suhbat.

O'quvchilardan til odobi, so'zlash madaniyati xususida bilgan maqollarini so'rash va mazmunini sharhlash.

### **Topshiriqlar:**

Til odobi va so'zlash madaniyati xususidagi xalq maqollarini yig'ish va ularning ma'nolarini aniqlash.

To'y-tomoshalarni ifodalovchi so'zlar lug'atini tuzish va ularning ma'nolarini sharhlash.

To'garak mashg'uloti dars mashg'ulotlarini takrorlamaydi, balki uni to'ldiradi va takomillashtiradi. Dars tuzilishi va qurilishi jihatidan muayyan qoliplar asosida tashkil etilsa, to'garak mashg'ulotlarida bunday qat'iylik bo'lmaydi. O'quvchi to'garak mashg'ulotida darsda olgan bilimlariga tayangan holda hayotiy tajribalarini ishga soladi. Krossovordlar tuzish va yechish, insho tanlovi o'tkazish, ma'lum bir she'riy asar yoki hikoyaning til xususiyatlari ustida ishlash singarilar to'garak mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning o'zbek tili faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish vositasidir. O'zbek tilidan sinfdan tashqari ishlarga savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, so'zlar olamiga sayohat, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, olimpiadalar, konferensiyalar, albom va devoriy gazeta chiqarish kabilarni kiritish mumkin.

O'zbek tilidan sinfdan tashqari ishlar:  
savol-javob kechalari;  
uchrashuvlar;  
o'tkir zehnlilar mushoirasi;  
so'zlar olamiga sayohat;  
ko'rik-tanlovlar o'tkazish;  
olimpiadalar;  
konferensiyalar;  
albom va devoriy gazeta chiqarish.

**O'zbek tili o'quv xonasini (kabinetini) jihozlash.** O'zbek tili o'quv xonasi shu fan o'qituvchisiga sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli olib borilishida hamda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan unumli ishlashida yaqindan yordam beradi. O'zbek tili o'quv xonasi, birinchi navbatda, o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham ish joyidir. O'zbek tili o'quv xonasiga qo'yilgan materiallar esa o'qituvchining ham, o'quvchining ham kundalik ishida zarur bo'ladigan, foydalanib turiladigan, harakatdagi materiallar bo'lishi kerak. O'zbek tili o'quv xonasining ishi rejali olib boriladi. O'zbek tili o'quv xonasi mudiri

maktabdagi til va adabiyot o'qituvchilari bilan doimo aloqada bo'ladi. O'quvchilar orasidan faollarini tanlab, xonani jihozlashda ular ko'magidan foydalanadi.

O'zbek tili o'quv xonasining vazifalari quyidagilardan iborat:

➤ o'zbek tili fanining o'qitilishini yaxshilashda til o'qituvchilariga yordam berish;

➤ ilg'or ta'lim muassasasi va o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, shunga doir materiallarni to'plash, ta'lim muassasasi o'qituvchilarining metodik birlashmasiga ko'maklashish;

➤ o'zbek tili va uni o'qitishga doir yangi chiqqan ilmiy-metodik adabiyotlar, darsliklar, qo'llanmalar, ko'rgazmali materiallarga ega bo'lish;

➤ eng yaxshi yozma ishlardan namunalar to'plash;

➤ ish qog'ozlariga doir namunalar qo'yish;

➤ o'zlashtirmovchi va past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchiga ko'maklashish;

➤ o'zbek tiliga doir o'quvchilar konferensiyasi, munozarasi, kechasi va suhbatlarini uyushtirish;

➤ sinfdan tashqari ishlarni rejali olib borishga yordam berish;

➤ texnika vositalaridan foydalanib, o'quvchilar nutqini o'stirish va ularni adabiy tilda talaffuz etishga odatlantirishga hissa qo'shish;

➤ o'quvchilarni grammatik, orfografik va punktuatsion qoidalarga doir jadvallar, chizmalar tayyorlashga jalb etish;

➤ o'quvchilarning jamoa bo'lib yoki individual dars tayyorlashini tashkil etish va hakoza. O'zbek tili o'quv xonasida "Til va adabiyot ta'limi", "Umumta'lim fanlarini o'qitish metodikasi", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnallari va "Ma'rifat" gazetasi, shuningdek, o'zbek tili va uni o'qitishga doir ko'plab ilmiy-metodik adabiyotlar, o'quvchilarning o'qishi uchun badiiy adabiyotdan namunalar qo'yilishi maqsadga muvofiq. Nashr qilingan hamda o'qituvchi va o'quvchilarning o'z kuchlari bilan tayyorlangan jadvallar, chizmalar, plakatlari, tarqatmalar, rasmlar o'zbek tili o'quv xonasining asosiy jihozlari sanaladi. Xonada o'zbek tili darsliklaridan, mashqlar va diktantlar to'plamlaridan bir necha nusxa saqlanishi zarur. Lug'atlarning bo'lishi yanada yaxshiroq.

➤ o'zbek tili o'quv xonasi texnika vositalari bilan jihozlangan bo'lishi shart.

➤ o'zbek tili o'quv xonasining ishini jonlantirishda, uni o'qituvchi va o'quvchilarning sevimli xonasiga aylantirishda ko'rgazmalar tashkil qilishning o'rni beqiyos.

Ko'rgazmaga:

- o'zbek tili to'garagi a'zolarining ishini yorituvchi materiallar;
- ta'lim muassasasi devoriy gazetasi, o'quvchilarning qo'lda yoki kompyuterda yozilgan adabiy jurnali;
- ta'lim muassasasi o'quvchilarining amaliy ishlari, sayohat esdaliklari tasvirlangan albomlari;
- donishmandlarning tilga doir fikrlari, xalq maqollari yozilgan bannerlar;
- "Daftarni qanday tutish kerak?", "Bu kitoblarni o'qi", "To'g'ri va chirioyli yozishga odatlan", "Kitobni qanday o'qish kerak?" kabi mavzularda yangilanib turadigan plakatlar qo'yiladi.

### **Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

#### **I. Quyidagi savol va topshiriqlar ustida ishlang.**

**1-savol:** *To'garak ishlarini amalga oshirishda qanday hujjatlardan foydalaniladi?*

**2-savol:** *To'garaklar qanday tashkil qilinadi?*

**3-savol:** *To'garaklarning nomlanishi qanday amalga oshiriladi?*

**4-savol:** *To'garaklar qanday maqsadlarda tashkil qilinadi?*

**5-savol:** *To'garakdan boshqa yana qanday sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish mumkin?*

**6-savol:** *O'quv xonasi qanday bezatiladi?*

**7-savol:** *Sinfdan tashqari ishlar bilan o'zbek tili darslarining o'zaro farqi nimada?*

**8-savol:** *Sinfdan tashqari ishlar necha guruhga ajratiladi?*

**9-savol:** *O'zbek tili o'quv xonasida qanday jihozlar bo'lishi kerak?*

**10-savol:** *Sinfdan tashqari ishlarning turlarini sanab bering.*

**11-savol:** *Sinfdan tashqari olib boriladigan tadbirlarni o'tkazilish vaqtiga qarab necha turga bo'lish mumkin?*

**12-savol:** *Doimiy tadbirlarga qaysi tadbirlar kiradi va nima uchun?*

**13-savol:** *Fan to'garaklari qanday tashkil qilinadi va unga qatnashish majburiyimi?*

**15-savol:** *Uchrashuvlar qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega? Unga qanday tayyorgarlik ko'riladi?*

**16-savol:** *«O'tkir zehnlilar» mushoirasi va unga qanday tayyorgarlik ko'riladi?*

**17-savol:** *«So'zlar olamiga sayohat» tadbiriga qanday tayyorgarlik ko'riladi?*

**1-topshiriq.** *Olimpiada haqida fikr yuriting.*

**2-topshiriq.** *Ko'rik-tanlovlr haqida suhbat tashkil qiling.*

**3-topshiriq. O'zbek tili o'quv xonasining o'qituvchi va o'quvchi faoliyatidagi o'rni haqida gapiring.**

**4-topshiriq. Savol-javob kechalari va unga tayyorgarlik haqidagi fikringiz?**

**5-topshiriq. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ularning o'tkazilishi haqida fikr yuriting.**

**6-topshiriq. Fanga bag'ishlangan konferensiyalarning ahamiyati, uning o'tkazilish tartibi haqida fikr yuriting.**



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Ilmiy-metodologik adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent, 2008. 176 b.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017- yil 7 -fevraldagi farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim To'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi". – Toshkent, 1997.
5. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: O'zbek tili, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent, 2017.

### Ilmiy adabiyotlar

6. Абдулахатова Р., Юсупова Т., Досанов К. Тил таълимида узвийлик ва узлуксизлик. –Тошкент: ХТ "Ҳамидов Х.Х." матбаа корхонаси, 2008.
7. Абдураимова М. Она тили таълимида илғор педагогик технология. – Тошкент, 2001, 2005.
8. Абдураимова М. Она тили таълими – янги асрда. – Тошкент, 2007.
9. Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968.
10. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: Молия, 2003. – 192 б.
11. Azimov I., G'oziyev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumidan mustaqil ishlar. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2010.
12. Akademik litseylarning aniq fanlar yo'nalishidagi tarmoq ta'lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o'quv dasturlari. O'zbek tili va adabiyoti –Mualliflar: Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Qosimova N., Yusupova Sh. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
13. Ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш – ўзбек тили таълими самарадорлигини ошириш омили. Конференция материаллари. -Т.,2013
14. Ashirboyev S. va b. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2006.
15. Аквазба Е.О. Современные стратегии управления качеством образования образовательной организации на примере высшей школе. // Современные технологии. 2016. №6-1.-С.86-90

16. Бабанский Ю.К. Рациональная организация учебной деятельности. -М., 1981.

17. Badiiy asarning lingvistik tahlili. <http://pedagog.uz-books-1826>

15. Dadaboyev N., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. -Toshkent, 2015. -174 b.

16. Добродеева И., Кочина С., Осин А. Создание система менеджмента качества ВУЗа через становление и поддержку персональной инициативы. // Promlems of education in the 21-century. Volume, 8, 2008. -C/173-178.

17. Doug Lemov. Teach Like a Champion. Jossey-Bass; 1 edition (April 6, 2010) 332p.

18. Durbin, C. (2000). Moving images in geography, moving images in the classroom: A secondary teachers' guide to using film and television. London: British Film Institute.

19. Дуستمуродова О. Она тили таълими янги педагогик технологиясининг моҳияти. -Тошкент, 2005.

20. Dhingra, K. (2003). Thinking about television science: How students understand the nature of science from different program genres. Journal of Research in Science Teaching, Vol. 40, No. 2, pp 234-256.

21. Гепелин Ш.И. Дидактический принцип сознательности. -М., 1964.

22. Ёқуббекова М. Тил ва адабиёт таълимида иншо. -Тошкент: 2003.

23. Jim Burke. The English Teacher's Companion. Heinemann; 4 edition (November 1, 2012). 392p.

24. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. -Тошкент, 1998.

25. Захириддин Мухаммад Бобур. "Бобурнома". -Тошкент: "Шарқ" НМАК, 2002. -Б. 189

26. Ильин Н.Е. Мотив и мотивации. - М.: Сфера, 2002. - 289 с.

27. Иноятов У.И., Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Д. Иноғомова. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб. -Тошкент, 2012.

28. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). - Тошкент: "Истеъдод" жамгармаси, 2010. - 142 б.

29. Иулдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. - Т.: РТМ, 2004. - 104 б.

30. Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб. пед. соч. В 2 том. М. 1982. Т.1. - с. 384.

31. Коджаспирова Г.М. Педагогика - в схемах, таблицах и опорных конспектах. - М.: Владос, 2006. - 189 с.

32. Clovis, D.L. (1997). Lights, television, action! Educational Leadership, Vol. 55, pp 38-40, November, 1997.

33. Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. -М., 1976.

34. Marshall, J.M. (2002). Learning with technology: Evidence that technology can, and does, support learning. White paper prepared for Cable in the Classroom.

35. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Педагогика олий ўқув юртлири учун дарслик. – Toshkent: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.

36. Mahmudov N. va b. "O'zbek tili" darsligi 5-sinf uchun, – Toshkent: Ma'naviyat, 2014.

37. Mahmudov N. va b. "O'zbek tili" darsligi 6-sinf uchun, – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

38. Mahmudov N. va b. "O'zbek tili" darsligi 7-sinf uchun, – Toshkent: Sharq, 2017.

39. Mahmudov N. Va b. "O'zbek tili" darsligi 9-sinf uchun, – Toshkent: Sharq, 2011.

40. Mahmudov va boshqalar. "O'zbek tili" darsligi 10-sinf uchun, – Toshkent: Sharq, 2017.

41. Махмутов М.И. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. –Тошкент, 1981.

42. Менеджмент образования. //Создание и совершенствование системы менеджмента качество образования в вузах.-М., 2010.-С.7.

43. Мутанов Г.М., Томилин А.К., Кукина Ю.Е., Дузкенева Н.А., Абдыхалыкова А.М., Нурканова А.Е. Управление качеством в высшем учебном заведении.-Уст-Каменогорск, 2011.

44. Муҳамедов Ў.Х., Усмонбоева М.Х., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар.-Т., 2016. –Б.21.

45. Муҳиддинов Ф. Ўқув жараёнида нутқ фаолияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

46. Назаров К. Ўзбек тили ва адабиётидан баҳо меъёри. -Тошкент, Ўқитувчи, 1990.

47. Ne'matov O', Vozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993

48. Неъматов Н., Ғуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўрганиш. – Тошкент: 1992.

49. Неъматов Н., Ғуломов А., Зиёдова Т. Ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. – Тошкент: 1997.

50. Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

51. Рахимова О. Она тили дарсларини ташкил этишнинг педагогик технологияси. – Тошкент, 2004.

52. Roziqov O. Ta'lim jarayoni va uni tadqiq qilishning ba'zi masalalari. – Tjshkent: O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1971. №11.

53. Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

54. Розиков О., Огаев С., Мухиддинов М., Азизов Б. Таълим технологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.

55. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003.

56. Сборник Международной научной конференции “Латинский алфавит: гуманитарные науки и глобальная интеграция” посвящённой 30-летию специальности “Казахский язык и литература” в рамках программы “Рухани жангыру” 30 ноября 2018 года. Aqtobe, 1018.-B.9-14.

57. «Совершенствование преподавания родного языка в условиях многоязычного образования: проблемы, новые подходы и решения». Материалы международной научно-практической конференции. – Шымкент, 2018.

58. Sobirov A. va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.

59. Таълим сифатини бошқариш тизимини шакллантиришга бўлган ёндашувларни такомиллаштириш. Олий таълим тизими педагог ва раҳбар кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш бош илмий-методик маркази. Лойиҳа иши. – Тошкент, 2017.

60. Таълим жараёнида ёзма саводхонликни оширишнинг асосий омиллари. – Тошкент, 2015.

61. “Til va adabiyot ta’limi: muammolar, istiqboldagi vazifalar” mavzusidagi filologiya fanlari o’qituvchilari forumi materiallari. – Toshkent, 2017.

62. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 247 б.

63. То’хлиев В., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O’zbek tili o’qitish metodikasi. – Toshkent: O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

64. То’хлиев В., Inog’omova R., Tilavova G. So’z turkumlari va nutq o’stirish metodikasi. – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2011. 101 bet.

65. Федеренко Л. Принципы и методы обучения русскому языку. – М., 1964.

66. Федоров В.А., Колегова Е. Д. Инновационные технологии в управлении качеством образования. Учебное пособие. – Екатеринбург, 2006. –С.185-187.

67. Fisch, S.M. (2004). Children’s learning from educational television: Sesame Street and beyond. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates

68. Flood, J. & Lapp, D. (1995). “Television and reading: Refocusing the debate. The Reading Teacher, Vol. 49, Iss. 2, pp. 160-164.

69. Харченко О.О. Через постижение “тайн языка” – к текстовой компетенции // Начальная школа. – 2007. - №5. – С. 36-43.

70. Шамова Т.И. Активизация учения школьников. -М., 1979.

71. Yuldasheva N. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. –Т.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2013, 172 bet.

72. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстириш методикаси. Услубий қўлланма. – Тошкент: Фан ва технологиялар босмахонаси, 2006. 86 бет.

73. Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси (5- ва 8-синф она тили дарслари мисолида). Монография. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2009, 176 бет.

74. Yusupova T., G.Matmurotova, G.Azimova. O‘zbek tili darslarida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent: TDPU. 2016.

75. Yusupova Sh., G‘oziyeva O. O‘zbek tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2013. 134 bet.

76. O‘zbek tili va adabiyot (Kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Toshkent: Sharq, 2010.

77. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. -Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. V. 613-бет.

78. “Ўзбек тили таълимида педагогик технологияларнинг ўрни” мавзусидаги анжуман материаллари. -Чирчиқ, 2011.

79. “Ўзбек тили” доимий анжумани йиғилишларининг материаллари. Самарқанд – 1991, Қарши – 1993, Жиззах – 1995, Тошкент – 1997, Бухоро – 1999, Фарғона – 2001, Наманган – 2003, Урганч – 2005, Термиз – 2007, Андижон – 2009.

80. Ўзбек тилшунослиги: тараққиёт тамойиллари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. -Т., 2013.

81. O‘r i n b o y e v B. O‘zbek tilining so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. –Toshkent: Fan, 1975. 89-bet

82. Qodirov M. va b. “O‘zbek tili” darsligi. 8-sinf uchun. – Toshkent: Sharq, 2012.

83. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури: педагогик илмий тадқиқот муаммолари ва йўналишлари. – Тошкент: Фан, 1999. - 189 б.

84. Ғозиев Э. Ўқувчиларни умумлаштириш усулларига ўргатиш ва уларнинг ақлий тараққиёти. - Тошкент, 1979.

85. Ғуломов А., Шукуров А. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг мустақил ишларини ташкил этиш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989.

86. Ғуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. – Тошкент, 1992.

87. Ғуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

88. Ғуломов А., Неъматов Н. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

89. G'ulomov A., Qodirov M. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. 379 bet.

90. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. -Toshkent: Xalq merosi, 2013.

91. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: “ЎМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2006. II. 582-б.

92. عقل دېڭگ كودى اته لر سوزى – ضرب المثللر

افغانستان اوزبېك . توپلېب چاپېگه تاپشیرگن :صالح محمد (حساس) : چاپ ییلی:1392: Otalar so'zi – aqlning ko'zi. Zarbulmasal. Afg'oniston o'zbek ulusining til uchi adabiyotidan maqollar. To'plab chopga topshirgan: Solih Mahmud (Hassos). Chop yili :1392- yil (hijriy).

### Elektron ta'lim resurslari

93. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

94. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

95. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

96. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

97. [tdpu-INTRANET.Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)

90. [www.nutq.intal.Uz](http://www.nutq.intal.Uz).

98. [http://navoiy-uni.uz/uz-l/content/o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashning yangicha tamoyillari.](http://navoiy-uni.uz/uz-l/content/o'zbek_tili_va_adabiyoti_bo'yicha_malakali_mutaxassislar_tayyorlashning_yangicha_tamoyillari)

99. [http://shuhratbek.uz/ta'lim-metodlari-haqida-umumiy-ma'lumot.](http://shuhratbek.uz/ta'lim-metodlari-haqida-umumiy-ma'lumot)

## Mundarija

Kirish.....	3
Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslari...	5
“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”ning umumiy masalalari.....	18
“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”ning tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari.....	36
O‘zbek tilini o‘qitishga doir yondashuv va tamoyillar.....	54
O‘quvchilarda kompetensiyani shakllantirish tamoyillari.....	77
O‘zbek tilini o‘qitish metodlari.....	102
Til ta'limi turlari.....	120
An'anaviy va noan'anaviy dars shakllari.....	135
O‘zbek tili ta'limida qo‘llaniladigan innovatsion va axborot kommunikatsiya texnologiyalari.....	147
O‘zbek tilidan dars tiplari. O‘zbek tili mashg‘ulotlarining mazmuni va tuzilishi.....	159
O‘zbek tili fanidan davlat ta'lim standarti, o‘quv dasturi, darsliklarining tarkibi va mazmuni, o‘quv va metodik qo‘llanmalar.....	162
Maktabda o‘zbek tili kursining bo‘limlarini o‘qitish metodikasi.....	175
Fonetikani o‘qitish metodikasi. Uning grafika, orfoepiya va orfografiya bo‘limlari bilan uzviy bog‘liqligi.....	177
Leksikologiya va frazeologiya bo‘limlarini o‘qitish metodikasi.....	186
Morfologiyani o‘qitish metodikasi. morfologik tahlil metodikasi...	203
Sintaksis bo‘limini o‘qitish metodikasi.....	224
Punktuatsiyani o‘qitish metodikasi. Tinish belgilari tasnifi va tafsifi. Tinish belgilarini o‘qitishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar.....	244
Publitsistik, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari ustida ishlashda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni.....	257
Darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyatiga ko‘ra turlari va ularning til ta'limida tutgan o‘rni. O‘zbek tili o‘quv xonasini jihozlash.....	286
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	291

## Yozuvlar uchun



**KBK 81.20'zb-9**

**X 72**

**UO'K: 37.016:811.512.133.(075)**

**ISBN 978-9943-5635-7-5**

**Xolmanova, Z.**

**O'zbek tilini o'qitish metodikasi [Mant]: Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma / Z.Xolmanova, T.Yusupova. – Toshkent: “Navoiy universiteti” nasriyot-matbaa uyi, 2019. – 298 b.**

**Mas'ul muharrir: B.Abdushukurov**

**Muharrir: T. Tog'ayev**

**Korrektor: D. Mahkamova**

**Kompyuterda sahifalovchi: B. Hamrayev**

Nashriyot litsenziyasi № AI 130. 24.11.2017 y.

Bosishga ruxsat etildi 2019.15.01. Buyurtma raqami № 8.

Qog'oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Timez New Roman garniturasi.

Nashriyot bosma tabog'i 18,7. Adadi 100 nusxa.

100100., Toshkent sh., Yusuf Xos Hojib, 103.

«**BROK CLASS SERVIS**» Bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizboeva 10a.



**Xolmanova Zulxumor Turdiyevna.** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori. Olima tomonidan ikki yuzga yaqin ilmiy-metodik ish chop etilgan. Xususan, 3 ta monografiya, 7 ta qo'llanma, 2 ta uslubiy qo'llanma hamda lug'at, namunaviy dastur, ma'ruza matnlari, maqola, tezislar shular jumlasidandir.

Turk dunyasi adabiyatcilari ansiklopedisi (Ankara)da 20dan ortiq maqolalari bilan ishtirok etgan.

Bir nafar falsafa doktori (PhD), 18 nafar magistr, 100ga yaqin bakalavr tayyorlagan. Iqtidorli talabalari 4 marta Respublika fan olimpiadasi g'olibi, ikkita talabasi Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi bo'lgan.

2015-yilda "Innovatsiya va axborot texnologiyalarini qo'llaydigan eng yaxshi pedagog" nominatsiyasi bo'yicha "Oliy ta'lim muassasining eng yaxshi pedagogi" Respublika tanlovi g'olibi bo'lgan.



**Yusupova Tursunoy Axmedovna.** 2016-yildan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat olib bormoqda. 2005-yilda "Gapning bosh bo'laklarini o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirishning lingvometodik asoslari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan, hozir "Sintaksisni 5-8-sinf ona tili darslarida morfologiyani takrorlash bilan bog'lab o'rganishning lingvometodik asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda. 2ta darslik, 1ta monografiya, 2ta o'quv qo'llanma, 2ta metodik qo'llanma, 1ta o'quv uslubiy qo'llanma, xorij va respublika nashrlarida e'lon qilingan 80 yaqin ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi.

ISBN 978-9943-5635-7-5



9 789943 563575